

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2022
2-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



*Ma'nnaviy-ma'rify, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:

Sh.U.Yakubov

Oliy ta'lrimi rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tafbiq etish markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rindbosari:

M.X.Esanov

Bosh muharrir:

A.T.Eshmurodov

Bosh muharrir o'rindbosari:

A.A.Sabriyev

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.R.Zaripov

M.Tajjiyev

Sh.A.Rasulov

G.K.Baxodirova

S.Q.Maxsumova

S.S.Samandarovna

O.N.Toshpulatov

S.S.G'oziyev

Sh.Sh.Sabirova

Jamoatchilik kengashi a'zolari:

Q.X.Abduraxmanov

Sh.T.Qudratxo'ja

G.Sh.Rixsiyeva

Sh.S.Sirojiddinov

R.I.Xolmurodov

A.I.Toshpulatov

N.M.Jabborov

M.A.Raxmatullaev

T.Z.Teshabayev

M.Q.Sultonov

Dizaynerlar:

M.Yo'ldashev

Sh.B.Sobirov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Шухрат Якубов.

“Ўзбекистон олий таълим тизимида илм-фан тараққиёти ва унинг истиқболлари” 4

Nilufar Mamatqulova.

“Xorij mamlakatlarida kredit-modul tizimini joriy etishdag'i o'ziga xosliklar hamda tizimni yurtimizda yo'lga qo'yish imkoniyatlari” 9

Мухсинжон Юсупов.

“Узлуксиз ўқув амалиёти даврида талабаларнинг илмий-услубий таъминоти масаласи” 12

Зулфия Отабоева.

“Олий таълим муассасаси талабалари жамоасида ҳамкорлик маданиятини шакллантиришнинг назарий асослари” 16

Лола Наримбаева.

“Талабаларда интеллектуал-ижодий қобилиятни ривожлантиришга оид шарқ ва гарб олимларининг педагогик-психологик қарашлари” 18

Нодирбек Ахмеджонов, Ойдин Оллаярова.

“Эффективное использование мультимедийных технологий в преподавании физики в вузе” 22

Замира Сафарова.

“Таълим мухити мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетентлигини ривожлантириш шарти сифатида” 25

Садоқат Самандарова.

“Инглиз тилшунослиги тарихида эвфемик ва дисфемик ифодаларнинг илк намуналари таҳлили” 29

Санжар Абдурахмонов.

“Демократиянинг гендерлашувида гендер тенгликнинг ижтимоий муносабатлар соҳасида парадигма сифатида кўлланилиши моҳияти ва назарий жиҳатлари” 33

Hurriyat Nuriddinova.

“Topishmoqlarning shakllanish xususiyatlari” 36

Feruza Xomidjonova.

“O'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarining umumiy jismoniy tayyoragarligi dinamikasi ahamiyati” 39

Shahnoza Shoymardonova.

“Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi” 43

Muassislari:
*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi,
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi*

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor
tumani, Shifo nur ko'chasi, 75-uy
Telefon: (71) 207-03-41
e-mail: rmxat@edu.uz

**Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot
agentligidan 2014 yil 26 dekabrda 0506
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.**

*Jurnal har oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida
elektron shaklda chop etiladi.*

"Ta'lif, fan va innovatsiya"
jurnali O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiysi
Rayosatining 2015 yil 18 noyabrdagi
218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 –
PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha,
2018 yil 28 noyabrdagi 247/6-sonli
qarori bilan 23.00.00 – SIYOSIY
FANLAR bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ta'lif, fan va innovatsiya"
jurnalidan ko'chirib bosish faqat
tahririyatning roziligi bilan amalga
oshiriladi. Maqolada keltirilgan
faktlarning to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar
fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnnini esijournal.uz rasmiy
saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni
@esijournalbot telegram botiga yuboring.*

Shokir Maxmudov. “Talabalarning ijtimoiylashuvi va ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslari”	46
Saodat Boybo'riyeva. “Maktabgacha yoshdag'i bolalarining muloqot madaniyatini tarbiyalashda ta'limi o'yinlar”	49
Tursunoy Yandashova. “Joy nomlarining semantik-struktur tasnifi masalasi”	51
Шахло Салимова. “Хавфсиз таълим муҳити ва уни яратишнинг моҳияти”	55
Muhammadali Xakimov. “Oliy ta'lif muassasalarida yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish”	59
Feruza Mardonova. ““Zinama-zina” metodi yordamida talabalarga “Tezlatkichlar fizikasi” mavzusini tushuntirish”	62
Зуҳра Ёқубова. “Использование инновационных методов обучения на практических занятиях по латинскому языку”	64
Mashkhura Tursunova. “The role of critical period hypothesis in second language teaching”	69
Тўлкин Бузруков. “Физикадан масалалар ечишда компетенциявий ёндашувнинг услубий имкониятлари”	72
Gulnara Jumayeva. “Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari”	76
Maftuna Abdumuminova. “Сурхон давлат қўриқхонаси флорасининг камёб ва эндем бирпаллали ўсимликлари”	80
Чарос Байсариеva. “Олий таълимда технологик ютуқлар таҳлили”	83
Sarvinoz Norboyeva, Gulsin O'roqova. “O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari”	86
Фарзона Алимова. “Методические аспекты использования ментальных карт в проективной деятельности”	89
Faxriniso Oxunjonova. “Qo'qon adabiy muhitida zullisonaynlik an'anasi: muqimiy va furqat ijodi misolida”	93

Maftuna G‘ulomova.	
“Fizika o‘qitishni loyihalashda xalqaro baholash dasturlari”	96
Tursunoy Uralova.	
“Lexical-semantic and structural features of emotional relation verbs in english”	98
Dildora Sarimova.	
“D.I.Mendeleyevning davriy qonuni va davriy sistemasi” mavzusini o‘qitishda o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish”	101
Sohiba Abdullayeva.	
“Oliy o‘quv yurti kursantlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy modeli”	104
Рахимберди Ражаббаев.	
“Меҳнат бозорида долзарб бўлган касблар бўйича мутахассислар тайёrlаш омиллари”	107
Durdona Tuxtamisheva.	
“Qashqadaryo viloyatida xalq hunarmandchiligi rivojlanishining tarixiy ahamiyati va dolzarbliji”	113
Шахобиддин Мусаев.	
“Оммавий ахборот воситаларида ўзбек адабий тилининг амалдаги илмий коидалари ва нормаларига риоя қилиниши таҳлили”	115
Farxod Karimov.	
“Axborotlashgan jamiyatda psixologik xavsizlik masalalarining dolzarbliji”	119
Saidjalol Gaziev, Muhammad Yo‘ldoshev.	
“Oliy ta’lim muassasalarining masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan texnologiyalar”	121

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИ ВА УНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Шуҳрат Якубов,

Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари ва
илғор технологияларни татбиқ этиши маркази директори,
юридик фанлар доктори, профессор

Аннотация

Мазкур мақолада Ўзбекистон олий таълим тизимида бугунги ҳолатлар, янгиланиши ва кенг ислоҳотлар илмий нуқтаи назардан таҳлил қилинган бўлиб, Олий таълимни ривожлантириши тадқиқотлари ва илғор технологияларни татбиқ этиши марказининг бу борадаги қўшаётган ҳиссаси кўрсатилган, статистикаси келтирилган.

Калим сўзлар: Марказ, инновация, илғор технологиялар, олий таълим, h-индекс, Scopus, илмий тадқиқот.

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения проанализированы современные положения, обновленные и масштабные реформы в системе высшего образования Узбекистана. Также была продемонстрирована роль и статистика Центра развития высшего образования и внедрения передовых технологий в Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Центр, инновация, передовые технологии, высшее образование, h-индекс, Scopus, научное исследование.

Annotation

In this article it was analyzed scientifically the current positions, renewed and huge reforms in the high education system of Uzbekistan. Also it was demonstrated the part and statistics of the center of Center for the development of higher education and the introduction of advanced technologies in the Ministry of higher education and secondary special education of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: The center, innovation, advanced technologies, high education, h-index, Scopus, scientific research.

Глобаллашаётган дунёда ҳаётни илм-маърифат ва таълимнинг тараққиётисиз тасаввур этиб бўлмайди. Боиси, қайсики соҳада ўзгариш, ривожланиш ва ёки кашфиёт қилинаётган бўлса, унинг моҳияти илм-фанга бориб тақалади. Шунинг учун ҳам жаҳоннинг етакчи давлатлари таълим ва илм-фанни ривожлантиришга биринчи галдаги стратегик вазифа сифатида карайди. Ўзбекистоннинг бу борадаги позициясини эса давлат раҳбарининг қўйидаги сўзлари ифодалайди: “Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни кудратли, миллатни буюк қиласиган куч ҳам бу — илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга берадётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ”.

Сўнгги йилларда таълим тизимида бўй кўрсатаётган ўзгаришлар бу таъкиднинг амалиётдаги ҳаракати, натижадорлигини яққол намоён этмоқда. Биргина фактга эътибор қаратайлик, республикада ўтган беш йилда 22 та хорижий ҳамда 21 та нодавлат олий таълим муассасалари ташкил этилгани, қабул квоталари 3 бараварга ортгани фикримизни далиллайди. Тизимдаги ўзгаришлар қиймати рақамларнинг каттаргани билан ўлчаммайди, албатта. Қачонки, сон ва сифат муштарак бўлсагина, кўзланган мақсадга

эришилади. Шу нуқтаи назардан, бугун ҳар бир олий таълим муассасининг илмий салоҳиятини ошириш, йўналишдаги мавжуд муаммоларга ечим топиш масаласига тизимли ёндашилмоқда.

Очиғини айтиш керак, кейинги беш-олти йилда илм-фан ривожи учун янги давр бошланди. Илм ахлининг игна билан қудук қазищдек машаққатли меҳнати қадр топа бошлади. Илмга эътибор жамият учун икки нарса беради: биринчидан, ижтимоий долзарб муаммоларга илмий, асосланган ечимлар топилиши муддати қисқаради; иккинчидан, ўз соҳаси сир-синоатларидан яхши хабардорлик таълим сифатининг яхшиланишига сабаб бўлади. Яъни натижаси кафолатланган теорема ишга тушади: оқибатлар билан эмас, сабаблар билан курашиш амалиётига ўтилади.

Кувонарлиси, олий таълим муассасаларида илмий салоҳият йилдан-йилга ошиб бормоқда. Жумладан, Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Тошкент давлат аграр университети, Ўзбекистон Миллий университетларида илмий салоҳият 60 фоиздан юкори, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети, Ўзбекистон давлат хореография академиясида, Самарқанд давлат университетлари эса 50 фоиздан юкори кўрсаткичга эга. Афсуски,

мазкур ижобий кўрсаткичлар билан биргаликда 14 та олий таълим муассасасида илмий салоҳият 18 фойиздан 30 фойизгачани ташкил этмоқда. Бу кўрсаткичлар илмий даражага эга профессор-ўқитувчилар нисбатига қараб белгиланади. Олий таълимга қамровнинг кескин ортиши эса мазкур масалада қисқа фурсатда самарали чораларни кўриш лозимлигини тақозо этади. Бу, айниқса, узок йиллар давомида мудрок ҳолатда бўлган кўплаб олийгоҳлар олдига кўндаланг масалаларни қўйди, уларни ён-атрофида кечеётган ислоҳотларга мос, Янги Ўзбекистонга хос фаолият юритишга мажбур қилмоқда. Хусусан, 2021 йилда республика даги олий таълим муассасаларида жами 1765 та докторлик диссертация (1521 та фалсафа доктори (PhD) ва 244 та фан доктори (DSc)) химоялари ўтказилди. Олий таълим муассасаларида химоя кўрсаткичи 2021 йил якуни бўйича 2019 йилга нисбатан 60 фойизга ошди. Диссертация химоялари бўйича Ўзбекистон Миллий университети, Самарқанд давлат университети, Тошкент давлат педагогика университети ва Бухоро давлат тиббиёт институтлари энг яхши натижани қайд этди. Ўтган йилда 10 нафар илмий даражали профессор-ўқитувчига нисбатан химоя кўрсаткичи республика олий таълим муассасаларида ўртacha 1,7 нафарни ташкил этди. Бу борада Термиз давлат университети, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти, Бухоро давлат тиббиёт институти, Тошкент давлат педагогика университети ҳамда Ўзбекистон Миллий университети нисбатан яхши кўрсаткичга эга бўлган. Бирок 2021 йилда бўлган жами диссертация химояларини (1 765 та) олий таълим муассасаларидаги профессор унвонига эга ходимлар (2 657 нафар) нисбатига назар ташланса, бир нафар профессорга битта химоя ҳам тўғри келмагани ойдинлашади. Ваҳоланки, фан доктори бир вақтнинг ўзида 5 тагача изланувчига илмий раҳбар ва маслаҳатчи бўлиши мумкин.

Масалага диссертация химоялари бўйича Илмий кенгашларни кўпайтириш, докторантлар, илмий даражага эга профессор-ўқитувчилар, илмий раҳбар ва маслаҳатчиларнинг масъулиятини ошириш, самарали меҳнатни рағбатлантириш орқали ечим топиш мумкин. Бундан ташқари, ҳар бир олий таълим муассасаси ўзининг илмий салоҳиятидан тўлиқ ва унумли фойдаланиши зарур.

Сўнгги йилларда мамлакатда илм-фан ва тадқиқот ишларига қизиқиши ортди. Боиси соҳага давлат сиёсати даражасида эътибор қаратила бошланди. Шунингдек, янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги Конунда олий таълимдан кейинги таълим – илмий тадқиқот олиб бориш босқичлари ва шакллари – таянч докторантураси, докторантураси, мустақил изланувчилик, илмий даража ва унвонлар бериш масалалари қонун

билан мустаҳкамлаб қўйилди. “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни, Вазирлар Маҳкамасининг “Илм-фан ва таълим соҳасидаги давлат ташкилотларида илмий, илмий-педагогик ва меҳнат фаолияти билан шуғулланувчи илмий даражага эга ходимларга қўшимча ҳақ тўлаш тўғрисида”ги қарори эса илмий-тадқиқотларни рағбатлантиришда янги босқични бошлаб берди.

Хозирда 70 та олий таълим муассасаси ва вазирлик тизимидағи 5 та илмий ташкилотда докторантураси фаолияти йўлга қўйилган. Жорий йилда докторантураси қабул квоталари ўтган йилга нисбатан 100 фойизга оширилди. Айни пайтда олий таълим муассасаларида 5 281 нафар докторант (4 964 нафар таянч докторант – PhD, 317 нафар докторант – DSc) ва 650 нафар стажёр-тадқиқотчи илмий-тадқиқот фаолияти билан шуғулланмоқда.

Кўрсаткичлар таҳлилига кўра, докторантурасида ўз муддатида химоя қилиш кўрсаткичи ўртacha 50 фойизга тенг бўлиб, 8 та олий таълим муассасаларида ўз муддатида химоя қилиш кўрсаткичи ўртacha 70 фойиздан юқори. Чунончи, Термиз давлат университети – 85; Тошкент давлат стоматология институти – 75,8; Наманган мұхандислик-технология институти – 71,2; Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети – 71; Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети – 70,5 фойизни ташкил қилди.

Ютуқлар ўзимизники, лекин соҳадаги камчиликлардан ҳам кўз юма олмаймиз. Афсуски, 6 та олий таълим муассасасида ўз муддатида химоя қилиш кўрсаткичи 20 фойиздан паст.

Шу билан бирга, саноқдан сифат сари тамойилини амалда ҳаракатга айлантириш вақти келди. 2017 йилда диссертациялар химоялари бўйича атиги 32 та Илмий кенгашлар фаолият юритган бўлса, 2021 йилда уларнинг сони 172 тага етди. Шу билан биргаликда, илгор халқаро тажрибалардан келиб чиқсан ҳолда, бир қанча нуфузли олийгоҳлар илмий кенгашларига доцент ва профессор илмий унвонлари, фалсафа ва фан доктори илмий даражаларини бериш ваколатига берилиди.

Илмий даража олиш жараёни бирмунча енгиллаштирилиши сифатга салбий таъсир ўтказмайдими, деган ҳақли савол туғилади. Бирок 2021 йилда 1 762 та диссертация химояси ўтказилди. Илмий кенгашлар сони билан бу рақамлар мувозанати эса мухокамали. Зеро, Кўқон давлат педагогика институти битта кенгashiда 33 та химоя бўлган бўлса, Бухоро давлат университети битта кенгashiда ўртacha 6 та химоя ўтказилган. Бу рақамлардан кўринадики, айрим кенгашлар ҳақиқатдан ҳам фаол, айримлари эса суст ишламоқда. Масаланинг ечими эса яна олий таълим муассасаларининг раҳбарларида қолмоқда. Яъни ҳар бир ректор, проректор фаолияти давомида илмий

кенгаш аъзолари билан яқиндан ишлаши, уларни кийнаётган муаммоларни тинглаш билан чекланмай, ҳал қилишга қўмаклашиши, хисботлардан хабардор бўлиши, сифат ва сон кўрсаткичлари мувозанатини сақлаши лозим.

Давлат раҳбарининг “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ти қарори эса айни масалада янада кенг имкониятларни юзага келтирди. Яъни 2022 йил 1 январдан илмий кенгаш аъзоларининг ярмидан кўпи мазкур кенгашни тузган таълим муассасасида фаолият юритувчи олимлардан иборат бўлиши кераклиги ҳақидаги талаб бекор қилиниб, ҳар бир олий таълим муассасаси кўзга кўринган олимларни жалб этган ҳолда, илмий кенгашларни очиши мумкинлиги белгиланди.

Илмий кенгашлар ишини ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда масофавий шаклда ташкил қилиш имконияти мавжудлиги, худудлар ижтимоий-иктисодий ривожланишида илмий тадқиқотлар ролини кучайтириш учун эндиликда вилоятлардаги олийгоҳларда бундай кенгашлари ишини ташкил қилишга алоҳида эътибор қаратилиши лозим.

Таълим муассасаларида илмнинг улуши орттирилишидан табиийки, мамлакатимизнинг жаҳон саҳнидаги илмий имижи ҳам ортиб боради. Бу имижнинг қиймати эса олий таълим муассасаларининг QS (Quacquarelli Symonds) ва Times Higher Education (THE) ҳалқаро рейтинг ташкилотларининг 1000 та энг яхши олийгоҳлари қаторига кириши билан ўлчанади.

Шунингдек, дунёнинг энг яхши олийгоҳлари қаторида бўлиш учун сўнгти беш йилда ҳалқаро илмий-техникавий маълумотлар базасининг индексланган илмий журналлари профессор-ўқитувчиларнинг нашр қилинган илмий мақолалари мавжудлиги ҳам инобатга олинади. Бундан ташқари, Хирш индекси (h-индекс) дунёда тадқиқотчilarни илмий ташкилотда доимий иш билан таъминлаш масаласини ҳал қилишда ёрдамчи омиллардан бири бўлиб келмоқда.

Айни масалалар юзасидан қилинган ишлар натижаси ўлароқ, 2021 йилда олий таълим муассасаларида “Scopus” ҳалқаро илмий-техник маълумотлар базасида индексланувчи нуфузли ҳалқаро илмий журналларда 3 389 та мақола нашр этилди. Мақолалар сони 2019 йилга нисбатан 2,6 баробарга ўсган. Аммо “Scopus” ҳалқаро илмий-техник маълумотлар базасидаги илмий журналларда чоп этилган мақолалар сони 100 нафар профессор-ўқитувчilarга нисбатан нисбатан ўртача 10 тани ташкил этгани ҳолда, 25 та олий таълим муассасасида бу кўрсаткич 3 тага ҳам етмайди.

Муаммо мавжудки, унинг ечими ҳам бор. Ушбу масалани ҳал этишнинг биринчи босқичи, аввало,

олий таълим муассасаларида тегишли фан тармоғи бўйича ҳалқаро тан олинган илмий журналлар (Q1, Q2 кварталли) рўйхатини шакллантириш ва улар билан ҳамкорлик алоқаларини кучайтириш керак. Шунингдек, нуфузли ҳалқаро илмий журналларда мақола нашр этишга доир маҳсус амалий семинар-тренингларни кўпайтириш, мақола нашр этган муаллифларни рағбатлантириш механизмларидан самарали фойдаланиш зарур. Энг муҳими, ҳар бир жараён олийгоҳ ректори, Илмий кенгашининг доимий назоратида бўлиши шарт.

Яна бир муҳим ташабbus: олий таълим муассасалари илмий журналларининг Scopus, Science Direct ва бошқа ҳалқаро илмий-техник маълумотлар базаларига босқичма-босқич киритилишини таъминлаш лозим. Бу борада илк қадамлар ташлангани бизни қувонтиради. Жумладан, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университетининг “Bulletin of National University of Uzbekistan: Mathematics and Natural Sciences” илмий журнали, Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университетининг “Technical science and innovation” ва “Chemical Technology, Control And Management”, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети “Irrigation and Melioration”, Тошкент кимё-технология институтининг “Chemistry and chemical engineering” илмий журналлари “Scopus” ҳалқаро илмий-техник маълумотлар базасида индексация қилиниши учун ариза берган. Айни масалада 5-6 йил мuddатда 35 та илмий журналларни нуфузли ҳалқаро базаларга киритиш режалаштирилмоқда.

Албатта, илм-фанни қўллаб-кувватлаш бевосита маблағга бориб тақалади. Бу хусусда, олий таълим тизимида ижобий натижаларга эришилди. Умумий қилиб айтганда, давлат илмий-техник дастурлари доирасида 2021 йилда олий таълим муассасаларида умумий маблағи 165 млрд 445 минг сўм бўлган 403 та илмий лойиҳа бажарилди. Бу лойиҳаларнинг 59 таси фундаментал, 193 таси амалий, 101 таси инновацион ҳамда 50 таси ёш олимларнинг фундаментал, амалий ва инновацион лойиҳаларидир.

Молиявий тушумлар хисботига кўра эса 2021 йилда олий таълим муассасаларидағи 1 нафар профессор-ўқитувчига нисбатан илмий лойиҳалардан тушган маблағлар ўртача 5 млн. сўмдан тўғри келмоқда. 22 та олий таълим муассасаси бу борада юкори кўрсаткичларга эришган бўлса, афсуски, 32 та олий таълим муассасалари ва филиалларда давлат дастури доирасидаги илмий лойиҳалардан молиявий тушумлар мутлақо бўлмаган. Ҳалқаро илмий-амалий лойиҳалардан тушган маблағ эса 1 нафар профессор-ўқитувчига нисбатан ўртача 935 АҚШ долларни ташкил қилди.

Энг яхши натижаларни Тошкент ахборот технологиялари университети, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Наманган мұхандислик-технология институти, “Тошкент ирригация ва қишлоқ хұжалигини механизациялаш мұхандислари институти” Миллий тадқиқот университети, Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети қайд этган.

Юқоридаги рақамларда яна мувозанат бузилганиң гувох бўлиш мумкин. Яъни қайсиdir олийгоҳ маблағлар айланмасини ташкил этишда яхши натижаларга эришган, айримларида мутлақо натижа мавжуд эмас. Натижа йўқ бўлган олий таълим муассасалари илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректорлари, ишланмаларни тижоратлаш бўлимлари нима иш қилмоқда? Олийгоҳ раҳбарияти уларнинг иши билан қизиқадими? Бу саволларга ҳар бир ректор жавоб то-пиши лозим.

Шу билан бирга, республикада 15 та олий таълим муассасасида мавжуд бўлган 39 та илмий лаборатория имкониятларидан унумли фойдаланиш зарур. Олий таълим муассасаларида илмий фаолият инфратузилмасини такомилластириш мақсадида 7 та олий ўқув юртлариаро илмий лабораторияларини ташкил этиш ва босқичма-босқич жиҳозлаш ишлари амалга оширилмоқда. Бу масалаларга Жаҳон банки билан ҳамкорликдаги лойиҳа доирасида 10,3 млн. АҚШ доллари сарфланди. Айни пайтда, олийгоҳларнинг ўзи ҳам замонавий лабораториялар ташкил этишга ҳаракат қилмоғи зарур. Бугунги кунда, молиявий мустақиллик берилган 35 та олий таълим муассасаларидан 9 тасида илмий лабораториялар фаолияти йўлга кўйилган.

Илмий лабораторияларни аккредитацияга тайёрлаш, лаборатория хизматларини кенгайтириш орқали олий таълим муассасалари нафақат сифатли илмий тадқиқот ўтказиш, балки қўшимча молиявий маблағларни топиш имкониятига ҳам эга бўлишади. Лабораторияларни ташкил этиш ва фаолиятини ривожлантириш мақсадида олий таълим муассасаси ҳар йили маблағлар ажратишни таъминлаши керак.

Инсон тафаккури ва изланишлари маҳсулни бўлмиш интеллектуал мулк самарасини бугун барча жабҳада кўриш мумкин. Бинобарин, ҳозир фойдаланилаётган замонавий технологиялар, умуман, кундалик эҳтиёжимиз қаноати ана шу салоҳият билан чамбарчас боғлиқ. Илм-фан ва инновацияни ривожлантириш, бу соҳадаги ютуқларни қийматли маҳсулотга айлантириш мухим кўрсаткич ҳисобланади. Дунёда товарларнинг бренд қиймати юқори ҳисобланади. Интеллектуал мулк Европада ялпι ички маҳсулотнинг 45, Хитойда 12, Россияда 7 фоизини ташкил этади.

Олийгоҳлар томонидан интеллектуал мулк обьектларига олинган гувоҳномалар сони 2021 йилда 2019 йилга нисбатан 3,8 марта ошган, 1819 та патент (жумладан, 226 та ихтиро, фойдали модель учун патент,

1593 та дастурий маҳсулотлар учун гувоҳнома) олинган. Олий таълим муассасаларида олинган патент ва гувоҳномалар ҳар 100 нафар профессор-ўқитувчига нисбатан ўртача 8 тадан тўғри келади.

Худудларда “фан – таълим – ишлаб чиқариш” интеграциясини таъминлаш мақсадида 23 та олий таълим муассасасида Технологиялар ва инновацияларни кўллаб-куватлаш марказлари фаолиятини йўлга кўйилиши эса айни муддао бўлди. Боиси марказлар профессор-ўқитувчиларга интеллектуал мулк обьектларига доир гувоҳномаларни олишда бевосита ёрдам беради, кўмаклашади.

Иқтисодий ўсишда илмий лойиҳалар билан бир қаторда стартап лойиҳаларни ривожлантириш катта аҳамиятга эга. Масалан, бу соҳага 2019 йилда АҚШда 158 млрд., Хитойда 110 млрд., Ҳиндистонда 27 млрд., Буюк Британияда 23 млрд. ва Исломияда 18 млрд. АҚШ доллари сарфлаган. Ажратилган маблағлар ҳисобига биргина АҚШда 7568 та, Буюк Британияда 1570 та, Хитойда 1505 та ва Ҳиндистонда 798 та янги стартап лойиҳалари амалга оширилган.

Шу маънода, Ўзбекистонда стартап лойиҳаларини ривожлантириш ва бу орқали республиканинг жаҳон стартап бозоридаги нуфузини ошириш мухим аҳамиятга эга. Яқин вақтгача талабалар ўз фояларини лойиҳага айлантириш учун маслаҳат ва кўрсатма бериб борадиган стартап платформа, ментор ва мураббийлар ёрдамида ишлаш имконияти йўқ эди. Лекин бугунги кунда ИТ парк ва олий таълим муассасаларининг ўзаро ҳамкорлиги туфайли талабалар инкубация марказларида таълим олиш имкониятига эга бўлишди.

2021 йилда 14 та олий таълим муассасаси ҳузурида “Бизнес-акселераторлар” фаолияти йўлга кўйилди ва ушбу олийгоҳларда “Инкубация марказлари” ташкил этилди. Ҳозирда республикадаги 40 та олий таълим муассасасида жами 47 та “Инкубация марказлари” фаолият юритмоқда. Колган олий таълим муассасаларида “Инкубация марказлари”ни ташкил этиш ишлари амалга оширилмоқда.

Инкубация марказлари талабалар учун турли хил консультация, мусобақа, ҳакатон ва семинарлар ўтказади. Ёшларга бошланғич экотизим ҳақида асосий билимларни бериш билан бир қаторда, уларга ўзларини ахборот технологиялари соҳасида тадбиркор сифатида намоён этишига ёрдам беради.

Хукумат қарори билан ҳар йили Innoweek – халқаро инновацион кўргазмасини ташкил этиш белгиланган. «Innoweek – 2021» кўргазмаси доирасида олий таълим муассасалари 202 та ишланма билан кўргазмада иштирок этди. Жумладан, «Тошкент ирригация ва қишлоқ хұжалигини механизациялаш мұхандислари институти» Миллий тадқиқот университети – 24 та, Тошкент давлат транспорт университети – 23 та, Тошкент давлат техника университети – 22 та,

Наманган мұхандислик-технология институти – 20 та, Қарши мұхандислик-иктисодиёт институти – 17 та, Бухоро мұхандислик-технология инситути – 15 та, Тошкент давлат иқтисодиёт университети – 12 та, Тошкент ахборот технологиялар университети Қарши филиали - 9 та, Урганч давлат университети – 8 та ишланмалар билан иштирок этган.

Табиий савол туғилади, нима учун колған олий таълим муассасалари иштирок этмади? Нега уларда күргазмага тақдим этиладиган ишланмалар йўқ? Улар ишлаб чиқарган маҳсулотлар реал иқтисодиёт учун аҳамиятлами? Инкубация марказлари айни саволларга жавоб топиши, уларнинг ечими бўйича асосли чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиши керак.

Мамлакатимизда илм-фани, илмий-тадқиқот муассасалари ва инновацион фаолиятни ривожлантириш билан боғлиқ механизмнинг барча босқичлари самарали ишлаши учун имкониятлар яратилган. Эндиғи мұхим вазифа улардан унумли фойдаланиб, илмий қашфиётлар қилиш, ўзбек илм-фанини дунё бўйлаб оммалаштиришдан иборатдир. Бунинг учун бир нечта масалаларга жиддий эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқ.

Аввало, илмий тадқиқот соҳасида олий таълим муассасаларининг халқаро алоқаларини, халқаро илм-фан билан ўзаро интеграциясини кучайтиришимиз зарур. Бунда докторант ва тадқиқотчиларнинг хорижда малака оширишини кенгайтириш, нуфузли халқаро журналларда мақолалар эълон қилишни кўпайтириш, олий таълим муассасаларига малакали хорижий мутахассисларни кенг жалб этиш мұхим аҳамият касб этади.

Илмий тадқиқот мавзуларини танлашда ҳар бир ҳудуднинг ўзига хослигини инобатга олиш, илмий ишнинг тармоқ ва ҳудудлардаги аниқ муаммолар ечимиға қаратиш, тадқиқот натижаларини тижоратлаштиришга эътибор қаратишимиш зарур.

Докторантларнинг бошқа ҳудудлардаги лабораторияларга тадқиқот ўтказиш, турли илмий анжуман-

ларда иштирок этиш (транспорт, туар жой, яшаш) ва тадқиқот ўтказиши харажатлари учун олийгоҳларга бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан тўловларни амалга ошириш ҳуқуқини бериш ҳам бугунги кунда долзарб масала бўлиб қолмоқда.

Шу билан бирга, ёш олимларни туар жой билан таъминлаш тизимини янада яхшилаш лозим. Бунинг учун Тошкент шахри ва вилоятлар марказларида “докторантлар уйлари”ни ташкил қилиш, ёш олимлар учун ижара тўловининг бир қисмини давлат томонидан қоплаб бериш, докторантларга уй-жой сотиб олиш учун ипотека кредити бўйича дастлабки бадал ва фоизларнинг бир қисмини қоплашга субсидиялар ажратиш масалаларини кўриб чиқиши мақсадга мувофиқ.

Мутахассислик кафедралари томонидан илмий инновацион фаолият натижасида ишлаб топилган маблағларнинг камида ярмини мустақил равища, жумладан, кафедра аъзоларининг хорижий сафарларини ташкил этиш, уларни моддий рағбатлантириш, стартапларни молиялаштириш, ёш олимларга грантлар ажратиш, лабаратория ва компьютер техникаси жиҳозларини харид қилиш учун сарфлаш тизимини жорий қилиш даркор.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсад йўлида олиб борилаётган чора-тадбирларни илм-фанга эътибор ва инновацияларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Айнан таълим, фан ва инновацион фаолиятни ривожлантириш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, илмий-тадқиқот муассасаларини модернизация қилиш, замонавий инновацион технологияларни иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳага жадал татбиқ қилишни ривожлантириш мамлакатимизнинг етакчи давлатлар қаторидан ўрин олиши, халқаро рақобатбардошликка эришиш, аҳоли фаровонлигини таъминлашда мұхим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Шавкат Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижсаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
2. Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократии Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиши тантанали маросимига бағишиланган Олий Мажлис палаталарининг қўйушма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
3. Шавкат Мирзиёев. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундаклик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришининг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг мұхим устувор ўйналишларига бағишиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.
4. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлнимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
5. 2022 – 2026 ЙИЛЛАРГА МЎЛЖАЛЛАНГАН ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ ТЎҒРИСИДА. <http://lex.uz/docs/5841063>
6. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришининг бешта устувор ўйналишлари бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>

XORIJ MAMLAKLARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISHDAGI O'ZIGA XOSLIKlar HAMDA TIZIMNI YURTIMIZDA YO'LGA QO'YISH IMKONIYATLARI

Nilufar Mamatqulova,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O'zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida kredit-modul tizimini joriy yetish shart-sharoitlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, bu jarayonni amalgal oshirishda qo'llash mumkin bo'lgan xorij tarjibalari, metodologik tavsiyalar, jarayonni sohaga singdirish yo'naliishlari kabi masalalar tahlil etiladi. Shuningdek, kredit-modul tizimini yo'lg'a qo'yishda oldindi tizimga nisbatan erishiladigan ijobjiy jihatlar muhokama etiladi hamda tegishli xulosa va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Kredit-modul, xorij tarjibasi, OTM, pedagogika, ta'lif, Bolonya, standart, vazifa, bursh, huquq, metod.

Аннотация

В данной статье описаны условия внедрения кредитно-модульной системы в систему образования Республики Узбекистан, а также проведен анализ таких вопросов, как зарубежный опыт, даны методические рекомендации, направления процессной интеграции при реализации данного процесса. Кроме того, будут обсуждены положительные стороны кредитно-модульной системы по сравнению с предыдущей системой, даны соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: Кредитный модуль, зарубежный опыт, вуз, педагогика, образование, Болонья, стандарт, задание, обязанность, закон, метод.

Annotation

This artisle dessribes the sonditions for the introduction of sredit-module system in the yedusation system of the Republic of Uzbekistan, as wyell as an analysis of issuyes such as foreign yexperience, methodologisal resommendations, areas of prosess integration in the implementation of this prosess are given. In addition, the positive aspects of the sredit-module system sompared to the previous system will be dissussed, and relevant sonslusions and resommendations will be given.

Keywords: Sredit module, foreign yexperience, HEI, pedagogy, yedusation, Bologna, standard, task, duty, law, method.

O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyati nigohida rivojlanayotgan va kelajagi porloq mamlakat sifatida ko'zga tashlanmoqda. O'zining kelajagi ushun mustahkam poydevor qurish va keljak avlodning bilmli, har tomonlama yetuk bo'lib yetishishini ta'minlash maqsadida mamlakat ta'lif tizimida ko'plab islohot va o'zgarishlar amalgal oshirib kelmoqda. Jumladan, 1999-yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o'rtasida imzolangan Bolonya deklaratsiyasiga O'zbekistonning qo'shilishi va ta'lif tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish borasida ishlarni boshlab yuborilishiga asos bo'ldi.

Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida dunyoning 48 ta mamlakati ishtirok etmoqda. Ularning orasida MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Belarus Respublikalari ham bor. Markaziy Osiyo mamlakatlari ishida Qozog'iston Respublikasi 2010-yilda Bolonya deklarasiyasiga qo'shildi va u mazkur hududda yagona bo'lib turibdi.

Bolonya jarayoni – bu Yevropa mamlakatlari orasida oliv ta'lifni uyg'unlashtirish jarayonidir. U tushunish oson bo'lgan va o'xshash oliv ta'lif darajalar tizimini yaratishni, ta'linda kredit-modul tizimiga o'tishni, ta'lif sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va

Yevropadagi ta'lif hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Yevropa mamlakatlarining oliv ta'lif tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi ushun teng ravishda ta'lifni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakkantirish va mustahkamlash, ta'lif sifatini takomillashtirish jarayonidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sون Farmoni mamlakatimizning oliv ta'lif tizimida yangi davrning boshlanishiga va tizimga bir qator yangiliklarning kiritilishiga asos bo'ldi [1]. Ushbu Farmonda quyidagilar belgilab berilgan:

- Respublikadagi kamida 10 ta oliv ta'lif muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliv ta'lif muassasalarini ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliv ta'lif muassasalarini ro'yxatiga kiritish;

- oliv ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini bosqicha-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;
- xalqaro tajribalardan kelib shiqib, oliv ta'lifning

ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizi-miga bosqichma-bosqich o‘tish va boshqalar.

Professor Ulug‘bek Azizov o‘zining “Kredit-modul tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasida, TDIU “Universitet 3.0” xalqaro o‘quv, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi direktori, i.f.d., dotsent Sh.Mus-tafaqulov va TDIU Ta’limning kredit tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i, PhD. M.Sultonovlar “Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik” nomli maqolasida kredit-modul tizimini joriy etishning ahamiyati va afzalliklari haqida o‘z fikrlarini bayon etib, xulosa va takliflarini berishgan [2, 162].

Ayni paytda Belgiyada korporativ ijtimoiy mas’uliyat va barqaror rivojlanish bo‘yicha mutaxassis, “NewLinks Global” konsaltingi hamkor, “Buyuk kelajak” kengashi eksperti Malika Sharipova O‘zbekiston oliv ta’lim tizimida Bolonya jarayonining maqsadlarini amalgaga oshirishga doir o‘z fikrlarini UzAnalytics.com tahliliy saytida bayon etib, Bolonya jarayoniga qo‘shilish shartlari va mavjud to‘siqlar, jarayonga qo‘shilishi O‘zbekiston uchun qanday imkoniyatlarni berishi haqida fikrlarini bildir-gan. Rossiyalik olimlardan A.A.Timofeyev, N.A.Ushko, M.A.Yarifa “Кредитно-модулная система обучения” nomli maqolasida kredit-modul tizimi haqida batafsil bayon qilishgan [3, 110].

2021-yil 13-noyabr kuni oliy ta’lim vaziri Abdugodir Toshqulov rahbarligida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, kredit-modul tizimini tatbiq etishdagi muammolarga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda vazir OTMlardagi besh asosiy muammoni sanab, o‘quv rejalarini TOP-500 talikka kirgan universitetlar o‘quv rejalarini asosida jiddiy ko‘rib shiqish kerakligi, 100-500 kishi o‘tirib o‘qiydigan auditoriyalar bilan dars soatlarini muvofiqlashtirish kerakligi, bu ham xorijiy tajriba ekanligini aytib o‘tdi [4, 166].

Kredit-modul tizimi dunyoning ko‘plab ilg‘or va rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida joriy etilgan bo‘lib, turli davlatlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kredit-modul tizimining maqsadga muvofiq ekanligi uning dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimiga joriy etilganligidan ham ko‘rinib turibdi. Ushbu tizimda ta’lim dasturlarning talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilib, ularda ijodiy faoliyoti va bilim olishga intilishni, adabiyotlar va turli axborot manbalariдан mustaqil foydalanish ko‘nikmasini, ma’lumotlarni tahlil qilish va keraklilarini saralab olish malakasini shakllantiradi. Bu yesa ta’lim sifati va samaradorligining oshirishdagi muhim faktorlardan biridir.

Hozirda, YESTS tizimida faoliyat yuritadigan ko‘p xorijiy davlatlarda kreditlarning fan va modullar bo‘yicha taqsimoti 5, 6, 7,5 kreditni tashkil etadi [5]. Bunda nima uchun kreditlar aynan shu kombinatsiyalarda taq-

simlanyapti degan savol tug‘ilishi mumkin. Kreditlarni bu miqdorlarda taqsimlash talabaga semestr davomida 6, 5 yoki 4 ta modul o‘qish imkonini yaratadi. Qolaversa, bu sonlardagi kreditlarni boshqa kredit-modul tizimlariga konvertatsiya qilish ham ancha oson kechadi. Masalan, 6 YESTS kreditli modul, odatda, Amerika universitetlari ning 3 kreditlik modullariga, Buyuk Britaniya universitetlarining 12 kreditli modullariga teng.

Kredit-modul tizimining vazifalari:

- O‘quv jarayonini modul asosida tashkil etish;
- Bitta fan, kurs qiymatini aniqlash;
- Talabalar bilimini reyting asosida baholash;
- Ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulu-shini oshirish.

Modular bo‘limgan taqsimot. Modular bo‘limgan taqsimot usulida kreditlar o‘quv dasturidagi har bir modulga turlicha miqdorlarda taqsimlanadi (masalan, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 15). Taqsimotning bu usuli afzalliklari quyidagi-cha: unda kreditlarni fanlarning ahamiyati va yuklamalari ga qarab turlicha sonlarda taqsimlash imkoniyati mavjud. Modular bo‘limgan taqsimot usuli kredit taqsimotining pastdan tepaga yo‘naltirilgan, ya’ni “bottom up” (bottom up) usuli deb ham ataladi [6]. Buning sababi bunday: taqsimotda asosiy e’tibor fan va modullarning o‘quv dasturidagi ahamiyatiga qaratiladi va taqsimot shu markazdan boshlanadi.

AQSh kredit-modul tizimi jahonda eng birinchilardan joriy etilgan kredit-modul tizimi sifatida dunyo davlatlari va shu bilan bir qatorda, Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Mana bir asrdan ortiq vaqt o‘tibdiki, Amerika Qo‘sma Shtatlari tadqiqot va texnologik innovatsiyalar bo‘yicha, balki oliy ta’lim sohasida ham dunyoda yetakchi o‘rinnlarni egallab kelmoqda. AQShning fan va oliy ta’lim bo‘yicha olib borayotgan tizimi dunyoning eng qudratli tizimlaridan biriga asoslangan. Ushbu tizim Garvard, Berkli, Stenford, Priston, Yel, Massachusetts Texnologiya instituti, Kolumbiya, Kornell – eng nufuzli oliy o‘quv yurtlari, dunyoning yetakshi universitetlari bitiruvchilarini va xodimlari tomonidan minglab ilmiy kashfiyotlar sabab xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi [7, 161].

Mamlakatda yuritilayotgan ta’lim tizimining eng asosiy xususiyati – bu davlat darajasida ta’limni markazlashtirishdir. Ta’lim siyosatining deyarli barcha masalalari ushbu darajada hal etiladi. Oliy o‘quv yurtlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish ushun mas’ul bo‘lgan 60 ga yaqin mustaqil agentliklar mavjud. Ta’lim muassasalarining deyarli barcha muammolarini muassasa joylashgan davlat hukumati hal qiladi. Ammo, AQSh Ta’lim vazirligi tomonidan moliyalashtiraladigan maxsus federal dasturlar ham ishlab chiqilgan.

AQSh oliy ta’lim tizimi uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga olgan anglo-sakson modeli asosida tashkil etilgan [8]:

1. Bakalavriat.
2. Magistr.
3. Doktorlik.

Ushbu ta'lif modelining birinchi bosqichida talaba 4 yil sarf qiladi, natijada, unga san'at bakalavri yoki fan bakalavri darajasi beriladi. AQSh oliv ta'lif muassasalarida o'qitish kredit-modulli yondashuv asosida qo'llaniladi: dasturning umumiy o'quv rejasi fanlarga bo'linadi, ularning har biri uchun talaba ma'lum miqdorda "kredit" oladi. Bakalavr darajasini olish uchun talaba kamida 120 ta kredit to'plashi kerak. Kreditlar darsga qatnashgani, laboratoriya ishlarini muvaffaqiyatlari bajargani, seminar va o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok etgani, kurs ishlarini o'z vaqtida topshirgani, referat yozganligi va boshqalar uchun beriladi. Kerakli minimal kreditlardan tashqari, har bir AQSh universiteti o'zining o'rtacha o'tish ballari (GPA) mavjud. Universitet qanchalik obro'li va talabchan bo'lsa, GPA shuncha yuqori bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, Qo'shma Shtatlarda o'qishning Pathway dasturi kabi xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Bunday tayyorgarlik dasturlari dastlab Amerika Qo'shma Shtatlardagi ta'lifni tushunishga qynaladigan chet elliklarga mo'ljallangan. Pathway – bu to'g'ridan to'g'ri bakalavr dasturining ikkinchi yiliga olib boradigan tayyorgarlik dasturi.

Kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining quyi-dagi shakllaridan tashkil topadi:

- auditoriya mashg'ulotlari – ma'ruba, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv (klinik) amaliyoti;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – ilmiy kutubxonada ishslash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lif oluvchilarining ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassisliklari ilmiy faoliyat turlari va boshqalar.

Odatda, kredit ta'lif oluvchi tomonidan o'quv rejasi bajarilishining ko'rsatkichi bo'lib, tegishli o'quv ishlarini bajarishga ketadigan vaqt (soat)lardan tashkil topadi. Bu modul xususiyati va bo'lajak mutaxassisni shakllantirish uchun o'quv ishlarining muhimligidan kelib chiqib ta'lif muassasasi tomonidan belgilanishi mumkin. Har bir modul mustaqil kreditga ega bo'ladi.

Bugungi kunda oliv ta'lif muassasalarida yangi avlodli kredit-modul tizimini joriy etish davr talabiga aylanib bormoqda. Bu tizim oliv ta'lif muassasalari bitiruvchilarining akademik va kasbiy harakatchanligi, o'quv

kurslari va fanlarning mehnat zinchligi, ortiqcha yuklama va bilimlarni o'zlashtirishning intensiv usullarini joriy qilishni nazarda tutadi.

Ushbu tizim, shuningdek, ta'lifning loyihaviy shakli shaxsni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Asosan, talabalarning qobiliyati, shuningdek, ijodkorligini oshib borishiga xizmat qiladi. Bugungi zamonaviy sharoitda, ya'ni texnika rivojlangan davrda talabchan, kompetentlik va kreativ xususiyatga ega shaxsni o'qitishga imkon bera-digan tizim hisoblanadi.

Oliv ta'lif tizimida:

- Respublikamiz oliv ta'lif tizimiga kredit-modul tizimini joriy etishda millatimizning o'ziga xos xususiyatlari va milliy mentalitetni e'tiborga olish lozim;

- bu tizimni joriy etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, tahlil qilish asosida ulardan samarali foydalanish kerak;

- fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda, kredit-modul tizimiga joylashtiriladigan fanlarning metodik ta'minotini yaratish, yaratilganlarini tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini tezda ishlab chiqish zarur;

- shaffoflikni ta'minlashga, ya'ni talabalarning ta'lif jarayonlariga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni talabalgara oldindan aniq, tushunarli, to'liq va shaffof tarzda yetkazishga alohida e'tibor qaratish;

- ta'lif dasturiga muvofiq majburiy o'qitiladigan va tanlov asosida o'qitiladigan fanlar, ularning mazmun-mohiyati, talabaga bilimlarni o'rganishga qo'yiladigan talablar yoki baholash mezonlarini va dars o'tuvchi professor-o'qituvchilar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Takliflar:

- kredit-modul tizimi bilan tanishtirish va bu tizimda faoliyat yuritish asoslari haqida OTM professor-o'qituvchilari va talabalar bilan doimiy tarzda treninglar, seminarlar, master-klass va babs-munozaralar uyushtirib borish;

- OTMlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish va hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- kredit-modul tizimida talabalarning vazifalari, burch va huuqlari haqida maxsus qo'llanma tayyorlash;

- kredit-modul tizimi, uning mazmun-mohiyati, o'qish jarayonining borishi, baholash tizimi haqida ota-onalar uchun qisqa yozma ma'lumotnomalar tayyorlash va ota-onalarga yetkazish, ular bilan uzlusiz muloqotda bo'lib turish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Olyi o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TKTI, 2020. –188.

3. Давыдовова О.В., Звонников В.И., Чельшикова М.Б., «Методические рекомендации по внедрению в ВУЗе системы зачётных единиц (кредитов)», Москва, 2010. –311.

4. Hasanova M.U., Jumanova M.G'. Kredit-modul tizimi va uning amaliyotgajoriy etish tamoyillari (oliy ta'lim muassasalarida matematika o'qitishda). – «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal – (3) III/2020. –340.

5. Рослякова Е.М., Бисерова А.Г., Хасенова К.Х., Байболатова Л.М. Модульная система обучения-опыт и перспективы. – Posted September 25th, 2014 by kaznmu & filed under Английский, Инновационные методы обучения. <https://kaznmu.kz/press/2014/09/25/%D0%BC%D0%BE%>

6. Sharipova M. Bolonya jarayoni nima? – <https://uzanalytics.com/jamiyat/%d0%b1%d1%83%d1%8e%d0%ba-d0%ba%d0%> (Manbaaga 23.09.2020-yilda murojaat etilgan).

7. Azizov U. Kredit-modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. – http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?SECTION_ID=161&ELEMENT (Manbaaga 24.09.2020-yilda murojaat yetilgan).

8.Iclass.ru

9.edusteps.com.uz сайти материалларидан олинди. 7. Azizov U. Kredit-modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. – http://uzbekistonovozi.uz/uz/artisles/index.php?SECTION_ID=161&ELEMENT (Manbaaga 24.09.2020-yilda murojaat yetilgan).



УЗЛУКСИЗ ЎҚУВ АМАЛИЁТИ ДАВРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ИЛМИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИ МАСАЛАСИ

Мұхсинжон Юсупов,
Кўқон ДПИ катта ўқитувчisi.

Аннотация

Мақола “Бошлангич таълим” йўналиши талабаларининг ўқув амалиётини ташкил этиши ва ўтказилиши жараёнида уларнинг илмий-услубий таъминоти масаласига багишланган. Унинг долзарбилиги шундан иборатки, бўлажасак ўқитувчи илк педагогик фаолият билан танишаётганда унинг учун зарур илмий-услубий манбаларга эҳтиёж сезади. Аксарият талабалар педагогика колледжларини тамомламагани ва педагогик билимга эга бўлмаганлиги, асосий мутахассисликка оид фанлар 2-3-курслардан бошлаб ўтилишии сабабли амалиёт даврида илмий ва услубий таъминотга эҳтиёж сезадилар.

Калим сўзлар: педагогик таълим, педагогик амалиёт, ўқув амалиёти, педагогик фаолият, амалиётчи-талаба, касбий-педагогик фаолиятга тайёрлик, илмий-услубий таъминот.

Аннотация

Данная статья посвящена научно-методическому обеспечению студентов направления “Начальное образование” в процессе организации и проведения учебной практики. Его актуальность заключается в том, что при знакомстве с первой педагогической деятельностью, будущему учителю необходимы определённые научно-методические ресурсы. Многие студенты поступают в ВУЗ не после окончания педагогических колледжей и не обладают педагогическими знаниями. Дисциплины основной специальности начинаются со 2-3 курсов и в период учебной практики большинство студентов испытывают потребность в научно-методической поддержке.

Ключевые слова: педагогическое образование, педагогическая практика, учебная практика, педагогическая деятельность, студент-практикант, подготовка к профессионально-педагогической деятельности, научно-методическое обеспечение.

Annotation

The article is devoted to the scientific and methodological support of students of “Primary Education” in the organization and conduct of internships. Its relevance is that when a future teacher becomes acquainted with the first pedagogical activity, he feels the need for the necessary scientific and methodological resources. Most students do not have a degree in pedagogical colleges and do not have pedagogical knowledge, and the need for scientific and methodological support during the internship due to the fact that the main specialties are taught in 2-3 courses.

Keywords: pedagogical education, pedagogical practice, teaching practice, pedagogical activity, teacher-student, preparation for professional-pedagogical activity, scientific-methodical support.

Олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини сифат жиҳатдан мустаҳкамлаш ва такомиллаштириш, уларни замонавий ўқув ва илмий-лабо-

ратория жиҳозлари билан таъминлаш, таълим стандартларини ривожланган мамлакатлар талаблари даражасига tenglashтириш, назария билан амалиёт-

нинг узвийлигини таъминлаш педагогик кадрлар тайёрлашдаги ракобатбардошликтин оширади. Шу ўринда педагогика олий ўқув юртларидағи педагогик (малакавий) амалиёт назария ва амалиёттинг узвийлигини таъминлаш воситаси бўлиб, ОТМ ўқув режасида таълим йўналишлари бўйича аниқ белгилаб берилган ва бажарилиши шарт бўлган, узлуксиз давом этадиган таълимнинг касбий фаолият билан узвий боғлик шакли ҳисобланади. Унинг қай даражада ташкил этилиши талабанинг ўз касбига бўлган меҳрини ошириб, келажакда касбий фаолият билан боғлик тўсиқларни енгид ўтишига асос бўлиб хизмат қиласди [4, 19].

Педагогик (малакавий) амалиёт педагогика олий ўқув юртларида 2020 йил ўқув режасига мувофиқ узлуксиз 1-, 2-, 3-, 4-курсларда амалга оширилади. Амалиёт давомида талаба касбга оид дастлабки педагогик маҳорат, таълим муассасаси фаолияти, педагогик фаолият, педагогик тажрибалар билан танишади ва педагогик билим, кўникма ва малакаларни эгаллади [5, 6].

Педагогика таълим муассасаларининг педагогик амалиёти умумий қилиб малакавий амалиёт дейилса-да, у курслар бўйича ташкил қилиш мазмуни ва вазифасига кўра турларга бўлинади. Педагогик адабиётларда педагогик (малакавий) амалиётни кўйидаги турларини учратиш мумкин: ўқув (ўқув-танишув), психологик амалиёт 1-курс 2-семестрда, ўқув (касбий кўникма ва малакаларни эгаллаш бўйича) амалиёти 2-курс 4-семестрида, ишлаб чиқариш, илмий-тадқиқот амалиёти 3-курс 6-семестрида ва 4-курс 8-семестрида ўтказиладиган педагогик (диплом олди) амалиёти [3, 7].

Амалиёттинг илмий-услубий таъминоти узлуксиз ва изчил ташкил этилган ўқув жараёни сифатида аҳамиятга моликдир.

Педагог мутахассисларни тайёрлайдиган ва битирувчи чиқарувчи кафедраларнинг вазифалари ва фаолиятининг асосий йўналишларидан бири талабаларнинг педагогик амалиётини илмий-услубий таъминлаш ва қўллаб-қувватлашдир. Ушбу фаолиятнинг мазмуни ва мақсади замон талабларига жавоб берадиган шундай ўқув-услубий, йўриқнома материалларни яратиш ва уларнинг мазмуни орқали таълимни ташкил этиш шакли сифатида амалиёттинг ишлашини рафбатлантирадиган педагогик ахборот мухит яратилишини таъминлашдан иборат. Бу ўқув-услубий материаллар бир вақтнинг ўзида алоҳида талаба ва маълум бир амалиётда иштирок этаётган талабалар гуруҳлари эҳтиёжларини қондириши, яъни бир вақтнинг ўзида индивидуал-шахсий ва оммавий бўлиши керак. [2, 11]

Илмий ва ўқув-услубий адабиётлар таҳлили, педагогик амалиётни ташкил этиш тажрибаларини умумлаштириш, амалиётчилар учун яратилган илмий-услубий материалларнинг вазифаси, тасни-

фи узоқ вақт “таъминот” атамаси қўлланилганини кўрсатади. Таъминот талабаларни илмий-услубий йўриқнома билан таъминлашни англатиб, уларнинг амалиёт даврида юқори натижаларга эришишлари асоси; таъминот – бу қулай шароитлар яратишга, муваффақиятни кафолатлашга йўналтирилган харакатлар ва тадбирлардир. Педагогика фани ва амалиётининг ривожланиб бориши натижасида “таъминот” тушунчasi янги тушунча – қўллаб-қувватлаш атамасини киритиш ҳисобига чуқурлашди ва кенгайди. Илмий-услубий қўллаб-қувватлаш тушунча ва ҳодиса сифатида технология унсурларини ўзида сақлади; амалиётни илмий-услубий қўллаб-қувватлаш деганда, таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш учун амалий тайёргарлик барча босқичларida мақсадга мувофиқ изчил, илмий-услубий шароит яратиш тушунилади. Тегишли илмий-услубий (иштирокчиларни илмий-услубий адабиётлар ва хоказо билан “таъминлаш”) шароит яратиш таъминот тизими орқали эмас, балки субъектларнинг биргаликдаги фаолияти воситасида амалга оширилади. “Илмий-услубий қўллаб-қувватлаш” атамаси жараёнинг узоқ муддатлилигига, изчиллигига, узлуксизлигига эътибор қаратишни назарда тутади. Шундай қилиб, таъминот янада аниқликни талаб қиласди, ўлчанадиган ва баҳоланадиган тушунчадир. Қўллаб-қувватлаш – илмий-услубий материалларнинг динамиклиги, ўзгарувчанлиги ва ўлчовининг мавжудлиги билангина эмас, балки улар хусусиятининг талабалар томонидан кўпроқ қўлланиши ва талаборлиги билан тавсифланади.

Бизнинг фикримизча, бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари ўқув амалиётининг ташкил этилиши ва ўтказилиш жараёнини илмий-услубий жиҳатдан учта асосий йўналишга ажратиш мумкин: таъминот, қўллаб-қувватлаш, ҳамкорлик. Кўриб чиқилаётган талқинда илмий-услубий ёрдам амалиётчи талабалар учун белгиланган, меъёрий масалалар, муаммо ва ҳаракатлар бўйича зарур бўлган материалларни яратишни ўз ичига олади. Илмий-услубий маҳсулотларнинг тўлиқ истеъмолчиси сифатида фақат дастлаб қабул қилинган, институтсионаллаштирилган ва қоида тариқасида барча талабалар учун зарур бўлган нарсаларни тақдим этиш мумкин.

Бундай таъминот шаклларига, асосан, ташкилий-бошқарув таснифига эга бўлган кўрсатма материаллари, шунингдек, амалиёт олдидан талабаларнинг барча маҳсус тайёргарлиги киради. Талабалар дуч келиши мумкин бўлган болаларнинг ёш хусусиятлари, диагностика усуллари бўйича билимларнинг долзарблиги муаммолари бўйича тасавурларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш. Одатда, бу шакллар жуда аниқ ишлаб чиқилган ва амалиётга киришдан олдин ОТМларнинг ўқув жараёнига конференция,

маъруза, семинар, маслаҳатлар кўринишида амалга оширилади. Педагогик амалиёт бошланмасдан олдин талабалар илмий-услубий кўрсатма ва материалларни (оғзаки ёки ёзма) оладилар.

ОТМ услугчилари томонидан яратилган илмий-методик материаллар талабаларни қўллаб-кувватлаш учун ҳамда амалиёт давомида улар тўқнаш келиши мумкин бўлган муаммоларни ҳал қилишга мўлжалланган бўлади. Бундай материаллар муаммоли таснифга эга бўлиб, амалиётчилар билимларини кенгайтириш ва бойитишга, уни аниқлаш, муайян вазиятда бевосита фойдаланишга, вазиятларни тушунириш, ечимларни топиш учун мўлжалланган бўлиши мумкин. Илмий ва услубий таъминотнинг асосий шакллари мулоқот ва шахсга йўналтирилган шаклда бўлиб, илмий ва услубий ёрдам ОТМ ўқитувчиси, амалиёт базаси сифатида ишлайдиган мусассаса мутахассислари ва талаба ўртасидаги шахсий мулоқотда амалга оширилади. Талабага бериладиган бундай ёрдамларнинг асосини индивидуал ва гурхли маслаҳатлар; амалиётчилар дарсларни, маънавий-маърифий тадбирларини қузатиш ва уларни таҳлил қилиш; амалиётчиларнинг амалиёт давомида муаммоли саволларига жавоб бериш; амалиёт раҳбарининг муаммоларни ҳал қилишда иштирок этиши; тавсия этилган адабиётлар ва ҳоказо ташкил этади.

Илмий ва услубий қўллаб-кувватлаш ҳам амалиёт давомида пайдо бўлган фавқулодда вазиятларда, айниқса, низоли вазитларда таъминот ва ёрдам ҳисобланади. Афсуски, кўп ҳолларда амалиётчи талабалар кутилмаганда пайдо бўладиган вазиятларда (масалан: болалар ва уларнинг ота-оналари билан мулоқот жараёнида) касбий қўникма этишмаслиги ва педагогик тажрибанинг йўқлиги туфайли бундай вазиятлардан мустақил чиқа олмайдилар. Шунга ўхшаш ноодатий вазиятлар пайдо бўлганда муаммога ечим топишга кўмаклашувчи ва талабани рағбарлантириб борувчи илмий-услубий таъминот бўлиши зарур. Бундай вазиятлар пайдо бўлганда ўқитувчининг ўзи шахсий намуна бўлиб вазиятдан чиқиши кўрсатади. Илмий ва услубий қўллаб-кувватлаш – бу психологик тренинглар, педагогик муаммо ечимига ўқитувчи томонидан кўрсатиладиган ёрдам ҳамда талабаларни ютуқларга ишонтириш ва уларнинг кайфиятларини кўтариб бориш бўлиши мумкин. Амалиёт даврида талабаларни илмий-услубий қўллаб-кувватлашнинг ўзига хос ҳусусиятларига турли муаммоли вазиятларга тажрибали услугчиларнинг бириктирилиши ҳамда амалиётчилар билан биргаликда ечим топishi ҳисобланади.

Илмий-услубий ишга бундай ёндашув уни узлуксиз ва изчил ташкил этилган ўқув жараёнига айлантиради. Бу эса ўқитувчининг илмий-услубий фаолияти фақат амалиётчиларнинг барча иш турлари

учун раҳбар йўриқнома, кўрсатмалар яратишдангина иборат бўлиб қолмай, балки талаба меҳнатини ташкил этишнинг ташқи омили эканлигини ҳам кўрсатади. Амалиёт мобайнida бундай янги ёндашувнинг қўлланилиши ҳамда иш юритиши илмий-услубий таъминот олдига (кенг маънода) кўшимча вазифалар қўяди: талабаларнинг амалиёт бошлангунга қадар унинг босқичларини билиб олиш ва ўзлаштириб биришларини бошқариш; амалиётчиларнинг индивидуал ҳусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ҳар бир талабада шаклланиб бораётган билим, қўникма ва малакаларнинг ривожланиш тизимини ташхис этиш; амалиёт давомида талабаларнинг йўл қўйган камчиликларини тузатиб бориш.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, амалиёт бўйича ўқув-услубий материалларини қайта кўриб чиқиш ва тизимлаштириш ҳам талаб этилади. Уларнинг асосий вазифалари қўйидагилар: амалиётнинг барча тизими учун дастлабки маълумотлар асосини яратиш; амалиётнинг боришини бошқариш, хатоларни тузатиш ва назорат қилинишини таъминлаш; лойиҳа ҳужжатларининг намуналарини яратиш; талабаларни зарурый ахборотлар билан таъминлаш; талабаларнинг мустақиллигини ва ўз устида ишлашларини рағбатлантириб бориш.

Педагогик амалиётлар учун ишлаб чиқилган илмий ва услубий манбаларнинг барча мажмуини бир неча гурухларга бўлиш мумкин. Биринчи гурухга баҷарилиши қатъяян мажбур бўлган меъёрий-хукукий ҳужжатлар киритилади. Ушбу ҳужжатларда амалиётнинг мақсади, вазифаси, асосий мазмуни, шакли ва ўтувзилиш муддати, амалиётчилар ва амалиётга раҳбарлик қилувчи услугчиларнинг хукуқлари аниқ белгилаб берилади. Улар умумий таснифга эга бўлиб, вариативлаштириш ва табақалаштиришга йўл қўйилмайди. Кўкон ДПИдаги педагогик амалиётни ташкил этиш ва ўтказиш тажрибасидан келиб чиқиб, бу гурухга қўйидагиларни киритиш мумкин: ОТМ талабалари амалиётини ташкил этишини тартиба солувчи меъёрий ҳужжатлар (низом, йўриқнома, қонун ва қарорлардан олинган кўрсатмалар); айнан бир ўқув юртнинг, факультетнинг, мутахассисликнинг талабалари учун амалиёт ўтказиш тартибини аниқловчи йўриқнома материаллари (амалиёт низоми; амалиёт турлари бўйича ўқув ва ишчи дастурлар, амалиётчилар ва амалиёт раҳбарларининг хукуқ ва бурчлари, амалиёт ўташ жойининг талаблари); амалиётга илмий-услубий раҳбарлик қилишни тартиба солувчи ва таъминловчи ташкилий материаллар (амалиётчилар учун кафедралар томонидан ўтказиладиган коллоквиум ва семинарлар режалари, маслаҳатлар жадвали) [3, 13].

Иккинчи гурухга дарс ва бошқа тадбирларни ўтказишда мазмунан фойдаланиш мумкин бўлган маъ-

лумот берувчи назарий материаллар киради. Бундай маълумотларга мутахассислик фанларининг амалиёт учун зарур бўлган назарий қисмини киритиш мумкин. Одатда, улар талабаларнинг амалиёт учун ўқув-услубий қўлланмаларда, мустақил иши учун матнлар ва топшириқларда, тавсия этилган адабиётлар рўйхатида, аудио ва видео ёзувлар, электрон ресурслар ва бошқаларда жамланган.

Учинчи гурух амалиётга тайёргарлик кўриш ва ўтказиши, турли хил ўқув-тарбиявий тадбирларини, шунингдек, кузатувлар ўтказиш ва олинган материални таҳлил қилишни таъминлайдиган ўқув-услубий материалларни бирлаштиради. Буларга фаолиятни режалаштириш бўйича услугубий тавсиялар (индивидуал иш режасини тайёрлаш бўйича эслатмалар, тарбиявий фаолият режасини тузиш тамойиллари, амалиёт даврида талабаларнинг мустақил ишларни тахминий режалаштириш намунаси, индивидуал тадбирларни мавзувий режалаштириш алгоритмлари ва бошқалар); амалиёт хужжатларини юритиш бўйича йўриқнома (амалиёт кундалигини режалаштириш шакллари, ҳисбот тайёрлаш бўйича кўрсатмалар); асосий касбий фаолият турларини бажариш бўйича ўқув-услубий ишланмалар (дастур, услугуб, кузатиш, таҳлил жадвали, турли билиш объектларини, педагоглар ва тарбияланувчиларнинг фаолиятини, хулқи ва муносабатларини тавсифлаш бўйича кўрсатма); лойиха ишлари ва ҳисбот хужжатлари намуналари (тадбир сценарий, ишланмалари; сухбат режалари ишланмаси, якка ва гурух машғулот режаси; болалар ва уларнинг ота-оналари билан олиб бориладиган ижтимоий-педагогик ишлар дастури; амалиёт якунида талабалар ёзадиган ҳисбот намунаси ва бошқалар); касбий аҳамиятга молик сифат ва кўникмаларни ташхислаш ва ўз-ўзини баҳолаш шакллари бўйича материаллар (ўз-ўзини баҳолаш, сўровнома, турли хил ижтимоий-педагогик фаолият турлари га касбий тайёргарликни баҳолаш усуллари, касбий ўз-ўзини тарбиялаш ва ривожлантириш кетма-кетлиги ва бошқалар) [6, 23].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Н.А.Бекланов, М.А.Захарова, И.А.Карпачёва. *Педагогическая практика: от учебной к производственной: учебно-методическое пособие*, 2009. – 119
2. Мавлюдова Л.У., Камахина Р.С., Лохотская Л.А. Учебно-методическое пособие по организации и проведению педагогической практики магистрантов: учебно-методическое пособие, 2016. – 40.
3. М.М. Юсупов. Малакавий амалиёт. Услубий қўлланма. – Тошкент: “Навруз” нашрёти, 2019. – 76.
4. Т.Б. Гребенюк Организация, контроль и оценка педагогической практики студентов: Методические указания. – Калининград: 2000. – 34.
5. Ш.Ш.Олимов, Б.Т.Жураев. Малакавий амалиёт. Методик қўлланма. – Бухоро: Бухоро давлат университети, 2021. – 41.
6. Тихомирова В.Т., Садвакасова З.М., Мукашева А.Б., Сатыбалдина Н.К. Педагогическая практика студентов в школе. Учебно-методическое пособие для студентов высш. учеб. заведений /Под ред. В.Т.Тихомировой – Алматы, 2006. –100.

Кўриб чиқилаётган илмий-услубий материаллар таълим жараёнини амалиётда кузатиб бориш учун яратилган бўлиб, талабаларнинг келажакдаги касбий фаолиятида етакчи бўлган кўникмаларни шакллантириш, амалиёт вазифаларига мувофиқ шарт-шароитларни таъминлаш учун мўлжалланган. Бироқ педагогика ОТМларининг таълим жараёнида қўлланилаётган бундай гурух илмий-услубий манбаларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, уларнинг аксарият қисми талабаларни репродуктив фаолиятга, намунадаги фаолият турларини бажаришга йўналтирса-да, таълим олувчилярнинг фаоллигини, ижодий тафаккурини ривожлантиришга имкон бермайди. Амалиётчи иш фаолиятининг бундай маромда давом этиши амалиётчининг йўриқнома материалларига боғланниб, мустақил ижодий фаолиятини пасайишига ва тадқиқотчилик кўникмаларининг сўнишига олиб келиши мумкин. Бундан ташқари, ушбу тавсиялар барча талабалар учун умумий бўлиб, олий ўқув юртлари ва мутахассислик йўналишларининг амалиёт турларига мўлжалланган бўлса-да, таълим олувчилярнинг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинмаган.

Хулоса қилиб айтганда, яратилаётган илмий-услубий материаллар, бир томондан, бундай материалларни тақдим этишда талабаларнинг индивидуал эҳтиёжларини ўрганиш, касбнинг ўзига хос хусусиятлари, талабанинг тайёргарлик даражаси ва касбий фаолиятда ўзлаштирган тажрибасини ҳисобга олган ҳолда, табақалаштирилган тарзда амалга оширилиши лозим. Бошқа томондан эса илмий-услубий материаллар тизими талабалар амалиётининг барча босқичларида тайёргарлик сифатини мониторинг қилиш ҳамда бу жараёнга ташхис ва ўз-ўзини ташхис методларини киритишни талаб этади. Бизнингча, малакавий амалиётни илмий-услубий лойиҳалашга бундай ёндашувнинг асосий талблари, талабалар касбий-педагогик тажрибасининг шаклланиш жараёнини бошқаришга кўмаклашади ва талабаларнинг назарий билимлари ва амалий кўникмалари ўртасида боғловчилик вазифасини бажаради.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИ ЖАМОАСИДА ҲАМКОРЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Зулфия Отабоева,

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
Ўзбек тили, педагогика ва жисмоний маданият кафедраси асистенти

Аннотация

Жаҳон мамлакатларининг узлуксиз ривожланиб бораётган таълим тизимидағи иштироки кундан-кунга фаоллашиб бормоқда. Айниқса, олий таълим муассасаларининг олдида турган асосий вазифалардан бири мутахассислигини мукаммал даражада эгаллаган ҳамда шахсий ижтимоий позицияси, ўрганилаётган билимларга ўз муносабатини билдира оладиган, янги фикр, гоя, таклиф ва лойиҳаларни илгари суришига қодир рақобатбардоши мутахассисларни тайёрлаши масаласи долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Калит сўлар: мезон, парадигма, тенденция, консенсус, стратегия, васийлик, диалог.

Аннотация

Участие стран мира в постоянно развивающейся системе образования с каждым днем становится все более активным. В частности, одной из основных задач высших учебных заведений является подготовка конкурентоспособных специалистов, хорошо разбирающихся в своей области и способных выражать свою личную социальную позицию и отношение к изучаемым знаниям, выдвигать новые идеи, предложения и проекты.

Ключевые слова: критерий, парадигма, тенденция, консенсус, стратегия, опека, диалог.

Annotation

The participation of the countries of the world in the constantly developing education system is becoming more active every day. In particular, one of the main tasks of higher education institutions is to train competitive specialists who are well versed in their field and are able to express their personal social position and attitude to the knowledge being studied, put forward new ideas, proposals and projects.

Keywords: criterion, paradigm, trend, consensus, strategy, guardianship, dialogue.

Тадқиқотчи олимларнинг фикрича, ҳамкорлик ўкув моделидан фойдаланиш муаммоларни биргаликда ҳал қилишга қаратилган реал вазиятларни моделластиришни ўз ичига олади. Талаба бундай ўкув жараённада фаол иштирок этиб, ўзаро муносабатларнинг субъектига айланади. Шу би-лан бирга, ўкув жараённадаги барча иштирокчиларнинг тенглиги қоидаси сақланиб қолади.

Абу Наср Форобий, Абу Райхон Беруний, Абу Али ибн Синолар ижтимоий тузум, давлатнинг гуллаб-яшнаши учун зарур бўлган мухим инсонпарварлик ва ҳамкорлик тоғларини илгари суришди ҳамда инсонпарварлашув босқичлари, мезонлари ва тамойилларини ишлаб чиқиши [1, 415].

Ижтимоий ривожланишнинг замонавий даври янгича дунёқарашни белгиловчи нисбатан янги руҳий парадигма билан тавсифланади, унда глобал – дунёга яхлит, ўзаро боғлиқ тизим сифатида қараш аҳамиятли ҳисобланади (Ю.В.Гладкий, A.King, C.B.Лавров, Н.Н.Моисеев, R.Hiting, B. Schneider ва бошқалар).

Шахслараро таъсирнинг самарадорлиги, хусусиятлари ва ўзига хослигини ўрганувчи турли назарий йўналишлар (гурухлардаги ижтимоий ўзаро боғлиқлик назариялари, ижтимоий таълим назариясининг баҳсли ривожланиш назарияси ва бошқалар) мазму-

нини таҳлил қилиб, С.П.Иванова “Уларнинг барчаси замонавий жамиятда қўп субъектларнинг ўзаро муносабати энг самарали усул сифатида биргаликдаги ҳамкорлик тоғини жуда изчил қўллаб-кувватлайди” деган хulosага келади [2, 37].

Ҳамкорликнинг педагогик моҳияти С.Л.Рубинштейннинг фаолият ва шахс ривожланиши алоқадорлиги ҳақидаги психологик қонуни асосида янада аниқ моҳият касб этади [3, 180].

Р.Г.Сафарованинг “Ўқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш стратегијаси” мавзусидаги монографиясида ҳамкорликнинг янгича концептуал асослари муайян мураккабликка эга бўлган ҳодисаларни билишга кўмаклашиши, улар жумласига номунтазамилик, тадрижийлик, очиқ тизимлар, жамият, унинг турли таркибий қисмлари ҳамда таълим тизимини киритиш мумкинлиги асослаб берилган [4, 14].

И.А.Зимня шу ўринда таъкидлайдики, таълим жараёнини ташкил этишининг турли шакллари (фронтал, индивидуал, рақобат, ҳамкорлик) қиёсий самарадорлигига оид тадқиқотларнинг мутлақ кўпчилиги ҳамкорликдаги иштирокчиларнинг фаолиятига ижобий таъсиридан далолат беради. Хусусан, ҳамкорлик

шароитидаги мураккаб ақлий вазифалар мұваффақиятли ҳал этилишида (Г.А.Костюк, В.Янтос) янги материал яхшироқ ўзлаштирилишида (В.А.Колтсова), (H.J.Liimets) талабаларнинг мулоқот қобилиятлари даражасининг ошишида ифодаланади. Индивидуал фаолият натижалари билан гурухдаги ҳамкорлик мұносабатлари солиширилганда, шаклан ва мазмунан бир хил бўлган муаммоларни бартараф этишда фаолият самарадорлигининг камида 10 фойзга ўсиши аниқланган [5, 314].

Ш.А.Абдуллаеванинг “Ҳамкорлик педагогикаси” номли ўкув-услубий қўлланмасида педагогик ҳамкорлик, ҳамкорликка оид ёндашувлар, муаллифлик технологиялари ҳамда талқини ўз аксини топган [6, 178].

А.Г.Кассиров, П.А.Кропоткина фикрича, ҳайвонлар ва одамлар ҳаётини Чарлз Дарвинга қараганда бутунлай бошқача, яъни уларнинг курашини эмас, балки ҳамкорлик ва ўзаро ёрдамни аниқлаш нуқтаи назаридан ўрганиш керак. Ҳаётни энг бирдамлик асосида ташкил этишга қодир турнинг яшаш ва ривожланишга кўпроқ мослашишини ва эволюция бу турнинг ўзаро ёрдам тамойиллари бўйича ташкил этилганлик даражасига тўғридан-тўғри пропорционал эканлигини ишончли асослайди ва бу қонун уларга ҳайвонот дунёси ва инсоният тарихи тараққиётининг барча босқичларида амал қиласи [7, 388-394].

Олий таълимда талабалар жамоаси ижтимоий-психологик ҳолатини ва алоҳида талабаларнинг индивидуал хусусиятларини яхши билган ўқитувчи ҳар бир талабанинг ўқиши, бошқалар билан мұносабатлари ва хулқ-авторини тушунишга, уларни ўз вактида тузишишга, шунингдек, талабадаги яширин имкониятларни илғаш ва талаба шахсининг бутун борлигicha ривожланишига таъсир этишга қодир ҳисобланади.

Мазкур ҳолатнинг намоён бўлишидаги туб фарқ ўзаро таъсир қилувчи томонлар мұносабатлари, хулқ-авторида акс этади. 1-гурухда мұносабатлар оралиқ-салбий, 2-гурухда эса, асосан, ўзаро ижобий мұносабатни ташкил этади. Ҳамкорликдаги фаолиятнинг умумий мақсадига келсак, бефарқ ва қарама-қарши ўзаро таъсирлар жараёни талабалар томонидан амалга оширилмайди. Кўшма фаолият мақсадини тўлиқ англаш “келишув” ва “ҳамкорлик”да намоён бўлади. Шу билан бирга, фақат “ҳамкорлик” педагогик ўзаро таъсирнинг барчаси энг яхши хусусиятларга эгалигини намоён этади [8, 134].

Бундан келиб чиқадики, ҳамкорлик шароитида:
а) ҳар бир талабанинг ҳаракати, ўз навбатида, ўзгалинг ҳаракатларига боғлиқликни тақозо этади; б) ҳар бир талаба маълум даражада ҳамкорлик жараёнида иштироки билан гурухдаги ижтимоий мавқенини мустаҳкамлашга замин яратади; с) барча талабалар мақсадга эришишдаги имкониятга эгалигига ишончи комил эканлигини ҳис этади. Шундай қилиб, ҳамкор-

лик юзасидан ўзаро таъсир субъектлари томонидан мақсадга эришиш учун адекват деб баҳоланади.

Б.Б.Садуллаев ўйинлар воситасида ижтимоий ҳамкорликни ривожлантиришга доир тадқиқот ишида: “Шахсга ўйналтирилган таълим жараёнида ўқувчиларнинг ўзаро ҳамкорликлари мұхим ахамиятга эга бўлиб, бу жараёнда улар ижтимоий, ижодий фаолият тажрибасини ўзлаштирадилар. Бундай ҳамкорлик таълим жараёни субъектларининг ҳамкорликдаги ижодий фаолиятини ифодалайди. Ижтимоий ҳамкорлик асосида ўқувчиларнинг жамият ва ҳаётга мұносабатлари, ҳаётий тажрибалари, ўзаро дўстликлари, қарашлари, эътиқодлари ривожланади ва уйғунлашади” [9, 14], деб таъкидлайди.

“Ҳамкорлик” тушунчасининг кўп ўлчовлилиги ва кўп кирралилиги бизга ушбу ҳодисани фанлараро интеграцияда ўрганиш учун асос бўлади. Бу эса, биринчи навбатда, фундаментал фанлараро хусусиятга эга бўлган фан сифатида синергетика нуқтаи назаридан янада самаралироқ кўринади.

Ушбу тадқиқотни мустаҳкамлаш учун таъкидлаш лозимки, ўз-ўзини ўйналтириш жараёнларининг мақсадли табиатига қарамай, талабалар табиий дастлабки элементлари билан ажralиб туради, бу эса ижодкорликни ифодалаш ва намоён қилиш эркинлигининг шарти ҳисобланади.

Педагогик нуқтаи назаридан ҳамкорликнинг моҳиятини ўрганиш нафақат ушбу ҳодисанинг мураккаб ўзига хусусиятини тушунишга, балки самарали ҳамкорлик учун ўзаро таъсир қилувчи субъектларнинг ҳаракат структурасини эмас, балки мұхим ахамиятга эга деган хulosага келишга имкон беради. Шунингдек, уларнинг мувофиқлаштирилган ҳатти-ҳаракатлари ва ўзаро ёрдам мұносабатлари таркиб топишига хизмат қиласи.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, биз педагогик нуқтаи назардан ҳамкорлик очиқлик, ўз-ўзини ўйналтириш ва бир текис эмаслиги билан ажralиб турувчи биргалиқдаги фаолиятда иштирок этадиган талабалар ўртасидаги ўзаро мұносабатларнинг алоҳида тури деган хulosага келамиз. Ҳамкорликнинг кўрсатилган хусусиятларга мувофиқлиги ушбу турдаги ўзаро таъсирнинг мұхим, ўзининг мураккаб имкониятларини белгилайди.

“Ҳамкорлик” тушунчасини фалсафий, педагогик, психологик жиҳатдан фанлар кесимида таҳлил қилиш учун соҳа олимларининг илмий талқинларига оид фикрларини кўриб чиқамиз.

Биз ҳамкорликдаги фаолиятнинг мажбурий мезони унинг якуний натижага томонидан баҳоланадиган самарадорлиги, деб ҳисоблайдиган муаллифларнинг фикрига қўшиламиз. Шу билан бирга, муаллифларнинг турли тадқиқот позицияларини таҳлил қилиб, ҳамкорликдаги фаолият натижасининг миқдорий ва

сифат хусусиятларини ажратиб кўрсатишади. Масалан, ечимнинг ўзига хослиги, таклиф қилинган ечимлар сони, чекланган доирада ҳал қилинган вазифалар сони, вақт оралиғи ва шу кабиларни назарда тутади...

Маркетинг ва менежмент ўқитувчиси D.Tapscott-ning "Wikinomics" китобида баён этилган позицияси дикқатга сазовордир. Қандай қилиб оммавий ҳамкорлик ҳамма нарсани ўзгартиради, муаллиф иқтисоддаги янги бошқарув йўналишининг оммавий ҳамкорлик қандай қилиб ҳамма нарсани ўзгартириш тамойилларини D.Tapscott "Wikinomics" деб номланган ва ҳамкорлик фани сифатида тавсия этган. [10. 14]

Шуни таъкидлаш керакки, Викиномика тўртта кучли янги фояга асосланади: Очиқлик, тенглик, киришиш ва маҳорат. Булар таълим соҳасига муваффақиятли экстраполяция қилиниши мумкин бўлган фаолиятнинг таълим соҳасидаги мажмууга муваффақиятли татбиқ этишни тақозо этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Сураймонова Ф. Шарқ ва Farb. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 600.
2. Иванова С.П. Учитель XXI века: ноопсихологический подход к анализу профессионально-личностной готовности к педагогической деятельности / С.П.Иванова. – Псков: ИГПИ им. С.М.Кирова, 2002. – 250.
3. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. –М.: РСФСР. ПФА, 2004. 8- изд. – 340.
4. Сафарова Р., Мусаев У.К., Мусаев П. ва бошқ. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиши ўйлари. –Т.: Фан, 2005. – 200.
5. Зимняя, И. А. Педагогическая психология: учеб. для вузов / И. А.Зимняя. - 2-е изд., доп., испр. и перераб. –М.: Логос, 2000. – 350.
6. Абдуллаева Ш.А. Ҳамкорлик педагогикаси. –Т.: Фан ва технология, 2017. – 300.
7. Кассиров А.Г.Философские идеи П.А.Кропоткина о единстве природы и общества [Электронный ресурс] / //Вестник МГТУ. 2007.Т.10, № 3. С. 450. Режим доступа: http://vestnik.mstu.edu.ru/vl0_3_n28/articles/08_kassi.pdf. – Загл. с экрана, (дата обращения: 16.07.2012).
8. Иванова С.П. Учитель XXI века: ноопсихологический подход к анализу профессионально-личностной готовности к педагогической деятельности / С.П.Иванова. –Псков: ИГПИ им. С.М.Кирова, 2002. – 320.
9. Садуллаев Б.Б. Ўйинлар воситасида ўқувчиларда дўйстона муносабатларга асосланган ижтимоий ҳамкорлик қўнилмаларини ривожлантириши тизими. 10.13.00.01 –Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи ихтисослиги бўйича Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиши учун ёзилган диссертация. Самарқанд – 2019. – 120.
10. D.Tapscott. Д. Викиномика: как массовое сотрудничество изменяет все / Дон Тапскотт, Энтони Д. Уильяме; пер. с англ. П. Миронов, Г.Василенко. –М.: Сбербанк, 2011. – 510.

Фикримизча, бугунги кунда жамоа ва шахсий контекстда ҳамкорлик муаммосини концептуал жиҳатдан янгича ёндашув асосида тушуниш керак, чунки ҳамкорлик тамойилларига йўналтириш замонавий инсоннинг турли даражадаги муносабатлар жараёнида томонлараро таъсир қилишнинг муҳим хусусиятига айланиб бормоқда. Шу муносабат билан биз ҳамкорликни маданият тушунчаси сифатида, муносабатларнинг турли даражаларида инсон хатти-харатининг характерини белгилайдиган маданий қадрият константаси деб қараймиз.

Шу муносабат билан, биз ҳамкорлик ҳодисасини кейинги ўрганишни унинг маданий компонентини таҳлил қилиш билан боғлаймиз. Бу бизга “Талабалар жамоасида ҳамкорлик маданиятини ривожлантириш” ҳодисасининг моҳиятини асослаш контекстида энг самарали кўринади.

ТАЛАБАЛАРДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ОИД ШАРҚ ВА ФАРБ ОЛИМЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ

Лола Наримбаева,
Чирчик давлат педагогика институти

Аннотация

Мақолада Шарқ ва Farb олимларининг интеллект ва ижодий қобилиятни ривожлантириши хусусидаги педагогик-психологик нуқтаи назарлари таҳлили келтирилган. Шунингдек, талабаларда ижодийликни ривожлантириши бўйича илмий тавсиялар берилган.

Калып сүзлар: креатив, интеллект, идрок, истеъдод, мия, ақл, ижтимоий, классификация, қобилият, онг, тафаккур, ҳиссият, ахлоқий, шахс, инновация, эстетик, гештальтик, оптималь.

Аннотация

В статье представлен анализ педагогических и психологических взглядов восточных и западных ученых на развитие интеллекта и творческих способностей. Также были даны научные рекомендации по развитию творческих способностей у студентов.

Ключевые слова: креативный, интеллект, восприятие, талант, мозг, интеллект, социальный, классификация, способности, разум, мышление, эмоции, мораль, личность, инновация, эстетика, оптимальный.

Annotation

The article presents an analysis of the pedagogical and psychological views of Eastern and Western scientists on the development of intellect and creative abilities. Also, scientific recommendations on the development of creativity were made in the students.

Keywords: creative, intellect, perception, talent, brain, intelligence, social, classification, ability, mind, thinking, emotion, moral, personality, innovation, aesthetic, optimal.

Мамлакатимизда олий таълим муассасаларида рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш мазмунини жамиятни кадрларга бўлган ижтимоий буюртмаси, фан ва техника ютуқларидан келиб чиқкан холда, такомиллаштиришга эътибор қаратилмоқда. Малакали мутахассис қачон тайёрланади? Қачонки, креатив фикрлайдиган ёшлар салоҳияти ва иқтидори ривожлантирилса. Креатив фикрлаш талаба шахсида интеллектнинг ривожланганлигага боғлиқдир.

Интеллект таркибида идрок килиш, хотирлаш, фикр юритиш, сўзлаш ҳамда психик жараёнлар киради. Интеллектнинг ривожланиши туғма истеъдод, мия имкониятлари, жўшқин фаолият, ҳаётий тажриба каби ижтимоий омилларга боғлик. Интеллект савияси, даражаси инсон фаолиятининг натижаларига, шунингдек, психологик тестларга қўра аниқланади. Интеллект – бу инсон ва ҳайвонларнинг янги муҳитга мослашиши ҳисобланади. Ақл – инсоннинг фикрлаш қобилияти бўлиб, “англаш, тушуниш” деган маъноларда келади. Тушуниб етиш ақлий қобилиятнинг мустаҳкам тузилмаси ҳисобланади.

Узоқ асрлар давомида Шарқ мутафаккирлари ва Гарб олимлари ёшларда ақлнинг, яъни интеллект ривожланишига оид муттасил илмий-фалсафий мунозаралар юритишган. Бироқ илмий баҳслар қанчалик даражада кескин ёки мураккаб бўлмасин, уларда ўзига хос мутлақ яқдиллик мавжуд. Интеллект шахсагина хос бўлган хусусият саналади. Айрим адабий ёки фантастик асарларда инсондаги онг ва тафаккур бадиий тўқима ёки фантастик уйдирма деган ғоялар хам пайдо бўлди. Интеллект лотинча сўз бўлиб, билиш, тушуниш, идрок қилиш, яъни инсоннинг ақлий қобилияти; ҳаётни, атроф муҳитни онгда айнан акс этириш ва ўзгартириш, фикрлаш, ўқиш, ўрганиш, дунёни билиш ва ижтимоий тажрибани қабул қилиш қобилияти; турли масалаларни ҳал қилиш, бир қарорга келиш, оқилона иш тутиш, воқеа ходисаларни олдиндан кўра билиш лаёқати.

Шарқ олимларидан Форобий, Ибн Сино, Беруний,

Кайковус, Алишер Навоий ва бошқаларнинг педагогик қарашларида талаба ёшларда интеллект ривожланишига оид илмий фаразлар илгари сурилган.

Дунёда “иккинчи муаллим” тахаллусини олган буюк олим Форобий “Баҳт саодатга эришув йўллар хақида рисола” асарида одамларни турли белгиларга қараб гуруҳларга ажратади. Бунда у кишиларнинг диний мазҳаби, миллати, ирқига қараб эмас, балки табиий хусусияти, қобилияти, ақлий иқтидори, билим кўнималарига эътибор беришлик зарурлигини таъкидлайди [13, 86]. Дарҳақиқат, талabalarda ижодий қобилият ва ақлий салоҳиятни ошириш орқали таълим сифатига эришилади. Бўлажак педагогларда интеллект қай даражада ривожланса, педагогик фаолияти самарали амалга ошади.

Беруний инсон ва ахлоқий тарбия хақида фикр юритар экан, “Инсонга ер юзини обод этиш ва уни бошқариб туриши учун ақл-заковат ато этилган, шунинг учун ҳар бир инсон юксак ахлоқли бўлиши лозим” [13, 54], дейди.

Ибн Сино “Ҳай ибн Яқзон” асарида илм-маърифатни ўрганиш, тафаккур қилиб зарур бўлган ва билиши мумкин бўлган нарсаларни ўқишига киришгани, бу йўлда ақлни ишга солиб, ўзини ёмонликлардан четлаштирадиган турли хусусиятларини билиб олганлигини қайд этади. Шунингдек, инсондаги ёмон иллатларни ҳам бартараф этишда илму фан, зиёнинг аҳамияти, инсондаги ақл-тафаккур қувватининг ёмон иллатлардан кутулиши, ўзлигини англаш воситаси эканлигини асослайди [13, 99]. Талabalarda интеллектни ривожлантириш учун уларни кўпроқ мустақил фикрлаш, таълимиy вазиятларда учрайдиган муаммоларни еча олиш кўнималарини шакллантириш зарур.

Кайковус “Қобуснома” асарида ақл хақида фикр билдириб, инсон қобилиятининг бир хил эмаслигини, инсон ақлининг туғма, яъни азалий, табиий ва қасбий (муктасиб – ўргатилган ақл) қабиларга бўлинишини баён этади. Муктасиб ақл ҳам, табиий ақл

ҳам бир-бирисиз ривожланиши мумкин эмаслигини таъкидлайди ва фикрлари билан таълим-тарбиянинг аҳамиятига катта эътибор бериб, инсоннинг камолга эришишида ақлни шакллантириш ғоясини илгари суради [8, 101].

Абдураҳмон Жомий “Бахористон” асарида илмни беҳуда эгалламаслик, ҳар бир шахс жамият ва ўзи учун фойдаси тегадиган илмларни эгаллаши зарурлигини таъкидлайди. Билимнинг инсон ҳаётидаги аҳамияти ҳамда ижтимоий жамият тараққиётини белгилашдаги ўрни ва ролини очиб бериш билан бирга, ҳар бир киши томонидан маълум хунар сирларини ўзлаштириш фойдадан холи бўлмаслигини уқтиради [13, 159].

Алишер Навоий илм-фанинг инсон камолотидаги ўрни, билимларни ўрганиш асосида ҳосил бўлган ақл ва идрокнинг инсон ҳаётидаги аҳамияти ҳамда ақлий тарбия, унинг моҳиятини ёритишига алоҳида эътибор қаратади [13, 170].

Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб, талабаларда интеллектуал салоҳиятни тақозо этувчи масалаларни мустақил ҳал этиш, ўзи қарор қабул қилиш ва вазиятга қараб хатти-харакатларини мувоғиқлаштира олиш каби кўнкимларни шакллантириш мухим деган хulosага келиш мумкин.

Қадимги Юнон олими Афлотун “Давлат” асарида интеллектни ақлий ва ҳиссий билиш тарзида класификация қиласди. Ақлий билиш ҳиссий идрокдан холи бўлиб, у ақлнинг ўзи учун амалга оширадиган интеллектуал фаолият туридир. Тафаккурий билиш жараённида ақл, идрок қатнашади, бироқ у ақлий билишдек ақл учун эмас, балки ҳиссий нарсалар, образларни, борлиқни англашдир [12, 103].

Арасту “ёшлиарга жисмоний, ахлоқий, ақлий тарбия бериш керак, жоннинг олий томонларини, яъни ақл ва иродани камол топтириш мухим”, дейди [1, 102]. Аллома инсон учун мухим бўлган ақлий фазилатларга билим, донишмандлик, фаҳмлаш ва бошқаларга ҳам аҳамият бериш лозимлигини уқтиради. Аммо ахлоқий фазилатлар ақлий фазилатларга бўйсунган холда ифодаланади. Олим инсондаги фақат ақлий фаолиятни тан олади.

Демокрит фикрича, “Ақл тўғри хатти-харакатларга йўналтирилмоғи, бу эса билимни доимо мукаммаллаштириб бориш, табиат қонунлари ва одам хулқини ўрганиш зарур” [1, 106]. Талабаларда интеллект даражаси ва ижодийлик ўртасидаги муносабат уларнинг шахсий хислатлари ва уларнинг мослашув усулларига таъсир қиласди. Ижодийликнинг нималигини тушунишнинг ўзи ижодий ҳаракатни талаб киласди. Ижодийлик қандайdir аҳамиятли ва янги нарсага эришиш яъни инсонларнинг дунёни ўзгартириш учун қилган харакатлари сифатида тушунилади. Шундай экан, талабаларда интеллектуал-ижодий қобилиятынинг шаклланишида ўқув-тарбиявий жараён ва атроф мухитнинг роли ҳам мухим саналади.

Психолог олимлар В.Штерн, Ж.Пиаже, Д.Векслер [3, 51] ва бошқалар интеллектга инсонларни янги ҳаётий шароитларга мослашаштирувчи умумий қобилияты сифатида қарайди. Уларнинг тадқиқотлари американлик мактаб ўқувчиларини лонгитюд методи орқали IQ интеллект коэффицентини аниқлашга қаратилган. Кузатувлар йиллар давомида интеллект коэффиценти юқори бўлган синалувчилар ҳаётда, фаолиятда юқори кўрсаткичларга эришганлигини кўрсатган [2]. Демак, олий таълим жараённида ўқув машғулотлари, амалиёт ва ижодий тўғараклар талабаларнинг ақлий салоҳиятни оширишга қаратилиши мухим. Бу эса профессор-ўқитувчиларга катта маъсуллият юклайди.

Сатоси Канадзава умумий интеллектни ақлнинг бир тури сифатида таърифлайди. Унинг фикрича, “умумий интеллект бизга кундалик ҳаётда мавжуд муаммоларни ҳал қилишда ёрдам беради” [11]. Талабаларни педагогик фаолиятида дуч келадиган турли вазиятларнинг ечимини топишга ўргатишида 4+2 кўчма амалиёт самара беради. Улар амалиёт даврида таълим-тарбия жараёнини кузатиш билан бирга, бевосита иштирок ҳам этади. Натижада, амалий тажрибага эга бўлади.

Ч.Спиремен ва Терстоун томонидан академик қобилиятынинг намоён бўлиши кузатилган. Улар: “шахс бирор когнитив соҳада муваффақиятга эришаётган бўлса, демак, у бошқа соҳаларда ҳам худди шундай зафарларга эришади”, деган ғояни илгари суради [9, 29-30]. Ҳаётга мослашишнинг асосий омили шахсадаги умумий интеллект эмас, балки вақт ўтиб, қобилиятлар бир-бирига таъсир эта бошлайди деб хулоса қилиш мумкин.

Х.Гарднер фикрича, “интеллект бир неча қобилиятлар йигиндиси, шахсада интеллект эмас, балки бир неча хил онг мавжуд деган фикр пайдо бўлган. Агар шахс бирор соҳада муваффақиятга эришса, демак, у қолган соҳаларда ҳам яхши натижаларга эришади” [6, 67]. Талабаларда ижодий-интеллектуал қобилияти ривожлантириш сирасига педагогик қобилиятни ҳам киритиш мақсадга мувоғиқ. Педагогик қобилият турли хил таълимий вазиятларда оқилона қарор қабул қилиш, ўзини бошқара олиш, ўқув материалини оддий ва ҳаётий мисоллар билан талаба онгига сингдиришдан иборат.

Р.Штенберг, Р.Вагнер шахсада ақлнинг уч хил кўриниши мавжудлигини асослаган:

1. Мураккаб масалани ечишда академик малаканинг мавжудлиги. Ақлий тестларнинг ягона тўғри жавобини белгилаш билан изохланади.

2. Амалий интеллект. Кундалик ҳаётда атроф-мухитга мослашиш учун муаммо ечимининг энг оптималини танлашга ёрдам беради.

3. Ижодий ақл. Бундай тип вакиллари ўзининг ижодий қобилиятини намоён этади [5, 85]. Ижодийлик мустақил фикрлашнинг юқори шакли ҳисобланаб, қобилиятнинг креативлиги тарзида талқин қилинади.

Ж.В.Гетзелс ва П.В.Жексон ижодийликни ўлчаш учун Qr коэффициентини киритган. Ақлий истеъод эса боланинг гувоҳномасидаги ёшига нисбатан қўлга киритган муваффакиятларининг миқдори билан ўлчанади. Ижодийлик таърифларини таҳлил қилиш орқали уларни олти турга ажратиш мумкин:

- гешталттик – ижодий жараённинг мавжуд гешталтларини бузиб, яхшироғини тузиш;
- инновацион – сўнгги натижанинг янгилиги бўйича ижодийликни баҳолашга йўналтирилиши;
- эстетик ёки экспрессив – ижод қилувчининг ўзини ўзи ифодалashi;
- психоаналитик – ижодийликнинг “У”, “Мен” ва “Идеал Мен” ўртасидаги ўзаро муносабати;
- муаммоли – ижодийликнинг масалалар ечиш жараёни;

Интеллектнинг ақлий жараёнлар тизими, муаммоларни ечишнинг услуби ва стратегияси, идрок қилиш фаоллигини талаб қиласиган вазиятга индивидуал ёндашувнинг самарадорлиги, яъни когнитив услуг орқали тасаввур қилиш мумкин. Бу ақлий жараёнлар, муаммолар, турли масалалар ва вазиятларни индивидуал, самарали идрок қилиш йўли билан фаол ҳал қилиш, ижодий топшириқлар ва умуман ижтимоий-маданий ҳаётга самарали қўшилиш, муваффакиятли мослашиш қобилиятидир.

Интеллектнинг тузилиши қўйидагиларга боғлиқ:

- инсоннинг эмоционал-иродавий хусусиятлари.
- амалий ва назарий ўзаро муносабатлар қобилияти.
- унинг ҳаётий шароитлари ва ҳоказо.

Интеллект – тафаккур – тушуниш, тушуниб этиш – ақлий қобилиятлар, “идрок қилиш фаолияти жараёни”, тушуниш, мулоҳаза қилиш, ақлий хулоса чиқариш ёрдамида идрок қилиш идрок қилиш фаолиятининг таркибий қисмлари бўлиб, у шахсдан “тушуниш ва фикрлаш қобилияти”ни талаб этади.

Олий таълим жараёнида талабаларда интеллектуал-ижодий қобилият босқичма-босқич ривожлантирилади:

1-босқич. Талабаларнинг шахсий қизиқишларини аниқлаш – бу ўкув жараёнини янада яхши режалаштириш ва ташкил этиш билан чамбарчас боғлиқ бўлган ижодий қобилиятни ривожлантириш тизимидағи биринчи босқич. Талабанинг ҳаётий тажрибасига ва унинг мавзуга бўлган илмий қизиқишига таяниб, ташаббускорлик, дикқатни ривожлантириш, талабанинг муаммони ҳал қилиш бўйича ўз қарашларини тақдим этишини рағбатлантиради.

2-босқич. Вазифа ва лойихани эркин танлаш – ўкув амалиёти вазифасини аниқлаш, муаммо ечими-

ни излаш. Шу билан бирга, ҳар бир талабанинг ўзига хос қизиқишлари ва афзалликлари билан боғлиқ бўлган муаммоли материални танлаш керак. Ўқишинг вақтининг чекланганлиги сабабли индивидуал ёндашув ҳар доим ҳам мумкин емаслигига қарамай, уни жамоа иши билан алмаштириш мумкин, бу ерда эркин танлов усули ажралмас бўлади, унда мос гурух ва вазифалар билан гурухни танлаш мумкин.

3-босқич. Ижодий муҳит яратиш – мазкур босқичда талабалар турли мавзуларда ижодий лойиха олиб боради. Бунда талаба фаолиятини рағбатлантириш ва дўстона муносабатлар ташкил этилиши зарур.

4-босқич. Мотивация – бу босқич маҳсус шароитлар яратилиши билан тавсифланади, бунда талабаларда нафақат натижага, балки ушбу натижаларга эришиш жараёнига ҳам максимал қизиқиш шаклланади. Ўз ҳаракатларига қизиқмасдан, мотивация пасаяди, уни салбий ёки ижобий мустаҳкамлаш билан алмаштириш мумкин эмас. Режалаштиришнинг якуний натижаси ижодий қобилиятларни ривожлантиришнинг ушбу босқичида усул ва методларни танлашга боғлиқ.

5-босқич. Талабаларни ҳамкорликка йўналтириш – бунда таълим олувчидан ички имкониятларини намоён этиш талаб этилади. Шахсий манфаатларни жамоавий манфаатларга сингдириш учун шароит яратиш муҳимдир. Олинган билимларни умумий ташаббус билан биргаликда нафакат ўқув фаолиятида, балки кундалик ҳаётда ҳам амалга ошириш аҳамиятли ҳисобланади.

6-босқич. Натижаларни намойиш этиш – ушбу якуний босқич жараённинг якунланишини намойиш этиш, шунингдек, эришилган нарсаларнинг аҳамиятини тушуниш ва кейинги ижодий йўлни давом эттиришга жонли қизиқиш бўлиб хизмат қиласи. Натижалар таҳлили асосида талабаларга методик кўрсатма берилади.

Мамлакатимиздаги олий таълим муассасаларида рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш мазмунини жамиятни кадрларга бўлган ижтимоий буюртмаси, фан ва техника ютуқларидан келиб чиқкан ҳолда такомиллаштиришга ётибор қаратилади. Малакали мутахассис қачон тайёрланади? Қачонки, креатив фикрлайдиган ёшлар салоҳияти ва иқтидори ривожлантирилса. Креатив фикрлаш талаба шахсида интеллектни ривожланганлига боғлиқ. Илмий манба ва адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдик, ижодийлик жараёни билан интеллект даражаси ўртасидаги муносабат талабаларнинг шахсий хислатларига ва уларнинг мослашув усулларига таъсир қиласи.

Бу борадаги таклифларимиз эса қўйидагилардан иборат:

- талабалар ижодий қобилиятга эга бўлиши учун турли вазиятларни идрок қилиш, кенг маълумотлар-

га эга бўлиш, тафаккур ўзгарувчанлиги ва тезкорлиги (хилма-хил, ўзига хос), мантиқий ва саводли мулоҳаза юритиши, тизимли ҳаракатларни амалга ошириш лозим.

- талабалар синтез-таҳлил-синтез, ижодий ифодалай билиш, умумлаштириш ва хулосалаш, ўз фикри-

га эга бўлиш, ишни охиригача етказиш, ишчанлик, ўз билимларини бошқаларга етказа олиш каби асосий креатив фазилатларни эгаллаши зарур.

- ижодийликнинг ривожланишида талабанинг индивидуал хусусияти ҳамда интеллектуал салоҳият ҳам муҳим рол ўйнайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Атаев Н., Расулова Ф., Салаева М., Хасanova С. Умумий педагогика. –Т.: “Фан ва технология”, 2012. –757.
2. Аткинсон Р.Л., Аткинсон Р.С., Смит Э.Е., Бем Д.Дж., Нолен-Хоэксема С. Введение в психологию. –Санкт-Петербург: Прайм-ЕвроЗнак, 2007. –816.
3. Векслер Д. Мозг на 100%. интеллект. Память.креативность.Интуиция: Итенсив-тренинг по развитию супер способностей. –М.: Эксмо, 2015. –848.
4. Воронин А. Интеллект и креативность в межличностном взаимодействии. –М.: Изд “Поліцкий государственный университет”, 2022. –127.
5. Владимиров И.Ю., Корнилов Ю.К., Коровкин С.Ю. Современные теории мышления: учебное пособие. 2-е изд, стер-М. –Берлин: Ди-рект-Медиа, 2016. –177.
6. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. –М.: ACT, 2008. –247.
7. Гилфорд Дж. Психология мышления. –М.: Прогресс, 1965. –534.
8. Долимов С., Долимов У. Кайковус. Унсурумлаолий. Қобуснома, 1994. –174.
9. Дружинин В. Н. Психология общих способностей. Учебное пособие для бакалавриата, специалиста и магистратуры. –М.: Издательство Юрайт, 2019. –349.
10. Налбантян С., Мэтьюз П. Секреты творчества, нейробиология, искусство и наш разум. Оксфорд университетская пресса, Издательство “Интелл”, 2019. –447.
11. Пинкер С. Лучшее в нас: Почему насилия в мире стало меньше. –М.: Издательство: Альпина нон-фикшин, 2011. –952.
12. Ўтамуродов А., Тўхтаров И., Чориев С., Назиров Х. Farb фалсафаси. –367.
13. Хошимов К., Ниишонова С. Педагогика тарихи. Дарслик, 2005. –357.
14. Штерн В., Брушлинский Ф. Дифференциальная психология и её методические основы. –М.: “Наука”. –80.



ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ В ВУЗЕ

Нодирбек Ахмеджонов,

Преподаватель-стажер кафедры информационных технологий “Университет Информационных Технологий Имени Мухаммада Ал-Хоразмий Нурафшанский Филиал”;

Ойдин Оллярова,

Преподаватель-стажер кафедры информационных технологий “Университет Информационных Технологий Имени Мухаммада Ал-Хоразмий Нурафшанский Филиал”;

Аннотация

Эта статья направлена на эффективное сочетание физики университете и мультимедиа для оптимизации процедуры преподавания физики как серьезного базового курса в университете. Мы можем использовать преимущества мультимедиа, чтобы улучшить его использование в преподавании физики и повысить эффективность обучения.

Ключевые слова: Эффективность обучения, коронавирус, мультимедиа, физика.

Annotatsiya

Ushbu maqola universitetda jiddiy asosiy kurs sifatida fizikani o‘qitish tartibini optimallashtirish uchun universitet

fizikasi va multimediyaning samarali kombinatsiyasiga qaratilgan. Multimedianing afzalliklaridan fizika o'qitishda foydalanishni yaxshilash va o'qitish samaradorligini oshirishda foydalanishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: o'quv samaradorligi, koronavirus, multimedia, fizika.

Annotation

This article is aimed at an effective combination of university physics and multimedia to optimize the procedure of teaching physics as a serious basic course at the university. We can use the advantages of multimedia to improve its use in teaching physics and increase the effectiveness of teaching.

Keywords: Learning efficiency, coronavirus, multimedia, physics.

Физика – это естественная наука, основанная на экспериментах. Знание, понимание и освоение студентами концепции физики основывается на восприятии физических явлений. Содержание преподавания физики в университете охватывает механическую, тепловую, электромагнитную, оптику и современную физику с меньшей взаимосвязью между ними и аналогично учебному плану физики средней школы, что снижает интерес студентов. Однако при традиционном преподавании физики в университете учащимся в классе могут быть представлены только определенные физические эксперименты, и учащиеся не могут получить доступ к динамическим и интуитивным знаниям восприятия и физическим картинам. Большинство студентов считают, что университетскую физику трудно изучать. Несмотря на то, что был применен мультимедийный метод обучения, его все еще недостаточно. Коронавирусный период показал что мультимедийная база по физике недостаточно развита у развивающихся стран. Использование и методы нуждаются в совершенствовании.

Эффективное применение мультимедийных технологий в преподавании физики в университете может изменить форму информации, интегрируя графику, текст, звук и изображение на ПК, улучшая выразительную силу содержания обучения, так что студенты могут активно участвовать в муль-



1-рис. Степень освоения материала

тимедийной деятельности с помощью нескольких чувств, активно осваивая знания вместо пассивного принятия. В то же время он также предоставляет мощный инструмент для преподавания и исследований, а также надежную и техническую поддержку для бесперебойного и эффективного преподавания [1, 1897]. В дополнение к улучшению знаний, применение мультимедиа может сделать единый прямой учебный контент интуитивно понятным, чтобы вызвать энтузиазм учащихся, повышая эффективность обучения. Интегрируя графику, текст, звук и изображения можем не только воспроизводить или моделировать различные физические эксперименты и явления, но и имитировать физический процесс, представляя физические законы более интуитивно, чтобы повысить выразительность содержания обучения, мотивизовать студентов на участие в мультимедийных мероприятиях с помощью нескольких чувств, улучшите атмосферу в классе, привлекат внимание учащихся, чтобы лучше стимулировать интерес к обучению, в

то же время способствуя разъяснению физических идей, процессов и методов. Применение мультимедийных технологий может предоставить учащимся яркий, четкий, реалистичный эмоциональный материал в классе, чтобы учащиеся могли воспринимать полные, четкие и образные физические явления, которые трудно наблюдать или достичь, чувствовать многие сцены, которые невозможны при традиционном обучении в классе, создавая физическую модель с инициативой. Кроме того, учащиеся могут легче понимать физические концепции, законы и теоремы, в то же время обучение становится легким, а эффективность повышается.

Благодаря эффективному применению мультимедийных учебных программ в преподавании физики в университетах количество учителей, пишущих и рисующих на доске, значительно сократится. Преподаватели могут тратить больше времени на лекции, предоставляя более качественную информацию в классе при тех же учебных часах по сравнению с традици-

онными средствами. Следовательно, необходимо эффективно использовать мультимедийные учебные программы в преподавании физики в университете и значительно повысить эффективность и уровень преподавания физики в университетах.

Большинство понятий и законов в обычных университетских учебниках физики выведены с помощью абстрактных теорий и сложных математических формул. Для студентов очень трудно освоить и понять физические концепции и законы с помощью сложных математических формул за короткий промежуток времени. В качестве учебного пособия в классе преимуществом мультимедийных учебных программ в физическом классе является динамическое моделирование, которое может имитировать визуальные эксперименты с помощью уникальной аналоговой анимации, создавая хорошие физические сценарии для стимулирования интереса учащихся. Таким образом, учащиеся могут быстро получить четкое впечатление, понять физические концепции и законы [1, 1898].

На практике мультимедийное учебное пособие по университетской физике должно быть прекрасным и простым, демонстрирующим критическое содержание. Мультимедиа должны в основном решать важные и трудные вопросы для преподавания в классе, объяснять и иметь дело с физическими теориями, процессами и явлениями, которые трудно объяснить с помощью традиционных методов и средств массовой информации.

Применение мультимедийных учебных программ в университетской физике для дополнения традиционного преподавания не только экономит время, удовлетворяя требованиям преподавания, но и делает абстрактный физический контент более наглядным и интуитивно понятным благодаря сочетанию видео- и аудиосредств. В дополнение к более короткому времени обучения и более высокой плотности преподавания значительно повышается эффективность и качество преподавания, чтобы приспособить и способствовать сочетанию студентов университета с их способностями.

У всего есть две стороны, включая мультимедийное обучение. Учителя не должны ослаблять свое доминирование в классе только из-за использования мультимедийных учебных пособий. Чтобы избежать использования мультимедийного урока в качестве еще одной классной доски и обучения студентов только с помощью видео, учителя должны сосредоточиться на том, чтобы направлять студентов на анализ физических явлений и принципов, вдохновлять и обучать студентов думать, углубляя понимание физических концепций, процессов, законов и теорем, обучая студентов анализировать и решать проблемы.

Университетская физика охватывает механическое, тепловое и электромагнитное содержание и т.д. Как правило, из-за меньшего количества занятий вопросы студентов не могут быть решены вовремя и их трудно рассмотреть, что в определенной степени ослабляет энтузиазм студентов. Квалифицированные преподаватели могут предоставить мультимедийную систему курсов физики, включающую полные учебные файлы, четкие требования и богатые материалы, охватывающие курс, отправку и исправление домашних заданий, анализ образцов, симуляцию экзаменов и вопросы и ответы в режиме реального времени и т.д. [2, 112]

Онлайн-система оценки мультимедийных работ по физике эта система предоставляет студентам набор университетских экзаменов по физике для моделирования тестов на ПК и подготовки к официальным экзаменам. С помощью системы студенты могут самостоятельно проверить усвоение университетской физики, чтобы закрепить результаты обучения. Университетский экзамен по физике в основном проверяет усвоение студентом базовых знаний по физике, включая множественный выбор, истину-ложь, заполнение пробелов, короткий ответ, вычисления и доказательства. После того, как студент сдает тест, система подсчета очков немедленно выставляет оценку, чтобы стимулировать мотивацию студента к обучению. В то же время система должна иметь возможность собирать и хранить номер студента, имя, профессию, класс, оценки и другую информацию, предоставлять исходные данные для анализа работы и взаимной оценки между различными курсами, чтобы обеспечить основу для управления обучением, обратной связи с информацией об обучении и улучшение качества.[3, 212]

Физический эксперимент является основой физики, неотъемлемой частью физического воспитания, способствующей преподаванию физических теорий. Реальная экспериментальная демонстрация является незаменимой частью университетского преподавания физики, играя дополнительную роль. Демонстрационный эксперимент проводится для компенсации содержания обучения в классе, которым в основном управляют учителя. Хорошо продуманная экспериментальная демонстрация покажет основные физические величины в простой форме, поможет учащимся создать физический образ абстрактных понятий, способствуя пониманию и усвоению концепций и законов, преодолению трудностей, расширению кругозора учащихся, стимулированию воображения, повышению интереса к обучению и воспитанию способности учащихся.

Имитационная лаборатория – это инновационная модель обучения физическому эксперименту, органично интегрирующая лабораторное оборудование,

учебный контент, руководство учителей и мышление / действия учащихся с помощью ПК, образуя лабораторную систему для моделирования виртуальной экспериментальной среды. Система предоставляет мощный инструмент для обучения физическому эксперименту, преодолевая при этом долгосрочные ограничения по классу / времени экспериментального обучения, расширяя содержание, касающееся времени и пространства, эффективно улучшая качество предварительного просмотра, обзора и эксперимента, всесторонне улучшая фактические способности, полезно для обучения инновационному и исследовательскому духу, поэтому чтобы студенты могли получить систематические экспериментальные теоретические методы и полные навыки.

Почти все физические процессы, явления и эксперименты могут быть наглядно воспроизведены с помощью мультимедийных средств. Таким образом, некоторые учителя склонны использовать мультимедийные учебные программы вместо реальных демонстрационных экспериментов в классе, полностью зависящих от мультимедийных учебных программ. Эта идея и метод обучения должны быть исправлены. Учителя должны проводить реальный демонстрационный эксперимент в классе для учащихся вместо

мультимедийных инструментов, насколько это возможно, для демонстрации физических процессов и явлений. С одной стороны, это научит студентов наблюдать и анализировать реальные физические процессы и явления, поможет студентам овладеть физической природой, понять и понять реальную природу; с другой стороны, это научит студентов уважать научную идею и дух исследования истины. [4, 17]

Высококачественное университетское мультимедийное учебное пособие по физике - это лучшее средство для предоставления разнообразных аудиовизуальных изображений, которые могут наглядно показать множество физических процессов и явлений, что трудно сделать обычными средствами. В частности, он сочетает в себе преимущества мультимедийного программного обеспечения для университетской физики и традиционного преподавания физики, что значительно улучшает результаты преподавания физики в колледже. Поэтому очень важно укреплять и совершенствовать исследования университетских физических мультимедийных технологий, фокусируя и усиливая сочетание преимуществ мультимедийных технологий и традиционного преподавания, чтобы улучшить качество преподавания физики в университете.

СПИСОК ИСТОЧНИКОВ:

1. Shi Jian-hua, Liang hong. Explore the Effective Use of Multimedia Technology in College Physics Teaching. Energy Procedia 17 (2012) 2000 p
2. Wenhui Dai, Ling Fan. Discussion about the Pros and Cons and Recommendations for Multimedia Teaching in Local Vocational Schools. <https://doi.org/10.1016/j.phpro.2012.05.188> p
3. Al-Ajmi, N.A.H., Aljazzaf, Z.M. Factors influencing the use of multimedia technologies in teaching English language in Kuwait. Int. J. Emerg. Technol. Learn. 15 (2020), 290 p.
4. M.D. Abdulrahaman, N. Faruk, A.A. Oloyede, N.T. Surajudeen-Bakinde. Multimedia tools in the teaching and learning processes: A systematic review. Heliyon 6 (2020) 5312 p



ТАЪЛИМ МУҲИТИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРТИ СИФАТИДА

Замира Сафарова,

Сурхондарё вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази катта ўқитувчиси

Аннотация Мақолада мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетенциясини шакллантиришининг долзарблиги, шахснинг тил ва маданиятига таъсир қиливчи омиллари қаламга олинган. Кўп маданиятили макон шароитида замонавий мактабнинг таълим муҳити мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетенциясини шакллантириши шарти сифатида асосланади. Бу эса мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетенциясини шакллантиришининг индивидуал шартларини асослаш имконини беради.

Калим сўзлар: лингвокултурология, таълим муҳити, лингвистик ва маданий компетенция, тил ва маданият, ижтимоий-маданий муҳит, кўп миллатли мактаб.

Аннотация

В статье рассматривается актуальность формирования лингвокультурной компетенции школьников, факторы, влияющие на язык и культуру личности. В поликультурном пространстве образовательная среда современной школы базируется на формировании лингвокультурной компетентности школьников. Это позволяет обосновать индивидуальные условия формирования лингвокультурной компетентности школьников.

Ключевые слова: лингвокультурология, учебная среда, лингвокультурная компетенция, язык и культура, социокультурная среда, многонациональная школа.

Annotation

The article discusses the relevance of the formation of linguocultural competence of modern schoolchildren, the factors influencing the language and culture of the individual. In the context of a multicultural space, the educational environment of a modern school is based on the formation of the linguocultural competence of school students. This makes it possible to justify the individual conditions of formation of linguocultural competence of school students.

Keywords: linguoculturology, educational environment, linguistic and cultural competence, language and culture, socio-cultural environment, multinational school.

Тил кўп қиррали ва жонли тизим бўлиб, атроф-муҳитдаги ўзгаришларга дарҳол мослашади. Шу боис фаннинг кўплаб соҳалари каби гуманитар фанларда ҳам таълим майдонидаги ижтимоий-маданий вазиятнинг ўзгаришига бевосита ёки билвосита таъсир кўрсатиши мумкин бўлган муаммолар бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда. Шубҳасиз, она тилида сўзлашувчининг дунёқарashi ва менталитетини шакллантириш учун тил ва маданият ғоят муҳим маёқ саналади. Шу муносабат билан, лингвомаданий компетентлик бошқа тилда сўзлашувчиларни зарур ва етарли даражада тушуниш қобилиятини ўз ичига олади. Бинобарин, ахборотлашган жамиятда юкори маданиятли билимли шахсга бўлган эҳтиёж тарбияланаётган шахснинг лингвомаданий компетентлигини ривожлантириш масаласига устуворлик беришни тақозо этади.

Ўқитиша лингвомаданий ёндашув туфайли тил ўрганувчилар нафақат тилни, балки тили ўрганилаётган халқнинг анъаналари ва урф-одатларини ўрганиди, бошқа маданиятга нисбатан хурматда бўлиб, ўз маданий меросимиз орқали жами халқларнинг эътиқодларини хурмат қила бошлайди.

Лингвомаданий компетенциянинг назарий асослари масаласини ўрганиш жараённада биз шундай хulosага келдикки, ҳозирги вақтда бу атама ҳам худди “лингвокултурология” тушунчаси каби бир қанча талқинларга эга ҳамда лингвокултурологияни ўрганишнинг предмети ва усуллари бўйича умумий қабул қилинган таъриф ҳам, ягона нуқтаи назар ҳам мавжуд эмас. Фақат лингвокултурологик тадқиқотнинг “тилни маданият билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ўрганиш” деб таърифланишини инкор этиб бўлмайди. Бу масала бўйича турли адабий манбалар билан ишлаш у ёки бу даврда “лингвокултурология” тушунчасига таъриф берган қатор тилшунос олимларнинг мавжудлигини аниқлашга кўмак берди.

Мазкур атама XX асрнинг 90-йилларида рус тилшунослари В.В.Воробёв, Н.Д.Арутюнова, В.А.Масло-

ва, Ю.С.Степанов, В.Н.Телия ва бошқа тадқиқотчи-ларнинг асарларида пайдо бўлган [1].

В.А.Маслова лингвокултурология “тилшунослик ва маданиятшунослик чорраҳасида вужудга келган тилшуносликнинг бўлими” ёки “тадқиқот натижаларини ўзида мужассамлаштирган билимларнинг интеграл соҳаси” [2] сифатида таърифлайди. Э.О.Опарина эса лингвокултурологияни “жонли миллий тилда мужассамланган ва лингвистик жараёнларда намоён бўладиган моддий ва маънавий маданиятни ўрганувчи гуманитар фан” сифатида тавсифлайди [3].

Тилшунослар Э.И.Зиновиева ва Э.Э.Юрков “лингвокултурология – бу турли даражадаги тил бирликлари-ни, нутқ фаоллигини, нутқ ҳатти-харакатларини ўрганиш орқали маълум бир тилда сўзлашувчилар дунёси ҳакидаги билимларни ифодалашнинг турли усуллари-ни ўрганадиган филология фанидир” [1].

Ш.Сафаровнинг таъкидлашича, “ҳар бир шахснинг лисоний қобилияти ва мулоқот малакаси маълум маданият худудида, маданий муҳитда шаклланади ва фаоллашади” [4, 31]. Шундай экан, инсоннинг тафаккур ва лисоний фаолияти жараённада юзага келадиган бирликларнинг структуравий ва мазмуний сатҳлари-да маданий элементларнинг акс этиши табиийдир.

Таникли олими В.В.Воробёв нуқтаи назарига биноан лингвокултурология “синтезловчи типдаги мураккаб илмий интизом бўлиб, у маданият ва тилнинг фаолиятидаги муносабати ва ўзаро таъсирини ўрганиди ва уни акс эттиради” [5, 25].

В.В.Воробёвнинг фикрига асосланиб, инсоннинг нутқи ва унинг маданий қиёфаси узвий боғлиқ ва фақат яхлит бирликда кўриб чиқилиши керак деган хulosага келишимиз мумкин. Шу сабабли, маданий қизиқишлар доирасини шакллантириш орқали биз ўз лугатимизни автоматик равишда “шакллантирамиз”, деб таҳмин қилиш мумкин. Аммо замонавий жамиятда қўпчиликнинг нутқини бенуқсон саводли деб аташ мумкин бўлмаса ва вазиятни ўзгаририш зарурати туғилса, унда савол туғилади: лингвомаданий

компетенцияни шакллантириш жараёнини бошқариш мумкинми?

Маданият ҳақида бирор нарса ўрганишда тилнинг реалиярини тушуниш зарур бўлади. Тил нафақат маданият билан боғлиқ, балки у маданият таркибидан ривожланади ва уни ўзида ифода эттиради. Тил бир вақтнинг ўзида маданиятни акс эттириши ва ривожлантириши, маданиятнинг яхлит ҳолда сақланиши учун асосий воситадир.

Ёш авлоднинг дунё ҳақидаги янги билимларни “сингдириш” ва атрофдаги барча ўзгаришларга жонли муносабатда бўлиш қобилияти хеч кимга сир эмас. Шуларни ҳисобга олиб, “лингвомаданий компетенция” тушунчаси таърифни талаб қиласди, бироқ иккинчиси – “маданий компетенция”сиз у тўлиқ бўлмайди.

Фикримизча, юқоридаги тушунчани шахс ўзлаштирган миллий маданиятнинг бир қисми сифатида тушуниб, назарий ва амалий жиҳатдан қўллаётган Ю.Э.Прохоров ёндашувида аниқ мўлжал мавжуд.

“Компетенция” ва “компетентлик” тушунчаларини илмий-назарий жиҳатдан ажратиш ҳақидаги баъзи конструктив фикрларни Б.И.Хасан ўз асарида келтирган: “Компетенция – бу даъво қилинган ёки эришиш учун мақсад этиб белгиланган сифат, компетентлик – бу маълум бир одам хоҳлаган ёки зиммасига юкландан кейин эришган қийматлик” [6, 11].

Янги ижтимоий-сиёсий шароитда қадрият ва лингвистик-маданий компетенцияни шакллантиришнинг асосий шарти нима бўлиши керак? Бизнингча, таълим муҳити, таълим муассасалари ва тегишли бошқарув органларининг таълим мақсадларига йўналтирилган ҳамкорликдаги фаолияти энг муҳим рол ўйнайди.

Таълим жараёнининг якуний натижаси ва ўқитувчилар ўкув жараёни натижасида оладиган ўкув маҳсулоти унинг малакали ташкил этилишига боғлиқ. Мактабнинг қулай таълим муҳитини яратиш ва ривожлантиришдаги мақсадли фаолият шахслараро самарали ўзаро таъсирнинг шарти сифатида субъектларнинг ҳаракатларига ва уларнинг нафақат маданий, балки одамлар фаолиятини белгилайдиган психолого-гик фарқларни тушунишларига таъсир қиласди. Ўқувчилар ўзаро коммуникатив таъсир кўнималарини битириувчилар замонавий кўп миллатли жамиятда самарали маданиятлараро мулокотни ўрнатиш орқалигина ўзлаштиришлари мумкин. Шуни инобатга олган ҳолда, таъкидлаш керакки, тилни муваффақиятли ўргатиш мулокот ва маданиятлараро ўзаро таъсир, моддий ва маънавий маданият ютуқларини англаш воситасидир.

Фикримизча, мактаб муҳитида турли анъаналарнинг ўзаро таъсири, бошқа маданий қадриятларга мослашиш, таълим жараёнининг муҳим таркибий қисми бўлиб, бир худудда яшовчи халқларнинг

урф-одатлари, маданий қадриятларидаги умумий ва индивидуалликни тушуниш, бошқа маданият вакилларининг ҳаётий қадриятларига ҳурматни тарбиялашда тил ва миллатлараро интеграцияга, етакчиликка эътибор қаратилади.

Мактабда лингвомаданий таълим муҳитини ривожлантиришнинг асосий омили таълим мазмунига турли тил ва маданиятларнинг миллий жиҳатини сингдириш ҳисобланади.

Лингвомаданий компетентликни шакллантиришга йўналтирилган кўнималар устида ишлаш, масалан, кузатиш ва аниқлаш, қиёслаш ва таққослаш, мазмунни таҳлил қилиш, ноаниқликни бартараф этиш ва ижобий ёндашиш, маълумотларни тўғри талқин этиш, тушунмовчиликларнинг олдини олиш, ўз нуқтаи назарини бошқаларнинг фикрларини ҳам ҳурмат қилган ҳолда илгари суриш, тафовутларни тан олишдан иборат.

Бундай дарсларда шахсга йўналтирилган таълим методи ва рус тилини ўқитишга коммуникатив ёндашувдан максимал даражада фойдаланиш талаб этилади. Машғулотларда дарслик ва ўкув қўлланмалардан ташқари, аутентик материаллар: аудио, видео, газета ва журналлар, интернет манбаларидан, интерактив усулларни қўллаган ҳолда ақлий хужум, кейсстади, лойиҳалар тайёрлаш, ролли ўйин, дебатлар ва презентациялардан кенг фойдаланилади.

Ушбу асосга биноан, биз ўз тадқиқотимизда Термиз шаҳридаги 1- ва 3-сонли умумтаълим мактабларида ўқитишни рус тили асосларини ўрганишдан бошлаб, дастлаб (иккинчи синф) чет тилини (инглиз) параллел ўрганиш жорий этишни назарда тутдик. Шуни таъкидлаш керакки, фоизларда инглиз тилини ўрганишни танлаган ўқувчилар улуши ҳар йили сезиларли даражада ошиб бормоқда. Шундай қилиб, 2 йил олдин мактабдаги 240 нафар ўқувчининг 50-55 фоизи инглиз тилини ўрганган. Аммо бугунги кунда кўрсаткичлар биринчисига нисбатан кескин олға силжиди: мактаб ўқувчилари ота-оналарининг 92 фоизи инглиз тилини танлайди. Бу эса табиий жараён, чунки айнан инглиз тили биринчи халқаро тил мақомига эга. Қолаверса, ўқувчи қўлидаги смартфонда инглиз тилида дастурлар ва иловалар яратилган, ижтимоий тармоқларда мулокот қиласди ва улар кўпинча бу оқимдан маълумотни пассив равишида “истеъмол қиласди”. Шу билан биргага, чет эл маданияти жуда катта таъсирга эга бўлиб, унинг элементлари заиф мактаб ўқувчиси онгида ўқитувчининг ахлоқ ва ахлоқ бўйича бир неча соатлик маърузаларига караганда таъсири каттароқ. Шунинг учун рус тилини ўргатишда хорижий маданий ва чет тили элементларини мохирона ўйғунлаштириш, қиёсий таҳлил қилиш ва лингводидактик компетенцияларни шакллантириш зарур.

Т.Б.Михееванинг фикрига кўра, кўп миллатли

мактабда маданий таълим муҳитини амалга ошириш тил ўқитувчисининг ўзига хос методик компетентлигига боғлиқ ва бу фан мазмунидан ташқари, шахсий, мавзу, мета-мавзу, функционал ва ижтимоий компонентлар доирасида мактаб ўқитувчисининг яхлит педагогик фаолиятини ҳам намоён этади. [7]

Кўп миллатли мактаб ўқитувчисининг муваффақияти фаолияти ўқитиш жараёнида миллий менталитетга ҳурмати ва тўғри муносабатида ҳам намоён бўлади.

Шундай қилиб, замонавий мактабнинг лингвомаданий таълим муҳити мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетентлигини муваффақиятили ривожлантиришнинг калитидир. Бу узлуксиз жараён ҳар бир фан учун зарур педагогик ҳодиса ва услубий имкониятларни жорий этишга боғлиқ – бир вақтнинг ўзида билвосита кучли таъсирга эга. Субъектларнинг шахсий фазилатларини ривожлантиришда фазовий ва объектив муҳит, ижтимоий-маданий оила муҳити, ижтимоий-сиёсий вазият муҳим сабаблардан бўлиб, у бевосита ижтимоий муҳит синергик табиий таъсираша шаклланади. Ушбу омилларнинг ўзига хос комбинацияси маълум бир хусусиятларга ва турли эҳтиёжларга эга бўлган таълим муҳитини яратади.

Бугунги кунда асосий мезон сифатида биз кўриб чиқаётган муҳитдаги таълим жараёни субъектлари ўртасидаги муносабатларнинг характеристини кўриб чиқиши мақсадга мувофиқдир. Аммо таъкидлаш жоизки, лингвомаданий таълим муҳитининг тузилиши қўидаги мажбурий таркиби қисмларнинг мавжудлиги билан тавсифланади: илгор таълим технологиялари тўплами, синфдан ташқари ишларнинг хусусиятлари, ўқув жараёнини бошқариш услуби, ташқи таълим ва ижтимоий институтлар билан ўзаро муносабатлар.

Замонавий ижтимоий воқелик талаб қиласидан маданиятили шахс сифатларини умумий ўрта таълимнинг янгилangan мазмунига киритиш мактаб сиёсатининг амалий йўналишини тиклайди ва таълим жараёни субъектларидан педагогик ўзаро муносабатлар можијати ва тузилишига янгича ёндашувни тақозо этади.

Маданий нуқтаи назардан, тил (нутқ) нафакат маданият, тажриба ва билим алмашиш воситаси, балки она тилида сўзлашувчининг маданиятни тушуниш усулидир. Ушбу воситанинг муваффақиятили амалга ошириш шартларидан бири тилга таъсир қилувчи маҳсус усул ва ёндашувлардан фойдаланишdir. Жамиятда самарали мослашиш, маданиятни сақлаш ва у ҳақидаги билимларни кейинги авлодларга етказиш учун она тилида сўзлашувчи менталитетининг маданий ва лингвистик ўзига хослигини сақлаб туриши ва етказиши жамият тараққиётининг муайян босқичидаги маданиятини камраб олиши ва намоён қилиши билан аҳамиятлидир [8]. Лингвомаданий компетенция биринчи навбатда, она тилида сўзлашувчининг онги ва менталитетига таъсир қилувчи сўзлар, иборалар,

фразеологик бирликларни ўз ичига олган тил тизими ҳақидаги билимдир. Аммо бу тилда мавжуд бўлган сўз ва ибораларни санаб ўтишнинг оддий қобилияти эмас, балки она тилида сўзлашувчининг маданиятини акс эттирадиган маълум билимлар тўпламидир.

Кўп маданиятили таълим муҳитидаги Термиз шаҳри 1- ва 3-сонли умумтаълим мактаблари негизида мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетентлигини ривожланиш даражасини аниқлаш учун тажриба амалга оширилди. Тажриба давомида эмпирик усуллар (кузатиш, сўрок қилиш, текшириш) ва экспериментал тадқиқот натижаларини статистик қайта ишлаш усуллари қўлланилди. Тадқиқот икки йил давомида ўтказилди, ўқувчиларнинг бир хил таркиби (7-9-синфлар) ўрганилди. Умуман олганда, тажрибада 34 нафар мактаб ўқувчиси иштирок этди. Дастребки босқичда ўқувчиларнинг тил ва маданият даражасини аниқлаш, ахлоқи ва хулқ-атворини шакллантириш, таълим муҳити субъектлари билан самарали ҳамкорлик қилишга тайёрлигини билиш мақсадида сўров ўтказилди. Назорат натижаларини олгандан сўнг, олинган маълумотларни тузатиш бўйича тизимли ишлар олиб борилди.

Замонавий воқелик шароитида мулоқот муаммоларини ҳал қилишда ўзлаштирилган фан билимларини кундалик ҳаётда амалий қўллашни ўз ичига олган “Нутқ одоби” синфдан ташқари тўғарак дастуридан фойдаланилди. Даструр катта тарбиявий аҳамиятга эга ва фанлараро даражада ўқувчиларда универсал таълим фаолиятини (шахсий ва метасубъект) шакллантиришга ёрдам беради ва мактаб ўқувчиларида лингвомаданий компетентликни ривожлантиришга ёрдам берди.

Тадқиқот натижасида ўқувчиларда ўзга маданиятни тушуниш ва унга нисбатан бағрикенглик хислати шаклланди. Лингвомаданий компетентликни ривожлантириш орқали реал ҳаёт учун зарур бўлган кўнимкалар ҳам ривожланди.

Хулоса қилиб айтганда, мактабда коммуникатив ҳодиса ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида тил, маданият, менталитет, қадрият ва бошқалар билан ажralиб турадиган умумий коммуникатив маконга айланасагина, ўқувчиларнинг лингвомаданий компетентлигини ривожлантириш учун зарур таълим муҳити шаклланади. Зоро, факатгина бу каби коммуникатив муҳитда инсон шаклланади, маънавий ҳаёт қадриятларини яратишга кодир бўлади.

Бизнинг тадқиқотимизда мактаб ўқувчиларининг лингвомаданий компетентлигини таълим муҳитидаги бошқа субъектлар билан ўзаро алоқада самарали амалга ошириладиган лингвистик, ижтимоий-маданий хусусиятлари бутун тизимининг ривожланиши кўрсаткичи сифатида белгилашга имкон берди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Зиновьева Е. И., Юрков Е. Е. Лингвокультурология: теория и практика. – СПб.: Издательский дом «МИРС», 2009. – 291 с.
2. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / В. А. Маслова. – Москва, 2001 – 208 с.
3. Опарина Е. О. Лексика, фразеология, текст: Лингвокультурологические компоненты // Язык и культуры. – Вып. 2. – М., 1999.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилишунослик. – Жиззах: Санзор, 2006. – 65 б.
5. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва, 1997 – 331 с.
6. Иванов, Д. А. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий: учеб. – метод. пособие / Д. А. Иванов, К. Г. Митрофанов, О. В. Соколова. – М; АПК и ППРО, 2005. – 101 с.
7. Михеева Т. Б. Полиэтническая школа и проблемы многоязычия в российском образовании (на примере школ Донского региона) // Учёные записки Забайкальского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. 2010. №5. С. 44-50.
8. Мўминов С.М Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий – лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2000. – 47 б.



ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ ТАРИХИДА ЭВФЕМИК ВА ДИСФЕМИК ИФОДАЛАРНИНГ ИЛК НАМУНАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Садоқат Самандарова,
ЎзРФА ўзбек тили ва адабиёти,
фольклори институти таянч докторанти

Аннотация

Мазкур мақолада тилишуносликда нутқни нейтрал бўлмаган тарзда ифодалашга хизмат қилувчи тил бирликлари эвфемизм ва дисфемизмнинг назарий асослари, хусусан, инглиз тилишунослигидаги учрайдиган дастлабки намуналари ва уларнинг бугунги қун лингвистикаси билан тақоси таҳлил қилинган. Шунингдек, ушбу бирликлардан фойдаланишига турли халқлар менталитетининг таъсири борасидаги фикр-мулоқазалар келтирилган.

Калим сўзлар: эвфемизм, дисфемизм, бадиий публицистика, риторика, манипуляция, табу, маданий мулоқот, прагматик маъно.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы эвфемизмов и дисфемизмов, языковых единиц, служащих для выражения речи ненейтральным способом в языкоznании, в частности, первые образцы, встречающиеся в англоязычной лингвистике, и их сравнение с современным языкоznанием. Также есть комментарии о влиянии менталитета разных народов на употребление этих единиц.

Ключевые слова: эвфемизм, дисфемизм, художественная журналистика, риторика, манипуляция, табу, культурная коммуникация, прагматический смысл.

Annotation

This article analyzes the theoretical foundations of euphemisms and dysphemisms – which are language units that serve to express speech in a non-neutral way in linguistics, in particular, the first samples found in English linguistics and their comparison with modern linguistics. There are also comments about the influence of the mentality of different nations on the use of these units.

Keywords: euphemism, dysphemism, fiction journalism, rhetoric, manipulation, taboo, cultural communication, pragmatic sense.

Лингвистик матнларда фикр ифодалашнинг турли услублари бор. Сўнгги йилларда уларнинг ичидаги эвфемия ва дисфемия тил бирликларидан фойдаланиш, айниқса, яққол кўзга ташланмоқда. Маълумки, эвфемия ва дисфемия ҳодисаси дунё ҳамда миллий тилшуносликда кўп йиллардан буён ўрганиб келинади. Мана шу давр мобайнида юзага келган қуйидаги таъ-

рифлар ушбу икки тил бирликлари ҳакида умумий тасаввурни ҳосил қилишга ёрдам беради. Хусусан, “Лингвистический энциклопедический словарь”да эвфемизм атамасига шундай таъриф берилган:

“Эвфемизм – бу сўзловчи назаридаги қўпол, ноқулай бўлган сўз ва ифодалар ўрнида қўлланган, уларга маънодош бўлган эмоционал бетараф сўз ва ифодалар” [8, 590]

“Эвфемизм” атамаси юончакелади; – “evfemizmos”, яъни “ey” – “яхши” ва “femi” – “айтаман” сўзларидан хосил бўлган. Эвфемизм атама сифатида қўлланила бошлангач, унинг “яхшилик ваъда қиласиган сўз” деган ўзига хос маъноси юзага келган. [9, 124].

Эвфемия, умумий қилиб айтганда, маълум бир ходиса, вазиятни “қоғозга ўраган” ҳолда, мавжуд асл ҳолатидан соддалаштириш, “юмшатиш”ни англатувчи нутқ ҳодисаси саналади. Масалан, айтилиши, эшитилиши қўпол ёки маълум бир вазиятларда уят саналган ҳомиладор сўзини, оғироёқ, юкли сўзлари ёки фарзанд кутиш бирикмаси билан алмаштириб қўлланилиши эвфемия ҳодисасидир.

“Эвфемизмнинг пайдо бўлиши инсоният тафаккури ва ахлоқий қадриятлар ривожи билан боғлиқ. У нафақат тил ҳодисаси (ифода этаётган шахс нуқтаи назаридан нокулай бўлган бирликлар ўрнида қўлланган сўз, сўз бирикмаси ёки гап), балки инсоннинг нутқий вазиятни қайсиdir маънода ўзгартиришга мойиллиги сифатида ҳам намоён бўлади. Мақбул сўз қўллана туриб, сўзловчи томонидан ман этилган (табу) бирликлар қўлланиши натижасида юзага келиши мумкин бўлган носоз муҳит юмшатилади”. [11, 6]

Дисфемизм эса маълум бир мазмундаги сўзни салбий бўёқдорлик билан ифодалашга хизмат қиласиган тил бирлиги саналади. Т.В.Матвееванинг луғатларида терминология тизимида дисфемизмга шундай таъриф берилади: “Кескин ҳиссий баҳони ифодалаш шакли, услубий жиҳатдан нейтрал сўзни ёки ифодани қисқартирилган, қўпол сўз билан алмаштириш ҳодисасидир”.

Эвфемик ва дисфемик бирликларнинг юзага келиши қўпасрлик тарихга эга. Бу тарихнинг илдизи Қадимги Юнонистон нутқий маданиятига бориб тақалади. Хусусан, милоддан аввалги V асрдан бошлаб эвфемизмлар ҳақида матн ва рисолалар пайдо бўлгани ҳақида маълумотлар мавжуд. Милоддан аввалги 300 йилларга оид қадимги юон файласуфи Аристотелнинг “Риторика” асарида сўз ва ибораларни юмшатиш ва безаш ғоясининг ўзига хос семантик жиҳатлари ҳақида қайдлар топилган. [7, 18]

Рим Марк Туллиус Цицероннинг икки аср кейин ёзилган нотиқлик рисолаларида таъсир қилувчи сўзларни танлаш бўйича маслаҳатлар, шу жумладан, қўпилликни истисно қилувчи эвфемизмлар ҳақида қуйидаги фикр келтирилган:

“Бир-бирига муқобил бўлган сўзлар ичida энг гўзал ва таъсирчанроқларини танлаш лозим. Агар нутқда маъносиз ёки ноўрин сўзлар ишлатилса, у бутун мазмуннинг номақбул, қўпол ёки тушунарсиз бўлиб қолишига хизмат қиласи”. [12]

Маълумки, Қадимги Юнонистоннинг эстетика қоидалари қўплаб гарб мамлакатлари маданияти учун асос вазифасини ўтаган. Лотин ёзувидағи сўзларнинг

ўзга тилларга интеграцияси орқали риторикага оид қонуниятларда ўша тиллар ватанига ҳам кириб борган. Италия, Испания, Франция, Германия ва Англия каби гарб мамлакатларида риторикага хос билимлар ўрта асрларда, айниқса, оммалашган.

Бу икки тил бирлиги бевосита жамиятдаги мулоқот маданияти (ёки маданиятсизлиги) шаклланиши давомида қўплаб тадқиқотчилар томонидан ўрганилган. Табийки, ҳар бир миллатнинг эвфемик ва дисфемик тил бирликлари мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаёт тарзи ҳамда менталитет қонуниятларидан келиб чиқиб тадқиқ қилинади. Хусусан, инглиз тилида сўзлашувчи мамлакатларга тааллуқли мазкур мавзуга оид ишлар XIX асрдан бошлаб кўпая бошлаган.

“Эвфемизм” атамаси илк бор луғатларда учраши XVII асрнинг ўрталарида содир бўлган, деб ишонилади. 1656 йилда эса Томас Блоунтнинг “Глоссография: Ёки, бизнинг нозик инглиз тилимизда ишлатиладиган ҳар қандай тилдаги барча қаттиқ сўзларни шарҳловчи луғат” (“Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue”) нашр этилди. Унда атамага қўйидагича таъриф берилган: “Ёмон сўзнинг яхши ёки ижобий талқини”. [2, 224]

Айнан эвфемизмга оид хос луғатлар эса XX асрнинг сўнгига келиб нашр этилган. “A Dictionary of Euphemisms”, “The Wordsworth Book of Euphemisms: the Hilarious Guide to the Unmentionable” каби луғатлар шулар жумласидандир.

“Кембриж ҳалқаро инглиз тили луғати”да эса “эвфемизм” қўйидагича таърифланади: “(the use of) a word or phrase used to avoid saying another word or phrase that is more forceful and honest but also more unpleasant or offensive”. Яъни: “маълум бир сўз, иборани таъсирлироқ ёки мулойимроқ, баъзан ёқимсиз ёки ҳақоратли тарзда ифодалаш мақсадида бошқа бир сўз ёки иборани ишлатиш ҳолатидир”. [4, 471]

“Инглиз тилининг янги Оксфорд теазураси”да эвфемик бирликларга нисбатан шундай қайдлар келтирилади: “Polite term, substitute, mild alternative, indirect term, understatement, underplaying, softening, politeness, genteelism, coy term” – “Ахлоқ атамаси, ўрнини босувчи, юшоқ муқобил, четлаб ўтадиган ёки айланма атама, етарли баҳо бермаслик, (камситиш, таҳқирлаш), юмшатиш, хушмуомалалик, иболи (атама)”. [5, 322]

Ҳар икки таърифнинг эътиборли жиҳати шундаки, эвфемизм атамаси фақат юмшатувчи ифодаларга нисбатан эмас, балки баъзан ёқимсиз ва ҳақоратли (unpleasant or offensive), камситиш, таҳқирлаш (underplaying) маъносида ҳам қўлланилиши қайд этилган. Айни жиҳат эвфемизмлар матн ичida (кесатиқ тарзда) шу каби мазмунни ҳам англатиши мумкинлигини билдиради.

Тадқиқотчилар ўз ишларида эвфемик ва дисфемик бирликларнинг ўша даврдаги ижтимоий аҳамиятига эътибор қаратган. Хусусан, британиялик лингвист А.Росснинг 1954 йилда чоп этилган мақоласида ижтимоий табақалашга оид сўзларни юмашатилган муқобилларига алмаштириб қўллаш гояси илгари сурнгандиши. [6, 213]

Шунингдек, эвфемизмга оид дастлабки тадқиқот ишларида, табиийки, табу муаммоси билан узвий алоқадорликлар ўрганилган. Масалан, XX асрда Америка тилшунослари Ж.М.Стедман, Ф.Н.Скотт оғзаки табулар ва эвфемизмларга тааллуқли тадқиқот олиб борган.

Фарбдаги эвфемизм тадқиқотининг муҳим хусусиятларидан бири тадқиқотнинг амалий хусусиятидир. Бу, биринчи навбатда, Британия ва Америка тилшунослигига тегишли. Эвфемизм, эвфемизм муаммоларини ўргангандаги кўплаб хорижий тилшунослар анчагина таниқли лексикографдирлар (С.Кани, Ж. Ниеман ва К.Силвер, Р.А.Спирс, Р.Холдер, Ж.Аито, X.Роусон ва бошқалар).

Американинг таниқли тилшуносларидан бири С.Кани биринчилардан бўлиб эвфемизмларнинг икки тилли лугатини (инглиз ва испан тиллари) тузди, мазкур тушунчани изоҳлар экан, эвфемизмнинг тил ҳодисаларига алоқадорлигини ҳам асослаб берди. Бу факт ҳам Америка тилшунослиги эвфемизмларни кенг талқин қилиш анъаналарига содиқлигини тасдиқлади.

Тадқиқотчилар эвфемизмларнинг бадиий тил ёки газеталар тили, сиёсий ёхуд дипломатик дискурсда бажарадиган вазифаларига ҳам алоҳида эътибор қаратганлар. Масалан, рус тадқиқотчиси Е.Темирбаева АҚШда нутқий коммуникацияда сиёсий эвфемизмларнинг ҳосил бўлиши ва сиёсий дискурсдаги лингвистик вазифалари муаммосини, Е.Кипрская эса сиёсий эвфемизмларнинг публицистик дискурсда асл воқелик ҳақидаги маълумотларни пардалаш, яшириш вазифаларини бажаришини ўргангандиши.

Замонавий тилшунослик даврига келиб эвфемизмларга оид ғарб тадқиқотлари ичida ҳам муайян мавзули гуруҳларини мақсадли ўрганишга бағишиланган ишлар кўпайди: сиёсий эвфемизмлар, иқтисодий ва бошқалар (Л.Руссел). Бундан ташқари, эвфемизмлар маҳсус нутқлар доирасида таҳлил қилинди. (А.Морено, М.Радулович). Шунингдек, эвфемизмларни қиёсий тадқиқ этиш анча оммалашган (С.К.Мугайр). Шуниси диққатга сазоворки, замонавий тилшуносликда эвфемизм ва табу ўргасидаги боғлиқликни ўрганишга бўлган илмий қизиқиш йўқолмади.

Дисфемизм сўзи юонча “dys”, “mis”, “feme” – “нутқ, овоз, обрў” сўзларидан ҳосил бўлган. Атама сифатида XIX асрдан бошлаб ишлатила бошланган. Баъзи тилшунослар дисфемизмга малфемизм ва ка-

котемизм сингари атамалар билан синоним сифатида қарайди.

Хозирги кунга қадар дисфемия жараёни, унинг мақсади ва воситалари, усуслари, таълим ва фойдаланиш соҳалари етарли даражада ўрганилмаган. Кўпинча дисфемизм факат эвфемизмга қарама-карши ҳодиса сифатида тилшуносларнинг асарларида тилга олинади (Б.А.Ларин, Л.П.Крысин, Т.А.Островская).

Рус тилшунослигига дисфемизмларнинг семантикаси ва прагматикасига бағишиланган айрим асарлар йўқ эмас. А.Н.Резанова, Т.Н.Абакова, Т.С.Бушуева тадқиқотлари шулар жумласидан. Р.А.Оганесян, И.В.Яковлева, А.Н.Пягай, М.С.Пестова ишларида эса дисфемиянинг алоҳида жиҳатларига эътибор қаратилган.

Хориж тилшунослигига К.Аллан ва К.Барридж, М.Касас Гомез, С.Домингез, А.Р.Педраза, Е.С.Фернанде ишларида дисфемия ҳодисасининг турли жиҳатлари тадқиқ қилинган.

Дисфемия ҳодисасининг эвфемизмга нисбатан кам тадқиқ қилинганига сабаб сифатида тилшунослар уни маданиятсизлик тарғиботига хизмат қилувчи омил деб баҳолагани қайд этилади:

“Эвфемизмнинг акси ҳисобланган дисфемизм ҳодисаси ҳам қадимдан мавжуд бўлган эса-да, эвфемизмдан фарқли ўлароқ, кам ўрганилган. Бунинг сабабини эса, юқорида айтилганидек, маданий мулоқот меъёрларидан излаш муҳим. Чунки улар бадий адабиётда, маданий мулоқот муҳитида одоб нуктаи назаридан берилиши мумкин бўлмаган бирлик сифатида қаралган”. [11, 32-33]

Хусусан, инглиз тилшунослигига ҳам айни мавзудаги тадқиқотларнинг етишмовчилиги яққол сезилади. Инглиз тилидаги дисфемизмларни тадқиқ қилган рус тилшуноси А.Н.Резанова ҳам ўз ишида айнан шу муаммога дуч келгани айтади ва унинг изоҳини кельтириб ўтади: “Одну из причин подобного игнорирования дисфемизмов, по-видимому, надо искать в факте этической ненормативности явлений этого рода, так что запрет на их употребление в стандартном литературном языке косвенным образом отразился на их исследовании вопреки их широкой представленности в обыденной речевой практике. При этом не принимается во внимание один из наиболее существенных аспектов данной проблемы, а именно прагматика дисфемии – причины, побуждающие к употреблению дисфемизмов, их социально-исторические и психологические предпосылки”. [10, 11]

Дастлаб, Оврупо тилшунослари эътиборини тортган айни ҳодиса Видлак, Жельвис, Кацев, Шейгаль, Аллан, Гиезек Каби олимларнинг ишларида ўз аксини топади. Уларда таъкидланишича, дисфемизмларнинг эвфемизм билан ўхшаш томони шундаки, денотатга маълум коннотатив мазмун юклайди (яъни маълум

бир сўзнинг умумистеъмолдаги ўз маъносига ўзига хос (оригинал) маъно юклаш орқали бошқа маънода қўлланилиши) тил сатҳида синонимик қаторни ташкил этади, эвфемизм билан бирдек қадимий жараён ҳамда нутқий ҳодиса сифатида қаралади.

Дисфемизм иккинчи жаҳон урушидан кейингина, турли иллатлар (гиёҳвандлик, фоҳишабозлик, ўғрилик, етимлик) авж олгач, эвфемик бирликлар қаторида нутқ сатҳида етарли даражада ўз ўрнига эга бўла бошлайди ва тишлинослик тадқиқ манбаига айланади. Д.Луренс ва бошқа тадқиқотчилар томонидан сўз эркинлиги ва очиқлик ёқланар экан, уларнинг фойдали томонлари таъкидланади. Масалан, ноxуш тушунча қанчалик беркитилса, шунчалик қизиқарли бўлиши, ёмонликни тақиқлаган сайин унга эътибор кучайиши ва самараси тескари бўлиши мумкинлиги эътироф этилади. [11, 32-33]

Гарчи дисфемизм атамаси билан боғлиқ тўлиқ таъриф ва маълумотлар илмий тадқиқотларда кам учраса-да, инглиз тишлинослигига табу ва таъқиқланган сўзларга оид илмий ишлар ҳамда айrim манбаларнинг эвфемизмга бағишиланган бўлимларда дисфемизмга оид қайдлар учрайди. Масалан, Э.Сагариннинг 1968 йили нашр этилган “The Anatomy of Dirty Words” асарининг “Euphemist, What’s the Good Word?” бўлимида дисфемизмга тааллуқли фикрлар мавжуд.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Allan, K. and K. Burridge. *Euphemism and Dysphemism, Language Used as Shield and Weapon*. Oxford-New York: Oxford University Press. 1991. p. –263
2. Blount T. *Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue*. L.: Tbo, Newcomb, 1656. p. –224.
3. Bolinger, D. *Language, the Loaded Weapon: the Use and Abuse of Language Today*. London: Longman. 1982. p. –149.
4. Cambridge International Dictionary of English. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. p. –1774.
5. New Oxford Thesaurus of English. New York: Oxford University Press Inc, 2000. p. –1087.
6. Jucker A. H. *History of English and English Historical Linguistics*. Stuttgart, 2000. p. –213
7. Ruccella L. *L'économiquement correct: analyse du discours euphémique sur la crise dans la presse française et italienne // Thèse en cotutelle internationale en vue de l'obtention du grade de Docteur en Sciences du Langage*. P. – Torino, 2014.
8. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.:1990, –685 с.
9. Бенвенисте, Общие лингвистические проблемы . СПА. 1974: –371 с.
10. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции. Диссертации по филологии, специальность. 2008. –179 С.
11. Қодирова Х.Б Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм. Ўқув-услубий қўлланма. 2013 й. –Б. –47.
12. Цицерон М. Т. О переводчиках (о наилучшем роде ораторов) [Электрон манба]. <http://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1285148370>

Шунингдек, Ж. Дональднинг 1988 йилда чоп этилган “A Dictionary of Obscenity, Taboo and Euphemism” асарида ҳам бу тушунча ҳақида фикр юритилган.

Ўтган асрда Гарвард университетининг профессори сифатида фаолият юритган америкалик тилшунос Болингер эса эвфемизм билан бир қаторда дисфемизмга ҳам таъриф берар экан, уларга метафора ёки унинг таркибий қисми сифатида қараш кераклигини таъкидлайди: “if we discover that all these characteristics also apply to euphemisms and dysphemisms, then euphemisms and dysphemisms should be regarded as metaphors or at least as a special case of metaphor”. [3,149]

Шунингдек, инглиз тишлинослари ичida Аллан ва Бурриж муаллифлигидаги “Euphemism and Dysphemism, Language Used as Shield and Weapon” номли ишда: “A dysphemism is an expression with connotations that are offensive either about the denotatum or to the audience, or both, and it is substituted for a neutral or euphemistic expression for just that reason”, [1, 26] дейилади. Яъни дисфемия – бу ҳақоратли маънога эга бўлган ифода ёки денотация ҳақида, ёки омма ҳақида, ёки иккалasi ҳақида ва у айнан шу сабабдан нейтрал ёхуд эвфемистик ифода билан алмаштирилди, дейилади.

ДЕМОКРАТИЯНИНГ ГЕНДЕРЛАШУВИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАР СОҲАСИДА ПАРАДИГМА СИФАТИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ МОХИЯТИ ВА НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Санжар Абдурахмонов,

Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти таянч докторанти.

Аннотация

Ушбу мақолада “гендер тенглик” концепциясининг ижтимоий муносабатлар соҳасидаги муаммоларни таҳлил этишига парадигма сифатида қўлланилиши, шунингдек, демократияниң гендерлашувида мазкур парадигманинг ўрни тадқиқ этилган. Муаллиф гендер парадигма “эркак” ва “аёл” бинар ёндашувига асосланганлиги унинг фақат гендер муносабатлар доирасида чекланиб қолиши ва натижсада, муаммога ёндашувларнинг бошқа муқобилларини тан олмайдиган мутлоқ қарашга айланишига олиб келганлигига асосий эътиборни қаратади. Мақолада гендер муносабатлар соҳасида парадигма сифатида шаклланган феминистик назарияниң ички зиддиятлари ва камчиликлари хориж амалиёти мисолида таҳлил қилинди.

Калим сўзлар: демократлашии, гендер тенглик, парадигма, феминизм, гендер муносабатлар, жинсий зўравонлик, майший зўравонлик, ижтимоий муносабатлар.

Аннотация

В данной статье рассматривается введение понятия «гендерное равенство» как парадигмы в анализ вопросов в сфере социальных отношений, а также роль парадигмы в гендеризации демократии. Автор акцентирует внимание на том, что на основе бинарный подход «женщины» и «мужчины» гендерная парадигма ограничивается гендерными отношениями и становится абсолютной идеей, нетерпимой к другим альтернативам, предлагающим решения поставленных задач. На примерах зарубежной практики обсуждаются внутренние противоречия и недостатки феминистской теории как парадигмы гендерных отношений.

Ключевые слова: демократизация, гендерное равенство, парадигма, феминизм, гендерные отношения, изнасилование, домашнее насилие, социальные отношения.

Annotation

This paper discusses the introducing of the concept of “gender equality” as a paradigm into analysis of issues in the field of social relations, as well as, the role of the paradigm in genderization of democracy. An author focuses on the fact that basing on a binary approach of “female” and “male” makes a gender paradigm limited to gender relations and become an absolute idea which is intolerant to other alternatives suggesting solutions to given issues. The internal tensions and shortcomings of feminist theory as paradigm in gender relations are discussed in examples of foreign practices.

Keywords: democratization, gender equality, paradigm, feminism, gender relations, rape, domestic violence, social relations.

Гендер тенглик жамият ва давлат институтлари нинг демократлашув ҳолатини белгиловчи мезон бўла олмаслиги, балки демократлашув жараёнини англашнинг алоҳида муқобил талқини сифатида қўлланилиши назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилинмаганини бугунги кундаги демократлашув жараёнларини концептуаллаштиришнинг асосий муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. Шу маънода, жаҳонда демократияниң гендерлашуви юз берётган бир вақтда демократлашиш жараёнларини феминистик нуқтаи назардан таҳлил этишда мазкур парадигманинг роли алоҳида аҳамиятга эга эканлигини назардан соқит килиб бўлмайди. Мақолада, асосан, анализ-синтез, қиёслаш усулларидан ва турли ижтимоий сўровномалар натижаларидан фойдаланган ҳолда, мавзуни тадқиқ қилишга ҳаракат қилинди.

Мавжуд адабиётларда гендер парадигманинг де-

мократия гендерлашувидаги роли ўрганилмаган. Гендер тенглик муаммолари, асосан, инсон ҳуқуқлари (жинсий ва майший зўравонлик, дискриминация) контекстида тадқиқ этилган [1, 255]. Ушбу адабиётларни бирлаштириб турадиган умумий хусусият шундаки, барчasi “гендер тенглизлик” ва “жинса асосланган тенглизлик”нинг феминистик талқинини танқид этишга қаратилган. Шунингдек, гендер тенгликниң ижтимоий муносабатлар соҳасида парадигма сифатида қўлланилиши ҳам етарлича тадқиқ этилмаган. Биргина тадқиқотда (радикал) феминизм назарияси парадигма [2, 680] сифатида қўлланилади. Бироқ бу уриниш ҳам гендер парадигмасини тушуниширишда “майший зўравонлик” контексти билангина чекланади. Британия Колумбияси Университети олимлари Доналд Даттон ва Тоня Николслар феминистик назарияларнинг биргина майший зўравонлик

контекстида қўлланилишининг назарий камчиликлари ва стереотипларини кўрсатиб бериб шундай дейдилар: “Ушбу парадигма майший зўравонликларга бағишлиланган адабиётларда эркак киши мутлоқ ёки умуман олганда, зўравон сифатида тасвирланганинг буён ривожланиб келмоқда. Ушбу қарашга мос келмайдиган ҳар қандай ва барча маълумотлар эътиборсиз қолдирилади, инкор этилади ёки уларни тушунишишга бўлган уринишлар қабул қилинмайди. Гендер парадигмаси функцияси аёлларга нисбатан мувозанатлашган муносабатни шакллантиришига қаратилган ижтимоий ўзгаришни амалга оширишдан иборат эди” [4, 682]. Америкалик инсон ҳуқуқлари химоячиси, ҳуқуқшунос Лара Стемпл гендер тенглик тарғиботи аёлларнинг тенгсизлиги ҳақидаги тасаввурларни қайта жонлантираверишини ва амалиётда гендер тенгсизликни бартараф этишига қаратилган чоралар жинсга асосланган чеклов доирасида фойдасиз ва самарасиз бўлган “биз уларга қарши” дуалистик ёндашувни мустаҳкалашигагина хизмат қилишини таъкидлайди. Англиялик тарихчи Люси Делап феминист ва маскулинист ҳаракатларнинг “жинсий зўравонлик” ҳақидаги баҳслар атрофида ривожланиши ва ўзаро муносабатларининг тарихий шарт-шароитлари ва омилларини тадқиқ этади. Унга кўра, “жинсий зўравонлик” феминист концепция бўлса-да, Англия ва Америкадаги феминист ва маскулинист ҳаракатлар “жинсга асосланган зўравонлик” борасида ўзаро келиша олмасалар-да, бу борада умумий тил топишишган.

Бирок муаллифлар эътироф этганидек, гендер тенгликни ижтимоий муносабатларнинг барча соҳаларига парадигма сифатида қўлланилиши муаммоларни бир тарафлама талқин этишига ва оқибатда, феминистик қарашларни мутлоқлаштиришига олиб келади. Бундай ҳолатда гендер парадигмасининг ижтимоий муносабатларнинг бошқа, “майший зўравонлик”дан ташқаридаги соҳаларида ҳам қўлланилишини қайта кўриб чиқиши заруратини тақозо этади.

Юқорида билдирилган мулоҳазаларимизни далиллаш учун айнан феминистик ҳаракатларга бешик бўлган Англиядаги мавжуд вазиятни ифода этган қуйидаги статистик маълумотларни келтирмоқчимиз. Британиядаги нуфузли нашрлардан бири бўлмиш “Guardian” да “Британия аёлларга қарши зўравонликлар бўйича ортга тисарилмоқда” мақола муаллифи аёлларга қарши зўравонликлар ҳам жамоатчиликнинг, ҳам ҳукumatнинг эътиборидан четда колиб кетаётганлигини таъкидлаб шундай дейдид: “Британия ортга чекинмоқда. Шундок ҳам зулмкор турмуш ўртоқдан халос бўлишнинг чидаб бўлмас мураккаб жараёни билан курашаётган аёлларни қўллаб-қувватлаш ўз ҳолига ташлаб қўйилди. Аёллар ҳам руҳий, ҳам жисмоний жиҳатдан зиён қўрмоқда-

лар, оқибатда, ўлим топмоқдалар...” Муаллиф ўз фикрида давом этиб мазкур ҳолат бўйича қўйидаги статистикани келтиради: “Ушбу мамлакатда оиласдаги зўравонликларнинг миқёси даҳшатли даражададир. “Вуменс Эид” миллий хайр-саҳоват жамғармасининг ҳисоб-китобига кўра, сўнгги бир йилда 1,2 минг аёл бундай зўравонликни ўз бошидан ўтказган, шунингдек, ҳар тўрт аёлдан биттаси ўз ҳаёти давомида бунга дучор бўлади. Ҳар ҳафта иккитагача аёл ҳозирги никоҳидаги ёки собиқ турмуш ўртоғи томонидан ўлим топади. Шунингдек, кўпгина бундай ҳолатлар хабар қилинмайди. Полиция ҳар 30 секунда оиласий зўравонлика доир қўнгироқларни қабул қилади”. [6]

Ўз-ўзидан савол туғилади: бу нимадан дарак беради? Ҳар иккала томон ҳам бир-бирини айблаш учун етарли асосларни келтириши мумкин. Айни пайтда, ушбу баҳсада ҳар қандай феминист мазкур маълумотлардан ўз фойдасига далил сифатида фойдаланиши ва муаммони ҳал қилиш учун яна ўша эскича қарашни, яъни барча маданий институтларни ва тартибларни бутунлай ўзгартириш лозимлигини таъкидлаши табиий. Агарда муаммони Farb бўлмаган жамиятлар контекстида қўрганимизда эди, масала аниқ: барчасига эскича қарашлар ва унга асосланган ижтимоий-сиёсий институтлар айбдор! Лекин инсон эркинликлари ва ҳуқуқлари Farb цивилизацияси ютуғи деб жар солинаётган бир вақтнинг ўзида айнан ушбу цивилизацияга дахлдор жамиятларда муаммонинг бундай авж олишини қандай тушунмок керак? Пададок! Бу ушбу цивилизацион ютуқларга ҳам, ҳар қанча адолатли гоя бўлса-да, феминистик қарашларга нисбатан асосли шубҳаларни юзага келтиради. Бугунги кунда жаҳондаги барча мавжуд муаммоларни ҳал қилишда инсон ҳуқуқлари парадигмаси ёки унинг бир томонлама кўриниши бўлган феминистик ёндашув кутилган самарани бермаяпти. Аксинча, бу тенгсизликнинг ҳар қандай кўринишларини ўз ичиға олган муаммоларни янада мураккаблаштирумокда. Бундай ҳолатлар Farbий бўлмаган жамиятлар олдида Farb томонидан илгари сурилаётган ягона ва муқобили мавжуд бўлмаган дея тақдим этилган феминистик парадигма ва ёндашувларни чипакка чиқаради-қўяди. Бунда Farbий бўлмаган жамиятлар Farbда ечим топа олмаган муаммоларни “ўз шахсий” муаммолари сифатида эътироф этишига ва анъанавий моделларнинг уларни ҳал қилишнинг ягона манбаи эканига даъво қилишларига кент йўл очиб беради.

Бу борада эътиборни вазият Farbga анча таниш бўлган мусулмон мамлакатларидан бошқа цивилизациялар томонга қаратсан, воқелик анча ойдинлашади. Негаки, мусулмон мамлакатлари назарда тутилган муаммоларга анча консерватив муносабатда эканлигини ҳисобга олган ҳолда, бошқа цивилизацияларда муносабат анча “юмшоқроқ” ва ҳаттоқи бетараф

(масалан, гей унсурларга нисбатан) позицияни эгалайди. Мисол учун, Ҳиндистонни олайлик. Бугунги кунда Ғарб илмий доираларида ўз мустақиллигини қўлга киритганидан буён демократик ривожланиш йўлидан оғишмай келаётган мамлакат сифатида эътироф этиб келинаётган ушбу мамлакат оилада аёлларга нисбатан зўравонликлар кўрсаткичи бўйича “илғорлар” сафидан жой олиб келаётгани юкоридағи фикримизга яққол мисол бўла олади. Ҳиндистон ички ишлар вазири Ҳарібҳаи Паратхихаи Чаудҳари инсон ҳуқуқлари фаоллари томонидан никоҳдаги жинсий зўравонликка жиноят сифатида қаралиши лозимлиги таклифига жавобан баёнотида қўйидаги-ча жавоб берган эди: “Никоҳдаги жинсий зўравонлик тушунчасини, ҳалқаро миқёсда тушунилганидек, турли омиллар, масалан, саводхонлик даражаси, қашшоқлик, саноқсиз ижтимоий урф-одатлар ва қадриятлар, диний қарашлар, жамият тафаккур тарзининг никоҳга муқаддас деб қаралишига кўра, Ҳиндистон контекстига жорий қилиш мувофиқ эмас”. [10]

Бундай ҳолатлар маънавий жиҳатдан иккала томонни – феминистларни ҳам, уларнинг оппонентларини ҳам бир-бирини айлаш ҳуқуқидан маҳрум қиласди. Масаланинг моҳияти шундаки, феминистлар ўйлаётганидек, “нотенглик” ва унинг оқибатлари бўлмиш ҳар қандай кўринишдаги “зўравонлик”, “дискриминация” каби ижтимоий иллатларга фақат гендер тенглик ягона ечим бўла олмайди.

Бундан ташқари, сўнгги тадқикотларга кўра, оила-вий зўравонликлар фақат аёлларгагина хос ва қурбонлар ҳам фақат улар деган тасаввур ёлғон бўлиб чиқди. Бу энди кўпроқ гендер стереотиплардан кўра анча мураккаб ва ҳаттоқи қатъий табу қўйилган, ўта яширин муаммо билан боғлиқ. Шуни очиқ тан олиш керакки, ўз навбатида, аёллар ҳам гендер нотенгликда асосий ролни бажариши мумкинлигини кўрсатиб бермоқда.

Британиядаги “Менсрайтс кампаин группарити” (men's rights campaign group Parity) жамғармаси томонидан тайёрланган ҳисботга кўра, оиладаги зўравонликлар қурбонларининг деярли 5 тадан 2 таси эркаклардир. Британия Ички Ишлар Вазирлиги статистик бюллетени ва Британия Жиноят ишлари инспекцияси тақдим этган маълумотлар кўрсатишича, 2004-2005 ва 2008-2009 йиллар оралиғида ҳар йили амалга оширилган оиладаги зўравонликлар қурбонларининг деярли 40 фоизини эркаклар ташкил этган. 2008-2009 йилги бюллетенда таъкидланишича, ҳар тўртта аёлдан биттаси (28%) ва олти эркақдан биттаси (16%) 16 ёшидан оилада зўравонликни ўз бошидан ўзтказиб келмоқда. Бу рақамлар ҳисоб-китоб килинган бундай зўравонлик қурбонларининг – 4.5 миллион аёл ва 2.6 миллион эркакни ташкил этувчи рақамларга ҳамоҳангидир. Бунга қўшимча, сўнгги йилда аёлларнинг 6 фоизи, эркакларнинг 4 фоизи ои-

лада зўравонликка дуч келганликлари ҳақида хабар берганлар. Шунингдек, бундай жиноятлар учун жа-вобгарликка тортилган аёллар сони 2004-2005 йилда 1 575 тадан 2008-2009 йилда 4 266 тага ўсган [1, 45]. АҚШда ўтказилган бошқа тадқиқотга биноан, зўравонларнинг 54 фоизини эркаклар, 46 фоизини аёллар ташкил этади. Бу ҳолат эркакларнинг аёллар томонидан зўравонликка учраши аёллар жисмоний ва жинсий жиҳатдан пассив деган маданий стереотипларга ҳамда эркаклар доим жинсий зўравон деган тасаввурларга зид келади [12, 275]. Албатта, жинсий зўравонликни бартараф этишга қаратилган ҳаракатлар эркакларни бутунлай эътибордан четда қолдиради.

Жамиятнинг сурункали дардига феминистча даво кутилмаганда бошга яширин иллатни фош қилиб қўйди. Энди “гендер нотенглик” тушунчаси “зўравонлик” тушунчаси олдида ўз фемининлик бўёқдорлигини йўқотиб нейтрал мазмунга дохил бўлиб қолади, шунингдек, у оиладаги зўравонликлар учун асосий “айбдор” бўлмай ҳам қўяди. “Аёл эркакка қарши” қарашларига асосланган “феминистча” ёндашувлар мантиқсиз бўлиб қолади [9, 21].

Айтиш мумкинки, бугунги Ғарб жамиятларида ижтимоий ҳаётнинг барча соҳалари: тажовузкор хулқ-атворнинг анъанавий “марказ”лари – оила ва қамоқхоналар қаторига ноанъанавий ижтимоий институтлар – таълим муассасалари, иш жойлари, ҳарбий қисмлар (гендер интеграллашган қисмлар ташкил этилишини назарда тутган ҳолда) қўйингки, бундай ҳолат учун қулай бўлган қанча жой бўлса, деярли барчasi қўшилгани муаммонинг кўлами нақадар кенг эканлигини кўрсатади.

Масаланинг моҳияти шундаки, гендер тенгсизлик ёки аёлларнинг эркаклар томонидан камситилиши бу воқеликнинг бир қиррасигина, холос. Иккала жинс ва-киллари ҳам ҳар жойда турли ирқий, диний, ижтимоий ва бошқа турдаги зўравонлик ва каситилишларга дуч келаётгани инкор этиб бўлмас ҳолатдир ва бу муаммоларни гендер парадигма қамраб ололмайди, назардан соқит қиласди, уларга ечим бера олмайди. Чунки гендер муаммолари тенгсизлик ва зўравонликнинг барча турлари билан узвий боғланиб кетган [3, 157].

Бу “гендер тенгсизлик” категорияси тавсифидан анча кенг кўламларда баҳс қилинадиган мавзу, худди тенгсизликнинг ижтимоий, ирқий, касбий, диний ва ҳоказолар кўринишлари каби умуминсоний ва бевосита инсон шаъни ва қадр-қиммати билан боғлиқ умумижтимоий муаммо. Бугунги кунда биз тенгсизликнинг бошқа кўринишлари “жинсий” тенгсизлик сояси остида қолиб кетаётганилиги тенденциясини кузатишимиз мумкин. Глобал миқёсда тенгсизликнинг фақат бир турига эътиборни кўпроқ қаратиш бошқаларнинг ҳуқуқларига беписандларча муносабатнинг шаклланишига олиб келмоқда. Бир тоифанинг

хуқуқлари ҳимоя қилиниши иккинчи тоифанинг манфаатларига зид келмоқда.

Гендер парадигмаси мавжуд муаммоларга ноодатий муқобил ечимлар бериши билан бирга, бошқа ечимларни инкор этиши унинг ижтимоий тараққиёт муаммоларини бартараф этишдаги салоҳиятини чеклаб қўяди. Гендер тенгизлилкка муросасизлик гендер парадигманинг мутлоқлаштирилишига олиб

келади. Натижада, демократлашув жамиятни ислоҳ этиши йўлларини топиш ва буни доимий амалга ошириб бориши ўрнига ўзининг ички зиддиятлари билан курашишига тўғри келади. Гарчи биз бугунги кунда демократлашувнинг гендерлашувига гувоҳ бўлаётган бўлсак-да, гендер муросасизлик сабаб унинг бир-бира га қарама-қарши жараёнга айланиб кетмаслигини эътибордан четда қолдириб бўлмайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Campbell, D. More than 40% of domestic violence victims are male, report reveals. // The Guardian. September 5, 2010 <https://www.theguardian.com/society/2010/sep/05/men-victims-domestic-violence>
2. Copelon R. Surfacing gender: reengraving crimes against women in humanitarian law. In: Nicole Ann Dombrowski, ed. Women and War in the Twentieth Century: Enlisted With or Without Consent. New York, NY: Garland; 1990:245–266.
3. Dorroll, P. Post-Gezi Islamic Theology Intersectional Islamic Feminism in Turkey // Review of Middle East Studies, Vol. 50, No. 2 (AUGUST 2016), pp. 157-171
4. Dutton, D.G. and Nicholls, T.L. The gender paradigm in domestic violence research and theory: Part 1—The conflict of theory and data. // Aggression and Violent Behavior 10 (2005) 680–714
5. Fitzpatrick J. The Use of International Human Rights Norms to Combat Violence Against Women. Human Rights of Women: National and International Perspectives. Philadelphia, PA: University of Pennsylvania Press; 1994,
6. Jones, O. Britain is going backwards on violence against women. // The Guardian. March 30, 2014. http://www.theguardian.com/commentisfree/2014/mar/30/britain-violence-against-women-domestic-abuse-funding-cuts?CMP=fb_gu
7. Lucy Delap, Rethinking rapes: men's sex lives and feminist critiques. // CONTEMPORARY BRITISH HISTORY, vol. 36, no. 2, 2022, pp. 253-276.
8. Peralta, E. Marine Corps Study: All-Male Combat Units Performed Better Than Mixed Units. // NPR. September 10, 2015. <https://www.npr.org/sections/thetwo-way/2015/09/10/439190586/marine-corps-study-finds-all-male-combat-units-faster-than-mixed-units>
9. Stemple L, Meyer IH. The sexual victimization of men in America: new data challenge old assumptions. Am J Public Health. 2014 Jun;104(6):e19-26. doi: 10.2105/AJPH.2014.301946.
10. Taylor, A. Why won't India criminalize marital rape? Because marriage is sacrament, the government says // The Washington Post. April 30, 2015. <http://www.washingtonpost.com/blogs/worldviews/wp/2015/04/30/why-wont-india-criminalize-marital-rape-because-marriage-is-sacrament-the-government-says/>
11. US military sexual assault down but 'we have to do more', says Pentagon chief. // The Guardian. May 1, 2015. <https://www.theguardian.com/us-news/2015/may/01/military-sexual-assault-declines-pentagon-survey>
12. Weiss, K.G. Male Sexual Victimization. Examining Men's Experiences of Rape and Sexual Assault. //Men and Masculinities Volume 12 Number 3, April 2010. p. 284. (275-298).



TOPISHMOQLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Hurriyat Nuriddinova,
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada topishmoqlarning shakllanish xususiyatlari, topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchars bog 'liq holda yaratilishi va ularning zaminida kishilarining qadimiy e'tiqod va tasavvurlari olamni bilish yoki idrok etishga bo'lgan intilishlari, ingliz va o'zbek tillaridagi topishmoqlarning bir-biriga o'xshash tomonlari, ularda metafora, istioraning ishlatalishi, shuningdek, nasriy va she'riy topishmoqlar haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: topishmoq, jumboq, janr, xalq og 'zaki ijodi, qofiya, dinamizm, yondashuv, tushuncha, metafora, istiora, nasriy topishmoq, she'riy topishmoq.

Аннотация

В данной статье описаны особенности образования загадок, создание загадок в тесной связи с жизнью народа, и на их основе древние верования и представления людей познавать или понимать мир, сходство между загадками

на английском и узбекском языках ., в которой изложены научные взгляды на метафоры, употребление метафор, а также прозаические и поэтические загадки.

Ключевые слова: загадка, загадка, жанр, фольклор, рифмовка, динамизм, подход, концепт, метафора, аллегория, прозаическая загадка, поэтическая загадка.

Annotation

This article describes the features of the formation of riddles, the creation of riddles in close connection with the life of the people, and on their basis the ancient beliefs and imaginations of people to know or understand the world, similarities between riddles in English and Uzbek. In which scientific views on the use of metaphors, metaphors, as well as prose and poetic riddles, are stated.

Keywords: riddle, riddle, genre, folklore, rhyme, dynamism, approach, concept, metaphor; allegory, prose riddle, poetic riddle.

Topishmoqlar, odatda, barcha xalq madaniyatida va barcha millat vakillari orasida mashhur ekanligi, hech kimga sir emas va ular har doim xalqning, millatning og‘zaki nutqida qo‘llanib keladi. Shu sababli ham, topishmoqlar avloddan avlodga o‘tib, ular xalq orasida yashab, meros bo‘lib kelmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi, al-batta. Topishmoqlarning aytilishi har bir mintaqaga qarab o‘zgarib ham boraveradi.

Topishmoq xalq og‘zaki ijodining eng qadimiylar ommaviy janri hisoblanib, jahondagi barcha xalqlarning folklorida uchratamiz. Topishmoqda so‘roq majoziy shaklda ifodalanib, ma’nosini yashiringan bo‘ladi. Shuningdek, topishmoqda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga o‘xshatiladi va qiyoslanadi. Topishmoqlar ixcham sodda va ritmik shaklda bo‘ladi. Topishmoqlardan xalq doston va ertaklarida ko‘p foydalaniladi. Ular mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan va shuning uchun ham asosan dehqonchilik, chorvachilik va uy ro‘zg‘or buyumlariga bag‘ishlangan.

Topishmoqlarning xususiyatlari kelsak, matnda yashirin yoki qismli kalit so‘zlarni qo‘shib, birlashtirganda, ma’no hosil qilguncha qabul qiluvchining tasavvurini uyg‘otadigan va yechimini topadigan nutqlardan iborat bo‘ladi.

Topishmoqlar, odatda, ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Birinchisi jumboqlar bo‘lib, bunda asosan metafora yoki majoziy ma’no beruvchi so‘zlar – konundra, ya’ni ehtiyyotkorlik bilan o‘ylashni talab qiladigan til va bu savolga javob berishga ta’sir qiladigan savollar muhim rol o‘ynaydi [1, 20].

O‘zbek xalq topishmoqlarini to‘plash XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan, bu asrga qadar topishmoqlarning birorta to‘plami mayjud bo‘Imagan. Topishmoqlarni tadqiq etish borasida Z.Xusayinova, B.Karimov, M.Afzalov kabi olimlarning hissalari kata [2].

Rus xalq topishmoqlarini monografik planda tekshirgan olima M.A.Ribnikova: “Topishmoq konkret predmetni uning kelib chiqishi, vazifasi va hayoti dialektikasida aniqlab ifoda etadi” [2, 25], deb ta’riflaydiki, bu topishmoqning boshqa janrlardan ajralib turadigan xarakterli jihatlaridandir.

“Topishmoq, – deb yozadi Zubayda Husayinova, – xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari: doston, ertak, qo‘sniq,

maqol kabi xalqning ma’naviy boyligi va kollektiv ijodi mahsulidir. U inson ijtimoiy hayot, tabiat hodisalarining mayjud tomonlari bilan keng bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt real zaminga asoslanadi. Unda atrofimizni qurshab turgan real, moddiy dunyodagi turli ob‘yektlar aks etadi. Har bir topishmoq o‘ziga xos shakl va mazmunga ega bo‘lgan mustaqil bir butun badiiy asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgililar, tushunchalar, hodisalarining mohiyati go‘zal obrazli ifodalarda aks etadi” [2, 26].

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi, biroq uning yaratilish maqsadi boshqacha. Buning isboti sifatida “Topishmoq” so‘ziga e’tibor qaratsak: “top” so‘zi izla, axtar, solishtir degan ma’nolarni anglatib, insonni o‘ylashga, fikrлаshga undaydi. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog‘liq holda yaratiladi. Ularning zamirida kishilarning qadimiy e’tiqod va tasavvurlari, olamni bilishga, idrok etishga bo‘lgan intilishlari yotadi.

Endi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “topishmoq” so‘ziga berilgan izohga e’tiborni qaratsak: 1. topishmachoq o‘yinida: topilishi kerak bo‘lgan narsa, hodisa va ramz, o‘xshatmalar orqali ifodalananadigan qisqa tavsifi; jumboq. Bolalar Nuridan so‘rashdi. Nuri ertak emas, bir nechta topishmoq aytishga majbur bo‘ldi. Lekin og‘zidan chiqmasdan, bolalar topaverdi. Oybek. Tanlangan asarlar [3, 532].

Ingliz tilida “proverb” (maqol), “saying” (matal) va “riddle” (topishmoq)lar bir-biriga yaqin xalq og‘zaki ijodi janrlari hisoblanadi. Topishmoq shaklan maqollarga yaqin tursa ham, biroq voqelikni aks ettirish tarzi, asosan, fikrni jumboqli shaklda yashirib ifodalashi bilan undan keskin farqlanib turadi. Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalananadi. Matalda esa tugal fikr ifodalamanaydi.

Odatda, topishmoqlar insonni o‘yini boshqa tarafga yo‘naltirib, suhabdoshning topayotgan yechimini qiyinlashtirish maqsadida, berilayotgan variantlarni chalkash tarzda taqdim qilishdir. Unga javoblar bir nechta berilishi mumkin, javobning o‘zi berilayotgan matnda yashiringan bo‘ladi.

Topishmoqlar bolalarning ko‘ngil ochishi uchun ishlataladigan bo‘lsa, ular kundalik hayotning bir bo‘lagi bo‘lgan tushunchalar va ma’nolarga nisbatan bolalarini tarbiyalash uchun o‘qitish tizimlarida ham ishlatalish mumkin va yana boshqa tarafdan esa bolalarni guruh-

larda birlashtirish, jamoaviy madaniyatni yana ham os-hirishga yordam beradi.

Ko'plab mamlakatlarning topishmoqlari, e'tibor ber-sak, bir-biriga o'xshash ekanligiga guvoh bo'lamiz. Biz-ningcha, topishmoqni bir kishi aytadi, turli xalq vakillari esa o'z xalqiga o'zining talqinida yetkazadi, keyinchalik bu topishmoqlar qofiyalanadi va shu xalq milliy asotiriga aylanib ulguradi [4, 7].

O'zbek tilidagi "Tepdim – terakka chiqdim" topishmog'ini tahlil qilsak, unda "uzangi" predmeti jumboqlan-gan. Topishmoqda hech qanday ibratlilik yoki hukm ifoda-langani yo'q. Bundan kelib chiqadiki, topishmoqlar shakl jihatdangina maqollarga yaqin turadi.

Topishmoqlar qadimda "jumboq", "top-top" deb yu-ritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusumlari bilan bog'liq bo'lgan.

Ayrim topishmoqlarda metaforik obrazlarni uchratish mumkin. Masalan, samolyotni qushga, paravozni otga, ekskovatorni filga, mototsiklni toychaga, lampochka nokka o'xshatib almashtirilib beriladi. Bunday o'xsha-tishlarni boshqa xalqlarda ham uchratish mumkin, lekin bunday o'xshatishlar bir xalqdan ikkinchi xalqqa o'tgan deb bo'lmaydi. Samolyot haqidagi topishmoqni misol qilib oladigan bo'lsak,

O'zbek folklorida:
"Qush emas qanoti bor,
Burgutdan zo'r haybati bor,
Uchsa lochin yetolmas
Tolmas zo'r quvvati bor".

Ingliz folklorida:

Although I am not a bird
I have wings so I can fly
I can help you travel
By jetting off throw the sky.

Ushbu misollarda ko'rish mumkinki, samolyot obrazi turli xalqlarda bir biriga yaqin ifodalangan.

Ingliz tilida:

Always old, sometimes new.
Never sad, sometimes blue.
Never empty, sometimes full.
Never pushes, always pulls.
O'zbek tilidagi topishmoq:
Ko'kda qilich yarqiraydi,
Suvda aksi yaltiraydi.

Ushbu misollarda ko'rishimiz mumkinki, ingliz tilida-gi topishmoqda "oy" antonim so'zlar bilan tasvirlangan. Bunda yangi chiqqan oy "new"(yangi) va yarim bo'lishi "old"(eski), ba'zan to'lishi "full"(to'la), lekin doim ko'ri-nib turishi "never empty"(aslo yo'q emas) kabi bir-biriga qarama-qarshi so'zlar bilan ifodalanganiga guvoh bo'la-miz. O'zbek tilidagi topishmoqda esa oyning yarqirashi qilichga o'xshatilmoxda, uning ikkinchi aksi suvda yalti-rab ko'rinishi bilan ifodalanmoqda.

Bilamizki, badiiy tasvir vositalari qatorida "istiora" san'ati ham muhim hisoblanadi. Istiora so'zi "ko'chim" ma'nosini beradi. Agar biz do'stga nisbatan: "Mening arslondek do'stim bor", desak, o'xshatish san'atini qo'llagan bo'lamiz, ammo "-dek" qo'shimchasi va "do'stim" so'zini qoldirib, "arslonim bor", desak, istiora san'ati yaratiladi. Topishmoqlarda, asosan, ana shu san'at yetakchilik qiladi. Sababi shundaki, biron narsa ikkinchi bir narsaga istora san'ati vositasida o'xshatiladi. Masalan: "Yer tagida oltin (tilla) qoziq" topishmog'ini olaylik. Bu topishmoq matnida yashiringan narsaning uchta muhim belgisi qayd etilgan:

1. Yer ostida ekani.
2. Oltinning rangiga o'xshash, ya'ni sariq ekani.
3. Qoziqqa o'xhashlighi.

Bu belgililar orqali topishmoqning javobi "sabzi" eka-nini bilamiz. Matndagi "qoziq" so'zi esa istiora san'atiga misol bo'lib kelgan. Yana bir misolda:

Qopcha,
Qopcha ichida uncha,
Uncha ichida ustuncha.

Bu matnda yashiringan narsaning 3 ta belgisi 3 ta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o'xshatilmoxda. Faqat un o'rtasida ustuni ham bor ekan. Topishmoqni topayotgan odam matnda "jiyda" haqidagi gap ketayotganini ilg'asa, fikriy muso-baqada yengan bo'ladi.

Istiora san'atini ingliz tilidagi topishmoqda tahlil qila-digan bo'lsak:

He has no feet, yet travels far;
literate, but no scholar he;
no mouth, yet he clearly speaks.
If you know him, you are wise.

Ushbu topishmoqda "letter", ya'ni "xat" so'zi yashirin-gan bo'lib, uning oyog'i yo'qligi, lekin sayohat qila olishi, og'zi yo'qligi, ammo aniq gapira olishi metaforik ifodada berilgan.

Shuningdek, topishmoqlarning nasriy va she'riy shak-llarini ham ko'rishimiz mumkin.

Masalan, nasriy topishmoq:
Tomdan tuxum irg'itdim. (do'l)
She'riy tohishmoq:
U yoqqa o'tdim bildingmi?
Bu yoqqa o'tdim bildingmi?
Oq quvrayning boshini chertib o'tdim bildingmi? (shamol)

Shuningdek, nasriy va she'riy topishmoqlarning ikki tildagi tahlilini boshqa bir misolda ko'rib chiqishimiz mumkin:

Ingliz tilida:
This isn't a difficult riddle
It won't leave you in a muddle
The answer is what falls from a cloud
And then leaves behind a puddle. (Rain)
Ingliz tilidagi ushbu she'riy topishmoqda "riddle",

“muddle” va “puddle” so‘zlari bir-biriga qofiyadosh bo‘lib, she’riy ohangni yaratmoqda va “falls from a cloud”(bulutdan tushib keladi), “a puddle”(ko‘lmak) kabi so‘zlarida e’tibor qilgan kishi topishmoqning javobi “yomg‘ir” ekanligini bilishi qiyin emas.

O‘zbek tilida:

Uzun-uzun o‘z keldi,

Uzun bo‘yli qiz keldi.

Qoshi qaltirab keldi,

Ko‘zi yaltirab keldi (Yomg‘ir).

Ushbu o‘zbek tilidagi topishmoqda esa “yomg‘ir” “uzun bo‘yli qiz”ga o‘xhatilmoqda va “o‘z”, “qiz”, “qal tirab”, “yaltirab” kabi so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, uning qoshlari bulutga, ko‘zlarining yaltirashi yomg‘ir tomchi-

lariga o‘xhatilganini ko‘rish mumkin.

Xulosa, ingliz va o‘zbek xalq topishmoqlari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda ingliz va o‘zbek xalqning barcha o‘y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe’l-atvori va e’tiqodi aks etadi. Har bir millat o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekan, bu ularning topishmoqlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim ingliz va o‘zbek topishmoqlaridagi mavzular o‘xhash bo‘lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar topishmoqlaridagi milliy bo‘yoqdorlikni ta’minlaydi. Har qanday bilim kuzatish, qiyoslash, tasniflash asosida hosil qilinganidek, topishmoqlarni ham qiyosiy-tipologik tadqiq etish yaxshi samaralar berishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elli Ko‘ngas Maranda, “Топшишмоқлар ва топшишмоқлар: кириши”. Америка фольклор журнали, 89 (Elli Ko‘ngas Maranda “Topishmoqlar va topishmoqlar: kirish”. Amerika folklore journal, 89)
2. Husayinova Z., “O‘zbek topishmoqlari”, –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, –Toshkent: Davlat Ilmiy nashriyoti. 5- jildi. –432.
4. Кобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топшишмоқлари мисолида) дисс. автореф. Тошкент, 2017. -12 бет.
5. www.ziyo.uz



О‘QUV-MASHG‘ULOT GURUHLARIDA SHUG‘ULLANUVCHI 14-15 YOSHLI KURASHCHILARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGI DINAMIKASI AHAMIYATI

Feruza Xomidjonova,
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish orgali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga berilayotgan e’tibor soha bo‘yicha ilmiy-pedagogik faoliyat olib borayotgan olimlarning oldiga ko‘plab ma’siliyatlar yuklaydi. Mazkur maqolada ham bolalar va o‘smlar sport mifiktabida shug‘ullanib kelayotgan 14-15 yoshli kurashchilarining umumiyl jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik jismoniy sifatlar, chaqonlik, kuch, chidamkorlik, egiluvchanlik, tezkorlik, jismoniy rivojlanish.

Аннотация

Передавая будущим поколениям богатые традиции и ценности спортивной борьбы, унаследованные от наших великих предков, повышая роль борьбы на мировой арене под именем узбекского спортивного бренда, поддерживая и поощряя интерес молодежи к национальному спорту, прививая им чувство патриотизма. Внимание, уделяемое его укреплению, созданию необходимых условий для всех слоев населения, особенно молодежи, а также народов мира для занятия этим видом спорта, привело много информации для ученых, ведущих научно-педагогическую деятельность в области ответственности. В данной статье изучены показатели общей физической подготовленности борцов 14-15 лет, занимающихся в детско-юношеской спортивной школе.

Ключевые слова: физическая подготовленность, физические качества, ловкость, сила, выносливость, гибкость, быстрота, физическое развитие.

Annotation

Conveying the rich traditions and values of the sport of wrestling inherited from our great ancestors to the future generations, increasing the role of wrestling in the world arena under the name of the Uzbek sports brand, supporting and encouraging the youth's interest in the national sport, instilling a sense of patriotism in them. The attention given to strengthening it, creating the necessary conditions for all levels of the population, especially young people, as well as the people of the world to engage in this type of sport, has brought a lot of information to the scientists who are conducting scientific and pedagogical activities in the field. responsibilities. In this article, general physical fitness indicators of 14-15-year-old wrestlers, who are engaged in sports school for children and teenagers, are studied.

Keywords: physical fitness, physical qualities, agility, strength, endurance, flexibility, quickness, physical development.

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyati-mizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoxda. Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lган e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. [1, 1]

Shu ma'noda, qarorda buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Kurash milliy sport turini (keyingi o'rnlarda — kurash) rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quydagi lar belgilansin:

- aholining barcha qatlamlarini kurash bilan shug'ulanishga keng jalb qilish hamda O'zbekistonda kurashni umumxalq sport turiga aylantirish;

- kurashni ommalashtirish, uning jahon sporti durdonasiga aylanishiga va Xalqaro olimpiya o'ynlari dasturiga kiritilishiga erishish;

- kurash bilan shug'ullanish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilmani shakllantirish;

- Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bosqichma-bosqich kurash hamda jangovar kurashni ustuvor sport turlari sifatida kiritish;

- kurash bo'yicha professional trenerlar, hakamlar tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llannmalar ishlab chiqish, kurashning ilmiy-metodologik bazasini kuchaytirish;

- o'zbek kurashi brendini yaratish, investitsiyalarni

jalg etgan holda, yaktak sport kiyimlari va kurash gilamlarini ishlab chiqarish, kurashni tijoratlashtirish choralarini ko'rish;

- kurashni aholi o'rtasida, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish [1, 1] belgilab berildi.

Mazkur maqolada ham sportning ana shu jihatlarini tadqiqotlar asosida o'rganildi.

M.R.Abdulhaqov, Sh.A.Abdullayev, I.B.Aliyev, K.T. Yusupovlar ta'limni boshqarishda tizimli yondashuv metodologiyasi nazariyasi bo'yicha, Sh.E.Keldiyorov (2019) kurash milliy sport turi harakatlarini dastlabki o'rgatish uslublarini takomillashtirishni, F.I.Bobomurodov (2020) kurashchilarining morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga differensial yondashuvini, J.M.Nurshin, A.R.Taymuratov, F.A.Kerimov, N.A.Tastanov va boshqalarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Milliy kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi 14-15 yoshli sportchilarining mashug'ulot yuklamalarini rejalashtirish va optimallashtirish yuzasidan maxsus tadqiqot ishlari o'tkazilmaganligi aniqlandi. Yuqoridagilar mazkur tadqiqotlarni o'tkazish dolzarb va zarur ekanligini asoslab beradi.

Maqolada ko'tarilgan mavzu ham o'quv-mashg'ulot guruhi larida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quydagilar amalga oshirildi: O'quv-mashg'ulot guruhi larida shug'ullanuvchi 14 yoshli kurashchilarining 60 metr masofaga yugurish (soniya) nazorat mas-hqi natijalari o'quv yili boshida o'rtacha 9.8 ± 1.2 soniyaga teng edi, o'quv yili oxirida esa bu ko'rsatkich 9.6 ± 1.5 soniyaga yetgdi. Ushbu yoshdagagi kurashchilarining jismoniy tayyorgarligida yillik o'sishi farqi 2,4 kg ga farq qilgan (6,5%). (1-jadvalga qarang).

O'quv-mashg'ulot guruhi larida shug'ullanuvchi 14 yoshli kurashchilarining umumiy chidamlilik sifatini rivojlantirish mazkur tayyorgarlik bosqichining eng muhim ahamiyata ega bo'lgan tayyorgarlik turlaridan biri hisoblanadi. 1000 metr masofaga yugurish (daqiqa)

O'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14 yoshli kurashchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (o'g'il)

T/p	Me'yorlar	O'YB		O'YO		Farqi	t	P
		X±α	V%	X±α	V%			
1.	60 metr masofaga yugurish (soniya).	9.8±1,2	12,2	9.6±1,5	15,6	0,2	0,69	>0,05
2.	1000 metr masofaga yugurish (daqqaq).	4.20.0±0,45	10,71	4.10.0±0,48	11,7	0,10	1,11	>0,05
3.	Mokki tarzda yugurish 3x10 m (soniya).	6.7±1,4	20,8	6.5±1,6	24,6	0,2	1,71	>0,05
4.	Turnikda tortilish (marotaba).	5±1,0	20	7±2,01	28,7	2	1,64	>0,05
5.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (metr).	1.80±0,45	25	1.90±0,54	28,4	0,10	0,89	>0,05
6.	Oldinga egilish (sm).	10±2,4	24	14±3,4	24,2	4	1,38	>0,05

yil boshida olingan nazorat sinovi natijalariga ko'ra, 14 yoshli kurashchilarining qayd etgan natijalari $4.20.0\pm0,45$ daqiqani tashkil etgan bo'lsa, variatsiya koeffitsienti 10,71% tashkil qildi, va yilning oxiriga kelib ushbu natijalar $4.10.0\pm0,48$ minni variatsiya koeffitsienti esa 11,7 % tashkil etdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi. Navbatdagi amaliy nazorat sinovi mokki tarzda 3x10 metr yugurish hisoblanadi. Bu mashq yordamida yosh kurashchilarining tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Ushbu olingan nazorat sinovi natijalariga ko'ra, yil boshida kurashchilar $6,7\pm1,4$ soniya natija ko'rsatgan bo'lsa, variatsiya koeffitsienti 20,8% ni tashkil qildi. Yilning oxiriga kelib esa kurashchilarda tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari yaxshilanganini ko'rshimiz mumkin va ushbu ko'rsatkich natijalari $6,5\pm1,6$ soniyaga, variatsiya koeffitsienti 24,6% ga yetdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ tashkil etdi.

Keyin olingan amaliy nazorat me'yorlarida umumiy chidamkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadida 14 yoshli kurashchilar turnikda tortilish masqini nazorat sinovlari sifatida topshirishdi. Turnikda tortilish mashqi orqali olingan nazorat me'yorlaridan yil boshida olingan natijalar $5\pm1,0$ marotaba, variatsiya koeffitsienti esa 20% tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich $7\pm2,01$ marotabani, variatsiya koeffitsienti 28,7% natijani ko'rsatdi va umumiy chidamkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarni rivojlanganligi aniqlandi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi. Navbatdagi amaliy nazorat me'yorlarida ham chidamkorlik jismoniy sifat

ko'rsatkichlarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi va ushbu sinama mashg'ulot turgan joyda uzunlikka sakrash orqali amalga oshiriladi. Ushbu mashq orqali olingan natija yil boshida $1.80\pm0,45$ metrga, variatsiya koeffitsienti 25% ga teng edi va yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich natijalari $1.90\pm0,54$ metr, variatsiya koeffitsienti 28,4% ni tashkil etdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi.

Keyingi amaliy nazorat sinovlari egiluvchanlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarni aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, ushbu amaliyot jarayonida oldinga egilish nazorat sinama mashqidan foydalanshadi va yil boshida olingan natijalar $10\pm2,4$ santimetrga, variatsiya koeffitsienti 24% ga teng kelgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich $14\pm3,4$ santimetr, variatsiya koeffitsienti esa 24,2% natijani ko'rsatdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi. (1 jadvalga qarang)

Ushbu olingan amaliy nazorat sinovlari orqali 15 yoshli kurashchilarining umumiy jismoniy tayorgalik darajalarini aniqlash maqsadida nazorat me'yorlari olindi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi.

Dastlabki olingan amaliy nazorat sinovi 100 metr masofaga yugurish mashqi orqali olinib, bunda tezkorlik jismoniy sifat darajalari aniqlab olindi. Yosh kurashchilarining yil boshida ko'rsatgan natijalari asosida $14.8\pm1,5$ soniya, variatsiya koeffitsienti 10,13% qayd etilgan bo'lsa, ushbu natija yil oxiriga kelib tezkorlik jismoniy sifat darajasi ma'lum miqdorda oshganini ko'rshimiz mumkin. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi. Navbatdagi nazorat me'yorlari 15 yoshli kurashchilarining umumiy

O'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 15 yoshli kurashchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (o'g'il)

T/p	Me'yorlar	O'YB		O'YO		Farqi	t	P
		X±α	V%	X±α	V%			
1.	100 metr masofaga yugurish(soniya).	14.8±1,5	10.13	14.5±1,8	12,41	0,3	0,93	>0,05
2.	2000 metr masofaga yugurish (daqqa).	8.45.0±0,42	4,9	9.00.0±0,44	4,8	0,15	1,51	>0,05
3.	Mokki tarzda yugurish 3x10 m (soniya).	6.4±1,8	28,12	6.6±1,9	28,7	0,2	1,02	>0,05
4.	Turnikda tortilish (marotaba).	6±1,5	25	7±2,25	32,14	1	1,62	>0,05
5.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (metr).	1.90±0,55	28,9	2.00±0,55	27,5	0,10	0,62	>0,05
6.	Oldinga egilish (sm).	11±3,5	31,81	13±4,4	33,84	2	1,39	>0,05

chidamkorlik jismoniy sifatlarini aniqlash maqsadida 2000 metrga yugurish sinama amiliyoti tanlab olindi. Ushbu olingan sinov natijasiga ko'ra, yil boshida olingan ko'rsatkichlar $8.45.0\pm0,42$ daqqa, variatsiya koeffitsienti 4,9% ni ko'rsatdi. Yil oxiriga kelib bu ko'rsatkichlar $9.00.0\pm0,44$ daqqa, variatsiya koeffitsienti 4,8% natija bilan chidamlilik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini qoniqarli darajada ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi.

Olingan tajribada navbatdagi sinama mashqi orqali mokki tarzda 3x10 metrga yugurish amaliyotida 15 yoshli kurashchilarining tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlar yil boshida $6.4\pm1,8$ soniyani, variatsiya koeffitsienti 28,12% ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich $6.6\pm1,9$ soniyaga, variatsiya koeffitsienti esa 28,7% ga o'zgardi. Ushbu ko'rsatkichda 14 yoshli kurashchilarining natijalariga nisbatan 15 yoshli kurashchilarining natijalari yaxshi ekanligini ko'rish mumkin va 15 yoshli kurashchilarning yil oxiridagi natijalari past darajada ekanligi tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini qoniqarsiz darajada pastlab borayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi.

Amaliy nazorat me'yorlari davomida turnikda tortilish nazorat mashqi ham tanlab olindi. Ushbu mashq orqali olingan natijalar yil boshida $6\pm1,5$ marotabaga, variatsiya koeffitsienti 25% ga teng bo'lsa, yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich $7\pm2,25$ marotabaga yaxshilanadi va variatsiya koeffitsienti 32,4% ni ko'rsatib, kuch jismoniy sifat darajalari yosh kurashchilarda yaxshi natijaga o'zgaragani

aniqlandi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi.

Keyingi amaliy nazorat mashqi orqali 15 yoshli kurashchilarining chidamkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tanlab olindi. Tanlab olingan mashqda yosh kurashchilarini sinov boshida ko'rsatgan natijalari $1.90\pm0,55$ metrga, variatsiya koeffitsienti 28,9% ga teng bo'lsa, tajriba so'ngiga kelib ushbu natija $2.00\pm0,55$ metrga yetib, 10 santimetrga oshdi, variatsiya koeffitsienti esa 27,5% ga yaxshilangani aniqlandi. Ushbu natijada chidamkorlik jismoniy sifat darajalarida o'sish kuzatildi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ ni tashkil etdi.

15 yoshli kurashchilarining egiluvchanlik jismoniy sifatini qanday darajada ekanligini aniqlash uchun oldinga egilish sinama mashqi tanlab olindi. Ushbu mashq orqali yosh kurashchilarining egiluvchanlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari qay darajada ekanligi aniqlab olindi. Yil boshida olingan tajriba natiasi $11\pm3,5$ santimetri, variatsiya koeffitsienti 31,81% ni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkichlar $13\pm4,4$ santimetrga, variatsiya koeffitsienti 33,84% ga yetib, egiluvchanlik jismoniy sifat darajalarini yaxshi ko'rsatkichlarda rivojlanganligini yosh kurashchilar ko'rsatib berishdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi $P>0,05$ tashkil etdi.

Xulosa qilib aytsak, bolalar va o'smirlar sport maktabida shug'ullanib kelayotgan 14-15 yoshli kurashchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, jismoniy sifatlarri, jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash maqsadida ulardan nazorat sinov mashqlari olindi. O'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, 14-15 yoshli kurashchilarining jismoniy

niy rivojlanish darajalari yil boshida olingen natijalarga ko'ra past darajada deb topildi va ushbu olingen natijalar yil oxirida sezilarli darajada yaxshilandi. Jismoniy sifat-larning rivojlanganlik darajasini ifodalovchi test mashqlari natijalariga ko'ra, nazorat va tadqiqot guruhlarida tadqiqot boshida kuzatilgan ko'rsatkichlar bir-biridan farq qildi. Jismoniy sifat ko'rsatkichlari, jumladan, kuch, tezkorlik, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi sifatlar 14-15 yoshli kurashchilarda yetarli darajada rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, nazorat va tadqiqot guruhlarining jismoniy holatlari yaxshi darajada ekanligi

aniqlandi. Kurash sport turi bilan shug'ullanib kelayotgan yoshlarning turli xil mashg'ulotlar va musobaqa sharoitlarida mahoratining namoyon bo'lishi barqarorligini oshirish maqsadida mashg'ulotlar davomida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, texnik-taktik harakatlarini takomillashuv vositalari va uslublarining tanlab olinishini optimallashtirish zarurligi tadqiqotlar jarayonida o'z isbotini topdi. Mazkur aniqlangan muammolarning hal etilishi kurashchi mashg'ulotlari bilan bolalar va o'smirlarning faol shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi 04.11.2020 yildagi PQ-4881-son Qarori <https://lex.uz/docs/-5080074>. – 29 bet.
2. М.Р.Абдулхаков, А. А. Трапезников. Бороться, чтобы побеждать!: Кн. для учащихся – М.: Просвещение, 1990. – 125 с.
3. Tovxtaboev N.T. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2010 y. – 71 b.
4. Shavkatjon Axmadjonovich Mirzoqulov, Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2013. – 158 b.
5. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Жисмоний тарбия институтлари ва жисмоний тарбия факултетлари учун дарслик. – Т.: ЎзДЖТИ 2005. – 367 b.
6. F.A. Kerimov. Kurash elementlariga ega harakatli o'yinlar. – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2020. – 88 b.
7. N.A. Tastanov. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. /Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2015 y. – 328 b.
8. O.Toshmurodov, I. Turaqkulov. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanidan (Ma'ruzalar matni) – S.:2015 yil. – 49 b.



TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI DASTLABKI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH NAZARIYASI

Shahnoza Shoymardonova,
QarDUPI magistranti.

Annotatsiya

Ma'lumki, texnologik ta'luming maqsadi o'quvchini mustaqil fikrlashga, tushunishga, asosiy narsani aniqlashga, ma'lumotlarni tuzishga va uzatishga o'rgatishdir. Bu jarayonga kirgan o'quvchi yangicha kreativ fikrlaydi, kashf qiladi, yaratadi. O'zi kashf etgan narsalarni boshqalarga ham ularsha oladi.

Maqolada ham texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlashga oid tadqiqot tahsil qilinadi.

Kalit so'zlar: AKT, ta'lif texnologiyalari, metot, samara, dars, mashg'ulot, ta'lif oluvchi, o'qitish tizimi, mulohaza, ta'lif beruvchi, kasb, layoqat.

Аннотация

Известно, что цель технологического образования состоит в том, чтобы научить учащегося самостоятельно мыслить, понимать, определять главное, обобщать и передавать информацию. Учащийся, вступивший в этот процесс, мыслит творчески, открывает, творит. Он может поделиться своими открытиями с другими.

Также в статье анализируются исследования по подготовке студентов к начальной инновационной деятельности при обучении технологии.

Ключевые слова: ИКТ, образовательные технологии, метод, эффект, урок, обучение, обучаемый, система обучения, рассуждение, учитель, профессия, способности.

Annotation

It is known that the goal of technological education is to teach the student to think independently, understand, determine

the main thing, compile and transfer information. A student who enters this process thinks creatively, discovers, creates. He can share his discoveries with others.

The article also analyzes research on the preparation of students for initial innovative activities in the teaching of technology.

Keywords: ICT, educational technologies, method, effect, lesson, training, learner; teaching system, reasoning, teacher, profession, ability.

O'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usida ish olib borilganda, avvalo, undagi ijobjiy motivatsiyani shakllantirishga, bilimlarni o'zlashtirishga va o'qis-hga ijodiy yondashishga alohida e'tibor qaratish kerak. Ta'l'm texnologiyalari orasida texnologik ta'limga loyiha usulining alohida o'rni bor. Bu usulning asosi ijodkorlik, axborot makonida harakat qilish va o'z bilimlarni mustaqil ravishda qurish qobiliyatidir. Dizayn texnologiyalari loyiha usullarining asosini tashkil etadi, shuning uchun o'quvchilar, birinchi navbatda, asosiy dizayn strategiyalari bilan tanishishlari lozim. Ularda texnologik ijodkorlikka doimiy qiziqishni shakllantirish muhim, bu ijtimoiy shakldagi texnologik jarayonning tuzilishi va tarkibini tushunishga yordam berib, olingen bilimlarni qo'llay olish imkonini beradi. Ta'limga didaktik tizi-mi o'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy ehtiyojlarini qondirishi kerak bo'lgan evristik va tadqiqot usullarini keng qo'llashni ta'minlaydi. Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish zarur bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Ingliz sotsial utopisti Tomas Mar birinchi bo'lib bu fikrini ilgari surgan edi.

XV asr Italiya sotsial utopisti Foma Kompanella bolalarga mehnat asosida ta'l'm berishni juda keng suratda tasvirlab bergen edi. Komponella Quyosh shahri (город Солнце)da hamma bolalarga bir xilda ma'lumot berilgan. Bolalar to'rtta fanni o'rganishi bilan bir qator keng tarqalgan kasb-hunar va sanoat bilan tanishadilar. Mash-hur fransuz mutafakkiri Jan-Jak Russo mehnat tarbiyasi go'yasini mufassal ishlab chiqdi. Keyingi paytlarda pedagogik adabiyotda "Zamanoviy pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiya" degan tushunchalar ko'p ishlatalmoqda [1, 10]. Har bir muallif bu tushunchaga turlicha mazmun yuklaydi. Texnologiya har bir jarayonni aniq rejalahshni va shu reja asosida ishlab natijaga erishishni talab qiladi.

Texnologiya fani bolani ajoyib ijod olami bilan tanishiradi, o'ziga, o'z qobiliyatlariga ishonish imkoniyatini beradi, vizual, badiiy va dizayn qobiliyatlarini, nostandard fikrlashni, ijodiy individuallikni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Muammoli texnologiyadan foydalanish "axlat"dan ajoyib narsalarni yaratishga imkon beradi; tasavvurni, zukkolikni va ma'lum narsalardan yangicha foydalanishni topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun tadqiqot metodlarining ham ahamiyati katta. Aytaylik, karton, gugurt qutilari, mantardan qutilar va "choy uylari" yasashimiz mumkin. Xona qutilarini ishlab chiqarishda aralash tex-

nologiyadan foydalanib, o'quvchilar atrofdagi dunyoning kichik modellarini yaratadilar: parkning burchagi, den-gizning bir qismi, kichik uy va hakozo. O'quvchi gips va shisha stakanlar, sun'iy o'simliklar, o'yinchoq parchalari va tugmalar, eski marjonlar, soatlar, qalamlardan turli buyumlar yaratishadi. Bu esa o'quvchining ekologik ta'limga ham hissa qo'shadi. Zotan, tashlandiq narsalardan kerakli buyumlar yaratilishi atrof-muhitni ifloslantirmaydi, balki "ikkinchи hayot" uchun imkoniyat yaratadi.

Maktabda loyiha ishini olib borish va loyihami himoya qilish orqali o'quvchilarni dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlash mumkin. Bunda, birinchi navbatda, o'quvchilar mustaqil ishlarining natijalarini namoyish qilish va ularni o'rganish imkoniyati yaratiladi. Aytaylik, bir naqshni tushungan o'quvchi biror narsani o'rgangan holda, bu haqda boshqalarga aytib berishga intiladi. Loyihani himoya qilish jarayonida mакtab o'quvchilari olingen ma'lumotlarni taqdim eta oladi. Muammo bo'yicha bos-hqa qarashlarga duch kelganda mulohazalarga o'z nuqtai nazarini ilgari surish, savollarga javob berish o'rganiladi.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Texnologiya fanini o'qitib, o'quvchilarni dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'quv jarayonini tashkillashtirishning barcha variantlari bilan o'quvchi e'tiborini quyidagi tushunchalarga qaratish mumkin:

- dizayn haqida asosiy ma'lumotlar;
- loyihalash usullari;
- shaxsiy dizayn omillari;
- dizayn texnologiyasi;
- badiiy dizayn;
- taklif etilayotgan loyihalarni baholash texnologiyasi.

Demak, ijodiy loyiha har qanday mustaqil ishning natijasidir. Loyihani baholash texnologik operatsiyalar qanchalik to'g'ri va aniq bajarilganligi, olingen bilimlarning qanchalik to'liq va mustahkam o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Masalan, ijodiy loyiha uchun kashtado'zlikdan foydalanish o'quvchiga o'zlarining ijodiy niyatlarini to'liq ifodalashga yordam beradi, mahsulotga ko'proq individuallik beradi. Bunday loyihalar bir nechta elementlardan iborat:

- zamonaviy moda tendentsiyalari va kashtado'zlik tarixi asosida o'ylab topilgan mahsulotning eskizi (kashtado'zlik namunasi yoki tayyor kiyim dizayni)ni bajarish;
- kashtado'zlik choklarini tanlash;
- mato va iplarni tanlashning mantiqiy asoslari;
- mahsulot (naqsh)ni batafsil o'rganish;
- kashta tikish rejasini tuzish;
- iqtisodiy hisob;
- naqshni matoga o'tkazish;

- kashta tikish va boshqalar.

Loyihaning tashkiliy va tayyorgarlik bosqichida loyi-hani tanlash va asoslash kerak.

Kashtado'zlikni tanlashda (kiyim-kechak dizayni) bo-lalar quyidagilarni hisobga olishni o'rganadilar:

- mahsulotning aniq o'lchami (ko'yak, bluzka, panel, yubka, sumka va boshqalar);
- uni amalga oshirish uchun mato turi;
- kashtachilik turining xususiyatlari (hisoblangan ti-kuvlar, rangli silliqlik, ochiq naqshli kashta va boshqalar);
- iplarni tanlash, tikuvlarni o'rganish;
- yakuniy dizayn.

Bundan tashqari, o'quvchiga yoqqan naqshni tanlab, uning kompozitsion tuzilishi va rang sxemasini, kashta tikish texnikasini va ma'lum bir mahsulotni loyihalashda undan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi. Bu turdag'i kashtado'zlikning paydo bo'lish tarixi bilan tanishishga oid tanlangan naqshni zamonaviy moda tendensiyalari, sharh kitoblari va jurnallar bilan tanishish lozim.

Texnologiya fanini o'qitib, o'quvchilarni dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlashda, shuningdek, loyihami-yi ta'lif texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati katta. Sababi, bu texnologiya o'quvchining kelajakdagi aniq kasbidan qat'i nazar, ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kashf qilish qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Bu usulda o'qituvchi koordinator vazifasi ni bajarib, faqat tanlangan mavzuni o'rganadigan, u haqidagi eng to'liq ma'lumot to'playdigan, olingan ma'lumotlarni tizimlashtiradigan va ularni turli xil texnik vositalar, jumladan, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yorda-mida taqdim etadigan talabaning faoliyatini boshqaradi. O'quvchilarni faol o'quv ishlariga jalb etish, kognitiv faoliyatning xilma-xil shakl va usullarini qo'llash bilan birga, o'quv faoliyatini tashkil etishning yetakchi shakli bo'lgan darsning tarbiyaviy imkoniyatlarini sezilarli da-rajada kengaytiradi. Texnologiyani o'qitishda innovatsion usullar – bu talabalar bilan muloqot qilishning yangi usullari, ular bilan ishbilarmon hamkorlik pozitsiyasi va ularni dolzarb muammolar bilan tanishtirishdir. Ma'lum-ki, zamonaviy jamiyat yosh avlodning ta'lif sifatiga – turli xil faoliyat usullariga ega bo'lish (kognitiv, ijodiy, loyiha), ulkan axborot oqimini boshqarish, o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish, fikrlash qobiliyati kabi jiddiy talablar qo'yadi. Shuning uchun ham bu metodlar o'quvchi tomonidan ma'lum bir amaliy natijani olish va uni om-maga taqdim etish bilan tavsiflanadi.

Darvoqe, texnologiya fanini o'qitib, o'quvchilarni

dastlabki innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'yin meto-dining ham afzallik tomonlari bor. Jumladan, o'yin me-todi maktab o'quvchilarining tafakkuri, xotirasi, e'tibori, ijodiy tasavvuri, tahlil va sintez qilish qobiliyati, fazoviy munosabatlarni idrok etish, konstruktiv ko'nikma va ijodkorlikni rivojlantirish, o'quvchilararning kuzatish qobi-lijati, mulohazalar asosligini rivojlantirishga yordam beradi. O'z-o'zini tekshirish odati bolalarni boshlangan ishni oxirigacha yetkazish uchun o'z harakaflarini bo'y-sundirishga o'rgatadi. Bundan tashqari, o'yin faoliyati o'quvchilarni tashabbuskorlik, fantaziya va ijodkorlik bilan bog'liq bo'lgan o'z faol pozitsiyasiga o'rgatishning eng qulay va samarali usuli hisoblanadi.

O'quv jarayoniga salomatlikni tejaydigan texnologiya-larni joriy etish maktab o'quvchilarining salomatlik hola-tida ijodiy o'zgarishlarga erishish imkonini beradi. Maj-bur bo'lмаган jismoniy daqiqalar va dinamik pauzalar, to'g'ri tashkil etilgan o'quv maydoni, o'quv va jismoniy faoliyatning bolaning yosh imkoniyatlariga mos kelishi texnologiya darslarida sog'lom turmush tarzi masalalari-ga ta'sir ko'rsatadi.

Maktabda bolalarni o'ylashga, mustaqil harakat qilishga, vaziyatlarni boshqarish va muammolarni hal qilish usullarini bilishga o'rgatish muhimdir. Zamonaviy kom-pyuter texnologiyalari bilan birlashtirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologik usullar darsni boy, qiziqarli va tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Bolalarda o'rganishga doimiy kognitiv qiziqish rivojlanadi.

Xulosa qilib aytsak, texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalar – o'quv jarayonida matn, grafik, video materiallardan foydalanishni o'z ichiga olgan multimedia texnologiyalarini qo'llash kabi turli usullardan foyda-nishni o'z ichiga oladi. Multimedia vositalari boshqa texnik o'quv vositalariga nisbatan eng samaradori bo'lib, ko'rgazmalilik tamoyilini amalgalash, amaliy mas-hg'ulotlarda bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga ko'proq hissa qo'shadi. Sinfda slayd-plyonkalardan foyda-nish butun guruhga ishning to'g'ri usullarini, ularning ketma-ketligini vizual tarzda ko'rsatishga imkon beradi, chunki ularni bevosita ishchi stolda ko'rsatish orqali ba-jarish juda qiyin. Talabalar texnologik jarayonning di-namikasini, har bir operatsiyaning xususiyatlarini o'rga-nadilar. O'quv filmi turli darajadagi murakkablikka ega materiallarni o'z ichiga olishi mumkinligi sababli ma'lum bir o'quvchilar guruhining tayyorgarligiga qarab o'quv materialini, vazifalarni farqlash va har bir o'quvchining imkoniyatlarini to'liqroq hisobga olish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'ravayev. *Texnologiya fanini o'qitish metodikasi*. Buxoro davlat universiteti, talabalar uchun o'quv qo'llanma. – Buxoro, 2020. – 420 b.
2. O'.Tohirova, I.Karimov, M.M.Maxsumova. "Texnologiya" umumiyy o'rta ta'lif maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: "ILM ZIYO", 2019. – 244 bet.

3. Ареско А.Р., Праго А.Д. Инновации. – К.: Инфо, 2008. – 465 с.
4. Малашов Г.Р. Инновационные технологии современности. – К., 2010. – 465 с.
5. Богуславский А.А. Информационно-коммуникационные технологии в подготовке учителя технологии и учителя физики : сборник материалов научно-практической конференции. Ч. 2 / отв. – Коломна: Московский государственный областной социально-гуманитарный институт, 2010. – 242 с.
6. З.А.Литова, Творческие проекты в курсе «Технология». – Курск: Педсервис, 1997. – 86 с.



TALABALARING IJTIMOIYLASHUVI VA MA'NAVIY-HUQUQIY TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Shokir Maximov,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada talaba yoshlarimizning hayotga moslashishida odob-axloq qoidalari, milliy qadriyatlar, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish va huquqiy madaniyatning o‘rnini aniq misollar bilan ko‘rsatilib, uning amaliy yechimlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, jarayon, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, rivojlanish, shaxs, odob, axloq, tarbiya, tafakkur.

Аннотация

В статье на конкретных примерах освещается роль этики, национальных ценностей, нетерпимости к преступности в адаптации наших студентов к жизни, а также роль правовой культуры, освещаются ее практические решения в научно-теоретическом плане.

Ключевые слова: социализация, процесс, правовая культура, правосознание, развитие, личность, нравы, этика, воспитание, мышление.

Annotation

The article highlights the role of ethics, national values, intolerance to crime in the adaptation of our students to life, as well as the role of legal culture, highlights its practical solutions in scientific and theoretical terms.

Keywords: socialization, process, legal culture, legal awareness, development, personality, morals, ethics, education, thinking.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma’naviy-huquqiy tarbiya berish, ularning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o‘zgarib borishi, huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqidir. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi [1, 2].

2022-yil 28-fevralda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni imzolandi. Davlat dasturida 100 ta maqsad ko‘rsatilib, uning bir necha maqsadlari, jumladan, 14-maqsadida “Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini

ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash” [2, 13] ta‘kidlandi. Sababi fuqarolar, shuningdek, talabalarimizning huquqiy madaniyati davlat va jamiyat taraqqiyotining bugungi talablariga to‘la javob bera olmaslidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimi”ni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmonida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish yo‘nalishidagi mavjud kamchiliklar birma-bir ko‘rsatib o‘tilgan.

Hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan foydalanish, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Endilikda barcha sohani mamlakatning milliy ehtiyoj va maqsadlaridan kelib chiqib, ajdodlarimizning azaliv turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari hamda tarixiy tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish bugungi kuning muhim dolzarb masalasiga aylandi. Bu esa o'z-o'zidan kelajagimiz bunyodkorlari hisoblanmish yoshlarning ijtimoiylashuvi, mustaqil hayotga moslashishi, bilimli va yuqori darajadagi tafakkur sohibiga aylanishlariga bog'liq.

Respublikamizdagi talabalarning ijtimoiylashuvi va ularga ma'nnaviy-huquqiy tarbiya berish ta'lif va tarbiya masalalarining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda davlat jamiyat oldiga aniq maqsadlarni qo'ydi. Masalan:

- mulkning ko'p qirrali shakllariga va ijtimoiy munosabatlarga yoshlarni ruhan va psixologik tayyorlash, o'zgarayotgan sharoitlarga ko'nikishni taminlash;
- hayotning har qanday sohasida o'zini erkin namoyon qilish va aqliy salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish;
- ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va tashkiliy biriktiligan mexanizmlar, shuningdek, "yosh avlodning qiziqishlarini ta'minlashga qaratilgan amaldagi qonun hujjalarni ko'rib chiqish" yo'li bilan yoshlarning huquqiy himoyasini ta'minlash.

Buning hammasi "18 yosh bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming kishi yoki umumiy aholi sonining 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 17 million 20 ming, ya'ni umumiy aholi sonining 64 foizini tashkil etgan" O'zbekiston sharoitida juda muhim. Bozor iqtisodiyoti yo'li bilan o'zbek jamiyatining kelgusidagi rivoji, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zgarishi, albatta, yangi ijtimoiy guruh va qatlamlarning vujudga kelishi uchun zamin yaratib beradi. Bunga ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy stratifikatsiya, turli – yoshga oid, ta'lif, kasbiy, siyosiy, madaniy va hokazo belgilari bo'yicha yoshlarning mustaqil guruhlarga ajralishiga sabab bo'ladi.

O'zbek jamiyatining ijtimoiy tuzilishida eng ilmli, ziyrak, harakatchan, ijtimoiy faol guruh sifatida yoshlar alohida o'rinn tutadi. Hayot faoliyatining turli sohalar da o'zbek yoshlariga imkoniyatlar ochish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish O'zbekiston Respublikasi yoshlarga oid Davlat siyosatining asosiy maqsadi sifatida namoyon bo'ladi. Talaba yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar yoshlarning shaxs sifatida va kasbiy shakllanishiga, ijtimoiy faolligining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, hamma to-ifadagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi davlat e'tiborining ob'ektidir. O'z oldilarida turgan muhim ijtimoiy masalalarni hal qilishda yoshlar ma'lum ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lib, bu masalani amaliy hal etish yo'li talabalarga chuqur bilim berishdir.

A.N.Semashko ham talabalarni alohida ijtimoiy guruh sifatida ta'riflagan. U: "talabalikni faqatgina aql-zako-

vat statusini egallash va unga tayyorlanish holati sifatida ko'rib chiqish noto'g'ri... talabalik uni alohida ijtimoiy guruhga kiritish uchun yetarli bo'lgan barcha zarur xarakteristikaga ega", deb ta'kidlagan. Boshqa jamiyatshunos olim M.N.Rutkevich jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tarkibining aloqadorligi haqida fikr yuritgan: "Ijtimoiy guruh" terminining ishlatilishi sinflar nazariyasida o'z aksini topgan, masalan, ayollar, yoshlar, pensionerlar va boshqalar kabi o'ziga xos qiziqishlarga ega ijtimoiy guruhlar demografiya asosida o'rganiladi va aniqlik uchun ijtimoiy-demografik deb atalishlari mumkin" [3, 327].

Talabalikka bag'ishlangan mavjud ijtimoiy asarlarida individlarning ushbu majmuiga ijtimoiy guruh sifatida ta'rif berilgan. V.T.Lisovskiy talabalikni ta'riflashda uning mehnat xarakteri va yo'nalganligiga tayangan. U ta'lif jarayoni va u bilan bog'liq faoliyat yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo'yishi va o'zlarini namoyon qilishlari vositasi ekanligini asoslagan. Tanlashning nisbiy erkinligi javobgarlikka, o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishga imkon yaratadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlar uchun o'qish faoliyatining asosiy turi hisoblanadi, u bir tomonidan, individ va jamiyatning – sind, guruh, jamoa bo'lib birlashishini ta'minlaydi; boshqa tomonidan esa o'zaro ta'sir jarayonida yosh inson o'zining individuallagini anglashga imkon beradi [4, 102].

Talaba (lotinchadan studens – yo'nalish, tushum kelishikda studentis – tirishqoqlik bilan ishlovchi, shug'ullanuvchi) – bu oliy, ba'zi mamlakatlarda o'rta ta'lif muassasasi o'quvchisi. Qadimgi va o'rta asrlarda o'zini anglash jarayoni bilan band bo'lgan har qanday shaxsni talaba deb ataganlar. XII asrda universitetlar tashkil etilgach, ularda tahsil oluvchi shaxslar (boshlang'ich va ta'lif beruvchi) uchun "talaba" termini ishlatila boshladи; keyinchalik o'qituvchilar uchun ilmiy unvonlar (magistr, professor) joriy qilingach "talaba" termini faqat o'quvchilarga nisbatan ishlatila boshlandi.

Talabalik ham umumiy xislatlarga, ham o'ziga xos xususiyatlarga ega yoshlarning alohida qismini kasb etadi [5, 4].

"Talabalik – bu harakatchan ijtimoiy guruh, uning maqsadi moddiy va ma'nnaviy ishlab chiqarishda yuqori profesional va ijtimoiy rolni bajarishni ma'lum dastur asosida tashkillashtirishdir" [5, 4]. Bu yerda muallifning fikri shunga kelayaptiki, talabalikni o'zining maqsadlariga, o'zining xususiyatlariga ega, aql-zakovatning ijtimoiy rollarini va funksiyasini bajarishga tayyorlanayotgan oliy ta'lif tizimidagi ijtimoiy guruh sifatida ko'rib chiqish lozim.

Yoshlarning tarkibiy qismi sifatida talabalik o'ziga xos ijtimoiy guruhday namoyon bo'ladi. Bu guruh hayotning alohida sharoitlari, mehnati va turmushi, ijtimoiy xulqi va psixologiyasi, qadriyatlar oriyentatsiyasi bilan ta'riflanadi. Ushbu guruh namoyandalari uchun moddiy va ma'nnaviy ishlab chiqarishning tanlangan sohasidagi kelgusi faoliyatga tayyorgarlik ko'rishi uning yagona mashg'uloti bo'lmasa-da, asosiy hisoblanadi.

Yoshlarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ular bilan olib borilayotgan huquqiy ta'lif va tarbiya borasidagi ishlarni tizimli va uzviy yo'lga qo'yishda ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanib turgandek. Mazkur masalaga uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatini institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan edi. Bu borada qilinayotgan ishlarni ko'lamini kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ammo shuni ham tan olishimiz kerakki, targ'ibot tadbirlarida ko'pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolib, targ'ibot jarayonida innovatsion usullardan, ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalaridan yetarlicha foydalanmayapmiz. Bu esa jamiyatimiz taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ya'ni qonunlarning ijrosi bir xilda ta'minlanmayapti, islohotlar bo'yicha qabul qilingan hujjatlarni ham o'zining yetarli samarasini bermayapti. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariiga hurmat, milliy qadriyatlarga sa doqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti.

Huquqiy madaniyat kishilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijiro etishi, hayotga tatbiq eta olish ko'nikmasi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorligini anglatadi. Jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qi-

lingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to'liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega.

Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan ekanligi ta'kidlanadi.

Xulosa, bu borada ta'lif-tarbiyaning tizimli va uzviy olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lif tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatları o'rta sidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish nazarida tutilishi lozim. Bunda, ayniqsa, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish muhim hisoblanadi.

Tarbiya nazariyasiga asoslanib, talabalarning ijtimoyalashuvida fuqarolarga tegishli ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni takomillashtirishda psixologiya, pedagogika va etnopedagogika fanlarining so'nggi yutuqlariga tayandigan konsepsiya ishlab chiqilishi darkor. Shuningdek, faylasuf, psixolog, pedagog, mahalla faollari va yetakchilari, posbonlar, uslubiyatchilar e'tirof etgan fuqarolarga tegishli ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni takomillashtirish muammolari, huquqiy demokratik jamiyatni barpo etish va komil inson shaxsini tarbiyalashda hamkorlik jayroni yo'lga qo'yilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5635-son Farmoni, –Toshkent: 2019-yil 17-yanvar. 2-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, –Toshkent: 2022-yil 28-yanvar. 13- b.
3. Sergeeva A.A. Vozrastnie osobennosti razvitiya lichnosti studenta kak faktor adaptatsii k protsessu obucheniya v vuze // Molodoy uchonnii, 2010. №6. –S. 327-329. — URL <https://moluch.ru/archive/17/1651/> (data obrasheniya: 06.09.2019).
4. Lisovskiy V.T. Dinamika sotsialníx izmeneniy (opit sravnitel'nix sotsiologicheskix issledovaniy rossiyskoy molodeži) // Sotsiologicheskie issledovaniya, 1998. № 5. –S. 102.
5. Sergeev R.V. Molodezh i studencheshvo kak sotsialnie gruppi i ob'ekt sotsiologicheskogo analiza. Kiberleninka: <https://cyberleninka.ru/article/n/molodezh-i-studencheshvo-kak-sotsialnye-gruppy-i-obekt-sotsiologicheskogo-analiza>.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINING MULOQOT MADANIYATINI TARBIYALASHDA TA'LIMIY O'YINLAR

Saodat Boybo'riyeva,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarining muloqot madaniyatini tarbiyalashda ta'limiyo'yinlarning ayrim masalalari qalamga olingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'yinga asoslangan o'quv mashg'ulotlarida til o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatish borasida nazariy fikrlar bildirilgan, amaliy tavsiyalar berilgan. Zero, o'yinda yosh organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faoliyit ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, qiziqish, ehtiyoj, nutq o'stirish, mashg'ulot, didaktik o'yin, individual yondashish, mustaqil fikrlash.

Аннотация

В статье публикуются некоторые развивающие игры в воспитании культуры общения дошкольников. В дошкольных учреждениях на базе дошкольного образования сообщались также теоретические заключения по вопросам развития языка, развития, обработки речи и обращения, дающие практические рекомендации. Ведь запросы и потребности, свойственные молодому организму, удовлетворяются, повышается жизненная активность, увеличивается, увеличивается, освежается, бодрит.

Ключевые слова: дошкольные образовательные учреждения, интерес, потребность, речь, дидактическая игра, индивидуальный подход, самостоятельное мышление.

Annotation

In the article, some issues of educational games in the education of communication culture of preschool children are written. In addition, theoretical opinions were expressed and practical recommendations were given regarding language teaching, speech development, speech attitude, behavior training in game-based training sessions of preschool educational institutions. After all, in the game, the demands and needs specific to the young organism are satisfied, vital activity increases, endurance, freshness, cheerfulness are cultivated.

Keywords: preschool educational institutions, interest, need, speech development, training, didactic game, individual approach, independent thinking.

Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonida har bir bolaning erkinligi, tafakkurining mustaqilligini amalda tashkil etish masalasi, har bir mashg'ulotni uyushtirishda hamkorlik pedagogikasiga asoslanish, tarbiyachi avtoritarligiga chek qo'yish, har qanday masalada bolalarning fikri, xohish-istaklari bilan hisoblashish, bu qarashlarning ilmiy, nazariy asoslarini belgilash va uni amaliy tashkil etish yo'llarini ko'rsatib berish maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni, ayni paytda, unda mustaqil tafakkurning ilk belgilarini shakllantirish maqsadini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati, bolalarni

mustaqil fikrlashga o'rgatish muammolari Z.Azizova, X.Kasimova, Sh.Shodmonova, N.Begmatova, N.Bikbayeva, Z.Ibrohimova, D.Babayeva, M.Umarova, B.Djurayeva, N.Tojiboyeva, G.Nazirova, M.Ismoilova, M.Kadirova, L.Mirjalolova, D.Mirzajonova, M.Nigmatova, M.Rasulova, D.Sobirova, N.Tilyabova, P.Yusupova, F.Qodirova, R.Kadirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'lanova va boshqa olimlarning ishlarida yoritilgan [1].

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya berishda pedagogik va axborot kommunikatsiya, texnologiyalarini joriy etish, tarbiyalanuvchilarda nutq o'stirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish tizimini rivojlantirishning falsafiy, pedagogik, psixologik masalalari bo'yicha N.Alavutdinova, M.Zayniddinova, V.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishanova, K.Kenjabayeva, J.Musayev, Sh.Nurullayeva, Q.Husanboyeva, MDH va Rossiya mamlakatlari olimlaridan V.Gerbova, E.Korotkova, S.Lebedeva, L.Jitnikova, A.Z-rojevskaya, N.Mixaylenko, N.Poddjakov va boshqalar izlanishlar olib borganlar.

Nutq o'stirish uslubiyoti fanining asosiy vazifasi – nutq o'stirish uslubi va uslubiyatlarini, ularning eng sa-

marali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bog'chalari tarbiyachilarini ular bilan ta'minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o'zlashtirilgan uslub va uslubiyat yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga harakat qildilar. Nutq o'stirish uslubiyatining maqsadi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat [2].

Nazarimizda, tarbiyachi va keyinchalik o'qituvchining saviyasini yuksaltirish orqali bolalarni mustaqil fikrleshiga erishiladi. Bu, o'z navbatida, millat, mamlakat rivojiga zamin yaratadi. Maktabgacha ta'lif muassasalarida faoliyat olib boradigan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentiligi mazmuniga bolalarni uzlusiz ravishda mustaqil fikrleshga yo'naltirib borish, tafakkurining rivojlanish darajasini aniqlash, baholay bilish ham kiradi. Bolalar tafakkurining mustaqilligini nazorat qilish pedagogik jihatdan ancha murakkab jarayondek tuyuladi.

Shaxsdagi biror sifatini tarbiyalash uchun uning bos-hqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yning qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatdan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa, o'z navbatida, yaxshi tashkil qilingan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, ta'lif-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o'rinn tutadi. O'yinda yosh organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faoliyot ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rinn egallaydi.

Atoqli pedagog va shifokor Y.A.Arkin "O'yinni ruhiy vitamin" deb bekorga aytmagan [3]. Bola o'ynayotib, o'z bilimidan foydalanishga, uni har xil sharoitda ishlata bishiga o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziysi, his-tuyg'ulari orqali sezishga, qoidali, rivojlantiruvchi, harakatlari o'yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini, har xil harakatlarini munta-zam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir ana shunday o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Tarbiyaning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mas-h'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu – ta'lif butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak, degan gap emas. Ta'lif turli-tuman usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'lif shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi. O'yin jarayonida yuz bergen kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlar orqali bolalarning kayfiyati ko'tariladi,

jismoniy chiniqadi va ijodiy qobiliyatları rivojlanadi. Le-kin bu o'yinlar to'g'ri tashkil qilinsagina, tarbiyachi ham ta'limi, ham tarbiyaviy maqsadlariga erishadi.

O'quv materialini idrok etish, o'zlashtirish jarayonida-gi o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shuni bildiradi, ularda har biri o'z alohida shaxsiy ulushini kiritadi, bilimlar, g'oyalar, faoliyat usullarini almashtirib ketadi.

O'yin inson o'zligini namoyon qilishi, uning takomil-lashuvi usulidir. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosini tashkil qiladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi. Bola harakat qiladi, gapi-radi, idrok qiladi, o'ylaydi, o'yin davomida bolaning xayoli, xotirasini faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo'ladi. Mashg'ulotlarda interfaol o'yin orqali bola dunyoni anglaydi, real muammolarga duch kelganda, ularni yecha oladi, tengdoshlari va kattalar bilan mu-loqotga kirisha oladi, madaniy tushunchalarni anglashga o'rganib boradi.

Tarbiyachining vazifa va mas'uliyatlaridan biri bolaning o'rgangan narsalarini qiyoslashi va mustahkamlas-hi, yangi narsalarni o'rganishi uchun ma'noli o'yinlarni uyuşhtirishdan iborat. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi. O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalari, o'yin bolalarga ta'lif-tarbiya berishning metod va usuli hisoblanadi [4].

Interfaol ta'lif texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish shaxsning ta'lif markazida bo'lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lif muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallahdan tashqari, barcha innovatsion texnologiyalarini va interfaol usullarni biladigan, ularni amaliy faoliyatida qo'llaydigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilari innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni bilishlari lozim. Binobarin, interfaol ta'lif texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirishning amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, ta'lif-tarbiyanı yuksalishida muhim o'rinn tutadi. Har bir o'qituvchi ta'lif jarayonida, albatta, pedagogik, innovatsion, informatsion, muammo-li ta'lif, interfaol va masofaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanish bilan birga, bolalarning ham faolligini oshiradigan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan o'yin texnologiyalarini qo'llay olsin. Masalan: "Aqliy hujum", "Tarmoqlar" ("Klaster"), "Bumerang", "Charxpalak", "Rezyume", "Baliq skeleti" va boshqalar. Barcha pedagog-o'qituvchilar o'z faoliyatlarida quyidagi interfaol ta'lif texnologiyalaridan foydalansa, nur ustiga nur bo'ladi:

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakurni shakllantirish;
- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallah;

- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash.

Interfaol ta'lifni qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatlari masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar [5]. Amaliy mashg'u-lotlar zamona vi ta'lif uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron ta'lif resurslaridan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsya etiladi.

Xulosa, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talab-

lar bilan an'anaviy me'yirlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy-teknologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berishi orqali ta'lif tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bonyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lif jarayonining sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdalieva G.A. *Maktabgacha ta'lif muassasalari nutq o'stirish mashg'u-lotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish.* 13.00.08 – "Maktabgacha ta'lif va tarbiya nazariysi va metodikasi". pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lif tashkilotlarining Davlat o'quv dasturi. BMthing Bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekiston'dagi vakolatxonasi. – T., 2018.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. *Maktabgacha pedagogika.* – T.: "Ma'naviyat", 2013.
4. A. Raxmonqulova va boshq. *Maktabgacha yoshdag'i bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish (ilk, kichik, o'rta guruhlar uchun).* O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
5. L.Mirjalolova. *Bolalarning nutqiy faolligini oshirish.* O'quv qo'llanma. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016.



JOY NOMLARINING SEMANTIK-STRUKTUR TASNIFI MASALASI

Tursunoy Yandashova,
O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasи katta o'qituvchisi, PhD.

Annotation

Mazkur maqolada o'zbek tili onomasiologiyasi tarixi, rivojlanish manbalari, xususan, toponimik tasnif bilan bog'liq umumiy masalalar yoritilgan bo'lib, unda o'zbek toponimikasida joy nomlarining semantik-struktur tasnifi birqancha toponimik birliklar asosida tahlilga tortilgan. Bunda mazkur joy nomlarining etimologik kelib chiqishi, semantik-struktur jihatlari alohida e'tiborga olingan. Tasnifni amalga oshirishda nafaqat o'zbek tilshunosligi nazariy manbalariga, balki qardosh turkiy xalqlar toponimikasi ilmiy-nazariy manbalariga ham murojaat qilingan. Shuning uchun ba'zi ilmiy atama va istilohlar bugungi o'zbek tilshunosligiga begona bo'lishi mumkinligini inobatga olib, ularga mufassal izoh berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: onomastika, onomasiologiya, toponimika, toponimiya, oykonim, gidronim, oronim, antroponom, etimologiya, geraldika, etnonimika.

Аннотация

В данной статье освещается история ономасиологии узбекского языка, источники развития, в частности, общие вопросы, связанные с топонимической классификацией, в которой анализируется семантико-структурная классификация топонимов в узбекской топонимии на основе нескольких топонимических единиц. Особое внимание уделяется этимологическому происхождению, семантико-структурным аспектам названий этих мест. При осуществлении классификации использовались не только теоретические источники узбекского языкоznания, но и научно-теоретические источники топонимии родственных тюркских народов. Поэтому, принимая во внимание, что некоторые науч-

ные термины могут быть чужды современному узбекскому языкоznанию, была предпринята попытка их подробного разъяснения.

Ключевые слова: ономастика, ономасиология, топонимика, топонимия, ойконим, гидроним, ороним, антропоним, этимология, геральдика, этнонимика.

Annotation

This article covers the history of Uzbek language onomasiology, sources of development, in particular, general issues related to toponymic classification, in which the semantic-structural classification of place names in Uzbek toponymy is analyzed on the basis of several toponymic units. The etymological origin, semantic-structural aspects of the names of these places are given special attention. In the implementation of the classification, not only the theoretical sources of Uzbek linguistics, but also the scientific and theoretical sources of the toponymy of Turkic peoples were referred to. Therefore, taking into account that some scientific terms may be strange to today's Uzbek linguistics, an attempt was made to explain them in detail.

Keywords: onomastics, onomasiology, toponomy, toponymics, oikonym, hydronym, oronym, anthroponym, etymology, heraldics, ethnomy.

O'zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlarning vujudga kelishi, joy nomlarining o'r ganilishi bilan bog'liq ilmiy ishlar talaygina. Biroq mazkur yo'nalish ham o'zining milliy-madaniy bo'yoqdorligi, etnik tarixiy qadriyatlarni o'zida aks ettirishi bilan tadqiqotchilarni o'ziga jalb etaveradi. Zero nomshunoslik fanimizga o'zining yangi-yangi qirralari bilan kirib kelib, eskirmas an'anaga aylangan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Onomastika – yunoncha onomaslike so'zidan olingan bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtida bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi. Toponimika onomastikaning bir bo'limi bo'lib, unda joy nomlari va ularga qo'yilgan atoqli otlar tadqiq qilinadi. Toponimika nazariy va amaliy toponomikaga bo'linadi. Nazariy toponomimka joy nomlarining leksik-semantic jihatlariga e'tibor qaratsa, amaliy toponomimka joy nomlari bilan bog'liq toponomik lug'atlar, etimologik tadqiqotlar va elektrotexnik qirralarini to'ldirishga ahamiyat qaratadi. O'r ganish obyektining turiga ko'ra toponomikaning umumiy va xususiy toponomimka kabi turlari bor. Umumiy toponomimkada dunyo toponomikasining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilinsa, xususiy toponomimkada muayyan bir tilgagina tegishli toponomik materiallar o'r ganiladi. Shu kunga qadar o'zbek toponomimkasi bo'yicha 20 dan ortiq nomzodlik, 10 ga yaqin doktorlik (Z.Do'simov, S.Qorayev, T.Enazarov va boshqalar) ishi himoya qilindi.

Mamlakatimizda toponomimkaga doir monografik tadqiqotlar, risolalar, o'quv qo'llanmalari yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda S.Qorayevning "Toponimika – joy nomlari haqidagi fan" (1980), "Toshkent toponimlari" (1991), "Toponimika" (2006), M.Mamedovning "Xalq nomlari joy nomlarida" (1981), L.Karimovaning "O'zbek tilida toponimlarning o'r ganilishi" (1982), E.Begmatovning "Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi" (1998), T.Enazarovning "O'zbekiston toponomimkasi" nomli maxsus kursni o'qitish metodikasi" (1999), "Toponimlar etimologik tadqiqining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari" (2001), "Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi" (2002), "O'zbekistondagi ba'zi toponimlarning etimologik talqini" (2004), "Nomshunoslik masalalari" (2010), N.Oxunovning "Joylar va nomlar" (1986), "Toponimlar va ularning nomlanish xu-

susiyatlari" (1989), A.Otajonovaning "Xorazm etnotoponimlari" (1997), Z.Do'simov va M.Tillayevalarning "Joy nomlarining siri" (2001), "Toponimika asoslari" (2002), A.Turobovning "Samarqand etnonim va etnooykonimlari" (2004), T.Qurbanov, M.Xudoyerberdiyevalarning "Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari" (2006), S.Karimov, S.Bo'riyevlarning "O'zbek toponomikasi taraqqiyot bosqichida" (2006), B.Qilichevning "Buxoro viloyati toponimlari" (2008), N.Begalievning "Samarqand toponimiyasi" (2010) kabi bir qator ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Umuman olganda, O'zbekistonda onomastik birliklar orasida eng ko'p o'r ganilgani joy nomlari – toponimlar bo'lib [3], kelgusida bunday tadqiqotlar yanada kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi lozim. Shu asosda, O'zbekiston toponimlarining xaritasi, mukammal ko'p tomlik izohli lug'ati maydonga kelishiga mustahkam zamin hozirlanadi.

O'zbek tilida toponimlar tasnifi bilan bog'liq turli xil qarashlar mavjud. Ular qaysi aspektidan yondashilishiga ko'ra har xil tasniflarni yuzaga kelishi bilan aloqador qarashlardir. Eng birinchi tasnif o'zbek tilshunosligida qadimgi ko'hna bitiktoshlar bilan bog'liq desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ularda muayyan hudud, millat, urug' nomlari keltirilgan. Undan keyin bu haqda qimmatli ma'lumotlar beruvchi eng katta manba, shubhasiz, Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asari hisoblanadi.

Biz toponimlarni etimologik kelib chiqishi, semantic xususiyatlari, struktur tuzilishi, hududiy taqsimlanishi nuqtayi nazaridan tasniflashimiz mumkin. Bunda etimologik kelib chiqishi deyilganda, har qanday joy nomining tarixiy genezisi o'r ganiladi. Masalan, o'zbek tilida Buxoro, Toshkent, Shahrisabz kabi joy nomlarining tarixan kelib chiqishi necha ming yilliklarga borib taqaladi. Tabiyiki, mazkur vaqt oralig'i nafaqat hududiy o'zgarishlarni, balki toponomik tamaddunni ham o'z boshidan o'tqazgan.

Toponimik semanticada joy nomlari anglatayotgan ma'no-mazmun birlamchi ahamiyat kasb etadi. Oddiyigina, Toshkent: tosh shahar kabi. Va bu tasnifni o'zini yana ichki klassifikatsiyalari mavjud bo'lib, biz uni tahlil va natijalar qismida muayyan darajada berishga harakat qildik. Joy nomlarining struktur tuzilish nuqtayi nazaridan

tasniflanishi deyilganda, mazkur toponimning sodda yoki murakkab tuzilmasi, uning tub yoki yasamaligi, qo’shma, juft, takror ekanligi bilan bog‘liq ma’lumotlar nazarda tutildi. O’zbek tilida aksar joy nomlari avval qo’shma tulishiga ega bo‘lib, keyinchalik tublashib ketgan otlardir. Masalan, Samarqand, Buxoro va hokazo.

Hududiy taqsimot toponimlarning bir davlat, mintaqasi yoki qit’aga tegishliliga ko’ra yoki bir til oilasi, bir til tarmog‘iga birlashishiga binoan ham amalga oshiriladi. Masalan, turkiy tillar tarmog‘iga tegishli toponimlarda roman-german guruhiga tegishli toponimlarga qaraganda umumiyliliklar ko‘p.

Umuman, joy nomlari, ularning nomlanish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar mazkur toponim tegishli bo‘lgan til, millat hayoti, madaniyati, ma’naviyati, geografiyasi, iqlimi, tarixi, tabiat haqidagi qimmatli ma’lumotlarni berishi, shubhasiz. Shu boisdan ham toponimikani o’rganish va o’rgatish fanimizning hech qachon eskirmaydigan mavzulari sirasida qolishi aniq.

Quyida toponimlarning semantik jihatdan ba’zi turlarini berib o’tishga harakat qildik. Biroq bu yerda bir qismi berilgan, xolos. Vaholanki, toponimik til birliklari mazmunan rang-barangligi, etimologik turfa xilligi jihatdan bundan-da katta tasnif-tadqiqotlarni o’zida jamlashi shubhasiz.

Abionim: Yunoncha bios “hayot” onom(a) “ot”.

Aborigen: Aborigenlar yashaydigan hudud va mahalliy xalq nomi.

Abreviatur: Muayyan hudud nomining qisqartma shakli.

Abroonim: Yunoncha agros “cho'l, quruqlik, sahro” nomi.

Adonim: Turli xil joy nomlari: bog‘, qir, adir, kenglik, o’tloq va hk..

Agoronim: Yunoncha agora “maydon, xiyobon”. Shahar maydonlari nomi.

Akronim: Abbreviaturaning bir turi, qisqartma nom.

Faol Nomenklatura: Muayyan geografik obyekt nomiga u mansub bo‘lgan turdosh ot nomining qo’shib aytilishi, “tog‘, shahar, joy” kabi.

Allonim: Yunoncha allos “boshqa, g’ayri, begona” ot. Shaxsning asosiy ismiga yondosh ismlar: familiya, otasining ismi, laqab, taxallus va hk.

Antropogidronim: Shaxs nomlariga atab qo‘yilgan suv obyektlari nomlari.

Antroponomik Gidronim: Shaxs nomlariga atab qo‘yilgan suv obyektlari nomlari.

Antroponomika: Shaxs otlarini o’rganadigan alohida fan bo‘limi.

Antropooronim: Shaxs nomlariga atab qo‘yilgan tog‘ nomlari.

Antroponomik Oronim: Shaxs nomlariga atab qo‘yilgan tog‘ nomlari.

Antropooykonim: Shaxs nomlariga atab qo‘yilgan gu-

zar, mahalla, ovul nomlari.

Antroponomik Oykonim: Shaxs nomlariga atab qo‘yilgan guzar, mahalla, ovul nomlari.

Antropotoponim: Shaxs otlaridan olingan joy nomlari.

Antroponomik Toponim: Shaxs otlaridan olingan joy nomlari.

Apelyativ: (inglizcha — appellative) Murojaat otlari bilan keladigan joy nomlari, “ota”, “bobo”, “ona” kabi.

Astionim: (yunoncha – aste “shahar”, astcios “shaharlik”, onim “ot”) Shahar otlari.

Astionimiya: Shahar nomlarini o’rganuvchi fan bo‘limi.

Astronom: (yunoncha – astur “yulduz”, onim “ot”) Samoviy jism nomlari

Astronomika: Samoviy jism nomlarini o’rganuvchi fan bo‘limi.

Astrotoponim: Samoviy jism nomlaridan yasalgan joy nomlari.

Astronomik Toponim: Samoviy jism nomlaridan yasalgan joy nomlari.

Bationim: (yunoncha – balv “sayozlik, chuqurlik”, onim “ot”) Suv yuzasiga yaqin joyda joylashgan geografik obyekt nomlari.

Berg: Qattiq, chayir yer.

Makrotoponim: Katta geografik obyekt nomlari.

Mikrotoponim: Kichik geografik obyekt nomlari.

Bionim: (yunoncha – bios “hayot”, onim “ot”) Jonli organizm nomlarining hudud, millat, xalq nomiga ko‘chishi.

Drimonim: (yunoncha – drimos “o’rmon”, onim “ot”) O’rmon otlari.

Dromonim: (yunoncha – dromoz “yo’l”, onim “ot”) Yo’l nomlari.

Egzonim: Muayyan hudud nomining chet tilida o’z ona tilidagisidan farqli yozilishi va aytilishi.

Ekklezionim: (yunoncha – ekklyisia “cherkov”, onim “ot”) Muqaddas joy nomlari, cherkov, masjid, madrasa, ziyyoratgoh va hk.

Eponim: (Yunoncha eponym / eponymos “atalma”) Shaxs nomiga qo‘yilgan etnos, millat, xalq nomi.

Etnik Toponim: Muayyan etnik jamoaning joy nomi.

Etnogidronim: Muayyan xalq, millat nomiga qo‘yilgan suv obyektlari nomlari.

Etnonimik Gidronim: Muayyan xalq, millat nomiga qo‘yilgan suv obyektlari nomlari.

Etnogidrooronim: Xalq, millat nomiga qo‘yilgan tog‘lik suv obyekti nomi.

Etnogidrooykonim: Xalq, millat nomiga qo‘yilgan suv obyektiya yaqin mahalla, guzar nomi.

Etnoorogidronim: Xalq, millat nomiga qo‘yilgan suv obyektiya yaqin tog‘ nomi.

Etnooronim: Xalq, millat nomiga qo‘yilgan tog‘ nomi.

Etnonimik Oronim: Xalq, millat nomiga qo‘yilgan tog‘ nomi.

Etnooroooykonim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq tog‘li mahalliy hudud nomi.

Etnooykogidronim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq suv obyekti joylashgan mahalliy hudud nomi.

Etnooykonim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq mahalliy hudud nomi.

Etnonimik Oykonim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq mahalliy hudud nomi.

Etnooykooronim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq tog‘li mahalliy hudud nomi.

Etnotoponim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq hudud nomi.

Etnonimik Toponim: Xalq, millat nomi bilan bog‘liq hudud nomi.

Faol Toponim: Ayni paytda faol iste’molda bo‘lgan joy nomlari.

Faol Nomenklatura: Muayyan hudud nomini belgilashda asos vazifasini bajaruvchi so‘z: daryo, tog‘, bog‘ va hk.

Faunonim: Muayyan hayvon nomi bilan bog‘liq joy nomlari.

Fitogidronim: O‘simplik nomidan olingan suv obyekti nomi.

Fitonimik gidronim: O‘simplik nomidan olingan suv obyekti nomi.

Mazkur fikrlar asosida o‘zbek tili toponomikasi, ularning tarixiy-etimologik xususiyatlari, semantik-struktur ifodalari bilan bog‘liq quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Joy nomlarining nomlanish maqsadlari, ko‘rib chiqish sohalari va tamoyillari baholanganda, toponomik nomlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi va uni fan sohasi sifatida o‘rganish zarurligi tushuniladi. Shuning uchun keng qamrovli joy nomlari atamalari lug‘atini tayyorlash fanimiz oldida turgan dolzarb vazifa, qolaversa,

bu lug‘atlar qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida olib borilsa, toponimlardagi milliy, tarixiy, etnik o‘ziga xoslik, semantik-struktur ifodalarni yanada teranroq anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz, deb o‘ylaymiz.

2. Toponimga aylangan so‘z yangi ma’no kashf etish bilan ko‘pincha tipik topomin shakl oladi, toponimlar uchun xos bo‘lgan qo‘shimchalar (suffikslar) paydo bo‘ladi. Hozirgi vaqtida geografik toponimlarda so‘zlarning toponimga aylanmasdan oldingi ma’nosini seziladi, yana bir xillarida esa umuman yo‘qolib ketgan. Shuning uchun ham ma’nosini tushuniksiz bo‘lgan toponimlarni bir oz o‘zgartirib tushunarli qilish to‘g‘ri emas, bunday nomlar qadimiy tillardan qolgan qimmatli lisoniy va tarixiy yodnomalar bo‘lishi mumkin.

3. Ko‘pincha toponimlar grammatik va semantik jihatdan hozirgi shaklga kelgunga qadar talay o‘zgarish-larga uchragan. Toponimlarni paydo bo‘lishiga qarab ikki turga bo‘lish mumkin: tabiiy yo‘l bilan hosil bo‘lgan, xalq tomonidan qo‘yilgan toponimlar va sun’iy yo‘l bilan hosil qilingan, qaror bilan qo‘yilgan toponimlar.

4. Geografik nomlar turdosh otlar leksikasidan ajralib chiqqan paytdan boshlab o‘zi ifodalagan geografik obyektning belgilardan uzoqlasha boradi. Toponimlar nutqda shu obyektning boshqalardan farqli nishonalarini ta’kidlashga emas, balki konkret obyektni boshqalardan ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Toponimga aylangan so‘z yangi ma’no kasb etadi, endi bu so‘z konkret, yagona, yangi bir tushunchaga aylanadi. Geografik nomlar ko‘pincha geografik obyektni ifodalaydigan tushunchadan boshqa ma’no anglatmay qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. – Б. 60.

2. Бегматов Э., Ҳусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшинослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиети, 1992. № 5-6. – Б. 21-27.

3. *Büyük Rusça-Türkçe Sözlük, Москва, Русский язык, Multilingual, İstanbul: 1995.*

4. Девону луготит турк. Индекс-лугат. Ф.Абдураҳмонов, С.Муталибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 547.

5. Тұрдібеков М.Т. Абұлғози Баҳодирхоннинг “Шажарайи түрк” асари ономастикаси. ИДА. – Тошкент, 2001.

6. Yuldashev M. G‘aroyib joy nomlari // Elektron platforma: Yondaftар. http://myuldashev.blogspot.com/2020/08/blog-post_14.html?m=0



ХАВФСИЗ ТАЪЛИМ МУҲИТИ ВА УНИ ЯРАТИШНИНГ МОҲИЯТИ

Шаҳло Салимова,

Қарши мухандислик-иктисодиёт институти тадқиқотчиси

Аннотация

Мақолада хавфсиз таълим муҳити, уни яратишнинг мазмун-моҳияти, таълим муҳитининг тузилиши ҳақида маҳаллий ва хориж олимларининг фикр-мулоҳазалари батрафсил ўрганилган. Хавфли таълим муҳитининг салбий хусусиятлари очиб берилган. Муҳит тушунчасининг турли-туман йўналишиларида талқини таҳлили келтирилган. Таълим ва тарбия жараёнларида муҳитнинг ўрни алоҳида тадқиқ этилган. “Хавфсиз таълим муҳити” ва “таълим муҳити” тушунчалари фарғланаб, хавфсиз таълим муҳитининг хусусиятлари, омиллари ҳамда психологик жиҳатдан хавфсиз таълим муҳитини шакллантириши бўйича тақлифлар берилган. Тадқиқот натижаларини олии учун таълим тизимининг алоҳида жараёнлари кузатилди, анализ, тизимли ёндашув, индукция, таснифлаш, абстракция ва таққослаш каби методлардан самарали фойдаланилди.

Калим сўзлар: муҳит, таълим муҳити, хавфсиз таълим, таълим, тарбия, захира, психологик хавфсизлик.

Аннотация

В статье подробно рассматриваются мнения и суждения отечественных и зарубежных ученых о безопасной образовательной среде, сущности ее создания, структуре образовательной среды. Выявлены негативные характеристики опасной образовательной среды. Дан анализ трактовки понятия среды в разных направлениях. Отдельно исследована роль среды в процессах воспитания и обучения. Разграничены понятия «безопасная образовательная среда» и «образовательная среда», а также приведены признаки и факторы безопасной образовательной среды и формирования психологически безопасной образовательной среды. Для получения результатов исследования наблюдалась отдельные процессы образовательной системы, эффективно использовались такие методы, как анализ, системный подход, индукция, классификация, абстрагирование и сравнение.

Ключевые слова: среда, образовательная среда, безопасное обучение, образование, воспитание, резерв, психологическая безопасность.

Annotation

The article examines in detail the opinions and judgments of domestic and foreign scientists about a safe educational environment, the essence of its creation, the structure of the educational environment. The negative characteristics of a dangerous educational environment are revealed. An analysis of the interpretation of the concept of environment in different directions is given. Separately, the role of the environment in the processes of education and training is studied. The concepts of «safe educational environment» and «educational environment» are delimited, and signs and factors of a safe educational environment and the formation of a psychologically safe educational environment are given. To obtain the results of the study, separate processes of the educational system were observed, methods such as analysis, a systematic approach, induction, classification, abstraction and comparison were effectively used.

Keywords: environment, educational environment, safe education, education, upbringing, reserve, psychological safety.

Бугунги кунда ўқитувчининг таълим жараёнида боланинг ривожланиши учун масъулияти масаласи тобора долзарб бўлиб, янги маъно касб этиб бормоқда. Замонавий ахборот маконида таълим муҳити субъектларининг бир-бирига нисбатан хатти-ҳаракатлари салбий шаклларининг намоён бўлишига кўплаб мисоллар мавжуд.

Психологик ва жисмоний зўравонлик даражасини пасайтириш, қулай психологик хавфсиз таълим муҳитини яратиш бугунги куннинг асосий эътиборга молик жиҳатларидан бирига айланмоқда. Хавфсиз таълим муҳитини яратиш, ўқитувчига бола шахсини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни таъминлаш, уларнинг ижобий хис-туйғуларини бошдан кечиришларига, ўзларига бўлган ишончини пайдо бўлишига ва уларнинг захиравий имкониятларини

фаоллаштиришга ёрдам беради.

Ишончсиз таълим муҳитида талаба ўзини нокулай ёки камситувчи вазиятлардан ҳимоя қилиш зарурлигини кўпроқ тушуна бошлади ва бунда психологик хавфсизлик тобора муҳим аҳамият касб этиб боради [1, 6].

В.А.Ясвин ўз тадқиқотларида “муҳит” атамасига таъсир ва шарт-шароитлар мажмуасига эга бўлган шахснинг ижтимоий-табиий муҳити деб, педагогик ва психологик нуқтаи назардан эса шахснинг ривожланши учун имконият деб таъриф беради [2, 9].

Таълим муҳити тузилиши ҳақида тадқиқотчи Г.А.Ковалев учта асосий ўзаро боғлиқ ўлчовларни келтиради. Буларга “жисмоний муҳит” (бинолар, бинолар архитектураси, дизайнни ва бошқалар), “инсон омили” (таълим жараёни субъектлари ўртасидаги ижтимоий боғлиқлик, субъектлар жинси, ёш хусусиятлари ва

бошқалар) ва “таълим дастури” (фаолият шакли, ўқишиш усули ва бошқалар)ни киритади [3, 20].

Педагогларнинг касбий ривожланишида ахборот таълим мухитининг ўрни ҳақида олимлардан Н.А. Муслимов, М.Т.Мирсолиева, Д.М.Сайфуров, А.Аминов, Т.Т.Шоймардонов, З.А.Артиқбаева, А.Д.Аскаров, У.Ш.Бегимкулов, Б.Нуридинов, М.Дехконова, Н.Н.Каримова, М.Т.Жуманиёзова, Ш.К.Мардонов, М.Файзиева, О.А.Куйсинов, Р.Т.Юлдашев, Д.А.Хидоятова ва М.М.Ниматулаевлар тадқиқот олиб боришган [4, 92].

Таълим тизимида хавфсиз таълим мухитини тадқиқ этиш учун, таълим тизимининг алоҳида жарайёнлари кузатилди ҳамда кузатишнинг анкетали ва танланма турларидан кенг фойдаланилди. Кузатиш натижасида олинган маълумотлар жамлаш ва гурӯхлаш усуллари орқали тизимлаштирилди. Шунингдек, тадқиқот давомида анализ, тизимли ёндашув, индукция, таснифлаш, абстракция ва таққослаш каби методлардан самарали фойдаланилди. Таълим мухити маълум бир ижтимоий ва фазовий обьектлар оралиғида содир бўладиган ўқув-тарбиявий жараён сифатида қаралади [5, 63].

Ўтган асрнинг иккинчи ярми мухитнинг таркибий компонентларига оид тадқиқотларнинг кўпайиши билан тавсифланади ва атроф-муҳит кўплаб мухитлар тўплами сифатида қаралади. Кенг тарқалган типологияга кўра, мухит микромухит омилларнинг тўплами: оила, синф, референт груп; мезо-муҳит: иқлим хусусиятлари, этник келиб чиқиши; макромухит: мамлакат, жамият, давлат; мега мухитлар: фазо, сайёра ва олам хисобланади.

Ўтган аср охиридан педагогика фанида олиб борилган тадқиқотлар мухит билан боғлик муаммоларни долзарблаштириди. Тадқиқотчи олимларнинг изланишларида мухитнинг жамият турмуш тарзига таъсири қонуниятлилиги намоён бўла бошлади. Ўз навбатида, таълим муассасасининг ўқув тизими тушунчасини таълим жараёни субъектлари ўртасидаги ўқитувчилар, ўқувчилар, ота-оналарнинг ўзаро таъсири билан мутаносиблиги кўрсатиб берилди.

Шунингдек, мухитнинг ўзига хос таркибий қисмлари (табиий мухит, субъект-эстетик мухит, архитектура мухити, митти туман мухити ва шу кабилар)ни аниқлаш бўйича тадқиқотлар давом этди. Мухитнинг таркибий тузилиши, болаларнинг мухит билан ўзаро таъсири жараёнини бошқариш ва таълим кучларини бирлаштиришга оид янада умумий тавсифдаги ишлар пайдо бўлди.

Педагогика фанида “муҳит” тушунчасининг мазмуни аста-секин кенгайиб, тўлдирилиб борилди. Педагогик атамашуносликда “муҳит”, “табиий мухит”, “атроф мухит”, “ижтимоий мухит” кабиларга берилган таърифлар билан бир қаторда, “гуманитар мухит”, “ривожланаётган мухит”, “маданий мухит”,

“маданий-маърифий мухит”, “ижтимоий-маданий мухит”, “маданий ва тарихий мухит”, “таҳсил мухити”, “таълим мухити”, “инновацион мухит”, “оиласий мухит”, “хиссий-шахсий мухит”, “таълим ва мактаб муассасалари мухити”, “инклузив мухит” ва “психологик хавфсиз таълим мухити” каби тушунчалар киритилди. Шу нуқтаи назардан, тадқиқотимиз учун “таълим мухити” тушунчасини тизимлаштириш қизиши ўғотади.

Таълим мухитида фойдаланувчиларга бевосита ва бильвосита салбий таъсир қилиш жараёни хавфли таълим мухити деб юритилади. Хавфли таълим мухити қуидагиларга олиб келиши мумкин:

- ҳаётий тажрибалардан тўғри хулоса қила олиш қобилиятини йўқотиш;
- ахборотни қабул қилиш, сақлаш ва таҳлил қилиш қобилиятини йўқотиш;
- саволларга жавобларда чекланган бўлишлик;
- муносатларга киришиш қонун-коидаларини идрок эта олмаслик;
- юқори даражадаги фикрлаш қобилиятидан камроқ фойдаланиш;

- узоқ муддатли хотира ҳажмини йўқотиш [6, 44].

“Таълим мухити” тушунчасидан ўтган аср охирларидан эътиборан фаол фойдалана бошланди. “Атроф-муҳит” тушунчаси таҳлил қилиниши жараёнида таълим мухити “маълум бир моделга мувофиқ шахсни шакллантириш учун таъсирлар ва шарт-шароитлар тизими, шунингдек, ижтимоий ва фазовий-объект мухитида мавжуд бўлган ривожланиш имкониятлари” деб хисобланган.

Таълим мухитини маълум бир модел бўйича шахсни шакллантириш учун таъсирлар ва шарт-шароитлар тизими, шунингдек, ижтимоий макон ва предметли макон атроф-муҳитида мавжуд бўлган ривожланиш имкониятлари сифатида қаралиб, таълим мухити таркибий тузилмасида у таълим мухитнинг қуидаги компонентлари: ижтимоий, предметли макон, технологик, таълим жараёнининг субъектлари ажратиб кўрсатилган.

Бошқа тадқиқотчилардан фарқли ўлароқ, “таълим мухити” берилган таъсир ва шарт-шароитлар мажмуи сифатида эмас, балки таълим макони, таълимни бошқариш, таълимда ўқувчининг ўрни ва унда ўзаро таъсирларнинг маҳсулни бўлган динамик таълим қараб чиқилади. Шу нуқтаи назардан, таълим мухити ташкил этувчиларнинг биргаликдаги фаолият объекти сифатида тақдим этилади, бунинг натижасида алоҳида муассасалар ва таълим субъектлари ўртасида маълум алоқалар шаклланади.

Таълим мухитида шахс эҳтиёжларининг иерархик мажмуасини кондириш ва бу эҳтиёжларни ҳаётий қандиятларга айлантириш учун шароит, таъсир ва имкониятларнинг педагогик жиҳатдан ташкил этилган

тизими кўриб чиқилади, бу эса ўқувчиларнинг ўқув жараёнда фаол позициясини таъминлайди, уларнинг шахсий ривожланиши ва ўзини ўзи ривожланишини белгилайди.

Таълим муҳити шахснинг табиий ёки сунъий равища яратилган ижтимоий-маданий муҳити, шу жумладан, ўқувчининг ишлаб чиқариш фаолиятини таъминлашга қодир бўлган турли хил восита ва таълим мазмуни сифатида тушунилади. Бундай ҳолда, таълим жараёни ўқувчи учун ҳаётий соҳалардан иборат бўлган таълим муҳити билан ўзаро таъсир қилиш жараёни сифатида қаралади. Мазкур ёндашув ҳар бир ўқувчи учун таълим муҳитининг индивидуалгини намоён этади.

Инсонларнинг муҳити – у идрок этадиган, унга муносабат билдирадиган, у билан алоқада бўлган ва ўзаро таъсир қиласиган ижтимоий муҳитидр.

Муҳит – “шахснинг жамиятда шаклланиши ва фаолиятига таъсир этувчи, шахснинг субъекти ва инсон муҳити, унинг қобилияtlари, эҳтиёjlари, қизиқишлиари, онги сифатидаги шароитлар мажмуи”dir.

Шундай қилиб, тадқиқотчилар ҳар бир ҳодиса муайян муҳитни яратишini тан олишади. Шунинг учун ҳар қандай ҳодисани ўрганиш муҳит ёндашувидан ташқарида тўлиқ бўлмайди. Таълим муҳитининг сифати куйидаги хусусиятлар: гурух аъзоларининг муносабатларидағи қадриятли-йўналтирилганлик бирлиги даражаси; муносабатларда намоён бўладиган ижтимоий-маданий таркибга ҳавола; шахсий-ишончли муносабатларнинг ривожланиш даражаси билан белгиланиши керак. Юқорида келтирилган ғоялар таълим муҳитини ўрганишдаги ургуни қаерга қаратиш лозимлигини қайд этади. Чунки улар таълимнинг ўзини алоҳида қобиқдаги ижтимоий институт сифатида эмас, балки ўзига хос хусусиятларга, фаолият механизмларига, қарама-қаршиликларга эга бўлган ижтимоий муносабатлар элементи сифатида кўриб чиқишга имкон беради. Таълимни жамият ва шахсларнинг ижтимоий ҳамжамиятлари ўргасидаги ўзаро муносабатлар таъсир тизими сифатида кўриб чиқиши лозим.

Ушбу ёндашув субъектларнинг мустақиллиги, ўз максадлари, вазифалари, эҳтиёjlари ва манфаатларининг мавжудлигини тавсифлайди. Психологик қулай ва хавфсиз шароитларни яратиш бевосита уларнинг онгли, коммуникатив ўзаро таъсирини ташкил этиш жараёнлари билан боғлик бўлиб, бунда ҳар бир киши ўз харатларининг бошқаларга таъсирини ҳисобга олади.

Тарихийлик нуқаи назаридан “муҳит” тушунчасига таъриф беришда педагогик ғоялар ва замонавий ёндашувларни таҳлил қилишга муҳитнинг тарбиявий салоҳияти ва ундан фойдаланиш йўлларига эътибор қаратиш зарур. Назарий ишларни таҳлил қилиш муҳитни тарбиявий омил сифатида ўрганишга, унинг

тарбиявий имкониятларини очиб беришга асқатади.

Муҳитни бутун жамият, муайян ижтимоий институт, мактаб ёки жамоа тизими контекстида таълим омили сифатида кўриб чиқишининг кенглигига қараб, тадқиқочилар унинг тузилиши, хусусиятлари, шахсий ривожланишдаги роли ва ташкил этиш усуллари устида тўхталиб ўтганлар. Шунга мос равища, “муҳит” тушунчасининг чегаралари ўзгариб боради: у муҳит ва таълим жараённинг ўзига хослигини кенг тушунишдан тортиб шахснинг муҳитга бўлган муносабатини ҳисобга олишгача бўлган жараённи ўз ичига олади.

Шундай қилиб, тарбия омили сифатида муҳит ҳақидағи ғояларни таҳлил қилиш шахсни педагогик жараённинг субъекти сифатида тушуниш учун муҳит ҳодисасининг ўзи муҳимлигидан далолат беради. Мактаб муҳитининг тузилиши ва хусусиятларини очиб бериш шахс ва унга турли муҳитларнинг таъсир этиш механизmlарини тушунтириш учун зарурдир. Турли муҳитларнинг шахсга таъсир қилиш механизmlари эса таълим жараённинг предмети бўлган психологияк хавфсизликни таъминлаш соҳасида муҳитдан фойдаланиш стратегияларини ўрганишга имкон беради.

“Муҳит” тушунчасини очиқ педагогик тизимлар доирасида кўриб чиқиши тенденциялари ўтган асрнинг тўқсонинчи йилларида таълим давлат сиёсатининг етакчи тамойилларидан бири сифатида таълим жараённинг инсонпарварлик тавсифини илгари сурганидан ҳаёт, саломатлик, эркинлик ва шахсий ривожланишида ижтимоий қадриятларининг устунлиги янада кучайди. Замонавий ёндашувлар “муҳит” компонентини ўз ичига олган: таълим муҳити, ривожлаётган таълим муҳити, мослашувчан таълим муҳити янги тушунчаларида аниқ намоён бўла бошлади. “Муҳит” тушунчасининг замонавий жамиятдаги роли тобора ортиб бораётган “таълим” тушунчаси билан бирлаштирилган. Бу эса “муҳит” ва “таълим” тушунчаларининг ўзаро боғлиқлигини алоҳида кўриб чиқиши талаб қиласиди. Ушбу ёндашув доирасида “кенг маънодаги таълим муҳити” тушунчаси билан бир қаторда, “тор маънодаги таълим муҳити” тушунчаси устида таахлиллар олиб борилган, бунда таълим муҳити тизими ташкил этиувчи омил сифатида қаралган.

Психологияк хавфсизлик компоненти ушбу тадқиқот учун алоҳида қизиқиши ўйготади. Махаллий педагогик адабиётларда психологик хавфсизлик қулай ва психологик хавфсиз таълим муҳити тушунчаси билан белгиланади. Бу эса мураккаб, тизими, узок муддатли ва маҳсус ташкил этилган психологик-педагогик жараённинг натижаси сифатида тушунилади.

Психологияк хавфсизлик функционал қулайликни

шакллантириш ва ривожлантириш, шахсий ва ҳиссий хавфсизлик, ижтимоий-психологик маҳоратнинг юқори даражасини сақлаб туриш, фаолиятда шахснинг захира имкониятларини оптималлаштириш шарти деб ҳисоблашади.

Таълим мухитининг психологик хавфсизлигини унинг ўзаро таъсирида иштирокчиларда психологик зўравонлик намоён бўлмасдан, шахсий ва ишончли мулоқотга бўлган эҳтиёжни қондиришга ҳисса қўшадиган, мухитнинг референтли аҳамиятини яратиш ва унинг руҳий саломатлигини таъминлаш ҳолатидир.

Шуни таъкидлаш керакки, замонавий таълимда ушбу шартлар педагог ва талабалар ўртасида психологик билимларга бўлган эҳтиёжни ривожлантиришга, бола шахсини шакллантиришда юзага келиши мумкин бўлган хукуқбузарликларнинг ўз вақтида олдини олишга қаратилган руҳий-профилактик чоралар билан тўлдирилади. Руҳий-профилактик ҳолатлар қўйидагиларни ўз ичига олади: болаларни адаптациясига оид ишларни олиб бориш; ота-оналар ва ўқитувчиларни боланинг мактабга кирганида ва мактаб таълим мининг кейинги босқичларида ушбу жараённи осонлаштирадиган тавсиялар билан таъминлаш; ривожланишдаги қийинчиликларни аниқлаш учун мактаб таълим мининг турли даражаларида болаларни психологик-педагогик текширувдан ўtkазib туриш; мумкин бўлган оғишларни эрта аниқлаш ва уларни тузатиш мақсадида мактабга психологик ташхислашни амалга ошириш; мактаб таълими жараённида ҳар томонлама ва баркамол ривожланишни таъминлаш учун ўқитувчилар билан биргаликда болаларда индивидуал ишлаш дастурларини амалга ошириш.

Фалсафий, социологик ва психологик адабиётлар таҳлилига кўра, мухит ҳодисасини тушунишда

тадқиқотчилар томонидан тўпланган тажрибани тизимлаштиришга ҳаракат қилдик. Улар асосида қуйидаги хulosаларга келдик: “хавфсиз таълим мухити” тушунчаси “таълим мухити” тушунчасига нисбатан ўзига хос тушунча бўлиб, унинг ривожланиши таълим мининг адабтив функцияси доирасида талқин қилишдан таълим мухитини тушунишга босқичма-босқич ўтишни назарда тутади. Таълим мининг ривожланувчи функциясига мувофиқ, таълимга аксиологик ва шахсга йўналтирилган ёндашув, инсонпарварлик педагогика тамойилларини амалга ошириш, умуман, “хавфсиз таълим мухити” тушунчасини ҳисобга олган ҳолда, “кенг маънода таълим мухити” билан бир қаторда “тор маънода таълим мухити” тушунчалари тизимини ташкил этувчи сифатида ҳаракат қилганда қўлланилади. Хавфсиз таълим мухитининг асосий хусусиятларини ўз ичига олган муайян таълим тизимининг омили, хавфсиз таълим мухитининг компонентлари сифатида очиқ педагогик тизим тушунилганлиги сабабли мураккаб ва кўп босқичли тузилишга эгадир. Унинг умумий услугбий хусусиятлари макон ва вақт нуқтаи назаридан кенг тарқалганлик, изчиллик, мухитни ташкил этувчи ҳодиса ҳамда барча компонентларнинг ўзаро таъсири таълим шароитларига боғлиқлиkdir.

Психологик жиҳатдан хавфсиз мухит дейилганда, ўқувчиларни психологик зўравонлиқдан юқори даражада шахсий-хиссий ҳимоя қилишни таъминлайдиган, фаолиятда шахснинг захира имкониятларини фаоллаштирадиган, ўқув жараёни иштирокчиларининг шахсий ва ишончли муносабатларидаги психологик соғлигини фаоллаштирадиган, психологик қулай иқлимини шакллантирадиган ва сақлайдиган таълим мухитини тушунамиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Clapper, Timothy. *Creating the safe learning environment. PAILAL. 3. 2010. pp. 1-6.*
2. Ясвин, В.А. *Образовательная среда: от моделирования к проектированию/ В.А. Ясвин. – М.: Смысл, 2001. – 365 с.*
3. Ковалев, Г.А. *Психологическое развитие ребенка и жизненная среда / Г.А. Ковалев // Вопросы психологии. – 1993. – № 1. – С. 13-23.*
4. Садикова Феруза Махмуджсановна (2020). АҲБОРОТ ТАЪЛИМ МУХИТИДА ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ИШИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. Современное образование (Узбекистан), (7 (92)), Б. 87-94.
5. Кудрявцев, В. Дошкольное и начальное образование - единый развивающийся мир. [Текст] / В. Кудрявцев // Дошкольное воспитание.- 2001.- № 8. – С. 61-72.
6. Jensen, E.. *Brain-based learning (2d ed.). Thousand Oaks, CA: Corwin Press. 2008. 288 p.*



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YOSH FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Muhammadali Xakimov,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada ayni paytda O'zbekiston Respublikasidagi Oliy ta'lif muassasalarida talabalarga o'qitilayotgan yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini o'qitish metodikasi, ushbu fanni o'qitish uchun foydalanilayotgan adabiyotlar, o'qilayotgan ma'ruzalar mavzularining jahon standartlariga qanchalik mos kelishi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti misolida ko'rib chiqilgan. Yuqoridagilarni o'rganish orqali muallif tomonidan yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini oliy ta'lif muassasalarida o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun bir qancha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fiziologiya, gigiena, yosh fiziologiyasi va gigiyenasi, o'qitish metodikasi, o'qitishning innovatsion metodlari, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lif tizimida integrallashtirish.

Аннотация

В статье описывается методика преподавания предмета «Юная физиология и гигиена», который в настоящее время преподается студентам в высших учебных заведениях Республики Узбекистан, используемая литература для преподавания данного предмета, степень соответствия лекций мировым стандартам. рассмотрено на примере Государственного университета мировых языков. На основании изучения вышеизложенного автор дает ряд рекомендаций по совершенствованию методики преподавания наук о физиологии и гигиене молодежи в высшей школе.

Ключевые слова: физиология, гигиена, физиология и гигиена молодежи, методы обучения, инновационные методы обучения, совершенствование методов обучения, интеграция в систему образования.

Annotation

The article describes the methodology of teaching the subject of age physiology and hygiene, which is currently taught to students in higher education institutions in the Republic of Uzbekistan, the literature used to teach this subject, the degree of compliance of lectures with world standards. considered on the example of the State University of World Languages. Based on the study of the above, the author makes a number of recommendations for improving the methodology of teaching the science of physiology and hygiene of young people in higher education.

Keywords: physiology, hygiene, physiology and hygiene of youth, teaching methods, innovative teaching methods, improving teaching methods, integration into the education system.

Har qanday davlatni taraqqiyot tomon yo'naltiruvchi, iqtisodiyot, ma'naviyat va madaniyatini rivojlantiruvchi asosiy kuch ilmdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lif tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Isloh qilish bu "shunchaki o'zgartirish, avvalgidan boshqacharoq qilish" deb tushunish noto'g'ridir. Biror tizimni isloh qilish uchun, avvalambor, ushbu tizimni o'rganib chiqish, tizimning tarkibiy qismalari bilan tanishib chiqish, uning kuchli va ojiz tomonlarini aniqlash va ushbu tizimni boshqa, biroq o'xshash vazifalarni bajaradigan tizim bilan solishtirish va kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni belgilab olish kerak.

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani pedagoglarni tayyorlash davlat dasturining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu fanni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni professional-pedagogik mahoratini oshirish, kelgusida o'spirin va yoshlarning ta'lif olish jarayonini gigiyenik talablar asosida tashkil qilish orqali o'zi va biling oluvchilarining so'glig'ini saqlashdir [1, 29].

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani talabalarda odam organizmi ontogenetining turli davrlarida kechadigan o'zgarishlarining mexanizmlari va fiziologik asoslari; fiziologik funksiyalarning yoshga bog'liq tarzda o'zgarishi qonuniyatlarini; odam nerv sistemasining tuzilishi va ishlash mexanizmlarini; professional-pedagogik faoliyatni tashkil qilishda yosh fiziologiyasining roli haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi [3, 15].

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasini o'rganish davomida talabalar quyidagi bilimlarni olishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

1. Ontogenezning turli davrlarida odam organizmi turli fiziologik sistemalari (tayanch-harakatlanish, qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, ayirish, endokrin va nerv sistemalari)ning tuzilishi va funksional mexanizmlarini tushunishlari.

2. Oliy nerv faoliyatining fiziologik asoslari, psixologik jarayonlar va psixologik holatlar mexanizmi, shuningdek, ta'lif oluvchilar uchun yaratilgan sharotilarining qanchalik gigiyenik talablarga mos kelishiga baho bera olishlari; ta'lif oluvchilarining qoniqarsiz psixofiziologik

holatini aniqlay olishlari; ta'lif olish, dam olish va ovqatlanish rejimlarining gigiyenik to'g'ri standartlarini aniqlashlari va yarata olishlari kerak [4].

Ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun o'quv fani adabiyotlari tarkibida yosh fiziologiyasining yoshga bog'liq xususiyatlarini to'liq olib berish uchun yetarlicha ma'lumotlar bo'lishi kerak [5,14].

Maqola yozish davomida taqqoslash metodidan foydalanib O'zDITU da yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini o'qitishda foydalilanayotgan adabiyotlar, ularning tarkibi odam anatomiyasini va fiziologiyasi darsliklari va ularning tarkibi bilan, shuningdek, Rossiya Federatsiyasida (keyingi o'rnlarda RF) o'qitilayotgan fan adabiyotlari bilan solishtirgan.

Barcha fanlar kabi yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini o'qitishda ham asosiy baza bo'lib fan adabiyotlari xizmat qiladi. Adabiyotlarning sifati fanning bazaviy potensialini belgilab beradi. Adabiyotlar qanchalik tushunarli va o'z auditoriyasiga to'g'ri qaratilgan bo'lsa, shunchalik yaxshi o'z vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti (keyingi o'rnlarda O'zDITU), tarjimonlik fakulteti, tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchilari tomonidan yosh fiziologiyasi va gigiyenasinini o'qitishda qo'llaniladigan adabiyotlar sifatida asosan namunaviy dastur doirasida tuzib chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalilanadi. Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmalar dars berilayotgan kafedralardan kelib-chiqib o'z tarkibida 4 tadan 15 tagacha ma'ruza mavzularini saqlaydi. Ma'ruzalar davomida talabalarga asosan quyidagi mavzular yoritib beriladi:

1. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanining ahamiyasti va vazifalari. O'sish va rivojlanishning garmoniya va geteroxronologiyasi;
2. Irsiyat va fiziologik tushunchalar;
3. Nerv tizimining umumiyligi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari;
4. Analizatorlar fiziologiyasi, yoshga bog'liq xususiyatlari va gigiyenasi;
5. Tayanch-harakat tizimi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari;
6. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga bog'liq xususiyatlari;
7. Yurakning tuzilishi, qon sistemasi va qon aylanishining yoshga bog'liq xususiyatlari. Nafas olish sistemasining yoshga bog'liq xususiyatlari;
8. Ovqat hazm qilish sistemasi fiziologiyasi va gigiyenasi, modda va energiya almashinuvining yoshga bog'liq xususiyatlari;
9. Fanni o'rganish jarayonida 15 ta ma'ruza o'qilishi ko'zda tutilgan o'quv dasturi doirasida so'ngi 2 yil davomida global muammoga aylangan va pandemiyaga sababchi bo'lgan koronavirus haqida ham ma'lumot berib o'tilgan. [4,3]

Zamonaviy ilm-fan borgan sari rivojlanib borayotgan,

yangidan yangi kashfiyotlar qilinayotgan hozirgi zamonda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yanada dolzard mavzuga aylanib bormoqda. Ilm-fan qanchalik rivojlanib borgani sari ushbu rivojlanishdan olinishi mumkin bo'lgan foydaga parallel tarzda potensial xavf ham paydo bo'ladi. Tabobat, farmatsevtika va biologiya fanlari rivojlanib borishining ham o'ziga xos aks ta'sirlari bo'lishi mumkin. Jumladan, bakteriyalarda antibiotik-rezistentlik paydo bo'lishi va tarqalishi, biologik chiqindilar va ularning utilizatsiya muammosi, biologik aktiv moddalardan noto'g'ri foydalananish, mutagen moddalar va boshqalar nafaqat lokal, balki global tarzdag'i muammolarni keltirib chiqarishga qodir masalalardir. Aynan shu sabab ko'plab mamlakatlarda biologiya fanlariga katta e'tibor beriladi. Odamlar orasida antibiotiklarga nisbatan rezistent bakteriyalar paydo bo'lishi, tarqalishi xavfi va buning profilaktika choralar haqida ma'lumotlar beriladi.

Ushbu mavzularning joylashish tartibi umumjahon belgilangan standartlarga qisman to'g'ri kelmaydi. Mavzularning auditoriyaga qaratilganlik darajasi past. Rossiya Federatsiyasining pedagoglar tayyorlash oliv ta'lif muassasalarida foydalilanayotgan adabiyotlar, ularning tarkibi va urg'u berilgan mavzular ham biz foydalana-yotgan adabiyotlardan farq qiladi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi oliv ta'lif muassasalarida talabalarning kelajakda egallaydigan kasbidan kelib-chiqib, fan dasturi aynan bir yoki bir nechta sistemalarga urg'u berish orqali tayyorlanishi mumkin. Chunonchi, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va trenerlar uchun tayanch-harakatlanish sistemasiga, psixologlar uchun oliv nerv sistemasi faoliyatiga urg'u berilgan o'quv dasturlari mayjud. Shu qatorda, hozirda foydalilanayotgan o'quv dasturida ayrim muhim mavzular, jumladan, hujayra va to'qimalar haqida umumiy ma'lumotlar, ayirish sistemasi, jinsiy organlar sistemasi va boshqa sistemalar bilan bog'liq turli kasalliklar va ularning profilaktika choralar haqida ma'lumotlar mayjud emas. Bundan tashqari, darslarning seminarlar uchun ajratilgan qismida amaliy va laboratoriya mashg'u-lotlari yetishmaydi.

Yuqoridagilardan kelib-chiqib quyidagi ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Mavzularni quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish:
 - Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanining ahamiyati va vazifalari. Hujayra, to'qima va organizm haqida tushuncha;
 - O'sish va rivojlanish geteroxronologiyasi. Akserleratsiya va retardatsiya;
 - Tayanch-harakatlanish sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari. Tayanch-harakatlanish sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi;
 - Yurak-qon tomir sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari. Keng tarqalgan yurak-qon tomir sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi.

- Nafas olish sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari. Nasaf olish sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi.

- Ovqat hazm qilish sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari, modda va energiya almashinushi. Ovqat hazm qilish sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi.

- Ayirish va jinsiy organlar sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari. Ayirish va jinsiy organlar sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi.

- Endokrin sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari. Endokrin sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi.

- Nerv sistemasi fiziologiyasi va uning yoshga bog'liq xususiyatlari. Nerv sistemasi kasalliklari va ularning profilaktikasi.

- Irsiyat va uning fiziologik konseptsiyalari. Irsiyat kasalliklar va ularning profilaktikasi.

- Dori preparatlarini qabul qilish gigiyenasi. Biologik xavflar. Bakteriyalarning antibiotik-rezistentlik asoslari.

2. Yosh fiziologiyasini o'qitishning seminar mas'hulotlarini amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlari bilan boyitish. Talabalarga ta'lif oluvchilarining tana konsitutsiyasini aniqlash usullari, psixofiziologik yondashuv usullarinining ta'lif tizimidagi o'rnnini tushuntirish. Psixofiziologik yondashuv mexanizmlari asoslarini yoritib berish.

3. Hozirda foydalanilayotgan fan adabiyotlari bazasini chet el adabiyotlari bilan solishtirish, chet el adabiyotlarida keltirilgan ma'lumotlardan muhim deb topilganlarini mentalitetimiz va bugungi kun talabidan kelib chiqib foydalanishga kiritish.

4. Darsliklar va o'quv uslubiy qo'llanmalarini tay-

yorlashda asosiy urg'uni organizmning butun hayot siklidagi nerv sistemasi ontogeneziga qaratish.

Yuqorida o'zgarishlarni amalga oshirish orqali yosh fiziologiyasi va gigiyenasini o'qitishda quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:

a. Odam ontogenezning turli davrlarida nerv sistemasining o'ziga xos tuzilishi va unda kechadigan fiziologik jarayonlar bilan bog'liq savollarga e'tiborni qaratish;

b. Ilm olishning amaliy usullarini qo'llash, jumladan, o'z-o'zini kuzatish;

c. Darslar davomida odam anatomiyasiga doimiy murojaat qilish;

d. Talabalarning ijodiy faoliyatini mustaqil ishlar va o'qitishning boshqa interaktiv metodlarini qo'llash orqali aktivlashtirish: aylana stol ishlarida ishtiroy etish, bahs-munozara, o'rganilayotgan mavzular yuzasidan taqidimotlar tayyorlash;

e. Ilm oluvchining sog'lig'ini va fiziologik holatini tahlil qila olish;

f. Talabalarda gigiyenik bilimlarni hosil qilish va rivojlantirish;

g. Mavzularni o'rganishda fanlararo yondashuvni shakllantirish.

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanining to'g'ri tashkillashtirilgan o'quv mashg'ulotlari bo'lajak pedagoglarning inson organizmi va ontogenezining turli davrlardagi muhim va o'ziga xos o'zgarishlarini bilishini, individual yondashuv orqali o'ziga xos va effektiv o'qitish dasturlarini ishlab chiqishi va kelajakda nafaqat o'zining va oila a'zolarining, balki ta'lif oluvchilarining ham sog'lig'iga befarq bo'lmasligi va turli xil kasalliklar profilaktikasiga katta e'tibor berishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С.И.Курова, г. Шадринск. Проблемы преподавания возрастной физиологии и психофизиологии в педагогическом вузе. ФГБОУ ВПО «Шадринский государственный педагогический институт». 29-31. 2013. Журнал: ВЕСТНИК ШАДРИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА.

2. Учебное пособие. ВОЗРАСТНАЯ АНАТОМИЯ, ФИЗИОЛОГИЯ И ГИГИЕНА. КАЗАНСКИЙ ФЕДЕРАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ. КАЗАНЬ 2013. 166-с.

3. Ю.В.Корягина, Ю.П.Салова, Т.П.Замчий. Курс лекций по физиологии физкультурно-спортивной деятельности. Министерство спорта Российской Федерации. Сибирский государственный университет физической культуры и спорта. Омск 2014. –154 с.

4. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanidan uslubiy qo'llamma. O'zJDTU. – Toshkent: 2021. –123 b.

5. УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ КОМПЛЕКС ПО ДИСЦИПЛИНЕ «Возрастная анатомия и физиология». ГОРНО-АЛТАЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ. Горно-Алтайск, 2008. – 91 с.

“ZINAMA-ZINA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “TEZLATKICHALAR FIZIKASI” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH

^{1,2}**Erkin Bozorov,**

fizika-matematika fanlari doktori, professor,

¹M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,

²O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro Fizikasi Instituti

Feruza Mardonova,

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Fizika va astronomiya” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada interfaol metodlardan biri bo'lgan “Zinama-zina” metodi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Oliy ta'lif muassasalarining “Fizika” ta'lif yo'naliishi talabalari uchun Yadro fizikasiga oid “Tezlatkichlar” haqida batasfil ma'lumot berilib, yuqoridaqgi metodning amalda qo'llash usuli keltirilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar; yadro fizikasi, elementar zarrachalar; tezlatkichlar; o'qituvchi (pedagog), o'quvchi (talaba), yuqori energiya, elektron-volt, yorug'lik tezligi.

Аннотация

В данной статье кратко рассмотрен один из интерактивных методов – метод «Зинама-зина». Данна подробная информация об «Ускорителях» по ядерной физике для студентов направления «Физика» высших учебных заведений, а также представлена методика практического применения вышеуказанного метода.

Ключевые слова: интерактивные методы, ядерная физика, элементарные частицы, ускорители, учитель (педагог), ученик (студент), высокие энергии, электрон-вольт, скорость света.

Annotation

This article briefly considers one of the interactive methods - the “Zinama-zina” method. Detailed information about the “Accelerators” in Nuclear physics for students of the direction “Physics” of higher educational institutions is given, as well as a methodology for the practical application of the above methodology.

Keywords: interactive methods, nuclear physics, elementary particles, accelerator, teacher (teacher), pupil (student), high energies, electron volt, speed of the light.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilar ning o'quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Ta'lif va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rinni, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lif oluvchi (o'quvchi, talaba)lar mavzuni yaxshi o'zlashtirishi bilan bir qatorda muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

“Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limi yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, biroq ularning har biri ta'lif yoki tarbiya jarayonida mahsulorlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinish lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq-

dir”, – deb ta'kidlaydi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi D. Ro'ziyeva [1, 80].

Ta'lif borasidagi O.U.Avlayev fikrlari quyidagicha: “Fan ni o'qitish jarayonida ta'lif oluvchiga bilim berish, bilimni ishlata bilishni, undan amalda foydalana bilishni va pirovar-dida yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatishda ta'lif metodlarini samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega.” [2, 4]

Tadqiqot metodologiyasi. “Zinama-zina” metodi o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u o'quvchi (talaba)larda mavzuni o'rganis-hga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tus-hunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [1, 28].

Undan foydalanish tartibi quyidagicha:

1. O'rganilayotgan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog'ozlarda ifodalananadi;
2. Talabalar kichikguruhlarga biriktiriladi;
3. Har bir guruhg'a muayyan qismdag'i matn taqdim etiladi;

4. Guruhlar o'zlariga berilgan matn bilan tanishib, uning mohiyatini belgilangan vaqt ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar shaklida ifoda etadi.

5. Belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a'zosi o'zi bajargan ish bilan jamoani tanishtiradi;

6. Barcha guruhlarning ishlari o'rganilgach, jamoa tomonidan o'zlashtirilgan mavzuning umumiy obrazi kichik mavzular mohiyatini yorituvchi rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida mantiqiy ketma-ketlikda yozuv taxtasida zinama-zina ko'rinishida joylashtiriladi;

7. O'qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib, zarur o'rnlarda ularga o'zgartirishlar kiritadi;

8. Guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga qarab baholanadi.

Baholash jarayoni rangli kartochkalar vositasida amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar o'zлari sifatlari deb topgan ish ustiga rangli kartochkalarni qo'yishadi. Natijada, eng ko'p kartochkaga ega bo'lgan ish uchun yuqori ball beriladi.

Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar quyidagi shartlarga amal qiladilar:

1) Kichik mavzular bo'yicha imkonli boricha ma'lumotlarni to'liq bayon etish;

2) Kichik guruhlarning ishlari xolis baho berish.

Amalda qo'llash misoli:

Mavzu: Tezlatkichlar fizikasi

O'rganilayotgan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog'zlarda ifodalanadi.

1-guruhi: Elementar zarrachalar.

Elementar zarrachalar "qanday yasalganini" qanday aniqlash mumkin? Elementar zarrachalarni qanday ko'rish va ichida biror narsa borligini qanday tushunish mumkin? Uni mikroskop ostida ko'rishning iloji yo'q. Agar biror ob'yekt qanday ishlashini bilmoqchi bo'lsak, nima qilgan bo'lardik? Biz uni sindirishga urinardik, g'alati. Aytaylik, soatlar. Biz soatga qaraymiz va uning ichida nima borligini tushuna olamiz, lekin agar soatni sindirsak, u yerdan qandaydir g'ildiraklar uchib ketadi va biz soat qanday ishlashini bilib olamiz.

Ma'lum bo'ldiki, kvant olami boshqacha tartibga solingan, elementar zarracha ichida hech narsa yo'q, balki umuman hech narsa yo'qdir, biz haligacha elementar zarrachaning biror tuzilishga ega yoki ega emasligini tushunmayapmiz. Ammo shunga qaramay, qanday qilib unga kirish mumkin? Topilgan usul – zarrachani mumkin bo'lgan eng yuqori energiyaga tezlashtirish va biror nishonga urish. Agar biz nishonga tushsak, ajoyib o'zgarishlar boshlanadi – yangi zarralar tug'iladi.

Qizig'i shundaki, bu yangi zarralar aynan to'qnashayotgan zarrachalar ichida yoki nishonning ichida emas, to'qnashuv energiyasidan tug'iladi. Bu yerdan Eynshteyning ajoyib formulasi ishlaydi: zarraning qolgan ener-

giysi mc² ga teng, ya'ni massa yorug'lik tezligining kvadratiga teng. Agar biz qaysidir zarrani juda yuqori energiyada tarqatib, bunday zarralarni to'qnashuv energiyasidan yangi zarralar paydo bo'lishi mumkin, ularning massasi biz zarralarni tarqatgan kinetik energiyadan kichikdir [3, 79-84].

2-guruhi: Tezlatkichlar.

Zarrachalarni juda yuqori energiyaga tezlatuvchi qurimalar tezlatkichlar deyiladi. Bunday tezlatgichlar juda uzoq vaqt oldin paydo bo'la boshlagan. Eng oddiy tezlatgich elektr maydonidir. Agar sizda elektr potensial yoki potensial farqi bo'lsa, u holda elektr zaryadlangan zarracha bu potensialda harakat qiladi va tezlashadi. Xuddi shu narsa magnit maydonga ham tegishli. Biz zarrachalarni harakatlantirish uchun asosan elektromagnit kuchdan, elektr magnit maydonlaridan foydalanamiz. Eng oddiy potensial farqli kondensator turi bo'lib, u zarrachalarni biroz tezlashtiradi.

Lekin biz zarrachani juda yuqori energiyaga tezlatmoqchimiz. Kosmik nurlar shunday tabiiy tezlatgichdir. Kosmik nurlar bizga juda yuqori energiya bilan keladi. Ammo kosmik nurlarda zarrachalar kam va ularni o'rganish juda qiyin. Koinot birinchi tezlatgich bo'lsa-da, lekin keyin ular zarrachalarni qanday tezlashtirishni o'rganishga qaror qilishdi va tezlatgichlarni qurishni boshladilar [4, 215-221].

3-guruhi: Siklotron.

Ma'lumki, agar zarrachalar tezlashtirilgan uzunlik kichik bo'lsa, unda ular shunchaki ko'proq energiya olishga vaqtliyo'q. Halqali tezlatkich g'oyasi aynan shu yerda paydo bo'lgan: zarracha halqa bo'ylab tezroq harakatlanadi va elektr yoki magnit maydonini har doim sirk arenasida otlarni qamchilagan murabbiy kabi qamchilab turadi hamda zarralar tobora ko'proq tezlashadi. Birinchi bunday tezlatgichlar o'tgan asrning o'rtalarida yaratilgan bo'lib, ular siklotronlar deb ataladi va zarrachalarning maksimal energiyasini olish, ya'ni ularni mumkin bo'lgan eng yuqori tezlikka chiqarish edi.

Siklotronning ishlash tamoyilini juda oddiy misol yordamida tushuntirish mumkin. Arg'imchoqda o'tirgan bolaga yerda tik turgan odam turki berib tebratayotgan bo'lsin. Har gal arg'imchoq odam yonidan o'tayotganda unga odam tomonidan turki, ya'ni qo'shimcha energiya (tezlik) beriladi. Arg'imchoq har gal oldingiga nisbatan yanada baland ko'tarilsa ham, u o'zining eng pastki nuqtasidan deyarli bir vaqt oralig'ida o'tadi. Ushbu misoldagi odamning harakati (ta'siri) siklotronda ionlar oqimiga energiya ulushini beruvchi yuqori chastotali generatorning harakatiga o'xshashdir. Siklotronda zarralarni tezlatish jarayoni, ularning magnit qutblarining chetigacha yetib bormaguncha davom etadi. Zarralar oqimi Ushbu chegaraga yetib borganda uning oldiga tadqiq qilinayotgan nishon qo'yiladi va zarralar bu nishonga kelib tushishi natijasida yadro reaksiyalari yuz beradi [5, 285-289].

4-guruhi: Tezlatkichlarning o'chov birligi.

Tezlatgichlarning energiyasi elektron-volt (eV) deb ataladigan birliklarda o'lchanadi. Elektronvolt – 1 voltlik potensiallar farqidan o'tganda elektron oladigan energiya, shuning uchun elektron-volt deb ataladi. Tezlatgichlar

zarrachalarni millionlab eVga qadar tezlashtiradi. Bu birliklar odatda MeV deb qisqartiriladi. Aslida, bu juda katta energiyali zarrachalarning tezligi allaqachon yorug'lik tezligiga yaqinlasha boshlagandir [6, 651-655].

Kichik guruhlarga baho berishda quyidagicha jadval tuzib, undan foydalansa ham bo'ladi:

Savol	1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
	Baholash			
1	5	4	5	4
2	4	4	5	5
...
10	4	3	5	5

Shu tarzda davom etiladi. Dars so'ngida faol talabal baholanib, eng faol guruh aniqlanadi va rangli karnochkalar bilan belgilanadi.

Ushbu "Zinama-zina" metodi Navoiy davlat pedagogika institutining "Fizika va astronomiya" kafedrasi talabalarida sinab ko'rildi va ijobji natijaga erishildi.

Ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan kabi interfaol metodlarni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, mazkur metodlarning samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o'qituvchi (pedagog)lardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyyaga ega bo'lishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. *Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma.* Toshkent, 2013. –b.136.
2. O.U.Avlayev, C.N.Jo'rayeva, C.R.Mirzayeva. *Ta'lim metodlari. O'quv-uslubiy qo'llanma.* Toshkent: -"Navro'z" nashriyoti, 2017 y. –b.210.
3. J.A.Toshxonova, X.M.Maxmudova, B.Nurillayev. *Umumiy fizika kursi. Yadro va elementer zarralar fizikasi. Kvarklar.* Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2004 y. –b.204.
4. O.Ahmadjonov. *Fizika kursi. Optika, atom va yadro fizikasi.* Toshkent, "O'qituvchi", –1983 y. –b.240.
5. G'.A.Abdullayev. *Fizika. Darslik.* Toshkent, "O'qituvchi". –1989 y. –b.296.
6. A.A.Detlaf, B.M.Yavorskiy. *Kurs fiziki.* Moskva, "Vissaya shkola". –2002. –b.719.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО ЛАТИНСКОМУ ЯЗЫКУ

Зухра Ёкубова,

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
Ташкентского Педиатрического медицинского института

Аннотация

Данная статья рассматривает инновационные технологии обучения студентов, которые дают наиболее выраженный эффект и коэффициент усвоения нового материала студентами, а также формируют профессиональные навыки.

В этой статье описаны современные инновационные технологии, зарекомендовавшие себя в педагогической практике, в том числе и в моей профессиональной деятельности. Используя инновационные технологии, можно расширить спектр применяемых методов обучения.

Ключевые слова: инновационные технологии; знания и умения; педагогика сотрудничества; профессиональная деятельность.

Annotatsiya

Ushbu maqola tibbiyotda lotin tili fanini talabalarga o'qitishda eng samarali va katta ko'rsatkichlarni beradigan innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish va professional tizimni shakllantirishda asqatadi.

Bu maqolada pedagogika fanida va o'z tajribamda keng qo'llanilib kelayotgan zamonaviy innovatsion texnologiyalar haqida gap boradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda, ta'lif tizimini imkoniyatini kengaytirish mumkin.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, ta'lif va ko'nigma, pedagogik hamkorlik, professionalizm.

Annotation

This article examines innovative technologies of teaching students, which give the most pronounced effect and coefficient of assimilation of new material by students, as well as forms professional skills.

This article describes modern innovative technologies that have proven themselves in teaching practice, including in my professional activity. Using innovative technologies, it is possible to expand the range of applied teaching methods.

Basic concepts: innovative technologies; knowledge and skills; pedagogy of cooperation; professional activity.

В настоящее время информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) предоставляют новые формы организации обучения/преподавания, в частности, иностранных языков. Благодаря ИКТ и мультимедийным ресурсам разрабатываются новые средства, используемые в преподавании и обучении. В данной статье рассматривается отношение студентов к ИКТ на курсах “Иностранный язык” (Иностранный язык для специальных целей) и «Латинский язык» в медицинском университете и влияние внедрения электронных учебных ресурсов на достижения студентов и академическую успеваемость. В современной науке существуют различные подходы к определению понятия “английский язык для специальных целей” (ESP). В ряде исследований выделяют язык для специфических целей (LSP) [1, 2]. Во французских исследованиях этот подход называется *Français sur Objectifs Spécifiques*. Иностранный язык для конкретных целей, по определению французских исследователей J.-M. Mangiante и C. Pargette, относится к разработке учебного плана для конкретной аудитории с четко определенными потребностями [3]. Как правило, такие курсы ограничены по времени, что заставляет преподавателя, разрабатывающего учебный план, расставлять приоритеты в выборе содержания и развиваемых навыков. В отличие от курса “Язык для специальных целей”, учебный план профессионального иностранного языка (*Français de spécialité*) не ориентирован на конкретную аудиторию студентов, он носит более общий характер, рассчитанный на студентов целой специальности (английский для медицины, английский для экономики, английский для юриспруденции и т.д.).

При преподавании профессионального иностранного языка преподавателю не нужно определять потребности своей аудитории, чтобы каждый раз адаптировать учебный план, поскольку данный курс предполагает охват всех коммуникативных ситуаций, встречающихся в данной области обучения. Как отметил Ж.-М. Манджанте, “целью является не аудитория, а профессиональный язык, или, скорее, на-

бор специализированных дискурсов в этой области” [4]. В. Вайчюниене противопоставляет ESP общему английскому, целью которого является изучение грамматики, лексики и развитие коммуникативных навыков [5]. М.Е. Батлер-Паскоу предлагает рассматривать ESP как гибридный подход, сочетающий в себе преподавание как языка, так и специфического для данной области содержания [6]. В контексте данного исследования, вслед за М. Захир [7], мы будем рассматривать LSP как курс, направленный на улучшение коммуникативных навыков студентов и знаний иностранного/латинского языка по специальности, не углубляясь в теоретические аспекты изучения языка (история языка, лексикология и т.д.). В связи с необходимостью включения содержания, связанного с областью обучения, в качестве экспертов, соавторов и рецензентов курсов ESP и латинского языка были привлечены специалисты в области анатомии, фармакологии, эпидемиологии и терапии.

Предмет «Латинский язык» является обязательным на первом курсе медицинских и фармацевтических вузов и рассчитан на 36 часов, включая аудиторные занятия и самостоятельную работу студентов (в зависимости от профиля). В данном эмпирическом исследовании представлены электронные образовательные ресурсы, разработанные преподавателями кафедры иностранных языков и используемые в учебном процессе при обучении латинскому и иностранному языкам студентов медицинского университета. Рассматривается роль этих ресурсов в повышении мотивации студентов. В исследовании также использованы наблюдения и результаты опроса мнений студентов о роли электронных образовательных ресурсов в учебном процессе. Электронные образовательные ресурсы по латинскому и иностранному языкам, разработанные преподавателями, можно разделить на 4 группы.

Традиционные учебники, которые раньше издавались на бумаге, а теперь доступны на электронной учебной платформе университета, содержат теоретический материал (грамматические правила), задания,

базовую лексику, упражнения для самостоятельной работы, которые проверяются автоматически. Этот вид электронных учебных ресурсов позволяет обеспечить всех студентов учебниками с наименьшими затратами для университета, студенты могут получить доступ к учебнику в любом месте, им нужно только мобильное устройство или ПК, подключенный к Интернету.

В соответствии с учебным планом видеолекции для каждого урока латыни можно подготовить с помощью программы Adobe Presenter и разместить на платформу электронного обучения университета. Преимущество таких лекций по сравнению с размещением презентации Power Point заключается в том, что студент может не только прослушать теоретический материал, изучаемый на уроке, но и выполнить тест на проверку понимания изученной темы с автоматической проверкой. При подготовке лекций с помощью программы Adobe Presenter можно параллельно с презентацией в отдельном окне показывать видеоролик преподавателя (говорящую голову). Оглавление лекции отображается справа от презентации, что обеспечивает удобную навигацию по лекции и позволяет вернуться к интересующему слайду.

Также электронный словарь, имеет большую популярность в использование инновационных методов на практических занятиях по латинскому языку. Хотя последние версии популярных электронных словарей Abbyy Lingvo и Multitran имеют латинско-русский и русско-латинский словарь, он не содержит медицинских терминов. В связи с запросом студентов, преподаватели латинского языка разработали электронный латинско-русский и русско-латинский словарь "Tempus". Уникальность этого ресурса в том, что в нем представлена фармацевтическая и медицинская терминология. В электронной латинско-русской словарной статье словодается в корневой форме (именительный падеж для существительных, прилагательных, причастий, инфинитивная форма для глагола), других формах (родительный падеж для существительных, женский и средний род для прилагательных и причастий), постоянных грамматических характеристиках (категория рода для существительных, тип спряжения для глаголов), значение на русском языке и словосочетания, примеры употребления на латыни с переводом (в этом разделе также представлена культурная информация, а также популярные выражения, содержащие данную лексическую единицу, с русским переводом), аббревиатуры и сокращения (сокращения широко используются в анатомической, клинической и фармацевтической терминологии). Для предлогов указывается падеж (падежи), с которым они сочетаются.

Все грамматические формы (парадигма склонения / спряжения) также встроены в словарную статью

каждого слова. Таким образом, электронная словарная статья значительно расширена по сравнению с бумажной версией. Поскольку поиск осуществляется во всех полях словарной статьи, искомое слово будет отображаться в результатах поиска, даже если студенты набирают существительное или прилагательное в косвенном падеже или конечный глагол. Кроме того, поиск может осуществляться по одной морфеме, таким образом, возможен поиск по греческому корню, для которого не существует отдельной словарной статьи. Направление перевода определяется автоматически в соответствии с входным языком, поэтому нет необходимости переключаться между латинско-русским и русско-латинским словарем. Электронный словарь позволяет своевременно вносить дополнения и обновления по мере выхода новых изданий учебников, изменений в нормативных документах (издание новой Фармакопеи и т.д.), создания новых лекарственных препаратов, так как существует в виде веб-приложения. Кроме того, такая форма не требует разработки различных версий словаря для каждой операционной системы и для мобильных устройств.

Фонетический тренажер латинского языка содержит подробный анализ правил чтения букв и буквосочетаний латинского языка в различных позициях с примерами, каждый из которых сопровождается аудиофайлом.

Тренажер по лексике и грамматике латинского языка (доступен онлайн и в виде мобильного приложения) содержит лексический и грамматический материал по всем темам курса. При выборе темы на экране отображаются 10 пар слов, которые должны быть подобраны. При следующем обращении к этой теме студенту будут даны те пары слов, в которых была допущена ошибка (таким образом, осуществляется интеллектуальный подбор пар слов). Тренажер на платформе Quizlet позволяет в игровой форме освоить лексику по каждой теме, а также имитировать диктант. Курсы для каждого факультета были созданы на платформе Quizlet по инициативе студентов и при их непосредственном участии. Модуль содержит все слова, входящие в базовый словарь по каждой теме.

Модуль содержит все слова, включенные в базовый словарь по каждой теме. Учащиеся могут выбрать режим изучения лексики в виде карточек со словами на латинском и русском языках (при этом есть возможность добавить иллюстрацию к каждому слову), прослушать произношение каждого слова, написать диктант. Также предусмотрен режим контроля в виде теста, игры на соответствие и «гравитации», когда за ограниченное время дается возможность написать перевод слова, появившегося на экране. На университете платформе электронного обучения есть тесты по каждой теме курса, а также итоговые тесты со

случайным выбором вопросов множественного выбора из всех тем курса на иностранном и латинском языках, которые также можно использовать как тренажер. Тесты на латинском языке содержат вопросы на проверку знания лексики и грамматики; тесты на иностранном языке включают вопросы на понимание научного текста по изучаемой специальности, а также вопросы на проверку знания лексики и грамматики.

Большинство вышеупомянутых разработанных ресурсов предназначены для уроков латыни. Это связано с тем, что уже опубликовано большое количество аутентичных высококачественных учебников ESP (в частности, "Английский для медицины") (Oxford English for Careers: Nursing 1; English in Medicine: a Course in Communication Skills; English for the Pharmaceutical Industry и др.), которые включают аудио, дополнительные материалы, ссылки на внешние мультимедийные ресурсы. В Интернете бесплатно доступно большое количество аудио- и видеоматериалов, которые могут быть использованы на занятиях и рекомендованы студентам в рамках самостоятельной работы. Курс также обеспечен бумажными и электронными LSP и общими словарями. Большинство аутентичных учебников LSP больше подходят для студентов специальностей «Общая медицина» и «Педиатрия», поэтому преподаватели разработали электронные учебники LSP для студентов специальностей «Профилактическая медицина», «Стоматология» и «Клиническая психология». Таким образом, преподавателям LSP необходимо выбрать из готовых аутентичных мультимедийных материалов те, которые будут соответствовать цели и содержанию урока, а также уровню владения иностранным языком студентов. Используя аутентичные учебные и мультимедийные материалы, студенты проявляют интерес к предмету и имеют более высокую мотивацию.

Если в аудитории студентам давали печатные тексты и упражнения, которые были доступны в электронных учебниках, то для беглого чтения и сканирования текста на иностранном языке студенты часто предпочитали электронную версию. Это объясняется удобством навигации в электронном документе, использованием функции поиска по всему документу.

Использование электронных ресурсов на занятиях по иностранным языкам позволяет более рационально организовать самостоятельную работу студентов, реализовать уровневый подход. Поскольку университет не является лингвистическим, в одной группе могут обучаться студенты с разным уровнем владения языком (от A1 до B2), и не всегда есть возможность сформировать группы с учетом уровня владения студентами иностранным языком. В этом случае использование электронных образовательных ресурсов позволяет варьировать задания для студентов, а не

ориентироваться на средний уровень группы (в последнем случае существует риск потери интереса и мотивации студентов, владеющих иностранным языком на начальном уровне (A1), так как они не понимают, что происходит в аудитории, и могут провалить итоговый тест/экзамен в конце курса, и, с другой стороны, существует риск потери интереса и мотивации продвинутых студентов, так как учебные материалы покажутся им слишком легкими).

Если при использовании аудио и видеоматериалов в классе или во время самостоятельной работы студентам не требуется специальной подготовки и технических навыков, то при работе со словарем некоторые студенты нуждаются в дополнительных пояснениях. Словарь - это важный элемент в изучении языка. Выбор словаря, а также правильная стратегия его использования могут оказать значительное влияние на успех учебного процесса. На наш взгляд, целесообразно обучать студентов грамотному использованию бумажных и электронных словарей, обращая их внимание на существование различных типов словарей, грамматическую информацию, содержащуюся в словарной статье и словарных приложениях (или в электронной словарной статье), возможность проверки произношения слова.

Электронные словари могут быть представлены веб приложениями (доступны онлайн, не требуют установки специального программного обеспечения, определенных спецификаций операционной системы) и автономными приложениями, которые устанавливаются на ПК или мобильное устройство. Преимуществом электронных словарей, несомненно, является возможность их обновления, добавления новых терминов, это можно делать в режиме реального времени. Эта функция доступна в автономных приложениях (например, Lingvo) и в веб приложениях (например, Multitran, где любой зарегистрированный пользователь может добавить словарную статью или значение к существующей словарной статье, заполнив форму). Среди электронных словарей, доступных онлайн, можно также выделить группу контекстных словарей (<https://context.reverso.net>; www.linguee.ru), где поиск осуществляется через массив переведенных официальных документов, веб-сайтов с синхронизированными версиями на разных языках и т.д.

Внедрение ИКТ значительно повышает мотивацию студентов в освоении предметов «Иностранный язык» и «Латинский язык», обеспечивает лучшую подготовку студентов на практических занятиях, текущих и промежуточных контрольных работах и экзаменах. Благодаря использованию электронных образовательных ресурсов в учебном процессе значительно повысилась успеваемость студентов (в том числе за счет лучшей организации самостоятельной

работы студентов, облегчения доступа к учебным материалам). Таким образом, на наш взгляд, внедрение ИКТ и использование электронных образовательных ресурсов, в частности, играют важную роль в образовательном процессе. Это помогает повысить мотивацию учащихся, но источники информации на бумаге не должны быть полностью исключать. При использовании тех или иных ресурсов и информационных носителей важно учитывать задачи, стоящие перед учащимися.

При использовании электронных образовательных ресурсов для беглого просмотра или сканирования текста (на занятиях ЛСП) или в качестве справочника (электронные словари онлайн и офлайн), а также мультимедийных ресурсов (видеолекции, тренажеры) студенты отметили их пользу и удобство за счет наглядности и интерактивности. Однако при необходимости подготовиться к двустороннему диктанту (по базовой лексике) студенты предпочитали бумажные носители. Эти результаты можно объяснить следующим образом. Текстовая информация на бумажных носителях более читабельна, особенно если предполагается линейное изложение информации. Нелинейность повествования на бумаге можно организовать с помощью комментариев и сносок, но это будет не так удобно и эффективно, как в виртуальной среде. Исследователи также отмечают психологический комфорт и удобство бумажных носителей на уровне простых манипуляций [22, 23, 24, 25, 26]. Виртуальная

среда дает возможность создавать активные участки текста, гиперссылки, позволяющие переходить к другим частям документа или новым документам, активировать всплывающие комментарии, что делает более удобным представление справочной информации и словарей. Лучшая презентация в виртуальной среде достигается за счет мультимедийного компонента (анимация, звук, изображения, видео), что также объясняет причину привлекательности видеолекций и фонетического тренажера и лексико-грамматических тренажеров.

При создании электронных учебных ресурсов мы столкнулись со следующими ограничениями и техническими трудностями. Для разработки и поддержки собственных приложений (лексико-грамматический тренажер, латинско-русский и русско-латинский словарь Tempus) нам пришлось привлечь программиста. Для создания видеолекций использовалась коммерческая программа Adobe Presenter. Безусловно, звуковую дорожку можно прикрепить к слайдам презентации стандартными средствами Power Point или стандартными средствами Windows (например, Movie Maker). Но полученный продукт будет иметь ограниченную функциональность (нет тестов с автоматической проверкой после лекции, нет оглавления лекции, облегчающего навигацию внутри лекции, нет опции говорящей головы параллельно с презентацией слайдов).

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. L. Энтони, “Английский для специальных целей: что это значит? Почему все по-другому?” *On-CUE*, vol. 5/3, pp. 9-10, 1997. [2] M.
2. Захир, “The Role of ICT in Teaching ESP Classes”, *International Arab Journal of English for Specific Purposes (IAJESP)*, vol. 1(1), pp. 21-36, 2018.
3. J.-M. Mangiatte и C. Parpette, *Le français sur objectif spécifique, de l'analyse des besoins à l'élaboration d'un cours*. Новая коллекция f. Hachette FLE. 2004.
4. J.-M. Mangiatte, *Des référentiels de compétences en français à visée professionnelle: Des outils pour concevoir des formations pour publics spécifiques*. Французская специфика: культурные и лингвистические аспекты. Editions Ecole Polytechnique, 2008, pp. 83-104.
5. V. Vaiciuniene и D. Узпалиене, “Аутентичные ресурсы в обучении ESP на основе технологии”, *Исследования о языках*, том. 17, pp. 94-98, 2010.
6. М.Е. Батлер-Паскоу, “Английский язык для специальных целей (ESP), инновации и технологии”, *Английское образование и ESP*, том 3(3), стр. 1-15, 2009.
7. M. Захир, “The Role of ICT in Teaching ESP Classes”, *International Arab Journal of English for Specific Purposes (IAJESP)*, vol. 1(1), pp. 21-36, 2018.
8. С. White, “Autonomy and strategy use in distance foreign language learning: Результаты исследований”, *Международный журнал образовательных технологий и прикладной лингвистики*, том 23(2), стр. 207-221, 1995.
9. Ю. Чжун, “Исследование автономного изучения английского языка в Интернете”, *Преподавание английского языка*, т. 1(2), с. 147-150, 2008.
10. J. Schoonenboom and R. B. Johnson, “How to construct a mixed methods research design”, *Kolner Zeitschrift fur Soziologie und Sozialpsychologie*, vol. 69 (Suppl 2), pp. 107-131, 2017.
11. M. Спратт, Г. Хэмфрис и В. Чан, “Автономия и мотивация: Что на первом месте?”. *Language Teaching Research*, vol. 6(3), pp. 245-266, 2002.
12. Н.Я. Асабере и С.Е. Энгуа, “Интеграция экспертных систем в мобильное обучение. Международный”, *Журнал исследований информационных и коммуникационных технологий*, том 2 (1), стр. 55-61, 2012 г.

THE ROLE OF CRITICAL PERIOD HYPOTHESIS IN SECOND LANGUAGE TEACHING

Mashkhura Tursunova,
Student of MA Linguistics, UzSWLU

Abstract

The factor of age and Critical Period Hypothesis have long been disputable issues in language teaching and linguistics. The first language acquisition is obtained during the certain period after birth until one reaches puberty. When we connect the theory with the second language acquisition, it becomes even more arguable. It was believed that language acquisition can be more difficult and rarely perfect after the certain age, while later researches do not opine to this idea, but it has a huge influence on second language teaching. The article discusses the factor of age on language teaching and the ways to deal with this issue.

Key words: Critical period, second language, language acquisition, critical period hypothesis, non-critical period.

Annotatsiya

Xorijiy tilni o'qitishda yosh omili hamda kritik davr gipotezasi uzoq vaqtlardan beri ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan mavzulardan biri sifatida davom etib kelmoqda. Har bir insonning ona tili u tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunga qadar o'r ganiladi va o'zlashtiriladi. Biz bu nazariyani ikkinchi til o'rganish bilan bog'laganda esa muammo yanada ko'proq bahs-munozalaralarga sabab bo'ladi. Insonning til o'rganish ko'nikmalari ma'lum bir yoshga yetgandan so'ng qiyinlashadi va tilni o'ratish mukammal darajaga yetmaydi degan fikrlar mayjud bo'lib, bu nazariya ikkinchi tilni o'rgatishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Maqolada xorijiy tilni o'qitishda yosh omilining ta'siri va uni hal etishning yo'llari tahlil etiladi

Kalit so'zlar: Kritik davr, ikkinchi til, til o'zlashtirish, kritik davr gipotezasi, kritik bo'lmagan davr.

Аннотация

Возрастной фактор и Гипотеза Критического периода с давних пор был одним из спорных вопросов с сферы преподавательства и лингвистики. Овладение первого языка приобретается в течение определенного времени как после рождения ребенка до периода зрелости. Когда мы связываем теорию со вторым языком тема еще станет более спорным. Было мнение о том что овладение со вторым языком после определенного возраста станет трудно и чрезвычайно целью, но последние исследования больше не полагают это мнение, и характеризует что гипотеза тесно связана с их родным языком.

Ключевые слова: Критический период, второй язык, овладение языка гипотез критического периода, некритических периодов.

Learning trajectories of younger and older learners are different. Older learners learn the language explicitly; therefore, their learning is faster than younger ones' acquisition. However, older learners meet with the fossilization, which hinders them to develop. It is vitally important to compare and contrast the meaning and form of the phrases such as "language learning" and "language acquisition", "critical period" and "non-critical period", "second language" and "foreign language" in order to investigate the issue and find appropriate evidences. The study on this issue began in 1967, when Lenneberg conducted research on the child's developmental language learning by connecting this process with developmental biology. Later, Krashen, Fathman, Montessori revealed some evidences which oppose to Lenneberg's ideas about critical period of language acquisition [7, 120].

As "the father" of the Critical Period Hypothesis was Lenneberg, it is apparent to begin the review with his ideas. Lenneberg defined human being as "biological species" and focused on six main characteristics of language to connect these two issues. Those qualities include presence of language behavior in all cultures, its connecti-

on to the age, unique acquisition system for every child, having permanent operating system. The scholar's main concern was child's developmental stages of language acquisition by focusing mostly on biological aspects. Language development of a child is relatively more connected with motor milestones than age. As soon as the child achieves motor development, language milestones start to appear. The nature of the language is an important tool to analyze child's acquisition. Many of the well-known scholars argue that the absence of speech in animal world is only due to their anatomical structure. However, Lenneberg connects this issue with discourse understanding of human being, as he noted, "understanding involves seeing the basis on which objects are categorized, thus enabling a child to name an object correctly that has never seen before". Since Lenneberg linked language acquisition with biological aspects, he defined critical period for language acquisition focusing on this issue. The left part of the brain takes the dominant role for operating language functions. If this part is disturbed in early childhood, the other part of the brain becomes capable for the language. However, if this disturbance happens after critical age,

language processing is lost. As a result, the mature brain causes termination of regulations, which makes language acquisition more complicated process [6, 640].

DeKeyser says that several researchers as Eubank & Gregg, Long and Schechter have discussed that there would be myriad critical periods for different figures of second language skills, especially the fall in learners' capability to gain a native-sounding pronunciation may bring various causes and demonstrate age influences compared to the capacity to attain an indigenous competence of grammar [3, 500]. Furthermore, DeKeyser brings up the role of verbal aptitude requiring indoor researches have been conducted with teenagers and adults. According to research, high correspondence between foreign language learning tendency and achievement were found [3, 530]. Second language speakers, who have a high level of verbal capability, can perform morpho- syntactically as native speakers. The scholar adds that learning the impacts of age and verbal aptitude and their correlation should be exposed rather than studying them individually. If the age effect varies with aptitude and the aptitude differs from age, this connection can bring light on cause of each effect and authorize for a proof of the Fundamental Difference Hypothesis. The prominent effects defined in this study do not imply, for example, that children just learn a foreign language in primary school rather than high school.

According to Thu, it brings a lengthy process to learn a second or foreign language, and few numbers of the learners might succeed in a supreme level of improvement in the target language [9, 120]. Even though the number of second or foreign language learners who have ability to advantage the target language like native speakers of the language, the factors that inhibit learners from gaining such a successful point in learning language attracted researchers in the scope of second language acquisition. The reason of why adult language learners have incapability to reach native-like proficiency has been explained by proposing the critical period hypothesis. A glance at this study provided reveals a short overview of the critical period hypothesis, initially it is pointed out how the CPH was originated, and also its supportive studies and those who try to misinterpret are debated in turn. It is discussed that it may still bring possibility to acquire native-like advancement, despite adults learners find it hard to do. Thu states Birdsong manifested that there is a tremendous difference between complete refusal and total agreement among researchers' perspective [9, 125]. Numerous researches have been studied to either search experimental proof to support or decline the critical period hypothesis. Hot debates have been arisen by the topic and the argument about the issue is predicted to exist. Birdsong claimed that a critical period for language acquisition influences while attaining second language, but he did not detect any evidence to support the CPH.

In this article, the comparative method, the results of different surveys, the cognitive methods have been used to investigate the issue.

Some studies show that pre-maturity group is much more perfect in language learning than the post -maturity group [1, 2]. However, some of researches demonstrate that the older learners are better than younger ones. Krashen has put forward three positions in the area of morph syntax. Proposals of Krashen are following: Grown-ups went on through initial phases of syntactic and morphological improvement faster than children did [8, 270]. Older children learned more rapidly than younger ones. Learners, who began acquiring foreign language from childhood, reached higher second language level than those who began as adults. One of the most essential researches about the age and second language acquisition showed that there are no any particular connections between age and foreign language learning [4, 220]. Moreover, the age factor can be varied by inspiration, trouble, self-confidence, ratio, learning models and others. They show their effects in both adults and children. Age is one of the aspects that define the method, through which a person learns foreign language. Sickle and Ferris have demonstrated the connection between age and foreign language learning as one of the risks of the accents on critical period is that it calls us to point out too much when learning happens and ignore how acquisition might be best take place [8, 280]. Second language learning does not only consist of age, but aspects connected to the age, including learning abilities, the encouragement to acquisition, personal differences, learning methods are also crucial defining variables that influence the speed of foreign language acquisition in different improving steps of the learners. According to Thu, it brings a lengthy process to learn a second or foreign language, and few numbers of the learners might succeed in a supreme level of improvement in the target language [6, 220]. Even though the number of second or foreign language learners who have ability to advantage the target language like native speakers of the language, the factors that inhibit learners from gaining such a successful point in learning language attracted researchers in the scope of second language acquisition. The reason of why adult language learners have incapability to reach native-like proficiency has been explained by proposing the critical period hypothesis. A glance at this study provided reveals a short overview of the critical period hypothesis, initially it is pointed out how the CPH was originated, and also its supportive studies and those who try to misinterpret are debated in turn. It is discussed that it may still bring possibility to acquire native-like advancement, despite adults learners find it hard to do. How old is language learner has vital influence in both native and foreign language learning process. Most researches of the past showed that the younger ones learn the language better. Oppositely,

current survey has pointed that there is no exact model of language learning among one age group [2, 120]. On the assumption of factors as learning facilities, support and approach, the second language learning styles of people at the same age may be different or peculiar. Age stands in the list of most essential factors in foreign language reclamation. What has hardly been argued is that in language learning the abilities of older learners are less than younger ones. The period of time between child's birth and entering puberty is also called as "the sensitive period". During this time a child can occupy language fast, entirely and even without teaching [5, 269]. There are some views about how the children and grown-ups learn second language. Older people are usually in such situations that require more complicated language terms of more complex ideas, while children shortage enforcement and completeness in foreign language learning. It seems that there is no clear response to the question relating to entity of critical period for language learning as research has demonstrated that native-like improvement in a foreign or second language could still be reached by adult learners. In spite of gaining native-like proficiency in second language for its late learners does not appear a very manageable goal, some are capable to make speech and writing resembling to those of native speakers. If it brings possibility to achieve such a perfect point of success in second language learning, secret causes should be searched to engage with second and foreign language learning and teaching. Logically, the entity and nonentity of a critical period is found not as essential as the optimum method to favor adult language learners accomplish successfully in the target language, as it appears that the central objective of language is to communicate. As it is mentioned in the

introduction if we define the difference between learning and acquisition, second language and foreign language, it is easier to tackle the problematic ideas about Critical Period. According to Brown, acquisition is obtained unconsciously, whilst learning is delivered and controlled by an instructor, as well as it involves "active, conscious focus on and acting upon events outside or inside the organism" [2, 12]. Acquisition is mostly based on communicative process while explanatory process occur more rapidly in learning. The difference between the second language and foreign language appears in their availability in the certain area. The second language is used in real life activities of the learner, whereas foreign language is only taught inside the classroom by an instructor.

Considering all the points, it can be concluded that English is a foreign language in our area and this target language can not be acquired by only communication like the first or second languages. If we connect this evidence with Critical Period Hypothesis, English is learned not acquired. Critical period is the undeniable process, which children pass during their first years. The only problem is that some scholars have misinterpreted this issue, as this period only belongs to one's first language acquisition. It is impossible to acquire the language in natural environment after the puberty period. This rule works well in the first language acquisition process. Since foreign or second language are learned, one will be able to learn them after critical period. However, learning a foreign or second language in the early years of life may have positive effects on learners' acquisition. Learner's pronunciation will be more native-like and they may have less interference of the first language.

REFERENCES:

1. Bitsa, K. (2008). *Age as an Affective Factor in Second Language acquisition*. English for specific Purposes World. 5, p.2
2. Brown, D. H. (2000). *Principles of Language Learning and Teaching* (4th ed.). New York: Longman. p.10-16
3. DeKeyser, M. R. (2000). *The Robustness of Critical Period Effects in Second Language Acquisition*. SSLA, 22, p.499-533
4. Du, L. (2010). *Assess the Critical Period Hypothesis in Second Language Acquisition*. English Language Teaching. Volume 3, No.2, p.219-224
5. Christian Abello-Contesse. (2009) *Age and the Critical Period Hypothesis*. Key Concepts In ELT. Volume 63/2, p.120-121; doi:10.1093/elt/ccn072.
6. Lenneberg, E.H. (1969). *On Explaining Language*. Science, Volume 164, p.635-643.
7. Lui, Z. (2009). *A Study on CPH and Debate Summary in FLL*. English Language Teaching. Volume 2, No.3, p.120-127.
8. Singleton, D. (2005). *The Critical Period Hypothesis: A Coat of Many Colors*. International Review of Applied Linguistics in Language Teaching, 43, 269-285
9. Thu, T.H. (2009). *The Critical Period and Second Language Acquisition*. Aiant International University.
10. Tursunova M. (2020). *The Main Differences between Language Learner and Language User, Influential Factors to the Second Language Learning*. Ilm-fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari. p. 40-43



ФИЗИКАДАН МАСАЛАЛАР ЕЧИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВНИНГ УСЛУБИЙ ИМКОНИЯТЛАРИ

Тўлқин Бузруков,

Термиз давлат университетининг таянч докторанти

Аннотация

Мақолада мактаб таълимида физика фанидан масалалар ечишида компетенциявий ёндашув ўқув фаолият самародорлигининг шарти сифатида асосланади. Бу эса асосий компетенцияларни шакллантириши учун физика бўйича масалалар ечишининг энг самарали имкониятларидан фойдаланиши мумкин бўлган усулини аниқлаши асосида ўқувчи-ларнинг физик обьектлар, ҳодисалар ва жараёнларни мустақил равишда ўрганиши, ўрганилаётган нарсани яхшироқ тушунишини, энг муҳими компетенцияни – қобилият ва тажриба ўзлаштиришини таъминлаш ва янги билимларни эгаллашга ундейди.

Калит сўзлар: физика, масалалар ечиши, компетенциявий ёндашув, ўқув фаолияти, самародорлик, услугубий имконият, физик обьект, ҳодиса, мустақил ўрганиши, қобилият, тажриба.

Аннотация

В основу статьи положен грамотный подход к решению задач по физике в школьном образовании как условие эффективности учебной деятельности. Это побуждает студентов самостоятельно изучать физические объекты, события и процессы, лучше понимать, что изучают, и, самое главное, приобретать новые знания и навыки, поскольку они определяют наиболее эффективный способ решения физических задач для формирования основных компетенций.

Ключевые слова: физика, решение задач, компетентностный подход, учебная деятельность, эффективность, методическая возможность, физический объект, событие, самостоятельная работа, способность, опыт.

Annotation

The article is based on a competent approach to solving problems in physics in school education as a condition for the effectiveness of educational activities. This encourages students to study physical objects, events, and processes independently, to better understand what is being learned, and most importantly, to acquire new knowledge and skills as they identify the most effective way to solve physics problems to form core competencies.

Keywords: physics, problem solving, competency approach, learning activity, efficiency, methodological opportunity, physical object, event, independent study, ability, experience.

Ҳар томонлама билимли ёш авлодни шакллантиришда фундаментал аҳамиятга эга бўлган умумилмий фанларнинг ўқитилишига алоҳида эътибор қартиш лозим. Физика курси ана шундай фундаментал фанлардан бири сифатида эътироф этилади. Шундан келиб чиқиб, физикадан доимий такомиллаштириб туриладиган барча ўқув машғулотларини (маъруза, семинар, лаборатория ишлари, масалалар ечиш) ўтказиш методикасига юқори талаблар кўйилади. Бугунги кун илгор фан технологиялари ривожланиши шароитида физикадан масалаларни ечишда компетенциявий ёндашувга асосланниш таълимтарбия тизимига ўз ижобий таъсирини кўрсатади.

Рус тадқиқотчиси А.И.Азовкинанинг фикрича, физикани ўқитиши фикрлашнинг деярли барча жихатлари ва турларини шакллантиришни, шунинг учун тегишли ақлий операцияларни, илмий билимларнинг умумий илмий усуслари тўғрисидаги билимларни (таълим ва когнитив компетенция ва шахсий ўзини ўзи такомиллаштириш компетенцияси) ишлаб чиқишига асосланган фаолиятнинг умумлаштирилган усусларини шакллантиришни ўз ичига олади [1]. Шунингдек, В.И.Байденко таълимнинг асосий ком-

петенцияларини таҳлил қиласида экан, материяни ташкил этишининг барча структуравий даражаларида – элементар зарралардан тортиб оламгача, бизни ўраб турган олам табиий, инсон томонидан яратилган ва ҳоказоларда илмий тафаккур, шунингдек, табиат конунлари ва ҳодисалари ҳақидағи билимларни шакллантириш (умумий маданий компетенция), табиий дунёнинг қиймати, жисмоний ва техник касблар (қиймат-семантик ва ижтимоий-мехнат компетенциялари) ҳақида ғояларни ривожлантириш; турли манбалардан (жумладан, физик экспериментдан, моделлаштиришдан, компьютердан) маълумот олиш кўнимкамларини шакллантириш; бошқа одамлар билан (муаммоларга асосланган таълим, ўқув конференциялари), техник курилмалар ва компьютер мухити билан коммуникатив муносабатларга киришиши эътироф этади. Физикани ўрганаётганда билишнинг экспериментал ва назарий усусларининг хусусиятларини аниқлаш, талabalарга мақсадлар кўйиш, гипотезаларни илгари суриш ва экспериментни режалаштиришни ўргатиш тавсия этилади (бу қиймат-семантик, ўқув-когнитив ва коммуникатив компетенциянинг таркибий қисмларини ташкил қиласи) индуктив ва дедуктив хуло-

салар чиқариш қобилиятыни ривожлантириш, билимнинг намунавий моҳиятини тушуниш, шу билан бергага, илмий билимларга универсал ёндашув сифатида моделлаштиришнинг мазмуни, агар унинг натижалари тугалланган шаклда илгари сурилмаса, етарли даражада очиб берилиши мумкин, лекин таълим-тарбиявий тадқиқотлар контекстида ўзлаштирилади [2].

Физика фан сифатида умумийлик даражасидаги компетенцияларни, шу жумладан, муҳим компетенцияларни шакллантириш учун турли воситаларга эга. Ушбу фаннинг асосий жабҳаларидан бири воқеаларни, ходисаларни масалалар орқали ифодаланиши билан характерланади. Махсус восита сифатида масалалар ечиш – атроф-мухитга эҳтиёткорона муносабатни шакллантиришга ҳисса қўшиш, дунёга илмий дунёқарашни ривожлантириш, ўз фаолиятини ташкил этишга одатланиш, бошқа одамлар ва аҳборот манбалари билан алоқа қилиш ва ҳоказо. Бироқ мазкур восита бу мақсадда деярли қўлланилмайди, бизнинг тадқиқотимиз мақсадларидан бири асосий компетенцияларни шакллантириш учун физика бўйича масалалар ечишнинг энг самарали имкониятларидан фойдаланиш мумкин бўлган усулинин аниқлашдир.

Ш.Е.Шишовнинг таъкидлашича, ўқувчиларнинг физикадан масалалар ечиш учун компетенцияларини шакллантириш, яъни билимларни реал ҳаётий вазиятда қўллаш қобилияти замонавий таълимнинг энг долзарб муаммоларидан биридир [3].

Компетенцияга асосланган ёндашув – бу таълим векторлари: ўрганиш, ўзўзини ривожлантириш, ижтимоийлашув ва индивидуалликни ривожлантиришга қаратилган устувор йўналиш саналади. А.А.Вербетскийнинг ёзишича, компетенцияга асосланган ёндашув физикадан масалалар ечишда қўйидаги асосий вазифаларни ҳал қилишга кўмаклашади:

- ўқув предмети мазмунини фарқлаш, таълимнинг асосий ва юқори босқичларини ривожлантиришни таъминлаш;

- таълимда компетенциявий ёндашувни таъминловчи воситалар, усуллар, услублар, технологияларни танлаш.

- дарсдаги ҳар қандай фаолиятда ўқувчига танлаш хукуқини бериш;

- ечимлари ўрганилаётган нарсадан ташқарида бўлган муаммоли вазиятларни яратиш;

- ўқувчилар томонидан турли фаолият усулларини ривожлантириш;

- ўқув жараёнда мунтазам равишда акс эттириш;

- фаолият самарадорлигини ошириш учун ўқувчиларнинг ўз имкониятларини, билимларини, қизиқишлиарини максимал даражада ошириш [4].

Физика фанидан масалаларни ечишда компетенцияга асосланган ёндашув ўқувчининг таълим ва когнитив жараёнда мустақил иштирок этишига ва

турли хил компетенцияларни ривожлантириш учун шахсий кўникмаларини ўз тажрибаси соҳасига ўтказиши қобилиятини ўзлаштиришга қаратилади. Таълим компетенцияси воқелик объектларига нисбатан шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга ишлаб чиқариш фаолиятини амалга ошириш учун зарур бўлган ўзаро боғлиқ семантик йўналишлар, билим, қобилият, кўникма, ўқувчилар фаолиятининг усуулари мажмуини ўз ичига олади.

Бу ўқувчиларда ўз фаолиятини ташкил этиш усусларини шакллантириш, яхлит, аҳборот ва коммуникатив қобилияларни шакллантириш, яъни турли манбалардан билим олиш усууларини ўзлаштириш асосида мустақил когнитив фаолият соҳасида компетенцияни ривожлантириши мумкин.

Г.Ф.Ерофееванинг таъкидлашича, компетенциявий ёндашув асосида ўқувчиларни масала ечишга ўргатишида ҳар бир ўқувчи янги билимларни олишининг фаол ижодий жараёнига жалб қилинади; ўзи танлаган масала турини мустақил бажаради, биргаликдаги ишларда ва мулоқот жараёнida иштирок этади; фанни ўрганиш учун мотивациясини оширади; тадқиқотчилик кўникмаларини эгаллайди [5].

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, физикадан масалалар ечиш компетенцияларини шакллантириш учун қўплаб технологиялар ишлаб чиқилган бўлиб, улардан ўйин технологиялари алоҳида аҳамиятга эга. Э.В.Оспенникованинг ёзишича, ҳар бир ўқувчининг дарсда фаол иштирокини амалга ошириш, айниқса физикадан масалаларни ечишда фойдаланиш жуда яхши самара беради [6].

Ўйин технологиясида асосий ғоя ва натижалар самарадорлигининг асоси ўқувчиларнинг фаоллигини фаоллаштируви воситалардир. Унда ўқувчилар олдига ўйин топшириғи шаклида дидактик мақсад қўйилади ва унинг воситаси сифатида ўқув материалидан фойдаланилади. Ўқув фаолиятига дидактик вазифани ўйинга айлантирадиган рақобат элементи киритилади. Дидактик ўйинлар ўқувчиларнинг когнитив қизиқишлиарини ўйғотиш ва қўллаб-қувватлаш, ўқув материалининг кўринишини яхшилаш, бинобарин, уни янада қулайлаштириш, шунингдек, мустақил ишларни фаоллаштириш ва уни индивидуал тарзда ўтказиш имконини беради. Бу таҳлил қилиш ва ўз-ўзини баҳолаш қобилиятини шакллантиради.

Замонавий фанларнинг барча соҳалари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ, шунинг учун мактаб фанларини бир-биридан ажратиб бўлмайди. Фанлараро алоқаларнинг ўрнатилиши ўқув материалини ўрганишида такрорлаш ҳолатларига барҳам беради, вактни тежайди ва ўқувчиларнинг умумий таълим компетенцияларини шакллантириш учун қулай шароит яратади. И.В.Василиеванинг таъкидлашича, физика курсидаги фанлараро алоқалар камрок тарқалган

бўлса ҳам, муҳим аҳамиятга эга ва уларни эътиборсиз қолдириб бўлмайди [7]. Масалан, 9-синфда меҳаникада лаҳзали тезлик тушунчасини ўрганишда функсиянинг чегараси ва хосиласидан фойдаланиши талаб этади. Математика курсидаги бу тушунчалар 11-синфда ўрганилади. Шунинг учун 9-синфда ўқувчиларни ҳаракатнинг узлуксизлиги гоясига асосланиб, фақат сифат жиҳатидан бир лаҳзали тезлик тушунчаси билан танишириш лозим.

Е.В.Савченконинг ёзишича, физика ва бошқа фанлар ўртасидаги фанлараро алоқаларни амалга оширишнинг самарали усусларидан бири бу фанлараро мазмундаги масалаларни ечишдир. Бундай вазифалар сирасига икки ёки ундан ортиқ ўқув фанлари бўйича ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларидан фойдалана-диган машқлар киради. Физика дарсларида фанлараро таркибининг вазифалари назарияни амалиёт билан боғлаш, умумий илмий тушунчаларни шакллантириш, билим ва кўникмаларни умумлаштириш ва тизимлаштириш, ўқувчиларга политехник таълим ва касбга йўналтиришда фойдаланиш мумкин [8]. Масалаларни ечиш жараёнида фанлараро алоқаларни шакллантиришни бир неча босқичда амалга ошириш мумкин:

Биринчи босқичда материални мустаҳкамлаш ва кўникмаларни ривожлантириш учун ўқувчиларга фанлараро мазмундаги вазифаларни таклиф қилиш лозим. Бундай масалаларни ечиш учун ўқувчилар тегишли курслар бўйича билимларини ўзлаштиришлари керак. Шундай қилиб, топшириқ берётганда, аввало, маълумотлар билан қандай ишлашни тушунишингиз керак. Масалан, 8-синфда ёқилғининг ёниш иссиқлигини ўрганишдан олдин ўқувчиларга уй вазифаси таклиф этилади: “Кимё” дарслигидан ёниш жараёнининг энергияси ҳақида маълумотлар, тушунтиришлар келтирилган. Шу асосда кимё бўйича ана шу асосий билимлардан физика дарсида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Шу билан бир каторда, ўқувчиларга ўzlари фанлараро таркибдан фойдаланган ҳолда ўрганилган мавзу бўйича топшириклар тузишга таклиф қилинади.

Ниҳоят, фанлараро алоқаларни замонавий илмий билимларнинг характеристерили белгиларидан бири бўлган фанлараро алоқаларнинг таълим жараёнида акс этиши лозим. Ушбу босқичда фанлараро алоқалар нафақат мазмунан, балки ҳал қилувчи воситага ҳам айланди. Бу ерда математика алоҳида рол ўйнайди. У физикага эксперимент ёки назарий тадқиқотлар натижасида кашф этилган физик миқдорлар ўртасидаги боғлиқликни умумий ва аниқ ифодалаш воситалари ва усусларини топишда ёрдам беради.

Замонавий жамиятнинг ахборотлашуви компютерлар ва ахборот технологияларининг муаммоларни ҳал қилиш воситаси сифатида тобора кўпроқ қўлла-нилишига олиб келмоқда. В.И.Лисенконинг фикрича,

ўқувчилар график мухаррир ёки электрон жадваллар муҳитида масалалар ечишнинг график усулини амалга оширишлари мумкин. Физика ва информатика ўртасидаги энг самарали фанлараро алоқалар юқори синфларда амалга оширилади. Мактабда 10-11-синфларида информатика фанини профил даражасида ўқитишининг ўзагини дастурлашнинг асосий курси ташкил этади. Ўқувчи физикадан қандайдир оддий масалани ечиш дастурига оид вазифа олади. Кейин масаланинг ечимини дафтарда ишлаб кўради, яъни физик қонунлар ва формулаларга таяниб, физика дарсларида бўлгани каби, ечимнинг умумий йўналишини ёзади. Кейин уни дастурлаш тилида ечим алгоритмини киритади. Ниҳоят, дастурни компьютер ёки телефонда ишга тушириб, натижани олади ва қоғоздаги биринчи жавоб варианти билан солишириб текширади [9].

В.И.Коломиннинг таъкидлашича, физика фанини ўқитища, энг биринчи навбатда, ўқувчиларда фанга нисбатан қизиқишини уйғотиши талаб этилади. Бу қизиқиши уларда фанни ўрганишга нисбатан мотивацияни шакллантириш асосида кечади. Мотивацияни шакллантириш – бу умуман мактаб ўқувчиларининг шахсиятини шакллантириш билан боғлиқ бўлган узоқ жараён [10].

Физика курсини ўзлаштириш нафақат компетенциялар тизимини етарли даражада аниқ ва чукур эгаллаш, балки бу билимларни ҳам таълим мақсадларида – янги билимларни олишда ҳам амалий ҳаётда қўллай олиш билан характеристланади. Билимларни амалда қўллай олиш қобилияти онглилик, билимнинг мустаҳкамлиги кўрсаткичидир. Бирок ўқув материалини онгли равишда, норасмий ўзлаштирган тақдирда ҳам, билимларни қўллаш қобилияти ўз-ўзидан пайдо бўлмайди, буни маҳсус ўргатиш керак. Билимларни амалда қўллашни ўргатишида масалалар ечиш муҳим ўрин тутади.

Физикадан масалаларни ечишда компетенциявий ёндашувга асосланиш – тафаккурни, зукколикни, мулоҳаза юритишида мустақилликни, қийинчиликларни енгишда қатъиятлиликни ривожлантиришнинг ажойиб воситаси саналади. Ўқувчиларнинг чукур ва мустаҳкам билим олишини таъминлаш шартларидан бири уларнинг масалаларни ечиш бўйича фаолиятини ташкил этишдир [11].

Физикадан масалалар ечиш жараёни муайян ўқув предмети бўйича илмий билимлар тизимини ўзлаштириш воситаларидан бири бўлиб хизмат қиласади. Тушунчалар тизимини ўзлаштиришда унинг аҳамияти катта. Физик ҳодисалар ва миқдорлар ҳақидаги тушунчаларни ўзлаштиришда масалалар ечиш алоҳида ўрин тутади. Когнитив ва амалий компетенцияларни эгаллашда бу жараённинг ўрни бекиёс. Шунингдек, масалани ечиш ўқувчилар билимидаги формализ-

мнинг олдини олиш ва билимларни амалиётда қўллаш қобилиятини ривожлантириш шартидир.

Ўқувчиларни мустақил равишда масалаларни босқичма-босқич ечишга ўргатиш керак, якка тартибдаги оддий амалларни бажаришдан бошлаб, сўнгра мураккаброқ амалларни бажаришга, шундан кейингина мустақил равишда масалалар ечишга ўтиш керак. Муаммоларни ҳал қилиш учун мустақил иш элементларини киритиш қийинчиликларнинг босқичма-босқич ўсишига мос келадиган кетма-кетликда амалга оширилиши керак. Ушбу ишнинг қўйидаги босқичларини тавсия қилишимиз мумкин.

Бизнингча, физик ҳодисалар ва қонунлар ҳақидаги янги тушунчаларни ўргангандан сўнг, ўқувчиларни амалий тажриба ва маълумотларидан фойдаланган ҳолда, мустақил равишда масала шартларини тузишга ўргатилса, ўтилган материални тушуниш самара-

ли бўлади. Шунингдек, бундай муаммолар ўқитувчи томонидан текширилиши ва улар бутун синф билан ҳал қилиниши керак.

Кўпинча бу усулдан фойдаланиш яхши самара беради чунки бунда ўқувчи масалани тузишда қандай қилиб янги материалнинг барча жиҳатларини ҳисобга олиши, фикрлаш мантиғини сақлаши, ихчамликни ривожлантириши ва қандай қилиб ўйлаш кераклиги ҳақида компетенцияларга эга бўлади.

Хулоса, мактаб таълимида физика фанидан масалалар ечишда компетенциявий ёндашув имкониятларидан фойдаланиш ўқувчиларнинг физик объектлар, ҳодиса ва жараёнларни мустақил равишда ўрганиш, ўрганилаётган нарсани яхшироқ тушунишни, энг муҳими компетенцияни – қобилият ва тажрибани ўзлаштиришни таъминлайди ва янги билимларни эгаллашга унрайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Азовкина, А.И. Сборник упражнений для развития ключевых компетенций [Текст] / А.И. Азовкина, Т.Д. Ануфриева. – Иркутск, 2003. – С. 4.
2. Байденко, В.И. Базовые навыки (ключевые компетенции) как интегрирующий фактор образовательного процесса [Текст] / В.И. Байденко, Б Оскарsson // Профессиональное образование и личность специалиста. – М., 2002. – С. 14-32.
3. Шишов, С.Е. Понятие компетенции в контексте качества образования [Текст] / С.Е. Шишов // Стандарты и мониторинг в образовании. –1999. -№2. – С. 30-34.
4. Вербицкий, А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения [Текст]: Материалы к четвертому заседанию методологического семинара, 16 ноября 2004 г. / А.А. Вербицкий. – М.: Исследова-тельский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С. 43.
5. Ерофеева Г.В., Склярова Е.А., Лидер А.М. Физика – проблемы обучения //Фундаментальные исследования. – 2013. – Т. 4. – №. 6.
6. Оспенникова Е.В “Игровые технологии обучения на занятиях по решению физических задач” Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании, по. 13, 2017, pp. 75-97.
7. Васильева И.В. Модульно-компетентностный подход в обучении физике //Модульно-компетентностный подход и его реализация в профессиоナルм образовании: материалы межрегиональной научно-практической. – 2012. – С. 32.
8. Савченко Е.В. Возможности реализации компетентностного подхода к инженерному образованию при изучении курса общей физики //Научный вестник Крыма. – 2020. – №. 6 (29).
9. Лысенко В.Е. Некоторые аспекты реализации компетентностного подхода в физике //Образование в современной школе. – 2009. – №. 12. – С. 43-46.
10. Коломин В.И. Компетентностный подход в профессиональной подготовке учителя физики //Наука и школа. – 2008. – №. 1. – С. 5-7.
11. Камалеева А.Р. Формирование умений решать задачи в процессе обучения физике //Школьные технологии. – 2015. – №. 6. – С. 64.



MAKTAB O‘QITUVCHILARIDA KASBIY

MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Gulnara Jumayeva,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat-ijodiy tahlil qilinib, tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta’kidlangan. Maqolada, shuningdek, maktab o‘qituvchilari kasbiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, aks ettirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, psixologik, pedagogik.

Аннотация

В данной статье анализируются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры педагогов, процесс развития профессиональной культуры педагогов школы, самоконтроль, самооценка, рефлексивно-творческое мышление, ценностно-гносеологические и деятельностно-творческие структуры содержимое компонентов подсвечивается. Также в статье представлены психолого-педагогические особенности и компоненты развития профессиональной культуры школьных учителей.

Ключевые слова: профессиональная культура, профессиональная деятельность, рефлексия, самоконтроль, самооценка, психологическая, педагогическая.

Annotation

This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of developing the professional culture of teachers, the process of developing the professional culture of school teachers, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative structures, the content of the components is highlighted. The article also presents the psychological and pedagogical features and components of the development of the professional culture of school teachers.

Keywords: professional culture, professional activity, reflection, self-control, self-assessment, psychological, pedagogical.

Jahon pedagogik amaliyotida mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning o‘zgaruvchan mehnat bozori talablari ga moslashuvchanligini ta’minalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tendensiya so‘nggi vaqtarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoxda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatni doimiy o‘sish va o‘zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislar dan, xususan, pedagog-o‘qituvchilardan o‘z kasbiy qadriyatlari va shaxsiy e’tiqodlariga ega bo‘lishni, nafaqat o‘zining, balki o‘zga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talabari asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, “kreativ fikr-laydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon

etishi va ma’nnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar” sifatida belgilangan . Bu esa oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi [1].

Maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, “madaniyat” tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Madaniyat tushunchasi Sharq allomalarining adabiy meroslarida hamda pedagog-psixolog olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan: “Madaniyat” so‘zi zamonaviy nutqda juda keng qo‘llaniladi. “Madaniyat” so‘zi lotincha “cultural” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tarbiyalash, o’stirish, rivojlanish, e’zozlash” degan ma’noni anglatadi.

Ta’lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining pedagogika va psixologiyaga oid qimmatli fikr-mulohazalarini va ma’rifiy-didaktik qarashlarini bayon etib, ilm hamda ma’rifat sari intiluvchi tolib va muallimlarga deydiki: “Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan nafs va turli buzg‘unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikni quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor” [2].

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchi shaxsiga nisbatan yuksak talablarni qo'yadi. Navoiy o'zining "Mahbub-ul qulub" asarida ta'limiyy-tarbiyaviy fikrlari hamda o'qituvchi shaxsi, uning ma'naviyatiga doir qarashlarini keltirib o'tadi. Navoiyning fikricha: "O'qituvchi faqatgina dars beruvchi, bilim beruvchi emas, balki mahoratlari tarbiyachi bo'lishi lozim. Muallim nodonlikdan, mutaassiblikdan, johillikdan yiroq bo'lishi, haqiqiy muallim olimlar orasida eng sara "malak qiyofali" kishi bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va olivjanob xislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak" [3].

Madaniyat – harakatdagi ijodiy faoliyatdir. Inson faol ijodkorlik orqali rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Ijodkorlik – inson ma'naviy-ruhiy faoliyatining chegaralarni kengaytiradi. Inson ijodiy ko'nigmalar, aqliy va jismoniy mehnat orqaligina ijodkorlik maqomiga ega bo'ladi.

Pedagog olima Oynisa Musurmonovaning ta'kidlashicha esa "Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyat jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi. Bunda madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi o'zarloq doir qonuniyatlar, shu jumladan, shaxs va jamiyatning borliqqa bo'lgan madaniy munosabatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, shaxsning talabi, qiziqishi, xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish qonuniyatlar majmuidan iborat" [4]. Yuqorida ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda, u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalananadi.

Umumiy bir soha sifatida madaniyatga tizimli yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo'lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. Tizimli yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga omil bo'ladi. Ya'ni ayrim bir uslublar bilan olingan natijalarini boshqalariga qarama-qarshi qo'ymasdan xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Insonning ijodiy muammolarni hal etishda ro'y beradigan fikrlashidagi refleksiyanı o'rganib, olimlar uni fikrlovchi sub'ektning o'z-o'zini boshqarish usuli (Yu.N. Kulyutkin [5], S.Yu.Stepanov [6]), ijodiy fikrlash omili (I.N.Semenov [7]), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko'rsatkichi (N.B.Kovaleva [8], S.S.Kashlev [9]) sifatida ta'rif berib baholaydilar.

Refleksiya – bu har jihatdan inson hayotining ontologik tomonini ifodalaydi va insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. "Inson rivojlanishi psixologiyasi" ("Психология развития человека") kitobining mualliflari refleksiya inson sub'ektivligining eng muhim, markaziy hodisasi ekanligini bildirib, quyidagi ta'rifni beradi: "U shaxsga o'z-o'zini hamda faoliyatini tahlil qilishga imkon beradi, shuningdek, hissiy holatlar, kechinmalar, odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini aks ettiradi, umuman olganda – alohida e'tibor (tahlil va baholash) va amaliy o'zgarish (o'zgarish va rivojlanish)ga imkon beradi" [10].

O'qituvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlanirish muammolarini tadqiq etgan pedagog olim V.A.Slastenin [11] refleksiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligini ta'kidlaydi:

- a) kognitiv va hissiy kechinmalar mohiyatini izohlashga va ularni konstruktsiyalashga olib keladigan ongning refleksiv tahlili;
- b) insonning o'z-o'zini va shaxslararo muloqot mazmunini tushunish refleksiyasi.

Bu bilan bog'liq ravishda refleksiyaning quyidagi xususiyatlarini farqlab ko'rsatishimiz mumkin:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

V.Slobodchikovning fikricha, refleksiya orqali ta'lif jarayoni ishtirokchilarining "o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilish'i [10, 83] ta'minlanadi.

G.S.Suxobskaya va L.L.Gorbunovalar tomonidan refleksiya "o'zini-o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida sub'ektning suhbadosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi, sub'ektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyati sifatida keltiriladi [12].


G.M.Kodjaspairova va A.Yu.Kodjaspairovlar refleksiya tushunchasini "o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi nazorat qilish; o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni o'tmishta (orqaga) murojaat qilishi" [13, 54] sifatida talqin etadi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda refleksiyaning quyidagi tur, daraja va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin (1.2.1-rasmga qarang).

Rus olimlari S.Yu.Stepanov [6] va I.N.Semenovlar [7] quyidagi refleksiya turlarini tavsiflab, mazkur mexanizm shaxsda "Men" obrazining shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Kasbiy bilimlar o'qituvchi kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy birlik hisoblanadi. O'qituvchining biliomi, bir tomondan, o'zi o'qitadigan fanga, ikkinchi tomon dan, talabalarga qaratiladi. Kasbiy bilimlar mazmunini o'quv fani hamda uni o'qitish metodikasi, psixologik va pedagogik jihatdan tashkil qilinadi. Kasbiy pedagogik bilimlarning o'ziga xos jihatni uning majmuaviyligi hamda integrativligidan iborat. Kasbiy bilimlar asosida o'qituvchining harakatlari, odatlari, o'z faoliyatiga asoslangan qonuniyatlarini va tamoyillarini belgilab beruvchi pedagogik tafakkuri shakllanadi.

Maktab o'qituvchisining kasbiy-shaxsiy jihatdan o'z mavqeini o'zi belgilashi, o'z-o'zini tarbiyalash, takomillashtirish, rivojlanirish va "o'z-o'zini mukammal darajadagi mutaxassis" sifatida uning mohiyati va ahamiyatini



1.2.1-rasm. Kasbiy madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liqlikda refleksiv ko'nikmalarining tur, daraja va shakllari.

anglash, pedagogik mahoratning serqirra usullarini egalash muhim vazifasi ekanligiga alohida e'tibor berilgan. Bu o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini oshirib borish kabi murakkab va og'ir yo'ldagi birinchi, lekin oxirgi qadam emas. U o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashi, mukammallashtirishi va rivojlantirishiga asos bo'ladi. Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida Surxondaryo, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida umumiy o'rta ta'lim maktabalarining o'qituvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, tajriba-sinov ishlariiga jalg etilgan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida refleksiv-rivojlantiruvchi texnika mashqlarini bajarisht, hamkorlikda o'qitish, maxsus pedagogik-psixologik trening mashg'ulotlarining yo'lga qo'yilishi, o'z-o'zini baholash kabi metodlar yordamida o'qituvchilarda kasbiy madaniyatga doir sifatlarning rivojlantirilishiga katta ahamiyat qaratildi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik-psixologik treningda, fniqrog'i, ularning birinchisida o'qituvchilarni kasbiy professiogramma bilan tanishtirish, keyingi ikkitasida kasbiy madaniyat mazmuni bilan bog'liq muhim pedagogik-psixologik xislatlar va jarayonlarni rivojlantirish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar kichik 12-15 kishilik guruhlarda o'tkazi-

lishi tavsiya qilinadi.

Maqsadi: pedagoglarda o'z kasbi, ularning faoliyatiga qo'yiladigan talablar haqida tushunchalar hosil qildirish, bilimlarni mustahkamlash, ixtiyoriy diqqat va xotirani rivojlantirish. Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan anketa va so'rovnoma jami 250 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan 124 nafari nazorat guruhiga, 126 nafari esa tajriba guruhiga biriktirildi. O'tkazilgan anketa va so'rovnoma bo'yicha olingan dastlabki nazorat kesimi natijalari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, quyidagilar aniqlandi:

- nazorat guruhida 124 nafar respondent so'rovnoma da ishtirok etgan bo'lsa, shundan 22,6 % ishtirokchilarda (28 nafar) kasbiy madaniyat yuqori, 27,4 % ishtirokchilar da (34 nafar) o'rta, 33,0 % ishtirokchilar (41 nafar) quyi darajani namoyon etgan bo'lsa, 17,0 % ishtirokchilar (21 nafar) esa kasbiy madaniyatga xos xususiyatlarning boshlang'ich darajasini qayd etishdi.

- tajriba guruhida 126 nafar respondent so'rovnoma da ishtirok etgan bo'lsa, shundan 23,0 % respondent (29 nafar) yuqori, 26,1 % ishtirokchilar (33 nafar) o'rta, 34,9 % respondentlar (44 nafar) quyi, 16,0 % ishtirokchilar (20 nafar) esa kasbiy madaniyatga xos xususiyatlarning boshlang'ich darajasini qayd etdi.

- o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha 22,8 % sinaluvchilar yuqori, 26,7 % sinaluvchilar o'rta, 34,0 % sinaluvchilar

To'plangan ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirildi (1-jadvalga qarang). 1-jadval Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi

Tajriba sinov guruhlari	Yuqori		O'rta		Quyi		Boshlang'ich	
Nazorat guruhi (124 nafar respondent)	28	22,6 %	34	27,4 %	41	33,0 %	21	17,0 %
Tajriba guruhi (126 nafar respondent)	29	23,0 %	33	26,1 %	44	34,9 %	20	16,0 %
O'rtacha ko'rsatkich	57	22,8 %	67	26,7 %	85	34,0 %	41	16,5 %

esa quyி darajani qayd etgan bo'lsa, 16,5 % sinaluvchilarда esa kasbiy madaniyatga xos xususiyatlar rivojlanganligi boshlang'ich darajada ekanligi aniqlandi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivatsiya esa "xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni" bo'lib, unga tashabbus, yo'nalghanlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda motivlar, birinchidan, kasbiy muvaffaqiyatga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. Kasbiy madaniyatni rivojlantirish xususiyatlari bilan bog'liqligini inobatga olgan holda maktab o'qituvchilarining ham kasbiy motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

Kasbiy madaniyat pedagogik faoliyatning asosiy manbai bo'lib, o'qituvchining ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini os-hirishga xizmat qiladi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish – jamiyat va millatning ichki hayoti va idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining asosi, umuminsoniy madaniyatning muhim negizi sifatida iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishiga kuchli ta'sir etadi.

O'qituvchi kasbiy madaniyatining shakllanishi ularda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyatini tarkib toptirishdan iborat bo'lib, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalar ni mustaqil o'zlashtirish, o'qish va o'qitish jarayonida

diqqatni taqsimlash, psixik holatlarini boshqara olishni ta'minlaydi. Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonining takomillashganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etilgan. Ko'zda tutilgan maqsadga erishishda o'qituvchilar faoliyatini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovlar, shuningdek, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatini yorituvchi hujjalarni o'rganish kabi metodlardan foydalangan. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo'nalishti va dasturini muayyan darajada aniqlashtirgan.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy-funktsional modeli hamda texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan maxsus kurs-dasturlariga binoan ta'limi tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Bunda o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida refleksiv-rivojlantiruvchi texnika mashqlarini bajarish, hamkorlikda o'qitish, maxsus pedagogik-psixologik trening mashg'ulotlarining yo'lga qo'yilishi, o'z-o'zini baholash kabi metodlar yordamida o'qituvchilarda kasbiy madaniyatga doir sifatlarning rivojlantirilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar modulli ishlanmalar yaratishda amaliy qo'llanilgan va aniqlashtirilgan.

Real hayotiy va pedagogik vaziyatli topshiriqlar, training mashgulotlariga tayangan holda, biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligi, shuningdek, maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatning rivojlanganlik dinamikasi aniqlandi va kasbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholash uchun mezonlar ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so'zlar). – T.: Fan, 1993. – 248 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Asarlar. 15-tom. – T.: Fan, 2005. – 244 b.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: 1993. № 48.2.
5. Кулюткин Ю.Н., Безухов В.П. Сенностие ориентири и когнитивные структуры в деятельности учителя. – Самара: СамГПУ, 2002. – 400 с.
6. Степанов С.Ю., Похмелкина Г.Ф. и др. Принципы рефлексивной психологии педагогического творчества // Вопросы психологии. 1991. № 5. С. 5–14.
7. Семенов И.Н. Рефлексивная психология творчества: концепции, экспериментатика, практика // Психология. Журнал Висшей школы экономики. – Москва, 2005. Т. 2. – № 4. – С.65–73.
8. Ковалева Н.Б. Развитие и организация рефлексивных методов в совместном решении творческих задач: Автореф. дис. канд. психол. наук. – М., 1994. – 21 с.
9. Каилев С.С. Современные технологии педагогического процесса: Пособие для педагогов. – Мин.: Университетское, 2000. – 95 с.
10. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология развития человека. Развитие субъективной реальности в онтогенезе. Учебное пособие». ИСТГУ; Москва; 2013, 400 с. – 161 с.
11. Сластенин В.А., Подимова Л.С. Педагогика – инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – 146 с.
12. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессе подготовки и повышения квалификации педагогических кадров.– М.: НИИ ИОО АПН, 1991. – 92 с. 15-б.
13. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2003. – 176 с. 130-б.

СУРХОН ДАВЛАТ ҚЎРИҚХОНАСИ ФЛОРАСИННИГ КАМЁБ ВА ЭНДЕМ БИРПАЛЛАЛИ ЎСИМЛИКЛАРИ

Акрам Ибрагимов,
Термиз давлат университети
Ўқув методик бошқарма бошлиғи б.ф.н., доц

Мафтуна Абдимўминова,
Термиз давлат университети талабаси

Аннотация

Мақолада мамлакатимизнинг жанубий ҳудудида жойлашган Сурхондарё вилояти (Бойсун) Кўҳитанг флораси таркибидаги эндем ва камёб бўлган оила, туркумга мансуб 150 турдаги ўсимлик рўйхати ҳамда уларнинг биологик тавсифи, тарқалиши ареали ва экологияси ҳамда камайиб кетии сабаблари тўғрисидаги маълумотлар келтирилган. Дала тадқиқотлари ва таҳлил методлари натижасида, Сурхон давлат қўриқхонаси флорасининг камёб ва эндем бирпаллали жайдари ҳамда йўқолиб кетии хавфи остида турган глобал аҳамиятга молик ўсимлик турлари ҳақида маълумот берилган.

Калим сўзлар: Флора, Кўҳитанг, poaceae, дараҳт, бирпаллалилар, тизма, тоз-ўрмон, экотизим ва эндем.

Аннотация

Статья содержит перечень 150 видов эндемичных и редких растений Кохитанской флоры Сурхандарьинской области (Бойсун), которая расположена в южной части нашей страны, а также сведения об их биологическом описании, ареале распространения и экологии, а также причины их упадка. В результате полевых исследований и аналитических методов приведены сведения о редких и эндемичных однодольных растениях флоры Сурхонского государственного заповедника и видах растений мирового значения, находящихся под угрозой исчезновения.

Ключевые слова: Флора, Кохитанг, злаки, дерево, единорог, хребет, горно-лесной, экосистема и эндемик.

Annotation

In the article, The Surkhondarya region (Boysun, Kohitang Flora) is located in the southern region of our country information on the endemic and rare family, the list of 150 species of plants belonging to the category, their biological characteristics, distribution area and ecology, as well as the reasons for their decline. As a result of field research and analysis techniques, rare and endemic single-ball gazelles of the flora of the Surkhon State Reserve have been reported as well as globally important plant species under threat of extinction.

Keywords: Flora, Kohitang, poaceae, tree, unicorn, ridge, mountain-forest, ecosystem and endemic.

Бугунги кунда дунё миқёсида аҳоли сонининг ўсиши, қишлоқ ҳўжалиги экинлари учун ўзлаштирилган худудлар майдонининг кенгайиши, аҳоли яшаш комплекслар ва ишлаб чиқариш объектлари қурилиши на-тижасида жойлар инфраструктурасининг ўзгариши, нефть-газ ва бошқа қазилма саноати тармоқлари ривожланиши герпетофаунанинг хилма-хиллигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, табиий ландшафтларнинг бузилиши оқибатида ёввойи ҳайвонлар яшаш жойларининг қисқариши, сонининг камайиши ва заиф турларнинг йўқ бўлиб кетишига олиб келмоқда [1, 5]. Шунга кўра, биологик хилма-хилликнинг компоненти ва ресурси герпетофаунани сақлаш мақсадида антропоген трансформацияси шароитида амфибия ва рептилиялар популяциялари ҳолатини баҳолаш ва уларнинг ўзгариш тенденцияларини аниқлаш, ноёб ва йўқолиб кетиш хавфи остидаги турларни муҳофаза қилиш юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқиш муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Республикамизда барқарор ривожланиш учун муҳим бўлган атроф-муҳитни ва биологик хилма-хиллигини сақлаш ҳамда экотизим барқарорлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада, жумладан, табиий экотизимлар барқарорлигини таъминлаш, ҳайвонларнинг камёб ва йўқолиб бораётган турларини муҳофаза қилиш чора-тадбирлари ишлаб чиқилди. Хусусан, 2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясида “...биологик хилма-хилликни сақлаш ва ундан барқарор фойдаланиши таъминлаш, муҳофаза қилинадиган табиий худудларни ривожлантириш ва кенгайтириш, табиий экологик тизимларнинг таназзулга учраш суръатларини пасайтириш, ҳайвонлар ва ўсимликларнинг камёб ва йўқолиб бораётган турларини қайта тиклаш” [2] вазифалари белгиланган. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 19 сентябрдаги “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисидаги”

Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 4 сентябрдаги ПҚ-3256-сон “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника институти ва Зоология институти фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 ноябрдаги 914-сон “Ҳайвонот ва ўсимлик дунёси обьектларининг давлат ҳисобини, улардан фойдаланиш хажмлари ҳисобини ва давлат кадастрини юритиш тўғрисида”ги қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 11 июнданги 484-сон “2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-хукукий ҳужжатларда белгиланган вазифаларини амалга оширишга ушбу мақола муайян даражада хизмат қиласи.

Сурхон воҳаси флораси таркибида ҳам бугунги кунда камёб ва реликт ҳисобланган, шунингдек, эндем турлар сони 41 оила, 78 туркумга мансуб 150 турни ташкил этади. Бу турлар бугунги кунда Сурхон давлат қўриқхонаси, Бойсун ва Ҳисор ўрмон хўжаликлиарида муҳофаза остига олинган. Лекин муҳофаза этилмайдиган худудларда ҳам Ўзбекистон Республикасининг Қизил китобига киритилган ва эндем ўсимлик турлари учрайди. Уларни бугунги кундаги популациясининг аҳволини, камайиб кетиш сабабларини ўрганиш долзарб муаммолардан бири саналади [3, 5].

Сурхондарё вилояти ғарбда Кўҳитанг тизмаси, шимолдан Бойсун, шимоли-шарқдан Ҳисор тизмасининг жанубий ёнбағри, шарқида эса Боботоғ ғарбий ёнбағирларининг қуи қисми билан ўралган. Унинг жанубий чегараси эса Амударё орқали ўтади. Вилоят худуди Бойсун, Кўҳитанг ва Боботоғ ботаник географик районига ажратилади [3, 6].

Сурхондарё вилояти ғарбдан, шимолдан ва шарқдан ўраб турган тоғлар ёзда ҳам, қишида ҳам ҳаво массаларининг округга ўтишига анча тўсқинлик қиласи. Шунинг учун ҳам вилоят бутун Республикаиздаги энг иссиқ ўлқадир (йиллик ўртacha ҳарорати +170°C). Ёз қуруқ ва жазирама иссиқ, қиши юмшоқ ва илик келади, шунинг учун ҳам субтропик ўсимликлар ўса олади. Январнинг ўртacha ҳарорати +10, +40°C бўлади. Лекин баъзан қиши ойлари анча совиб кетиб, энг паст ҳарорат -20, -27°C га тушади. Июлнинг ўртacha ҳарорати +28, +32°C, энг юқори ҳарорат эса +42, +48°C даражада бўлади. Термиз шаҳрида ёз кунларида ҳарорат ҳатто +50°C гача кўтарилади.

Жануби-ғарбий Ҳисор, шу жумладан, Бойсун тоғи ва унинг атрофидаги худудларда олиб борилган илмий изланишлар бир асрдан ортиқ тарихга эга. Ҳудуд ўсимликлари тўғрисидаги дастлабки маълумотлар Н.А.Маевга тегишли. У 1875 йили генерал-губернатор К.П.Кауфман бошчилигига “Бухоро жанубидаги текисликлар”

деб номланган экспедицияда ботаник сифатида иштирок этган. Тадқиқот ишлари 1875 йилнинг апрель ойида Самарқанд вилояти атрофларидан бошланади. М.Капю 1881 йилдан бошлаб Бонвало билан биргаликда Марказий Осиё бўйлаб тадқиқотлар олиб бориб, изланишлари давомида кўпгина гербарий намуналари йиғишиган. 1881 йилнинг 7-15 апрель кунларида Шеробод ва Фузорда, 8-9 майда Сайроб, 10 майда Шўроб атрофларида тадқиқотлар олиб боришиган [4, 92-93].


Е.М.Демурина 1934 йилда Марказий Осиёдаги айрим худудларнинг ўсимликлар қопламини ўрганиш мақсадида Чўлбаир, Хўжа Гургур-ота, БельАути тоғларида ҳам тадқиқотлар олиб борган. 1939 йилда ушбу минтақалардаги ўсимликлар қоплами тўғрисидаги маълумотлар келтирган. 1940-1941 йиллар давомида Л.И.Попова Бойсун тоғи ва Сурхон-Шеробод паст текисликларида ўсимликлар қопламини ўрганиш мақсадида тадқиқотлар олиб борган. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида 1951 йилга келиб “Особенности в поясом распределение растительности Юго-западных отрогов Гиссарского хребта (в пределах Байсунского района Сурхандарьинского области)” мавзусида номзодлик диссертациясини ҳимоя қиласи. У томонидан мазкур худуд учун фақатгина 626 тур борлигини қайд этади. Олима 2 йил мобайнида 2000 дан ортиқ гербарий намуналарини йиғишига эришиган.

Тадқиқот натижаларига кўра, 92 оиласи мансуб 545 туркум ва 1435 тур ўсимликларни келтирган. Шундан 119 тур ўсимликларни Кўҳитанг тизмасининг турли хил мақомдаги эндемлари ўрганилди ва тадқиқ этилмоқда.

Сурхондарё вилоятининг камёб ва эндем турлари дала тадқиқотлари ва лаборатория амалиёти натижасида аниқланди.

1. Оила. Супомориaceae – Қумсўтадошлар.
1. Туркум. Cynomorium L. – Қумсўта.
1. Тур. Cynomorium songaricum Rupr. – Жунгор қумсўтаси, циноморийси. – Циноморий джунгарски.

Жанубий Помиролой учун камёб тур бўлиб, Ўзбекистон Республикасининг қизил китобига киритилган.



1-расм. (Қизил-бинафша рангли текинхўр ўсимлик).

Ботаник тавсифи: Бўйи 7-20 см, йўғонлиги 1,5-3 см, учбурчак тангачалар билан қопланган, узунлиги 3-5 мм. Тўпгули жуда тигиз, тўғногичсимон, цилиндрисимон. Гуллари зич жойлашган. Гулқўргон бўлади 2-4 мм узунликда. Чангчиси чангдони билан

2,5 мм узунликда. Уруғчиси 2-3 мм узунликда. Меваси шарсимон, эни 1,25-1,5 мм. Май-июнда гуллаб, мева тугади.

Тарқалиш ареали: Кўҳитанг тоғининг Бойқўниш, Катта шамолли, Гулгун, Кампиртепа, Шўроб худудларида тоғолди текисликларида тарқоқ ва сийрак ҳолда кумли тупроқларда ва олажансларда тарқалган. Ўзбекистондан ташқари, Туркманистон, Тожикистон, Эрон, Афғонистон, Мўғилистонда ҳам ўсади.

2. Оила: Ranunculaceae – Айиктовондошлар.
2. Туркум: Anemone L. – Пўфанақ.
2. Тур: *Anemone baissunensis* Juz. et M.M.Sharipova – Бойсун пўфанағи – Ветреница байсунская.

Маълум кичик майдонларда ўзига хос шароитларда сақланиб қолган, тез йўқолиб кетиши мумкин бўлган ва жиддий назоратни талаб этувчи кўп йиллик ўт бўлиб, Кўҳитанг ва Ҳисор тизмаларида ареали ажралган камёб, эндем ўсимлик ҳисобланади.



2-расм. Чўзиқ туганакли кўп йиллик ўт.

Ботаник тавсифи: ёпирма барглари бандли, уч карра бўлинган, бўлаклари юмaloқ ёки ўтқир тишли. Ён бўлаклари бандсиз ёки қисқа бандли, ўрта қисмидагиси 1,5 см узунликдаги бандга эга. Ўрама барглари 2-3 та, юқори қисми уч карра бўлинган. Гулбанди 1-4 та, туклар билан қопланган. Гуллари 1-2 та, диаметри 3-4 см, сариқ рангли. Чангдони ва чангчи иплари сариқ, уруғчиси эса қора рангли. Уруги 0,3-0,5 см узунликда. Тумшуқчасининг узунлиги 0,2 см, сертуқ. Март-апрель ойларида гуллаб, май ойида меваси етилади.

Тарқалиш ареали: Кўҳитанг тизмасида, Шолқон қишлоғи атрофида, Бойсун тизмасида Ҳалқажар дарё ҳавзасида, Омонхона, Қиякамар қишлоғи атрофларида ҳамда Боботоғ тизмаларида очилиб қолган ола жинсларда, шунингдек, тоғ ёнбағирларидағи созтупроқли ва майда заррали тупроқларда ўсади.

3. Тур: *Anemone bucharica* (Regel) Finet et Gagnep. –

Бухоро пуфанаги – Ветреница бухарская.

Ўзбекистонда кам учрайдиган, жанубий Помир-Олойда ўсадиган эндем ўсимлик бўлиб, Ўзбекистон Республикасининг Қизил китобида камёблик даражаси З гуруҳига, яъни маълум вақт ичиди сони ва тарқалган майдонлари табиий сабабларга кўра ёки инсонлар таъсири остида қисқариб кетаётган тур эканлиги билан ажралиб туради.



3-расм. Туганаги юмaloқ ёки узунчоқ кғринишида-ги кўп йиллик ўт.

Ботаник тавсифи: Ёпирма барглари бандли, очяшил рангли, юмaloқ-юраксимон, уч карра бўлинган, сийрак тукли. Япрогининг ён бўлаклари бандсиз, ўрта қисмдагилари эса қисқа бандли. Ўрама барглари 3 та, уч карра бўлинган. Гулпоялар 1-3 та. Гуллари йипик, диаметри 3-4 см, тик турувчи, очик, ликопчастимон. Гулқўргони қизил, ички томони ялтироқ, ташки томони ётиқ тукли. Уруги қалин тукли. Апрель-июн ойларида гуллаб, мева беради.

Тарқалиш ареали: Кўҳитанг тизмасида, Шолқон қишлоғи атрофида, Бойсун тизмасида Ҳалқажар дарё ҳавзасида, Омонхона, Қиякамар қишлоғи атрофларида ҳамда Боботоғ тизмаларида очилиб қолган ола жинсларда, шунингдек, тоғ ёнбағирларидағи созтупроқли ва майда заррали тупроқларда ўсади.

Кўҳитанг тизмасининг шарқий ёнбағрида жойлашган Сурхон қўриқхонаси флорасининг таркиби ўрганилган бўлиб, 77 оила, 372 туркумга мансуб 743 турлардан ташкил топиши аниқланди. Қўриқхона флораси таксономияси, ареалогияси, биоморфологияси, экологияси бўйича таҳлил қилинди ва тик минтақалар бўйлаб тақсимланиши ўрганилди. Маъмурий мақоми бир хил бўлган Нурота ва Чотқол қўриқхоналарининг флоралари билан қиёсий таҳлил этилди. Флора таркибида Кўҳитанг тизмасининг 22 турдаги эндемлари ўсиши аниқланди. Улардан 5 таси қўриқхонанинг эндемлари ҳисобланади [5, 154-156].

Шеробод туманининг Кўҳитанг тоғ тизмасида

олиб борилган дала тадқиқотлари натижасида шуни билиб олдики, Сурхон давлат кўриқхонаси флористик таркибининг ўрганилиши унинг бой ва хилма-хил ўсимлик ресурсларини мунтазам равишада муҳофаза қилиш чора тадбирларини ишлаб чиқишига имкон яратиш баробарида, келгусидаги барча илмий тадқиқотларнинг замини бўлиб хизмат қиласи.

Сурхон давлат кўриқхонасига эндем ва субэндем таксонларнинг 22 тури (умумий флоранинг 2,96%) тоб, 4 тури (0,54%) яйлов, 1 тури (0,13%) адир минтақаларида тарқалган. Бундан маълум бўладики, эндем ўсимликларнинг асосий қисми кўриқхонанинг тоғ минтақаси ҳудудида тарқалган. Ҳаётий шаклларига кўра, эндем ўсимликларнинг 12 тури (умумий флоранинг 1,61%) ўқилдизли поликарп ўтларга, 3 тур яримбутачаларга (0,40%), 2 тур (0,27%) икки йилликлар ўтларга тўғри келади [6, 1563]. Буталар, ёстиксимон поликарплар, илдизпояли поликарплар, пиёзли поликарп ўтлар, илдизтугунакли, тугунакпояли

поликарп ўтларда 1 турдан (0,13%) иборат. Бу турларнинг ареали таҳлил қилинганда, кўриқхона эгаллаган майдонлар ва Кўхитанг тизмаси ареалининг асосий қисми эканлиги маълум бўлди.

Сурхон воҳаси флораси таркибида ҳам бугунги кунда камёб ва реликт ҳисобланган, шунингдек, эндем турлар сони 41 оила, 78 туркумга мансуб 150 турни ташкил этади. Бу турлар бугунги кунда Сурхон давлат кўриқхонаси, Бойсун ва Ҳисор ўрмон хўжаликларида муҳофаза остига олинган. Лекин ҳимоя этилмайдиган худудларда ҳам Ўзбекистон Республикасининг Қизил китобига киритилган ва эндем ўсимлик турлари учрайди. Уларни бугунги кундаги популяциясининг ахволини, камайиб кетиш сабабларини ўрганиш долзарб муаммолардан бири саналади. Бунинг учун табиат қўйнига дам олишга чиқадиган сайёҳларга, туристларга ва маҳаллий аҳоли ўртасида тушунириш ишларини олиб бориш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ж.Ф.Курбонович. Жануби-гарбий қизилкўм гернетофаунаси антропоген таъсири шароитида. Биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2022. 5-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” 2019 йил 11 июндаги 484-сон қарори.
3. А.Ибранимов, Эшибоев. Сурхондарё вилояти флорасининг эндем ва камёб турлари. – Қарши: “Насаф” нашириёти, 2019. – 112 бет.
4. Попов М.Г. Растительные высотные пояса в горах Средней Азии. Дневн. всес. съезда бот. Тр. по прикл. бот., генет. и селекции, 1928. – С. 92-93.
5. A.J.Ibragimov, M.A.Abdumuminova Analysis of life forms and vertical regions of poaceae family in the flora of the kuhitang ridge// Texas Journal of Multidisciplinary Studies <http://zienjournals.com> 2021. P:154-156.
6. Тоҷибаев К.Ш., Турғинов О.Т. Новый вид рода *Jurinea* Cass. (Asteraceae) из Гиссарского хребта (Памиро-Алај) // Ботан. журн. – Санкт-Петербург, Наука, 2013. – №12 (98). Б. 1563-1566.



ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИК ЮТУҚЛАР ТАҲЛИЛИ

Чарос Байсариева,

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети мустақил изланувчиси

Аннотация

Замонавий аҳборот технологиялар таълим технологиялар тизими билан бир-бируни тўлдириб боради ва таълим жараёнининг сифатини ошириши учун янги истиқболларини очади. Мақолада бугунги кунда компьютер технологияларнинг таълим тизимидағи ўрни ва роли ҳамда технологик ютуқлари хақида сўз юритилада.

Калим сўзлар: Аҳборот технологиялари, таълим, педагогик жараён, маълумот манбаи, интернет, технологик жараён, ютуқлар, тизим, электрон таълим ресурс, ёндашувлар, глобаллашув, компьютерлаштириши.

Аннотация

Современные информационные технологии дополняют друг друга системой образовательных технологий и открывают новые перспективы для повышения качества образовательного процесса. В статье рассказывается о роли и значении компьютерных технологий в системе образования и технологических достижениях сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Информационные технологии, образование, педагогический процесс, источник информации, Интернет, технологический процесс, достижения, система, электронный учебный ресурс, подходы, глобализация, компьютеризация.

Annotation

Modern information technologies complement each other with a system of educational technologies and open up new prospects for improving the quality of the educational process. The article describes the role and importance of computer technologies in the education system and technological achievements of today.

Keywords: Information technologies, education, pedagogical process, information source, Internet, technological process, achievements, system, electronic educational resource, approaches, globalization, computerization.

Интернет ва коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши, шунингдек, смартфонлар ва бошқа интернетга уланадиган қурилмаларнинг кенг тарқалиши туфайли маълумотларни топиш, юклаш ва маълумотлар базаларига кириш осон бўлиб қолди. Анъанавий билим олиш жараённида ўқитувчилар талабаларга ишончли деб ҳисобланган турли хил маълумот манбаларини тақдим этадилар.

Хозирги кунда, айниқса, пандемиядан кейинги даврда талабалар тобора кўпроқ интернетда мавжуд ресурсларга таянмоқдалар. Турли хил маълумотларнинг кўп миқдори талабаларнинг ўкув жараёнига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шу билан бирга, замонавий муаммоларни ечиш учун педагогик ёндашувлар, аудиторияда ўқитиши амалиёти ва талабаларнинг ўкув фаолияти сезиларли даражада ўзгарди. Ушбу тадқиқот тез ўзгарувчан олий таълим шароитида жорий ўқитиши амалиёти ва технологик чораларни ўрганади.

Ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши сўнгги йилларда ўкув жараёнига сезиларли таъсир кўрсатди. Таълимни комп’ютерлаштириш, яъни таълим жараённида янги ахборот технологиялари ютуқларидан фойдаланиш кенг кўламли, стратегик йўналиш, яъни жамиятни ахборотлаштиришнинг бир қисмидир. Маълумки, глобаллашув жаравёни жамият фаолиятининг бутун тузилишини ўзгаришишга олиб келади ва шу муносабат билан, у ташкилотлар ҳамда тармоқлар фаолияти мазмунида сезиларли ўзгаришларга олиб келиши мумкин. Глобаллашувнинг муҳим хусусияти жамиятни ахборотлаштиришdir.

Инсоннинг керакли маълумотларни олишга бўлган эҳтиёжларини қондиришига қаратилган жараён ахборотлаштиришdir. Бугунги кунда таълим соҳасида ахборотлаштириш кўплаб мамлакатларнинг асосий вазифаси бўлиб, бу соҳанинг техник ва дастурий таъминоти бунда муҳим омил бўлмоқда.

Инсоният тараққиётида таълимни ахборотлаштиришнинг ўрни жуда катта. Янги ахборот технологиялари инсон фаолиятининг кўп турларини автоматлаштиради. Одамлар, масалан, харидлар учун тўловни амалга ошириш учун ахборот технологияларидан фойдаланадилар, улар орқали чипталарга олдиндан буюртма беришади. Демак, одамлар ахборот

технологиялари бўйича билимга эга бўлиши ва уни амалда қўллай олиши керак. Бу эса, ўз навбатида, ушбу технологияларга тўлиқ эга бўлган мутахассисларни талаб қиласди.

Ахборот технологияларининг ривожланиши ахборот, шу жумладан, илмий ахборот ҳажмининг ошишига олиб келади. Манбаларга кўра, газеталардаги маълумотлар ҳар куни 10 фоизга, журналлардаги маълумотлар ҳар ойда 10 фоизга, китоблардаги маълумотлар ҳар йили 10 фоизга эскиради.

Ярим аср олдин маълумотлар ҳар 10-15 йилда икки баравар кўпаяди, деб айтиларди. Бугунги кунда ахборот ҳар икки йилда икки баравар кўпаймоқда. Бу жараён кейинги йилларда яна ҳам жадаллашиб боради. Ушбу ўсишнинг асосий омилларидан бири автоматик равиша яратилган маълумотлар улушининг ортиши ҳисобланади.

Бугунги кунда инсон учун билим миқдори эмас, балки мақсадга мувофиқ бўлган зарур билимлар муҳим аҳамиятга эга ҳамда инсон учун керакли маълумотларни таҳлил қилиш ва танлаш қобилияти ҳам муҳимдир.

Таълим тизимида бунинг учун “индивидуал таълим траекторияси” тушунчаси киритилган, яъни талаба таълим олишнинг ўзига хос усулини қуриши керак. Талаба ўз-ўзини тарбиялаш ва ўзини ўзи англаш қобилиятини максимал даражада ривожлантириши керак.

Шу боис таълим тизимида талабаларнинг ахборотни излаш, қайта ишлаш, идрок этиш, тушуниш, ундан фойдаланиш қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда ахборот технологияларининг ўрни бекиёс. Инсон ахборот технологияларини ўзлаштириши керак, бу доимий ўзгарувчан дунёда мослашувчан механизmlардан биридир.

Бугунги кунда ўкув жараёнини ахборот технологияларидан фойдаланмасдан тасаввур қилиб бўлмайди, улар орасида электрон таълим ресурслари сўнгги пайтларда муҳим аҳамият касб этмоқда.

“Электрон таълим ресурси” тушунчаси маъносини тушунишдан олдин “ресурс” атамасини таҳлил қиласди. Адабиётда ресурс сўзи (французча resurs сўзидан олинган) ёрдамчи восита, захира, манба, жараённи амалга ошириш имконияти, мак-

сад йўлида қўлланиладиган ҳамма нарса маъносида талқин қилинади.

Демак, ресурсни восита сифатида тушуниш мумкин. Информатика фанида ресурс бошқа компьютердан масофавий фойдаланиш мумкин бўлган маълумотларнинг бир кисми сифатида ҳам тавсифланади. Ўқиш даврида таълим ресурси таълим жараёнини амалга ошириш учун восита ёки манба мазмунидагулланилади.

Ўқув ресурсларининг қуидаги турлари мавжуд.

1. Ахборот таълим ресурслари – таълим тизимида фойдаланиш учун мўлжалланган ахборот тизимларидаги алоҳида ҳужжатлар ва ҳужжатлар тўплами. Улар ўқув-маълумотнома шаклидаги ахборот базаларини, билим базаларини; масофавий таълим технологияларини таъминлаш учун техник ва дастурий воситаларни ўз ичига олади.

2. Электрон таълим ресурси – электрон қурилмалар ёрдамида фойдаланиладиган ўқув материаллари.

3. Рақамли таълим ресурси – рақамли тақдим этилган фотосуратлар, видеоклиплар, статик ва динамик моделлар, виртуал ҳақиқат ва интерактив модельлаштириш обьектлари, картографик материаллар, овоз ёзувлари, рамзий обьектлар ва бизнес графикалар, матнли ҳужжатлар ва ўқув жараёнини ташкил этиш учун зарур бўлган бошқа ўқув материаллари.

Ўқув жараёнига электрон таълим ресурсларининг жорий этилиши ўқувчиларнинг фаоллиги, мотивацияси ва фанга қизиқиши ортиши билан боғлиқ. Шу билан бирга, шундай позиция ҳам мавжудки, унга кўра, ўқув жараёни тўлиқ компьютерлаштирилган бўлиши мумкин. Бунда ўқитувчи маслаҳатчи ва тыютор сифатида қаралади [3]. Тахлиллар шуни кўрсатдики, ҳозирги вақтда ўқув жараёнида электрон таълим ресурсларини яратиш ва улардан фойдаланиш бўйича кўплаб ишлар амалга оширилган [3]. Кўп сонли изланишларга қарамай, ҳозирги кунга қадар тадқиқотчилар ушбу тушунчанинг маъносини аниқлаш масаласида умумий фикрга эга эмаслар.

Тадқиқотчиларнинг биринчи гуруҳи Л.Х.Зайнутдинова, Г.А.Краснова, А.В.Осиналар [6] электрон таълим ресурси, юқорида таъкидланганидек, электрон қурилмалар ёрдамида фойдаланиладиган ўқув материаллар деб ҳисоблашади. Бу ерда муаллифлар ўқув материалларнинг турларини назарда тутади. Булар – ўқув видео ва овоз ёзувлари, электрон дарсликлар, овозли маълумот учун магнитафон, CD плеер, компьютер.

Иккинчи гуруҳ тадқиқотчилари (М.М.Матлин, Н.Г.Дудкина, Э.В. Чернобай ва бошқалар) электрон таълим ресурслари маъносини кенгроқ тушунишмоқда. Уларнинг фикрича, электрон таълим ресурслари тегишли фан бўйича тизимлаштирилган материалларни ўз ичига олган, ўқув жараёнининг барча қисмларида ахборот-коммуникация технологиялари

воситаларининг дидактик имкониятларини амалга оширишни таъминлайдиган ўқув электрон нашри: когнитив вазифани тушуниш, ўқув материалининг мазмунини тақдим этиш, талабаларнинг билим, кўникумка ва малакаларини ўзлаштириш учун ижодий фаоллигини таъминлаш, индивидуал топшириқларни бажариш бўйича фаолиятни ташкил этиш, фикр-мулоҳазалар, талабалар фаолиятини назорат қилиш, кейинги ўқув фаолиятига тайёргарликни ташкил этишни ўз ичига олади. [1].

Кейинги муаллифлар гуруҳи электрон таълим ресурслари маъносини ўрганиш воситаси сифатида тушунишни таклиф қилишади. “Электрон таълим ресурслари, – деб таъкидлайди Л.Н.Мотунова, – маълум бир фан соҳасини акс эттирувчи, уни ўрганиш технологияси у ёки бу даражада амалга ошириладиган ва ҳар хил турдаги ўқув фаолиятини амалга ошириш учун шарт-шароитларни таъминлайдиган ўқув мақсадлари учун дастурий таъминотдир” [2].

Худди шу маънода рус тадқиқотчиси О.Н.Белая электрон таълим ресурслари маъносидан фойдаланишини таклиф қиласди. Унинг фикрича, электрон таълим ресурслари компьютер ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда яратилган ўқув воситаларидир [5].

Ж.Ж.Карбозованинг қайд этишича, электрон таълим ресурслари дегани, таълим мақсадлари учун дастурий таъминот сифатида маълум бир мавзу бўйича ўз ичига олган талабаларнинг билим, малака ва кўникумларини тизимлаштирадиган материални тушунишимиз керак. [4]

Сўнгги йилларда электрон таълим ресурси педагогик восита сифатида таълимга комплекс ёндашувни акс эттирувчи фанлар мазмунининг асосий элементларини ўз ичига олади.

Тадқиқот таҳлили шуни кўрсатадики, электрон таълим ресурслари таълим сифатини ошириш учун кенг имкониятлар яратади:

- талабаларнинг когнитив фаолиятини оқилона ташкил этиш;
- ўқитиш самарадорлигини ошириш;
- индивидуал ўз-ўзини ривожлантириш ва ўқитиш фаолиятини шакллантириш;
- ўқув услугига ва турли қобилиятларга эга бўлган талабаларни фаоллаштириш;
- янги когнитив воситаларни эгаллаш;
- таълим жараёнининг барча босқичларини фаоллаштириш.

Электрон таълим ресурслари, биринчи навбатда, ўқитувчининг дарсдаги вақтини тежаш ва талабаларнинг ўрганиш мотивациясини ошириш учун керак.

Электрон таълим ресурсларида, асосан, ўқув материални виртуал шаклда тақдим этиш учун аудио, видео материаллар ишлатилади.

Электрон таълим ресурслари талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш бўйича самарали воситаси ҳисобланади. Улар ёрдамида талабаларнинг мустақил таълим олиш фаолиятини ривожлантиришга эришиш мумкин.

Онлайн воситалар ўқув муҳитининг муҳим элементларидан фойдаланадиган аралаш таълим талабаларнинг мустақил таълимини қўллаб-кувватлаши ва уларнинг таълимдаги иштирокини ошириши мумкин.

Бундан ташқари, эмпирик далиллар шуни кўрсатадики, тегишли педагогика ва ўқув жараёнлари томонидан қўллаб-кувватланадиган мустақил таълим воситалари, масалан, ўз-ўзини бошқариш каби, талабаларнинг ўрганиши ва жалб қилинишини таъминлайди.

Умуман олганда, онлайн таълим воситалари талабаларга мустақил равишда ўрганишга имкон беради, бу эса уларнинг фаоллигини ва билимларни ўзлаштиришни сезиларли даражада яхшилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Матлин, М.М. «Роль интенсивно-информационных технологий обучения в организации лекционного процесса / М.М. Матлин, Н.Г. Дудкина. – Текст : ИКТ технологии в образовании 167 непосредственный // Высшее образование в России. - 2009. - № 2. - С. 155-157.
2. Мотунова, Л.Н. Информационные технологии как средство педагогической поддержки студентов / Л.Н. Мотунова. – Текст: непосредственный // Высшее образование в России. -2010. - № 8/9. – С. 151-155.
3. Красильникова, В.А. Информационные и коммуникационные технологии в образовании : учебное пособие/ В.А. Красильникова. – Оренбург : ГОУ ОГУ, 2006. – 235 с
4. Карбозова Ж.Ж. Подготовка будущих учителей к проектированию электронных образовательных ресурсов /Дисс. Душанбе, 2018.
5. О. Н. Белая, А. В. Богдевич, Использование электронных дидактических пособий на уроках физики // Белорусский национальный технический университет ; сост. Ю. В. Полозков. – Минск : БНТУ, 2018. – С. 112-114.
6. Зайнутдинова Л.Х. Психолого-педагогические требования к электронным учебникам (на примере общетехнических дисциплин) /Л.Х. Зайнутдинова. – Астрахань: АГТУ, 1999. –71 с.



O'QUVCHI-YOSHLARDA IJTIMOIY INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Sarvinoz Norboyeva,

TerDU “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti v/b,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Gulsin O‘roqova,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada so‘nggi yillar ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar hamda o‘quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektni shakllantirish borasidagi eng qadimgi yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlar va sharq mutafakkirlarining pedagogik fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: intellekt, o‘quvchi-yoshlar faoliigi, ta’lim, tarbiya, ijtimoiylashuv, individual, aql, tafakkur, bilim, shakllanish, mehnat qilish, jismoniy faoliik.

Аннотация

В статье описываются изменения, произошедшие в системе образования за последние годы, в частности сведения, представленные в древнейших письменных источниках, о формировании социального интеллекта у учащихся и педагогические взгляды восточных мыслителей.

Ключевые слова: интеллект, студенческая деятельность, образование, воспитание, социализация, личность, разум, мышление, познание, образование, труд, двигательная активность.

Annotation

The article describes the changes that have taken place in the education system in recent years, in particular, the information provided in the oldest written sources on the formation of social intelligence in students and the pedagogical views of Eastern thinkers.

Keywords: intellect, student activity, education, upbringing, socialization, individual, mind, thinking, knowledge, formation, labor, physical activity.

Jahonda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayoni ta'lif tizimida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Elementar bilimlar bilan qurollantirish hamda savodxonlikni o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy intellektini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ta'lif jarayonida o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy intellektini shakllantirishning individual muammosiga turli mamlakatlar ta'lif sohasi vakillarida turlicha yondashuv amalga oshirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimida o'quvchi-shaxsiga qaratilgan ta'lif texnologiyalari, o'quvchi-yoshlar savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro'yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendensiyalari ustunlik qiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti har tomonlama barkamol insonlar shaxsini shakllantirish masalasi bilan bog'liq. Buning uchun esa avvalo ularning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil tafakkurni hamda axloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish vazifasini zimmasiga olgan pedagoglar tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" [1], 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilga cha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [2] farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lif sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [3], 2019-yil 3-maydag'i PQ-4307 son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi [4] qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi VMQ-187-son "Umumiylor'ta ta'lifning davlat ta'lif standartini tasdiqlash to'g'risida" [5], 2019-yil 31-dekabrdagi VMQ-1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" [6], 2020-yil 14-dekabrdagi VMQ-781-son "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi [7] qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Inson ijtimoiy munosabatlar jarayonida hayot kechiradi. Ijtimoiy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabat-

lar, ularning mazmuni, g'oya va yo'nalishlari shaxsning ijtimoiy shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shaxs faoliyati, uning faoliyati, uning ijtimoiy borliqqa nisbatan hayotiy yondashuv, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroydarajasi hamda sifati, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlar mazmunining qaror topishiga, takomillashishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Shunday ekan, shaxs ijtimoiy muhitning, ijtimoiy munosabatlarning sust mahsuli emas. Ijtimoiy mavjudot sifatida inson hech qachon ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabatlardan chetda yashay olmaydi. Inson ega bo'lgan bilim, hayotiy tajriba, dunyoqarash u yashab turgan ijtimoiy muhitning ta'siri hamda ijtimoiy munosabatlar samarasidir. Jamiyat bag'rida inson his-tuyg'ulari yuzaga keladi, mustahkamlanadi hamda boyib boradi. Shu bois kishilik taraqqiyoti jarayonida shaxsni ijtimoiy munosabatlarning faol ishtiroychisiga aylantirish masalasi uzoq yillar davomida xalqning yetuk ziyoilari diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Chunonchi, eng qadimgi yozma manbalamizda, jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da shaxs komilligining asosiy belgisi amaliy faoliyat, ya'ni mehnat deb talqin etilsa, ishyoqmaslik (faoliyatsizlik) barcha kulfatlarning sababchisi deb bilingan. Asarda "inson mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutilishi mumkin" degan g'oya yotadi [8].

Islom dinining muqaddas kitobi – Qur'oni Karim, Hadisi shariflarda ham asosiy e'tibor shaxs faoliyati va uni tashkil etish masalalariga qaratilgandir. Ijtimoiy faoliyat turlari – bilim olish, mehnat qilish, faol harakatni tashkil etish bo'lib, islom ta'limatining asosiy g'oyalaridan sanaladi. Xususan, "Talabi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa barakot tilaydi, hatto dengizdag'i baliqlar ham", "Ilmning ofati unutishdir. Uni noahl kishiga gapirish esa zoye qilishdir", "Olloh aksirgan kishini yaxshi ko'radi, esnagan kishini esa yomon" kabi hikmatlarda ijtimoiy xatti-harakat, faoliyatning ahamiyati mukammal yoritib berilgan.

O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantirish yuzasidan sharq mutafakkirlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom o'z asarlarida ilm o'rganishda, bilim olish faoliyatini tashkil etishda o'quvchi-yoshlarning shaxsiy kuzatishlariga hamda bilimlardan foydalanishiga, inson kamolotga yolg'iz erisha olmasligiga, ilmlarni egallashda shaxs ruhiyatidagi intilish va qiziqish muhim ahamiyat kasb etishiga, insondagi mavjud aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulish, o'zligini anglash vositasi ekanligi va shaxsning ijtimoiylas-

huvi negizida turlicha faoliyatlarni tashkil etish (ularning orasida ilm olish, mehnat qilish hamda jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish) muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Jadid maktabining vakillari – Munavvarqori Abdurasidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ismatulla Rahmatullayev va boshqalarning ijodida xalqning, ayniqsa, qobiliyatli yoshlarning ijtimoiy muammolarni anglash, ularni bartaraf etishga undovchi g'oyalar markaziy o'rin egallaydi. Ijtimoiy tarbiyaning ahamiyatiga urg'u berar ekan, Abdurauf Fitrat quyidagi larni ta'kidlaydi: "Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun jamiyat a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa, jamiyatning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi" [9].

O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantirish borasidagi sharq mutaffakklarining qarashlari, shuningdek, o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolliklarini shakllantirish muammolari bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi tavsiya va xulosalarni berishimiz mumkin:

- Sharq mutaffakklarining pedagogik asarlarini o'rganish orqali o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslarini o'rganish;
- o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantirishga doir metodikani ishlab chiqish;
- o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantiruvchi omillarni aniqlash.

Yuqorida berilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda quydagilarni xulosa qilamiz: o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy

intellektini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirok darajasiga bog'liq bo'lib, shaxsnинг ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy intellektini shakllantirish, har bir o'quvchining umumiy kamolotini ta'minlash hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash yaxlit pedagogik jarayon sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi. Ularning ijtimoiy intellektini shakllantirishning mazmun-mohiyatini asoslash, uning metodikasini ishlab chiqish bugungi kuning pedagogik fanlar tizimi oldidagi muhim vazifasi sanaladi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy intellektini shakllantirish ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida aynan shu jarayonda namoyon bo'ladi hamda shaxsnинг jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga, xalqaro maydonda ro'y berayotgan voqeliklarga nisbatan munosabatida ko'zga tashlanadi.

Bularni nazariy asos sifatida qabul qilgan holda, "O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantirish" tushunchasini quyidagicha sharhladik:

- Ijtimoiy intellektini shakllantirishga oid ularda ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabatlarning aqliy asosga egaligi bilan tavsiflanuvchi faoliyat ko'rsatkichidir.
- O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy intellektini shakllantirish ular o'rtasida ijtimoiy munosabatni faollashtiruvchi ta'lif tarbiyani tashkil etish jarayonida qaror topadi.
- O'quvchi-yoshlarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar orqali ularda ijtimoiy intellektini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat turlarini tashkil etish orqali ular ijtimoiy intellektini shakllantiruvchi bilmalarni o'zlashtirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 6-son. 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF – 5712- sonli Farmoni. QHMMB: 0619/5712/3034-con, 29.04.2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rify ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4307-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumi o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-187-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-781 son qarori.
8. Norboyeva S.M. Talaba-yoshlar ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning etimologik asoslari(diniy-ma'rify negiz) // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar-Buxoro (2021 №6) –129 b.
9. Norboyeva S.M. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish. Metodik qo'llanma. – Termiz: Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti, 2021. – 43 b.



МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕНТАЛЬНЫХ КАРТ В ПРОЕКТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Фарзона Алимова,
к.пед.н., доцент ТГПУ им.Низами

Аннотация

В данной статье рассмотрены методические и практические аспекты использования техники «Ментальных карт» в учебном процессе. Мыслительные карты помогают развивать креативное и критическое мышление, память и внимание учащихся, а также сделать процессы обучения и учения интереснее, занимательнее и плодотворнее. Рассмотрены варианты применения данного метода, сочетающего информационные и педагогические подходы, в проективной деятельности педагогов по химии.

Ключевые слова: образовательный процесс, информационные технологии, проектная деятельность, ментальные карты, интеллектуальный потенциал, критическое мышление, визуализация, химия, оксиды.

Аннотация

Уибу мақолада таълим жараёнида “Ментал ҳариталари” техникасидан фойдаланишинг услубий ва амалий жиҳатлари муҳокама қилинган. Фикрлаш карталари ўқувчиларнинг исходий ва танқидий фикрлаши, хотираси ва эътиборини ривожлантиришига ёрдам беради, шунингдек, ўқув ва ўқув жараёнларини янада қизиқарли, мазмунли ва самарали қилади. Ахборот ва педагогик ёндашувлари бирлаштирган уибу усулни кимё ўқитувчиларининг лойиҳалаш фаолиятида қўллашвариантлари кўриб чиқилган.

Калим сўзлар: ўқув жараёни, ахборот технологиялари, лойиҳалаш фаолияти, ментал ҳаритаси, интеллектуал салоҳият, танқидий фикрлаш, визуализация, кимё, оксидлар.

Annotation

This article discusses the methodological and practical aspects of using the «Mental cards» technique in the educational process. Thought cards help to develop creative and critical thinking, memory and attention of students, as well as to make the learning and learning processes more interesting, entertaining and fruitful. The variants of application of this method, combining informational and pedagogical approaches, in the projective activity of teachers in chemistry are considered.

Key words: educational process, information technology, projective activity, mental map, intellectual potential, critical thinking, visualization, chemistry, oxides.

В условиях возрастающего роста объема доступной информации во всех сферах человеческой деятельности возникает объективная потребность в эффективных технологиях и приемах ее представления, анализа и систематизации. Этот аспект весьма актуален и в системе образования. Одним из дидактически оправданных элементов образовательного инструментария, удачно сочетающим педагогические и информационные технологии, является техника «интеллект-карт» (ментальные карты) [1, 254-258].

Ментальные карты (в оригинале Mind maps) — это инструмент визуального отображения информации, позволяющий эффективно структурировать и обрабатывать ее. Англоязычное словосочетание Mind map дословно переводится как «карта ума» («map» — карта, «mind» — ум). Встречаются и другие варианты перевода этого понятия: интеллект карта, карта мыслей, диаграмма связей или ассоциативная карта [2].

Ментальная карта представляет собой древовидную схему, на которой изображены слова, идеи, задачи или другие понятия, связанные ветвями, отходящими от центрального понятия или идеи. Ветви,

имеющие форму плавных линий, обозначаются и поясняются ключевыми словами или образами. Интеллект-карты (ментальные карты) являются разработкой Тони Бьюзена, британского писателя, лектора и консультанта по вопросам интеллекта, психологии обучения и проблем мышления. По мнению разработчика, интеллект-карта — это мощный графический метод, предоставляющий универсальный ключ к высвобождению потенциала, скрытого в мозге. Благодаря этому метод интеллект-карт может найти применение в любой сфере жизни, где требуется совершенствование интеллектуального потенциала личности или решение разнообразных интеллектуальных задач.

На сегодняшний день важными составляющими в профессиональной готовности будущего преподавателя становятся умения работать самостоятельно, добывать знания из разных источников продуктивными методами, направленными на формирование системных, целостных и полных знаний, применяя современные средства структурирования учебной информации.

Над вопросами комплексного использования ментальных карт в образовательном процессе работали Бершадский М.Е. [3, 203-212], Бершадская А.Е. [4, 49-63], Коцюба И.Ю. [5, 25-31], Шиков А.Н. [6, 600-611], М.Уразова [7], Ф.Алимова [8, 34-36; 9, 28-32] и другие. В своих исследованиях авторы выявляют области применения метода ИК в обучении:

- возможность глубокого анализа личности учащихся;
- разработка программы коррекции;
- стимулирование развития креативности обучающихся;
- формирование общекультурных компетенций (умение логически верно, аргументировано и ясно строить устную и письменную речь), готовность к кооперации с коллегами, работе в коллективе;
- развитие навыков, связанных с восприятием информации, ее переработкой и обменом;
- возможность реализовывать процесс обучения в более краткие сроки;

В своих исследованиях В.Э. Штейнберг предлагает использовать многомерные дидактические инструменты, позволяющие:

- показать всевозможные логические связи между элементами знаний,
- уплотнить и свернуть информацию,
- «перейти от неалгоритмизированных операций к алгоритмоподобным структурам мышления и деятельности» [10].

Ментальные карты уже нашли признание в таких областях, как:

-запоминание материала;

- обучение;

-упорядочивание и систематизация информации, в том числе конспектирование лекций, конспектирование книг;

-планирование деятельности, подготовка к выступлениям, подготовка материала по определенной теме;

-решение творческих задач;

-презентации;

-планирование и разработка проектов разной сложности;

-развитие интеллектуальных способностей;

- поиск решений в сложной ситуации и рассмотрение различных вариантов решения задач.

Благодаря очевидным преимуществам ментальные карты приобретают все большую популярность в сфере образования. Вот лишь некоторые из возможностей применения ментальных карт в работе педагога, рис.1.

Рассмотрим методологию Тони Бьюзена. Идея ментальных карт призвана помочь восстановить живые мысли, находящиеся за скучным текстом, или создать их, если использовать майндмэппинг в качестве инструмента для создания новых идей. Диаграмма связей, как еще называют данные карты, реализуется в виде древовидной схемы, на которой изображены слова, идеи, задачи или другие понятия, связанные ветвями, отходящими от центрального понятия или идеи.



Рис.1. Сфера применения ментальных карт в работе педагога.

Так, Mind Map, или Карта Ума, Карта Сознания, позволяет окинуть взглядом все сразу, все дерево. Линейный список этого не дает [11].

Основными правилами составления ментальных карт являются следующие:

- Для создания карт используются только цветные карандаши, маркеры и т.д.
- Основная идея, проблема или слово располагается в центре.
- Для изображения центральной идеи можно использовать рисунки, картинки. - Главные ветви соединяются с центральной идеей, а ветви второго, третьего и т.д. порядка соединяются с главными ветвями.
- Ветви должны быть изогнутыми, а не прямыми (как ветви дерева).

- Над каждой линией - ветвью пишется только одно ключевое слово.

- Для лучшего запоминания и усвоения желательно использовать рисунки, картинки, ассоциации о каждом слове.

- Разросшиеся ветви можно заключать в контуры, чтобы они не смешивались с соседними ветвями.

При использовании ментальных карт в образовательном процессе для организации проектной работы необходимо понимать принципы, лежащие в основе этого метода, и возможности реализации этих принципов с их помощью.

При помощи этого метода решается задача – дать систему обобщённых знаний. В результате применения ментальных карт у обучающихся формируются системные предметные знания и развиваются умения, необходимые для самостоятельного поиска, восприятия, переработки и присвоения информации.

В виде мыслительной карты можно изобразить либо весь процесс создания проекта, либо только результаты проекта. Любой проект разбивается на этапы. Эти этапы разбиваются на подэтапы... Если информация по проекту прописана в виде текста или таблицы, то часто в этих этапах и подэтапах легко запутаться. Представление проекта в виде ментальной карты позволяет увидеть и удержать в голове всю картину целиком.

В контексте исследуемого нами вопроса рассмотрим создание ментальных карт по химии, как продукта проективной деятельности обучающихся. Определяем цели и задачи осуществления проектной работы на примере темы «Оксиды».

Основной целью проекта – создание ментальных карт, способствующих развитию интереса к изучению темы, путем самостоятельного приобретения знаний, используя различные источники информации.

Задание проекта систематизировать знания о веществах, рассмотреть строение оксидов, их классификацию, выяснить какие химические свойства при-

сущи различным классам оксидов, их применение.

Этапы работы над проектом:

1-й этап. Определение темы для составления ментальной карты, сбор литературной, научной и справочной информации по теме, проведение его анализа.

2-й этап. Выясняют какие химические свойства присущи оксидам, как эти свойства веществ определяют сферу применения их в различных областях.

3-й этап. Изучение программ по составлению ментальных карт,

4-й этап. Оформление проектной работы в виде ментальной карты,

5-й этап. Представление работ.

Как известно Оксидами называются сложные вещества, состоящие из двух химических элементов, один из которых кислород.

Номенклатура оксидов. Названия оксидов строятся таким образом: сначала произносят слово «оксид», а затем называют образующий его элемент. Если элемент имеет переменную валентность, то она указывается римской цифрой в круглых скобках в конце названия [12, 46-57].

Классификация оксидов. По химическим свойствам оксиды делятся на две группы:

1) безразличные – не образуют солей, например: NO , CO , H_2O ;

2) солеобразующие, которые, в свою очередь, подразделяются на:

– основные – это оксиды типичных металлов со степенью окисления +1,+2 (I и II групп главных подгрупп, кроме бериллия) и оксиды металлов в минимальной степени окисления, если металл обладает переменной степенью окисления (CrO , MnO);

– кислотные – это оксиды типичных неметаллов (CO_2 , SO_3 , N_2O_5) и металлов в максимальной степени окисления, равной номеру группы в ПСЭ Д.И.Менделеева (CrO_3 , Mn_2O_7);

– амфотерные оксиды (обладающие как основными, так и кислотными свойствами, в зависимости от условий проведения реакции) – это оксиды металлов BeO , Al_2O_3 , ZnO и металлов побочных подгрупп в промежуточной степени окисления (Cr_2O_3 , Mn_2O_7).

Применение оксидов. Оксиды крайне распространены по всему земному шару и находят применение как в быту, так и в промышленности. Самый важный оксид – оксид водорода, вода – сделала возможной жизнь на Земле. Оксид серы SO_3 используют для получения серной кислоты, а также для обработки пищевых продуктов – так увеличивают срок хранения, например, фруктов. Оксиды цинка и титана имеют белый цвет и нерастворимы в воде, потому стали хорошим материалом для производства красок – белил.

Оксид кремния SiO_2 является основным компонентом стекла. Оксид хрома Cr_2O_3 применяют для

производства цветных зелёных стекол и керамики, а за счёт высоких прочностных свойств — для полировки изделий. Оксид углерода CO_2 , который выделяют при дыхании все живые организмы, используется для

пожаротушения, а также, в виде сухого льда, для охлаждения чего-либо. Созданный продукт- ментальная карта может выглядеть примерным образом, рис.2.




Рис.2. Ментальная карта по теме «Оксиды»

Современное общество заинтересовано в гражданах, которые умеют самостоятельно думать и решать разнообразные проблемы, обладают критическим и творческим мышлением, умеют работать в коллективе, обладают коммуникативными навыками. Методика обучения нового поколения требует использования в образовательном процессе технологий деятельностного типа, методы проектно-исследовательской деятельности. Технику ментальных карт можно применять для создания новых идей, фиксации идей, анализа и упорядочивания информации, принятия решений и много чего еще. Это не очень традиционный, но очень естественный способ организации мышления, имеющий несколько неоспоримых преимуществ перед обычными способами записи. Отношение к методике различается так же, как и люди, использующие ее. Мыслящих креативно привлекает в методике то, что она не втискивает их в какие-либо

рамки. Наоборот, она дает им свободу действий, которая, в свою очередь, положительно отражается на качестве результатов их мыслительной и профессиональной деятельности.

Применительно к обучению химии, ментальные карты являются альтернативой привычным линейным конспектам, позволяет за то короткое время, которое выделено на изучение материала, охватить весь объём, понять и запомнить. В процессе создания ментальной карты происходит накопление предметных знаний (кумулятивная функция) и их объединение в определенную систему (интегрирующая функция). При этом работает долговременная память.

Так как цель ментальных карт — наглядно отобразить сложную информацию и сложные взаимосвязи внутри нее, они тем самым способствуют ее лучшему запоминанию.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Галкина Л.А., Григорович Д.Б. Опыт применения техники «интеллект-карт» в образовательном процессе вуза. //Международный конгресс по информатике: информационные системы и технологии. Минск, 24–27 октября 2016. – 320 с.
2. Интеллект-карты, или Mind maps. Материалы сайта: https://e-asveta.adu.by/index.php/distancionni-vseobuch/obuchenie-online/sredstva-vizuali-zatsii-informatsii/59-mind_maps
3. Бершадский М.Е. Теоретико-практические аспекты работы с картами интеллект-понятий // Народное образование, 2012. □ №6. – 380 с.
4. Бершадская А.Е. Представление знаний учащихся в виде фреймов на основе метода интеллект-карт // Профильная школа, 2015. □ Т.3. □ №5. –168 с.
5. Коцюба И.Ю. Автоматизированный анализ интеллект-карт учащихся, применяемых для оценки усвоения учебного материала // Педагогическая информатика. □ Москва: ФГНУ Институт информатизации образования РАО, 2014. □ Вып. 3. – 200 с.
6. Шиков А.Н., Коцюба И.Ю. Интеллек-карты как средство е-дидактики в компьютерных технологиях обучения // Образовательные технологии и общество, 2015. □ Т.18. □ №1. – 805 с.
7. Уразова М. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности. Автореф. дис. ... доктор. пед. наук Ташкент: ТГПУ. 2015. –80 с.
8. Алимова Ф.А., Абдуллаева Н.А. «Ментальные карты в преподавании химии». // Materialien der xvi internationalen wissenschaftlichen und praktischen konferenz. 28. Februar - 7. März 2020. Volume 11, –100 с.
9. Алимова Ф.А. Ментальные карты в обучении химии, как средство развития познавательной активности учащихся // Muallim/Uчителъ /Teacher. №SI-2021, 54 с.
10. Штейнберг В.Э. Дидактические многомерные инструменты: Теория, методика, практика/ □ М.: Народное образование, 2002. □ 304 с.
11. Шибанова-Роенко Е.А., Лялина Т.Г. Интеллектуальные карты – как один из методов креативного обучения // I Международная научно-практическая конференция “Новые подходы в антикризисном управлении”. URL: <http://econf.rae.ru/article/7410>.
12. Нараев В.Н., Пахомова Т. Б., Александрова Е.А. Общая химия. Лань. 2020. –164 с.



QO‘QON ADABIY MUHITIDA ZULLISONAYNLIK AN’ANASI: MUQIMIY VA FURQAT IJODI MISOLIDA

Faxriniso Oxunjonova,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya

Milliy adabiyotimiz o‘zining keng mazmun mohiyatiga ega ekanligi bilan boshqa xalq adabiyotlardan alohida ajralib turadi. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Furqat, Muqimi Forsiy va turkiy g‘azallarining ma‘noz mazmuni, badiiy g‘oyasi, qurilishi haqida so‘z boradi. Ilmiy tadqiqotda tilga olingan milliy uyg‘onish ijodkorlarining badiiy asarlari haqida atroflicha tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Furqat, Muqimi, zullisonaynlik, devon, bayoz, ijtimoiy hayot, “Tazkirayi Qayyumi”, milliy adabiyot.

Аннотация

Наша национальная литература отличается от других народных литератур широким спектром содержания. В статье рассматриваются значение и конструкция персидских и турецких газелей Фурката Мукими жившего во второй половине XIX века. В исследовании дается подробный анализ произведений искусства рассматриваемых национальных возрожденцев.

Ключевые слова: Фуркат, Мукуми, диван, баёз, жизнь, национальная литература, “Тазкираи Кайюмий”.

Annotation

Our national literature differs from other folk literatures in that it has a wide range of content. The article deales with the meaning and construction of the Persian and Turkish ghazals of Furkat, Muqimi, who lived in the second half of the 19th century. A detailed analysis of the works of art of the national awakening artists mentioned in the research.

Keywords: Furkat, Mukumi, divan, bayoz, life, national literature, Tazkirai Kayyumi.

Qo‘qon adabiy muhitida XIX asrning ikkinchi yarmida ham zullisonaynlik an’anasini keng quloch yozdi. Dastlabki qadamni Muqimiyy, Furqatlar boshlab bergan bo‘lsa, keyingi ikki tillilik an’anasini Nodim Namongoniy, Muh-siniy, Haziniy, Hazin, G‘urbatiy, Xilvatiy singari minglab shoirlar davom ettirdilar.

Bu davrning eng ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan biri Muqimiyy deb bemalol ayta olamiz. Shoir faoliyatini o‘rganishni dastlab “oqsoqol” shoirimiz G‘afur G‘ulom boshlab bergan bo‘lsa, keyinchalik bu mavzuni H.Yoqubov “O‘zbek shoiri Muqimiyy”, A.Olimjonov “Muhammad Amin Muqimiyy”, H.Razzaqov “Muqimiyy va Zavqiy” kabi kitoblar, O.Jo‘rabo耶vning maqolalarida shoir faoliyatining bir qirrasini ochib berdilar. Hatto G‘.Karmov ayni shu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini yozdi. Ammo O.Jo‘rabo耶v ta’biri bilan aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab o‘tgan Muqimiyy ijodidagi forsiy g‘azallariga katta e’tibor berilmagan [1, 43] yoki to‘laqonli ish olib borilmagan. Vaholanki, 1912-yilda chop etilgan devonida forschalar she’rlari bor edi. Keyingi tadqiqotlarda ham bu narsa tasdiqlandi. “Tazkiri Qayyumiyy”da bu haqda hech qanday ma’lumot uchratmadik. Lekin uning Buxoroda tahsil olib, u yerdan zo‘r shoir bo‘lib qaytganligi haqida eslatmalar mavjud. Biz ham tadqiqot ishimiz davomida Muqimiyyning zullisonayn shoirligiga isbotlar topdik. Xususan, Oqjar paromida pattachilik hayotini aks ettirgan “Dar mardumi Oqjar ba tariqi muxamma” satirasi, Shayx Sulaymon bilan keskin munosabatilarini aks ettirgan “Rohati jovid” sarlav-hali she’ri, 10 ming misradan ortiq me’rosining salkam 4 ming misrasi fors-tojik tilida bitilgan [2, 44].

Muqimiyyning she’rlari o‘zi tomonidan alohida devon yoki majmua qilinmagan. Uning she’rlari faqatgina turli bayozlarda uchraydi. Jumladan, O‘zRSh instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 7521, 1325, 9309 raqamlar ostidagi bayozlarda Muqimiyyning 199 ta she’riy asari mayjud. Keyingi izlanishlar mazkur bayozda 228 ta she’r bo‘lib, shundan 208 tasi Muqimiyy qalamiga mansub ekanligi aniqlandi.

Muqimiyy ijodini 4 manba orqali o‘rganish mumkin:

- 1.Qo‘lyozmalar
2. Kolleksiylar
3. Revolutsiyadan oldingi matbuot materiallari
4. Og‘zaki manbalar. Manbalarning guvohlik berishicha, Muqimiyy o‘zbek xalqining ulug‘ shoiri Navoiyning, fors adabiyotining yirik namoyondasi Abdurahmon Jomiyning, ozarbayjon shoiri Ganjaviy, Fuzuliy asarlarini zo‘r ishtiyoyq bilan o‘rgandi. Uning Navoiyning bir g‘azaliga juda chiroyli taxmis bog‘lagani turkiy adabiyotdan chuqur bilimga egaligini namoyon etadi:

Dahr bo‘stoni aro sarvi ravone topmadim,
Aytura rozi nihonim rozdone topmadim.
Ko‘ksumi qildim nishon, abro‘kamone topmadim,
Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim.
Jon base qildim fido, oromi jont topmadim...

Muqimiyy fors-tojik adabiyoti ulug‘ namoyandasib Abdurahmon Jomiyni o‘ziga ustoz deb biladi. Shoirning lirik merosi ichida Jomiya bag‘ishlab yozilgan bir necha she’rlari uchraydi. Muqimiyyning Jomiya bo‘lgan ixlosi va muhabbatini ko‘rsatish jihatidan “Mekuni yo ne?” radifli muxammasi xarakterli.

Muqimiyyning XIX asr oxirida yozilgan 54 misrali “Tarixi zilzilai Andijon az Mavlono Muqimiyy” she’riy asari ijtimoiy hayotdagi fojiani fors tilida tasvir etgan.

“Tazkiri Qayyumiyy” asari muallifi quyidagicha eslaydi, Muqimiyy haqida: “...boshlang‘ich maktabning mahalla masjidida tamom etib Madrasayi Muhammad Alixonda shayxul islom Ulug‘on to‘raning o‘zida qolmish Mulla Xolmuhammad domullada tahsil ko‘rub, so‘ngra Buxoroga ketib itmom etib keldi. Biroq Buxoro safaridan ham oldin Navoiy, Fuzuliy asarlari ila tanishib o‘zida adabiyotga havas paydo etmish. Buxoroda esa bu havas zi-yodalashib, she’ri quvvat paydo etib fors shoirlaridan o‘z havasini takomillashtirishga urinadur...” [2, 34]

Muqimiyyning bugunga qadar darsliklarga “Bideh” (Bergil) radifli g‘azali berib o‘tilgan. “Bog‘ aro” kitobida 10 ga yaqin forschalar she’rlari nashr etilgan.

Mazkur g‘azalda Muqimiyy o‘zining tarjimayi holini bergen desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi, manbalarda shoirning juda qashshoqligi, haqgo‘yligi tufayli o‘z davrasidan biroz chetroqda yurishi ta‘kidlanadi. Maqta’dagi Muhyi bilan bo‘lgan munosabati izohining “Tazkiri Qayyumiyy”da berib o‘tilganligini eslatib o‘tdik.

Muqimiyy ijodi o‘z davridayoq o‘rganila boshlangan. Bu holat hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Shoir ijodi bo‘yicha qilingan ilmiy ishlar bu mavzuning abadiylikka daxldorligini bildiradi.

Muqimiyy bilan bir safda, bir zamonda qalam tebratgan Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ham o‘z davrinning yetuk shoirlaridan biri bo‘lgan. Furqat haqida “bu shoir Xo‘qand shahridan bo‘lub, nomi Zokirjondur... mahalladagi qadim maktabida xat savodli bo‘lgach, madrasayi Muhammad Alixonda tahsilni davom ettirib, forsiy va arabiylar surʼati ilo qurʼani xabardor bo‘ldi...” “Furqatning bir muhri bor edi. Bunda esa “Jigar dog‘ast Zokirjon Furqat” deb yozilgan edi”, deyilgan ma’lumotlarni topdik. Bu asarda Furqat ijodi va shaxsiyatiga juda katta baho beradi.

Zokirjon Furqat XIX asr ikkinchi yarmida jamiyatning eng ilg‘or kishilaridan edi va shu paytning aktual muammolarini qalamga oldi. O‘zi ana shu ezgu g‘oyalarni amalga oshirishda ijrochi bo‘ldi.

Furqat oliyanob g‘oyalarni faqat she’rlarda aks et-tirmay, publisistik asarlar ham yozdi. Uning maqolalar “Turkiston viloyatining gazeti”da tez-tez bosilib turar edi: “Odamzodning ko‘ngli misoli bir ma’dandurkim, ul ma’dandin oltun va kumush chiqodur. Va ba’zi ko‘ngul bir ma’danedurkim, andin mis va qalay chiqodur. Man o‘ylaymankim iksir ilmidin bahra topsa, aning sharofati birla

mis va qalaylik martabasidin chiqib, tillo va kumushlik darajasiga yetadur. Andin odamzodg'a ko'p foydalar yetadur... ... bas, mis va qalay ko'ngullik odamga lozim-durkim, riyozat qo'rasida ko'ngullarni gudoz berib gil-u g'ash rutubadidin tozalab, qobili asbob qilsalar va balki ilm iksiri birla oltun va kumushga mubaddal qilsalar. (Zokirjon Furqat)"

Bu maqola yozilishining sababi shunday: "Turkiston viloyatining gazeti"da 1890-yil 36-sonida bir rus tilidiagi she'rning tarjimasi chiqadi, ana shu she'rning badiiy ma'nosini gazetaning 40-sonida sharhlab o'tadi. Ummumani, uning xoh publitsistik, xoh she'riy asarlarida haqiqiy insoniy tuyg'ular, xalqning pokiza orzulari, iztiroblari haqida o'z aksini topadi:

Kishi holimni bilmas mehribonidin adashgonman,
Vatan ovoradurmen, do'stonidan adashgonman,
Vatansiz benavodurmen, makonidan adashgonman,
G'aribi ko'yи g'urban, xonumonidin adashgonman
Va yo bir murg'i vahshiy – oshyonidin adashgonman.

Shoirning yuksak darajada she'r yarata olish qobiliyatiga sabab, bizningcha, uning, avvalo, Alloh yuqtirgan is-te'dodi, yana shu o'rinda boshqa millat, ta'bir joiz bo'lsa, o'zbek millatidan ilg'orlab ketgan xalqlar adabiyoti bilan yaqindan tanishligi, e'tibor qaratish lozim bo'lgan tarafi esa uning aruz ilmini mukammal bilganligidir. Buning natijasi o'laroq Furqat she'riyatda shakl va mazmunning o'zaro mutanosibligini o'rniga qo'ya oldi. Jumladan, bu haqda shoirning o'zi shunday deydi:

Na hol o'lsa anga muvofiq qilib.
Yana ramzu mazmunga loyiq qilib,
Baharhol so'z bo'lsa, takrir etib,
Qilurmiz bayon elga tahrir etib.

Shoir ijodini o'rganish uning tiriklik vaqtidayoq boshlangan. 1913-yilda Muqimiy bilan birgalikda Furqatning ham bir necha she'rlari jamlangan bayoz chop etildi. Bundan keyin uning juda ko'p ijodiy ishlari turli gazeta va jurnallarda, bayoz-u to'plamlarda bosilib turdi. Shoirning ijodini o'rganish 30-yillarda boshlandi. 1951-yilda Furqatning "Tanlangan asarlar"i chop etilgan bo'lsa, 1954-yil X.Rasulning "Zokirjon Furqat ijodi" monografiyasini va "Furqat – ma'rifatparvar demokratik shoir" kitob-

lari nashrdan chiqdi. Bu mavzuda S.Abdulla, I.Mo'minov, L.Qayumov kabi adabiyotshunoslar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. 1959-yilda Furqatning ikki jildli "Tanlangan asar"lari dunyo yuzini ko'rdi. Aynan shu asarlar boshqalariga nisbatan ancha mukammal bo'lib, 15 dan ortiq janrdagi she'rlari jamlangan. Bu she'rlarining mavzu-g'oyasi xilma-xilligi bilan diqqatni tortadi.

Ilmiy tadqiqotlarning birida Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1900 raqami bilan saqlanayotgan bayozda 29 ta shoir she'rlari jamlangan bo'lib, shu bayoz Furqatning 5 ta forsiy g'azallari borligini ko'rsatadi. [3, 149]

Furqatning ijodiy merosi 8800 misrani tashkil qilib, bugungi kunda turli bayozlarda jamlangan. Afsuski, Zokirjon Furqatning hali juda ko'p ilmiy merosi topilmanagan. Ammo A.Qayumovning shaxsiy fondida Furqatning Po'latjon Qayumov tomonidan tuzilgan Furqat qo'lyozma Devoni saqlanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bunda Furqatning 152 g'azal, 19 murabba, 8 muxammas, mustazod, 7 maktub va qasidalari mavjud.

Bundan tashqari, Furqat haqida shu narsalar ma'lumi, uning naqadar serqirra ijodkor ekanligiga dalildir: "Hammomi xayol" risolasini nazm silkina chektim va "Chor darvesh" hikoyatikim fors lisonda erdi, ani zebo iboralar bilan turk zabong'a tabir berdim va bir fazilat panoh do'stum iltimosi bilan "Nuh manzar" nom bir kitobni turkiy manzuma ayladim".

Furqat qaysi tilda she'r bitmasin, uning g'oyalari bir-biridan farq qilmaydi. Mahbuba visoli, yurt qayg'usi, sog'inch, millat ilmi haqida ikki tilda ham tengsiz baytlar yaratdi.

Furqat va Muqimiy shoir sifatida qayda bo'lmasin, o'zligini, milliyligini yo'qotmadni. Milliy adabiyotimizda yangi davr boshladi, ayni paytda mumtoz adabiyotimiz an'analarini davom ettirdilar.

Bizning fikrimizcha, uyg'onish adabiyoti ijodkorlarning barchasidagi badiiy pafos va badiiy tasvir vositalarini o'rganish bugungi adabiyotimizning muhim masalalaridan biridir. Shu munosabat bilan barcha mutaxassislara fors va arab tili asosida yaratilgan milliy adabiy merosrimizni tadqiq qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'raboyev O. Muqimiy qo'lyozmalaridagi forsiy she'rlar// Sino. 2007. T. № 28. – 140.
2. Qayumov P. Tazkirayi Qayumiy-T: Sharq, 1999. –500.
3. Ahrorova G. Furqatning tojikcha she'rlari. Furqat ijodiyoti. –T.: Fan, 1990. – 300.
4. Qayumov A. Furqat ijodiyoti. –T.: Fan, 1990. –280.
5. Furqat. Tanlangan asarlar II tomlik. –T.: 1959.1-tom. –254.



FIZIKA O'QITISHNI LOYIHALASHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI

Maftuna G'ulomova,

Qo‘qon davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishning bugungi holati, xalqaro baholash dasturlari haqida, tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari haqida ma’lumotlar berilgan. Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida fizika fanini o‘qitishni loyihalash masalasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro baholash tizimi, PISA, TIMMS, STEAM, kompetensiya, ko‘nikma, loyiha, tanqidiy fikrlash, tabiiy fanlar.

Аннотация

В этой статье представлена информация о текущем состоянии преподавания физики, международных программах оценки и компетенциях в области естественнонаучной грамотности. Были высказаны мнения о проектировании преподавания физики в соответствии с требованиями международных оценочных программ.

Ключевые слова: Международная система оценивания, PISA, TIMMS, STEAM, Компетенция, Навыки, Проект, Критическое мышление, Естественные науки.

Annotation

This article provides information on the current state of physics teaching, international assessment programs, and natural science literacy competencies. Opinions were expressed on the design of physics teaching in accordance with the requirements of international assessment programs.

Keywords: International Assessment System, PISA, TIMMS, STEAM, Competence, Skills, Project, Critical Thinking, Natural Sciences.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzlusizligini ta’minalashga erishish masalalari doimo pedagogika sohasi vakillarining diqqat-e’tiborlari markazida bo‘lib kelgan. Ushbu masalalarni hal qilishda ta’limni loyihalash masalasi asosiy o‘rinni egal laydi. Ta’limni loyihalash ta’lim jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonini loyihalashda o‘quvchilarining umumiyligi faoliyatlarini nazorat qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda o‘quvchilarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida xalqaro baholash tizimidan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2017-yil 16-sentabrdagi 299-sonli “2017-2017- o‘quv yilida ta’lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish tog‘risida”gi buyrug‘ida Monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg‘or xalqaro tajribalar (PISA, TIMMS va hk.)ni o‘rgangan holda, milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o‘quv-metodik jarayonni yana ham rivojlantirish choralarini ko‘rish; Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlari, so‘rovnama, og‘zaki savollar, audio, video) materiallarni tayyorlashda ularning umumiyligi hajmiga nisbatan 20 foizgacha o‘quvchilarining psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o‘quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMMS va hk.) qo‘llanilgan

materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo‘yilgan edi [1].

Ushbu ta’lim islohotlarining davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi va quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o‘rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan vazifalar berildi:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiyligi o‘rtalagi

muassasalarida o'qitish va ta'lif olish muhitini hamda o'qituvchilarining ish sharoitlarini o'rganish uchun. [2]

Xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning savodxonliklarini baholashda tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'naliishi asosiy o'rinni egallaydi va PISA dasturida ilmiy savodxonlikni baholash orqali o'quvchilarning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olish darajalarini aniqlash mumkin. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda fizika fanining tabiat, texnologiya, kundalik turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi fanni o'quvchilarga o'rgatishda xalqaro baholash dasturlari talablari asosida loyihalash zarur ekanligi kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtida umumiy o'rta ta'lifda fizika ta'lifining joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quydagilar ma'lum bo'ladi:

Xalq ta'limi vazirligi tizimida 11 yillik ta'lif joriy qilinishi va o'rta maxsus kasb hunar ta'limi tizimining funksiyalari o'zgarishi hisobiga fizika fanini o'qitish mazmuni va metodikasining rivojlanishida muktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta'lif-tarbiya berishda ayrim kamchiliklar yuzaga kelgan. Jumladan:

- fizika fanining o'quv-metodik ta'minoti (o'qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va bos-hqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

- o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo'limgani va mavzularining o'qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasini inobatga olinmaganligi;

- fizika eksperimental fan bo'lishiga qaramay, fizika xonasining moddiy-texnik bazasining eskirganligi, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan yetarli darajada jihozlanmaganligi;

- fizika va astronomiya fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

- umumita'lif muassasalarida fizika va astronomiya fanini o'qitish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi;

- dars jarayonida nazariyaning amaliyat bilan bog'liqligi yetarli emasligi;

- o'quvchilarda izlanish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyiha ishi, o'quv tadqiqot ishi kabi amaliy faoliyatlarga e'tibor qaratilmaganligi;

- darsliklarni yaratish tizimida raqobat (alternativ darsliklar)ning yo'qligi;

- o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini baholash tizi-mi yaratilmaganligi;

- STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berishda umumita'lif fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratilmaganligi;

- o'quvchilarning tanqidiy, mantiqiy fikrashi va amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baho-

lash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy mashg'ulotning metodikasi ishlab chiqilmaganligi;

- O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladi-gan fizika fani mazmuniga texnikmuhandislik, roboto-texnika, asbobsozlik, tekommunikatsiya, nanotexno- logiya elementlarining kiritilmaganligi. [3, 9]

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etishda fizika o'qitishdagi xalqaro tajribani o'rgangan holda, fizika o'qitishning milliy tizimini yaratish lozim bo'ladi. Fizika fanini xalqaro baholash dasturlari talablari asosida loyihalash, asosan, muktab ta'lifi o'quv-metodik ta'minotini xalqaro baholash dasturlari vositasida tashkil etishda namoyon bo'ladi. Bunda STEAM zamon talabla-ri asosida xalqaro miqyosda o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berishda umumita'lif fanlari bo'yicha fanlararo bog'la-nish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratish va o'quvchilarning tanqidiy, mantiqiy fikrashi va amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy mashg'ulotning metodikasi ishlab chiqish zarurdir. Ta'lif berishda o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim:

- Hodisalarini ilmiy jihatdan tushuntirish kompe-tensiysi – texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash. Bunda quyidi-gi ko'nikmalar namoyish etiladi:

- tabiiy yo'nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;

- izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yara-tish va ulardan foydalanish;

- tegishli prognozlar qilish va asoslash;

- izohlovchi farazlarni taklif etish;

- ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

- Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kom-petensiysi – ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo'llarini taklif etish. Bunda quyidagi ko'nikmalar namoyish etiladi:

- berilgan ilmiy tadqiqotda o'rganilayotgan muammoni aniqlash;

- ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo'lgan savollarni farqlash;

- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;

- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;

- ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligin ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash.

- Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kom-petensiysi – turli ko'rinishdagi ilmiy ma'lumotlar, dalillarni tahlil qilish va baholash hamda tegishli xulosalar chiqarish. Bunda quyidagi ko'nikmalar namoyish etiladi:

- ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifodalash;
- ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda te-gishli xulosalar chiqarish;
- ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash;
- ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulo-hazalarni ilmiy bo'lmagan boshqa qarashlardan farqlay olish;
- turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, internet)dan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash. [4, 64-65]

Shunday qilib, o'quvchilarda yuqorida keltirilgan kom-petensiylar shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarni tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashish, o'zi yashab turgan atrof-muhitdagi jarayonlardan xabardorlik, befarq bo'lmasslik, tabiiy fanlarga qiziqti-rish, duch keladigan muammoli vaziyatlarda tabiiy fanlar bo'yicha egallangan bilimlardan to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim loyiha-lari asosida fizika o'qitishni loyihalashtirish o'quvchilarni xalqaro talablar asosida bilimlarni egallab, kelajakda raqo-batbardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2017-yil 16-sentabrdagi 299-soni "2017-2017- o'quv yilida ta'lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish tog'risida" gi buyrug'i.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-soni "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.*
3. *"Fizika fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzlusiz ta'lim milliy o'quv dasturlari" Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi loyihasi.*
- T.: *"Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish illiy markazining matbaa bo'limi"*, 2021. – 9-b.
4. *U.N.Tashkenbayev. "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma I". – T.: "O'qituvchi", 2020. – 64-65-b.*



LEXICAL-SEMANTIC AND STRUCTURAL FEATURES OF EMOTIONAL RELATION VERBS IN ENGLISH

Tursunoy Uralova,

Nurafshan branch of Tashkent University of Information Technology named after Muhammad AL Khorezmi

Abstract

The unique behaviors of emotional predicates have long been studied as a central issue in developing theoretical accounts for the interaction of lexical semantics and argument realization. There are given main information about Lexical-semantic and structural features of emotional relation verbs in English in this article.

Key words: Lexical-semantic, English, emotional experiences, emotional verbs, lexicon, emotional relation verbs.

Annotatsiya

Emotsional munosabatdagi fe'llarning o'ziga xos xatti-harakatlari uzoq vaqtidan beri leksik-semantikaning o'zaro ta'siri va argumentlarni amalga oshirishning nazariy hisoblarini ishlab chiqishda markaziy masala sifatida o'rganilib kelinmoqda. Ushbu maqolada ingliz tilidagi emotsiyonal munosabat fe'llarining leksik-semantik va strukturaviy xususiyatlari haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Leksik-semantik, ingliz tili, emotsiyonal kechinmalar; emotsiyonal fe'llar, leksika, emotsiyonal munosabat fe'llari.

Аннотация

Уникальное поведение эмоциональных предикатов давно изучается как центральный вопрос при разработке теоретических объяснений взаимодействия лексической семантики и реализации аргумента. В статье приведены основные сведения о лексико-семантических и структурных особенностях глаголов эмоционального отношения в английском языке.

Ключевые слова: лексико-семантический, английский язык, эмоциональные перевживания, эмоциональные глаголы, лексика, глаголы эмоционального отношения.

English has a thousand-year history. During this time, English collected many phrases that people found successful, well-aimed and beautiful. Thus, a separate layer of language - phraseology, a set of phrases with independent meanings - emerged. English language learning is widespread in our country. Good knowledge of the language, including English, is not possible without knowing its phraseology. Knowledge of phraseology makes it significantly easier to read both fiction and nonfiction literature. The judicious use of phraseological units makes speech idiomatic.

Emotion is essential to human experience and constitutes an important semantic domain in the lexicon. From the perspective of cognitive semantics, the way an event or state is conceptualized affects the way it is expressed in a language. There are systematic lexical and constructional patterns that associate meanings with overt linguistic forms. Given the non-physical, non-tangible nature of emotions, it is quite revealing to see how emotions are conceptualized and encoded in the lexicon of a given language. As some researchers assert, experiences of emotions may be included as conceptual archetypes that provide the cognitive foundation for linking basic grammatical constructs with semantic characterization. In general, emotions are viewed as forces and emotional experiences are treated as causal-evaluative events. Linguistic evidences also show that conventionalized expressions of emotion are highly metaphorical and metonymic in nature, pertaining to embodied experiences of physiological reactions. At the lexical level, languages may vary in choosing to lexicalize different facets of emotion and highlight different participant roles as most essential in meaning. As researcher observes, emotion terms are semantically diverse and cannot be neatly matched with concepts in other languages or cultures. This study takes on the task of exploring the conceptualization and lexicalization of emotional states/events in the English verbal lexicon and looks further into the possible range of typological variations in lexicalization patterns of emotion. As lexical semantics plays an increasingly significant role in linguistic research, the study of emotional predicates provides the key to exploring the interaction between syntax and semantics, lexicon and construction, and ultimately advances our understanding of the nature of "semantic-to-surface association", which is believed to be the essential challenge in exploring the cognitive basis of grammar. Emotional predicates (hereafter EPs), also termed as mental verbs, verbs of psychological state or psych-verbs, psychological predicates, or verbs of affect, refer to the class of lemmas that encode a state or an event involving an internal, affective experience. In the literature, there is a wealth of studies investigating this class of verbs since they pose interesting problems for argument structure assignment and semantics to-syntax mapping theories. Under the different theoretical accounts lies a more fundamental issue, i.e., in what ways emotional experiences are conceptualized

and lexicalized and to what extent languages may vary in distinguishing and categorizing emotional affects. To address the concerns, the present study will explore the semantic distinctions lexicalized in English EPs and identify the ranges of form-meaning associations peculiar to the lexical subclasses, as compared to those in Uzbek and other languages. It ultimately probes into the conceptual bases underlying the lexicalization patterns characteristic of the English emotion lexicon.

As suggested previously in the literature, Stimulus and Experiencer are the two major roles involved in emotion predication. An EP may lexically encode the state of a human Experiencer or the attribute of an external Stimulus, giving rise to the traditional dichotomy of two subclasses, Experiencer-as-subject (e.g., fear/like) vs. Stimulus-as-subject (e.g., frighten/ please):

(1)

- a. Stimulus as subject: That frightens me.
- b. Experiencer as subject: I fear that.

Besides the contrast in subject roles, there are other morpho-syntactic and semantic contrasts in English that need to be further examined, such as the contrast between an adjectival and verbal predicatea, as in 2; the contrast between a transitive and intransitive verbal predicateb, as in 3; the contrast between an adjectival passive and a verbal passive, as in 4:

(2) Verbal vs. adjectival predicate

- a. Experiencer-as-subject I envy him. I am envious of him.
- b. Stimulus-as-subject This excites me. This is exciting to me.

(3) Transitive vs. Intransitive predicate

- a. Experiencer-as-subject I like this. I delight in this.
- b. Stimulus-as-subject This attracts me. This appeals to me.

(4) Adjectival vs. verbal passive (with by-PP)

- a. I am frightened with that.
- b. I am frightened by that.

The eventide predication will normally correspond to the verbal passive, indicating a semantic distinction from the adjectival passive. While some of these issues have been dealt with in previous works, few studies have given a comprehensive analysis of the full range of grammatical distinctions in the emotional lexicon. A closer examination of the major works on the lexical semantic distinctions of English reveal that besides the two commonly recognized participant roles, Experiencer and Stimulus, another semantically distinct and non-decomposable role, Affecter, is also prominent in emotional predication, as it profiles a higher degree of volitional impact. Affecter can be defined in relation to the notion of affectedness that is taken to be a scale of change the theme participant undergoes. Different from the non-sentient Stimulus, an Affecter volitionally instigates an internal change on an Affectee in a more dynamic and eventive manner. With the postu-

lation of Affecter, a three-way distinction of lexicalization patterns is in place that is syntactically attested in English. Namely, EPs may lexicalize either an Experiencer, a Stimulus, or an Affecter as the subject, with different implications of eventivity and degree of affectedness. The distinction of three types of subject roles correspond nicely to the three-way case distinction that surfaces in some Indo-European languages that have three different cases for EP subjects. It also helps to account for the stative vs. eventive. The proposed three-role scheme thus provides a sound basis for lexical semantic categorization as well as cross-linguistic comparison. While verbs can be categorized into different subtypes based on subject role selection, languages may vary in terms of the predominant and preferred pattern of lexicalization as a particular role may be most frequently chosen in the emotion lexicon. In view of the saliency of subject roles in determining the subtypes of EPs, the study further probes into the range of form-meaning mapping principles realized in polysemous relations as well as the grammatical means typically drawn upon to encode a subject role shift. It is found that the British emotion lexicon is unique and differs from the known European languages in two respects. First, England lacks readily lexicalized Stimulus-subject verbs, i.e., equivalents to English verbs such as interest, please, and frighten. Instead, a range of constructional templates are unutilized to derive Stimulus-subject EPs that are semi-lexicalized and morphologically-open. Secondly, English EPs display a unique spectrum of polysemous relations in that the same verb form may be associated with multiple subject roles and grammatical functions, demonstrating a heterogeneous range of form-meaning mismatches. As can be seen from the italic numbers in the chart, Exp-subject uses are more frequent than Stim-subject uses. In view of the above three criteria, English is considered to be Experiencer-prominent. It is typologically contrastive to English, a Stimulus-prominent language. It remains questionable to see if any language is Affecter-prominent, profiling a more dynamic view of emotional events. Based on the English data, it may be speculated that Experiencer-prominence may be more common than Stimulus-prominence cross-linguistically, since Stimulus-subject EPs

are not readily available in English. Further cross-linguistic research could help to establish a more substantial typological account.

To sum up, an emotion event is conceptually modeled upon a causal relation, involving a Cause, a Causee, a caused State, and a subsequent Response. The underlying causal relation can be projected with two plausible perspectives to highlight two kinds of thematic relations with two distinct sets of semantic roles: a stative-causative relation between a Stimulus and an Experiencer and an affective impact between an Affecter and an Affectee. Verbs of emotion may take on a particular perspective and select varied participant roles as the subject. Previous studies focused mainly on the Stimulus to Experiencer relation and suggested two types of subject orientation: Stimulus as subject vs. Experiencer as subject. However, based on lexical-constructional variations displayed in Mandarin as well as other languages such as Uzbek, a third type of subject selection is added in this study that profiles an affective impact from the Affecter to the Affectee. Thus, a three-way differentiation in lexicalization patterns can be made for emotion predicates: Stimulus-oriented, Experiencer-oriented, or Affecter-oriented. The subject role types interacting with constructional types (transitive vs. instructive) give rise to five subclasses of attested emotion predicates as shown in the Appendix. While all the lexicalization patterns may co-exist in a language, a certain pattern might stand out as the predominant pattern, based on three criteria: constructional unmarkedness, lexical status, and frequency. A three-way typological distinction is then in place to account for language-specific as well as cross-linguistic variations. Finally, this study bears a significant theoretical implication: English emotion verbs demonstrate a continuum of formmeaning pairing relations as realized in the lexical to constructional associations characteristic of English. Moreover, the fact that English utilizes constructional means to derive lexical entries demonstrates that lexical and constructional entities form a continuum along the same dimension of form-meaning associations, supporting the theoretical premises of Construction Grammar.

REFERENCES:

1. Johnson-Laird, P. N., & Oatley, K. (1989). *The language of emotions: An analysis of a semantic field*. *Cognition and emotion*, 3(2), 81-123. <https://doi.org/10.1080/0269938908408075>
2. Bondarchuk, N., & Bekhta, I. (2021). *Quantitative Characteristics of Lexical-Semantic Groups Representing Weather in Weather News Stories (Based on British Online Press)*. In *CEUR Workshop Proceedings* (Vol. 2817, pp. 799-810). <http://ceur-ws.org/Vol-2870/paper59.pdf>
3. Gennari, S., & Poeppel, D. (2003). Processing correlates of lexical semantic complexity. *Cognition*, 89(1), B27-41. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0010027703000696>
4. Sheng, L., McGregor, K. K., & Marian, V. (2006). Lexical-semantic organization in bilingual children: Evidence from a repeated word association task. <https://pubs.asha.org/doi/full/10.1044/1092-4388%282006/041%29>
5. Pavlenko, A. (2002). Emotions and the body in Russian and English. *Pragmatics & Cognition*, 10(1-2), 207-241. <https://www.jbe-platform.com/content/journals/10.1075/pc.10.12.10pav>
6. Grafmiller, J. (2013). *The Semantics of Syntactic Choice an Analysis of English Emotion Verbs* (Doctoral dissertation, Stanford University). <https://search.proquest.com/openview/4fa1db280d17c99067f2379ed8975578/l?pq-origsite=gscholar&cbl=44156>

**“D.I.MENDELEYEVNING DAVRIY QONUNI VA DAVRIY SISTEMASI” MAVZUSINI
O’QITISHDA O’QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

Dildora Sarimova,
Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish hududiy markazi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiyoq o’rta ta’lim maktablari 11-sinf o’quvchilarida “D.I.Mendeleyevning davriy qonuni va davriy sistemasi” mavzusining o’qitilishi bo’yicha tavsiyalar berilgan. Davriy sistema va uning tuzilishi, davrlar, katta davr, kichik davr va ularda elementlarning joylashuvi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan. Mavzuni o’qitishda samarali usullar va o’quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantruvchi tajribalardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Davriy sistema, davriy qonun, davr, katta davr, kichik davr, tajribalar.

Аннотация

В данной статье даны рекомендации по преподаванию темы «Периодический закон и периодическая система Д.И. Менделеева» учащимся 11 класса общеобразовательной школы. Представлены сведения о периодической системе и ее структуре, периодах, большом периоде, малом периоде и расположении элементов в них. Представлены примеры эффективных методов преподавания предмета и опыта, развивающие мыслительные способности учащихся.

Ключевые слова: Периодическая система, периодический закон, период, большой период, малый период, эксперименты.

Annotation

In this article, recommendations are given on teaching the topic «D.I. Mendeleev’s periodic law and periodic system» to 11th grade students in general secondary schools. Information on the periodic system and its structure, periods, major period, minor period and the arrangement of elements in them is given. Examples of effective methods of teaching the subject and experiences that develop students’ thinking skills are presented.

Keywords: Periodic system, periodic law, period, big period, small period, experiments.

Hozirgi kunda umumiyoq o’rta ta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o’quvchilar kimyo sanoatining har soha ga kirganligini anglagan holda, mazkur fanning asoslari ni bilishi, ta’lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko’nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanganligini his qilishi zarur. Bunda mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, yangi va zamonaviy bosqichga ko’tarish zarur.

Shuningdek, kimyo fani moddiy-texnika bazasini yangilash, zamonaviy jihozlar bilan ta’minalash, mavjud oliy ta’lim muassasalarida o’qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifatini bugungi kun talablariga mos takomillashtirish va ularni o’qitishni tubdan qayta ko’rib chiqish hamda zamon talablariga mos ravishda yangilashni taqozo etmoqda. Shuning uchun mazkur maqolada umumiyoq o’rta ta’lim maktablarining 11-sinf o’quvchilariga “D.I. Mendeleyevning davriy qonuni va davriy sistemasi” mavzusi o’qitilishida foydali tavsiyalar berib o’tilgan.

Ushbu mavzuni o’qitishda davriy qonun mohiyati va davriy sistema tuzilishi, undan foydalanish imkoniyatlariga doir bilim va ko’nikmalar hosil qilishni maqsad qilib olamiz.

O’quvchilar mashg’ulot jarayonida quyidagi ma’lumotlarni o’rganadilar: hozirgi vaqtida davriy sistemani tasvirlashning 500 dan ortiq variantlari bor: bular davriy qonunning turli shakldagi ifodasidir.

D.I.Mendeleyev 1869-yil 1-martida taklif etgan elementlar sistemasining birinchi varianti uzun shakldagi variant deyilar edi. Bu variantda davrlar bitta qatorda joylashgandi. 1870-yil dekabrda u davriy sistemaning ikkinchi qisqa shakldagi variantini bosib chiqardi. Bu variantda davrlar qatorlarga, guruuhlar esa (bosh va yonaki) guruuhchalarga bo’lingan edi.

Davriy sistemaning ixcham bo’lgan qisqa shakldagi varianti eng ko’p tarqagan. Lekin uning muhim kamchiligi – o’xshash bo’lmagan elementlarning bitta guruuga birlashtirilganligi, ya’ni bosh va yonaki guruuhchalardagi elementlar xossalaringning bir-biridan katta farq qilishidir. Bu elementlar xossalaringning davriyligini ma’lum darajada “xiralashtiradi” va sistemadan foydalanishni qiyinlashtiradi. Shu sababli keyingi vaqlarda, ayniqsa, o’quv maqsadlarida D.I.Mendeleyev davriy sistemasining uzun shaklidagi variantidan ko’proq foydalilmoqda.

Davriy sistemada gorizontal bo’yicha 7 davr bor (arab raqamlari bilan belgilangan), ulardan 1-, 2- va 3-davrlar

kichik, 4-, 5- va 6-davrlar esa katta davrlar deyiladi. Birinchi davrda 2 element, ikkinchi va uchinchi davrlarda 8 tadan, to'rtinchi va beshinchi davrlardab 18 tadan, oltinchi davrda 32 ta, yettinchi (tuganlanmagan) davrda 21 ta element joylashgan. Birinchidan boshqa barcha davrlar ishqoriy metall bilan boshlanadi va nodir gaz bilan tugaydi (7-davr tugallanmagan).

Sistemada 10 qator bor (arab raqamlari bilan belgilangan). Har qaysi kichik davr bitta qatoridan, har qaysi katta davr ikkita: juft (yuqori) va toq (pastki) qatorlardan tarkib topgan. Katta davrlarning juft qatorlarida (to'rtinchi, oltinchi, sakkizinchisi va o'ninchisi) faqat metallar joylashgan va elementlarning xossalari qatorda chapdan o'ngga tomon kam o'zgaradi.

Davriy sistemada elementlar o'rtasidagi o'xshashlik uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Horizontal yo'nalish – bu o'xshashlik katta davr elementlarida, lantanoidlar va aktinoidlar turkumiga kirgan elementlarda uchraydi.

2. Vertikal yo'nalishda – davriy sistemani vertikal ravishda joylashgan elementlari o'zaro bir-biriga o'xshaydi.

3. Diagonal yo'nalishda – davriy sistemada o'zaro diagonal joylashgan ba'zi elementlar o'zaro o'xshashlik namoyon qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganar ekanmiz, o'quvchilarda olingen nazariy bilimlari asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida fundamental va amaliy tadqiqotlarga asoslangan zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish yo'llarini izlashimiz zarur.

Masalan, quyidagi tajribalarni ko'rib chiqaylik.

1-tajriba. Bitta davrda joylashgan elementlarning kimyoviy xossalari o'zaro taqqoslash

Kerakli jihozlar: Davriy sistema, probirkalar, shpatel, pichoqcha.

Kerakli reaktivlar: HCl eritmasi, Na, Mg, Al, Si.

Ishning bajarilish tartibi: 4 ta probirkaga bir xil miqdorda xlorid kislota eritmasidan solib, birinchisiga Na, ikkinchisiga Mg, uchinchisiga Al va to'rtinchesiga Si ning kichik bo'laklaridan soling. Reaksiya tezliklariga e'tibor bering. Xulosa chiqarishda quyidagilarni nazarda tuting:

1. Berilgan elementlar davriy jadvaldagi o'rni va kislotalar bilan ta'sirlashuvi (metallik xossasi) orasida qanday bog'liqlik bor?

2. Davrlarda metallmaslik xossasi qanday o'zgaradi (metallmaslar xlorid kislota eritmalarini bilan ta'sirlashmaydimi)?

3. Berilgan elementlar qatorida (davrlarda) elementlarning atom tuzilishi, elektronlarning joylashuvi va atom radiusi qanday o'zgaradi?

4. Si solingen idishda o'zgarish bo'limganligi sababini (atom tuzilishi va davriy sistemadagi o'rniga bog'lab) izohlang.

2-tajriba. Bitta guruhda joylashgan elementlarning kimyoviy xossalari o'zaro taqqoslash

Kerakli jihozlar: Davriy sistema, probirkalar, shpatel, pichoqcha, pipetka.

Kerakli reaktivlar: HCl eritmasi, Na, K, Cu.

Ishning bajarilish tartibi: Uchta suv solingen probirkalarning birinchisiga kaliy, ikkinchisiga natriy, uchinchisiga misning bir xil kattalikdagi bo'laklarini soling. Probirkalarda borayotgan jarayonlarni kuzating. Aynan shu jarayonga o'xshash xlorid kislotaga metallarni solib kuzating. Xulosa chiqarishda quyidagilarni nazarda tuting:

1. Bir guruhda, bir guruhchada (asosiy guruhcha) joylashgan metallar Na va K ning metallik xossalari masasi ortishi bilan (guruhlarda yuqoridan pastga tushgan sari) qanday o'zgaradi?

2. Ularning kimyoviy xossalari bilan davriy sistemadagi o'rni, atom tuzilishi, atom radiuslarida qanday bog'liqlik bor?

3. Bir guruhda joylashishiga qaramay, misning kimyoviy xossalari idagi farqni qanday izohlash mumkin.

4. Asosiy guruhcha va qo'shimcha (yonaki) guruhcha elementlari xossalari orasida farq bo'lishiga sabab nima?

3-tajriba. Diagonal joylashgan elementlarning xossalari ni taqqoslash

Kerakli jihozlar: Davriy sistema, Petri chashkasi, probirkalar, shpatel, pichoqcha, pipetka.

Kerakli reaktivlar: Suv, Na, Ca, Mg.

Ishning bajarilish tartibi: Petri chashkasida natriy bo'lagini kesib ko'ring. Kalsiy bo'lagini ham kesib solishtiring. Magniy kukunlaridan ozgina olib, uchala metallning ko'rinishi, yumshoqligi va qanday saqlanishini taqqoslang. Uchta suv solingen probirkalarning birinchisiga Na, ikkinchisiga Ca, uchinchisiga Mg bo'lakchalarini soling. Jarayonlarni kuzating va bir-biriga taqqoslang. Quyidagi savollarga javob berish asosida xulosalaringizni yozing.

1. Olingen uchta metallning fizikaviy va kimyoviy xossalari qanday o'xshashlik va farqlar bor?

2. Bu uchta metall laboratoriyyada qanday saqlanadi va buning sababi nima?

3. Na va Ca odatdagagi sharoitda suv bilan ta'sirlashganda vodorod ajralib chiqadi, Mg esa ta'sirlashmaydi, bu holatni ularning davriy sistemadagi o'rniga bog'liq holda izohlang.

4. Magniy davriy jadvalda natriyning yonida, kalsiyining ustida joylashgan, ya'ni natriy bilan bir davrda, kalsiy bilan bir guruhda joylashgan. Lekin har ikkalasidan ham fizikaviy va kimyoviy xossalari jihatidan farq qilib, aksincha Na va Ca ning xossalari ko'proq bir-biriga o'xshash bo'lishiga sabab nima?

5. Diagonal o'xshashlikning sababini elementlarning davriy jadvaldagi o'rni va ularning atom radiuslari bilan bog'lab izohlang.

Bundan tashqari, o'qitishni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, o'quvchini kreativ, ijodiy fikrlashga yo'nalti-

rish, fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish orqali, ularning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, o'z-o'zini anglash salohiyatini rivojlantirish uchun muammoli o'qitish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, ushbu mavzu bo'yicha muammoli o'qitishga doir savollar mazmunini ko'rib chiqaylik.

1. D.I.Mendeleyevning davriy qonunga bergen ta'rifi va zamonaviy ta'rif o'rtasida qanday farq bor? Bunday o'zgartirishning sababi nima?

J: Mendeleyev ta'rifida element atomlarining massalari ortib borish tartibida, ularning xossalari davriy o'zgaradi deyilgan. Zamonaviysida atom massa so'zi o'rniga yadro zaryadi deyiladi. Bu bilan davriy sistemadagi massalar ortib borish tartibining buzilishini yoki izotoplar mayjudligini ham tushuntirish mumkin.

2. Davrlardagi elementlar soni 2-8-18-32 sonlar qatoriga muvofiq kelishini qanday izohlash mumkin?

J: Pog'onalardagi elektronlarning maksimal soniga mos keladi.

3. Guruhlarni bosh va qo'shimcha guruhchalarga ajralishiga sabab nima?

J: d orbital bor atomlarda avval tashqi s orbitali elektronlar bilan to'lib, so'ngra bitta oldindagi d orbitalini to'lishi natijasida qo'shimcha guruhchalar hosil bo'ladi.

4. Nima uchun elementlarning valentligi guruh raqamiga hamma vaqt ham mos kelavermaydi?

J: Tashqi qavatdagagi elektronlarning qanday sondagi valent bog'lar hosil qilishi bog'lanayotgan atomning xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, tashqi qavatdagagi elektronlarning barchasi ishtirok etmay, ma'lum qismi ishtirok etishi mumkin.

5. Davr ichida elementlarning atom radiuslari o'zgarib borishini qanday izohlash mumkin?

J: Davr ichida elementlarning atom radiusi kichrayib boradi, sababi tashqi qavatida elektronlar soni ortib borgan sari musbat zaryadlangan yadroga tortilish kuchayib, siqilib boradi.

6. Guruhlarda elementlarning atom radiuslari o'zgarib borishini qanday izohlash mumkin?

J: Guruhlarda elementlarning atom radiusi ortib bora di, sababi elektron pog'onalar soni ortib boradi.

7. Ichki davriylikning kelib chiqishiga sabab nima?

J: Bir guruhda joylashgan, lekin d orbitalining bo'lis hi yoki bo'lmasligi bilan bog'liq holda xossalari o'xhash guruhchalarga bo'linadi.

8. Lantanoid va aktanoidlarning kimyoviy xossalari o'zaro o'xshashligiga sabab nima?

J: Ikkala guruhda ham tashqaridan uchunchi qavat elektronlar bilan to'lib borib, tashqi ikki qavat o'zgarmaydi.

9. Davriy sistemadagi diagonal o'xshashlikni qanday izohlash mumkin?

J: Yadro zaryadi ortib borgan sari davrlarda atom radiusi kichrayib, bunga bog'liq holda, ionlanish potensiali ortib boradi, guruhlarda esa aksincha, natijada bir guruhdagi elementning xossalari qo'shni guruhnинг keyingi davrida joylashgan elementning xossalariiga o'xhash bo'ladi.

10. Davriy sistemada joylashgan bir qancha element atomlarida bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga elektron ulash holati kuzatiladi. Buni qanday izohlash mumkin?

J: Elektron pog'onachalar to'lishiga yoki yarim to'lishiga bitta elektron qolganda energetik afzallikka ega bo'lib, bitta keyingi pog'onadagi elektron o'tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilar olgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish va joriy etish, kimyo o'qitishda sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan to'garaklar, ekskursiyalar shakllari va mazmunini tubdan yangilash, kimyo darslarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lif va tarbiya jarayoniga ilg'or, innovatsion, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, o'quvchilar dunyoqarashini, tafakkuri, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kimyo fan yo'nalishida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmoni.
2. Umumiy o'rta ta'lifning Milliy o'quv dasturi. –2022.
3. Daminova Sh.Sh., To'rayev N.N., Aliyorov S.K. Anorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. –T.: O'zbekiston, 2006. –96 b.
4. Qodirov E., Muftaxov A., Norov Sh. Anorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. –T.: O'zbekiston, 1996.
5. I.P.Asqarov, K.G'opirov, N.X.To'xtaboyev. Kimyo. 8-sinflar uchun darslik. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019.



OLIY O'QUV YURTI KURSANTLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY MODELI

Sohiba Abdullayeva,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Tillar kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada oly o'quv yurti kursantlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy modeli hamda Oliy ta'lif muassasalarini asosiy vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: oly o'quv yurti, shaxs, pedagogika, shaxsiy imkoniyatlar, ijodiy qobiliyatlar, model, amaliy mashg'ulotlar.

Аннотация

В данной статье представлена теоретическая модель развития творческих способностей студентов высших учебных заведений, а также информация об основных задачах высших учебных заведений.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, личность, педагогика, личностные возможности, творческие способности, модель, практическое обучение.

Annotation

This article presents a theoretical model of the development of creative abilities of students of higher educational institutions, as well as information about the main tasks of higher educational institutions.

Keywords: higher education institution, personality, pedagogy, personal capabilities, creativity, model, practical training.

Oliy ta'lif muassasalarining asosiy vazifasi har bir yoshning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning tashabbuskorligi va ijodkorligini kuchaytirishdir. Bunda hamkorlik pedagogikasi – bu kursant shaxsiga yo'ldir. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogika tamoyiliga asoslangan ijodiy hamkorlik natijasida va o'qituvchi va kursantlar yoki kursantlar o'ttasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida ularning ijodiy qobiliyatları to'liq amalga oshiriladi. Ijodiy qibiliyatlar xususida so'z borganda, rossiyalik olimlardan I.P.Volkov "ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish – kursantlarni turli xil ijodiy faoliyat bilan tanishtirish", G.S.Alsxuller "ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish", "ijodiy xayolot texnikasi bilan tanishtirish"; I.P.Ivanov esa "ijtimoiy madaniyatni yuksaltirishga qodir, ijtimoiy faol ijdor shaxsni tarbiyalash", deb ta'kidlashgan [3]. Har bir kursantning shaxsiy xususiyati, imkoniyatiga qarab ijodiy qobiliyati, ishtiyoqi, qiziqishini samarali rivojlantirish qu'yidagicha:

- yechimi aniq bo'lgan ijodiy vazifalar berish;
- pedagogik faliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga o'rgatish;
- musiqa darslarida faoliyat turlarini samarali va qiziqarli taskil qilishning ijodiy muhitini yarata bilish;
- mutaxassislik fanlarining amaliy mashg'ulotlar jarayonida kursantlardagi ijodiy qobiliyatlarni faollashtirish va yo'naltirish usullari bilan amalga oshirilishi;
- kursantlarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun ularning qiziqishi, xohish-istikclarini o'rganish bilan amala oshadi.

Ijodiy qibiliyatlarni rivojlantirish ta'lif jarayoniga ijodiy yondashuv asosida amalga oshadi. Ijodiy yondashuv

esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarini to'la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Shunday shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalaridan biri – hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir. Bunda, ayniqsa, guruhlarda o'qitish, muammoli o'qitish, modulli o'qitish, individual ta'lif asosida o'qitish kabilalar yuqori samara beradi. Hamkorlikda o'qitishning barcha texnologiyalari, o'qituvchi va kursantning psixologik aloqasi uchun imkoniyat yaratadi. Shaxslararo aloqalarni demokratlashtirish kursantning asosiy psixologik xususiyatlarini rivojlantirish uchun qulay vositadir. Ijodiy qibiliyatlar – bu turli ijodiy faoliyatning samarali bajarilganligini aniqlaydigan kursantning individual psixologik xususiyatidir. Kursantning faoliyatida turli ijodkorlik ko'rinishlari mavjud bo'lib, badiiy ijodiy, mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish jarayonida fanlar ni samarali o'rganish imkonini beradi boshqa fanlarning amaliy mashg'ulotlarida (o'qituvchilik mahoratini shakllantirishda), kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rishga oid topshirqlarni bajarishda: asarlar ijrosida, asar mazmunini ifodalashda, slaydlar tayyorlashda, dars ishlasmalar tayyorlashda, ssenariylar tuzishda, metod va texnologiyalardan foydalanishda va pedagogik texnikani oshirishda ijodiy qibiliyati shakllanadi, rivojlanadi va takomillasib boradi. Bunda professor-o'qituvchining kursant bilan hamkorlikda ishlash jarayonida to'g'ri yo'nalish berishi va natijani nazorat qilib borishi muhim ahamiyatga ega. Kursantlarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim. Ijodkorlik faoliyati o'qituvchi va kursant faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tas-hkil qilish butun ta'lif jarayonining sifatini ta'minlashga

xizmat qiladi. Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida bo'lajak o'qituvchilarini ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini quyidagi yo'naliшlarda amalga oshirish mumkin:

- kursantlar e'tiborini masalani hal qilishda qo'llanilgan usulning universalligi, keng qamrovligiga qaratish;

- kursantlarda ijodiy takomillashuvni darsning maqsadi sifatida emas, balki darsda qo'yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat sifatida qaralishi;

- kursantlar o'zları mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar ijodkorlik darslarinining asosiy mahsuli sifatida qaralishi;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonida, berilgan topshiriqqa oid axborotlarni yig'ish, tahlil va talqin qilishga ijodkorlikni yo'lga qo'yishning muhim jihatni sifatida qaralishi;

- shaxsda ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashni ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning muhim jihatni sifatida qaralishi.

Ko'pincha ular insonning qobiliyatları haqida gapiris-hadi, bu uning ma'lum bir faoliyat turiga moyilligini anglatadi. Shu bilan birga, kamdan kam odamlar ushbu konsepsiyanı ilmiy deb o'ylashadi va bu sifatning rivojlanish darajasini, shuningdek, uni yaxshilash imkoniyatini nazarda tutadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning qanday darajalari mavjudligini, ularni takomillashtirish ustida ishslashni va ulardan maksimal darajada foydalanishni o'rganishni hamma ham bilmaydi. Ayni paytda, biron bir qobiliyatga ega bo'lishning o'zi yetarli emas, agar siz haqiqatan ham ma'lum bir sohada muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsangiz, bu sifat doimiy ravishda rivojlanib borishi kerak.

Qobiliyat darajasi.

Ilmiy ta'rifga ko'ra, qobiliyat – bu muayyan shaxsning individual va psixologik xususiyati bo'lib, uning muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi. Muayyan qobiliyatlarning paydo bo'lishi uchun tug'ma shartlar – bu birinchisidan farqli o'laroq, tug'ilishdan boshlab odamda paydo bo'ladigan moyilliklar. Shuni yodda tutish kerakki, qobiliyatlar dinamik tushuncha bo'lib, ularning doimiy shakllanishi, rivojlanishi va faoliyatning turli sohalarda namoyon bo'lishini anglatadi. Qobiliyatlarning rivojlanish darajalari doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish uchun hisobga olinishi kerak bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq. Rubinshteynning so'zlariga ko'ra, ularning rivojlanishi spiralda sodir bo'ladi, bu yanada yuqori darajaga o'tish uchun qobiliyatlarning bir darajasi taqdim etadigan imkoniyatlarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Shaxsiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasi ikki turga bo'linadi:

Reproduktiv, inson turli ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, bilimlarni egallash va qo'llash, shuningdek, allaqachon taklif qilingan model yoki g'oyaga muvofiq faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini namoyon qilganda;

Ijodiy, inson yangi, o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lganda.

Bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallash jarayonida inson rivojlanishning bir darajasidan boshqasiga o'tadi. Bundan tashqari, qobiliyatlar ham Teplov nazariyasiga ko'ra, umumiylar va maxsusga bo'linadi. Umumiylar har qanday faoliyat sohasida namoyon bo'ladiganlar, maxsuslari esa ma'lum bir sohada namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlarni rivojlantirish darajalari

Ushbu sifatning quyidagi rivojlanish darajalari ajralib turadi:

- qobiliyat;
- qobiliyatlilik;
- daho.

Shaxsning iqtidorini shakllantirish uchun umumiylar maxsus qobiliyatlarning uzviy birikmasi bo'lishi, ularning dinamik rivojlanishi ham zarur. Iqtidorlilik – qibiliyat rivojlanishining ikkinchi darajasi. Iqtidorlilik yetarlicha yuqori darajada rivojlangan va shaxsga har qanday faoliyat turini muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniyatini beradigan turli xil qobiliyatlar to'plamini anglatadi. Bunday holda, o'zlashtirish imkoniyati aniq nazarda tutiladi, chunki inson, boshqa narsalar qatori, g'oyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur ko'nikma va qobiliyatlarni bevosita o'zlashtirishi kerak. Iqtidor quyidagi turlarga bo'linadi:

a) badiiy faoliyatda katta yutuqlarni nazarda tutuvchi badiiy;

b) umumiylar – intellektual yoki akademik, inson qobiliyatining rivojlanish darajalari o'rganishda, turli xil ilmiy sohalarda turli bilimlarni o'zlashtirishda yaxshi natijalarda namoyon bo'lganda;

c) ijodiy, yangi g'oyalarni yaratish va ixtiroga moyilikni namoyish etish qobiliyatini o'z ichiga oladi;

d) ijtimoiy yetakchilik fazilatlarini yuqori darajada aniqlashni, shuningdek, odamlar bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Amaliy, shaxsning o'z maqsadlariga erishish uchun o'z aql-idrokini qo'llash qobiliyatini, insonning kuchli va zaif tomonlarini bilish va bu bilimlardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, iste'dodning turli xil tor sohalarda turlari mavjud, masalan, matematik iste'dod, adabiy va boshqalar.

Iste'dod – ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanishi. Muayyan faoliyat sohasida yaqqol qobiliyatga ega bo'lgan kishi ularni doimiy ravishda takomillashtirib borsa, unda bu qobiliyat bor, deyishadi. Shuni yodda tutish kerakki, ko'pchilik shunday fikrlashga odatlangan bo'lsa-da, bu sifat ham tug'ma emas. Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish darajalari haqida gapiradigan bo'lsak, iste'dod insonning muayyan faoliyat sohasi bilan shug'ullanish qobiliyatining yetarlicha yuqori ko'rsatkichidir. Biroq bu doimiy ravishda rivojlanishi kerak bo'lgan, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi kerak bo'lgan aniq qobiliyatlardan boshqa narsa emasligini unutmang. Hech qanday tabiiy moyillik o'z ustida mehnat qilmasdan iste'dodni tan olishga olib kel-

maydi. Bunda iste'dod qobiliyatlarning ma'lum birikmasidan shakllanadi. Hech kimni, hatto biror narsa qilish qobiliyatini rivojlantirishning eng yuqori darajasini iste'dod deb atash mumkin emas, chunki natijaga erishish uchun moslashuvchan aql, kuchli iroda, katta mehnat va qobiliyat kabi omillar bo'lishi kerak. Daho qobiliyat rivojlanishining eng yuqori darajasidir. Agar shaxsning faoliyati jamiyat taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan bo'lsa, u daho deyiladi. Daho – bu ozchilikka ega bo'lgan qobiliyatlar rivojlanishi eng yuqori darajasi. Bu sifat shaxsning o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liqidir. Dahoning o'ziga xos xususiyati, qobiliyatlarni rivojlantirishning boshqa darajalaridan farqli o'laroq, u qoida tariqasida o'zining "profilini" ko'rsatadi. Yorqin shaxsning har qanday tomoni muqarrar ravishda ustunlik qiladi, bu esa ma'lum qobiliyatlarning yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi.

Qobiliyat diagnostikasi. Qobiliyatlarni aniqlash hal ham psixologiyaning eng qiyin vazifalaridan biri hisoblanadi. Turli vaqtarda ko'plab olimlar ushbu sifatni o'r ganish uchun o'zlarining usullarini ilgari surdilar. Biroq hozirgi vaqtida insonning qobiliyatini mutlaq aniqlashga, shuningdek, uning darajasini belgilashga imkon beradigan texnika yo'q. Asosiy muammo shundaki, qobiliyatlar miqdoriy jihatdan o'lchandi, umumiyligi qobiliyatlarning rivojlanish darajasi chiqariladi. Biroq, aslida, ular dinamikada hisobga olinishi kerak bo'lgan sifat ko'rsatkichidir. Turli xil psixologlar ushbu sifatni o'lchash uchun o'zlarining usullarini ilgari surdilar. Masalan, L.S.Vygotskiy proksimal rivojlanish zonasini orqali baholashni taklif qildi. Bu bola muammoni, birinchi navbatda, kattalar bilan birga, keyin esa o'z-o'zidan hal qilganda, bu ikki tomonlama tashxisni taklif qildi.

Inson qobiliyatlari har qanday yoshda namoyon bo'lishi mumkin. Biroq ular qanchalik tez aniqlansa, ularning muvaffaqiyathi rivojlanishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida ta'lim muassasalarida juda yoshligidanoq mehnat talab etiladi, bunda bolalarda qobiliyatlarning rivojlanish darajalari aniqlanadi. Maktab o'quvchilari bilan ishlash natijalariga ko'ra, ma'lum bir sohaga aniqlangan moyilliklarni rivojlantirish uchun mas-h'ulotlar o'tkaziladi. Bunday ishlarni faqat mакtab bilan

cheklab bo'lmaydi, bu boradagi ishlarda ota-onalar ham faol ishtiroy etishlari kerak.

Umumiy va maxsus qobiliyatlarni tashxislash uchun eng ko'p qo'llaniladigan usullar:

- "Everier muammosi" – fikrleshning maqsadga muvofiqligini, ya'ni odam o'z oldiga qo'ygan vazifaga qay darajada diqqatini jamlashi mumkinligini baholash uchun mo'ljallangan;
- "O'nta so'zni yodlash texnikasi yordamida xotirani tadqiq qilish" – xotira jarayonlarini aniqlashga qaratilgan;
- "Og'zaki fantaziya" – ijodiy qobiliyatlarning, birinchi navbatda, tasavvurning rivojlanish darajasini aniqlash;
- "Eslab qoling va nuqta qo'ying" – diqqat hajmining diagnostikasi;
- "Kompaslar" – xususiyatlarni o'rganish;
- "Anagramlar" – kombinatsion qobiliyatlarning ta'rif;
- "Analitik matematik qobiliyatlar" – o'xshash moyilliklarni aniqlash;
- "Qobiliyatlar" – muayyan sohadagi faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlash;
- "Sizning ijodiy yoshingiz" – pasport yoshining psixologik yoshga mosligini aniqlashga qaratilgan;
- "Sizning ijodingiz" – ijodiy imkoniyatlar diagnostikasi.

Texnikalar soni va ularning aniq ro'yxati diagnostika tekshiruvining maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Shu bilan birga, ishning yakuniy natijasi insonning qobiliyatini ochib bermaydi. Qobiliyatlarning rivojlanish darajalari doimiy ravishda o'sib borishi kerak, shuning uchun tashxis qo'yilgandan so'ng ma'lum fazilatlarni yaxshilash uchun ish olib borilishi kerak.

Xulosa o'rnida, kursantlarda ijodiy qobiliyatni shakkllantirishning pedagogik xususiyatlari ularga musiqiy asarlarni o'rgatishda texnologik va ijodiy-tadqiqiy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya berishda hamkorlik o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning musiqiy kompetensiyalarini, o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda kursantning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, hamkorlik o'qitishni tizimli tarzda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipova, G.Najmetdinov, Z.Xojdjayevlar, "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". Darslik, -T.: "TURON-IQBOL", 2018-y. 28-bet.
2. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari -M.: 2001-y. –236 b.
3. Abdullayeva Sh., Choriyev R. Hamkorlik pedagogikasi. -T.: "Kamron Press", 2016. –74 b.
4. O'.Hoshimov, I.Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma). -T.: "Sharq" nashriyoti, 2003.
5. Алёхин И.А. Развитие технологий профессиональной подготовки слушателей (курсантов) в высшем военно-учебном заведении / И.А. Алёхин // Мир образования – образование в мире. – 2009. № 2. –С. 163-168.
6. Бердяев, Н.А. Философия творчества, культуры и искусства: в 2-х т / Н.А. Бердяев. –М.: Искусство, 1994. –Т.2, С. 217-227.
7. Рахманова, Д.З. Развитие творческих способностей будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Рахманова Дилбар Зикриёвна. –Душанбе: 2013. –185 с.
8. Третьякова, Е.А. Развитие профессионального творчества студентов в процессе обучения специальным дисциплинам: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Третьякова Елена Александровна. –Екатеринбург, 2007. –170 с.

МЕХНАТ БОЗОРИДА ДОЛЗАРБ БЎЛГАН КАСБЛАР БЎЙИЧА МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШ ОМИЛЛАРИ

Рахимберди Ражаббаев,

Мехнат бозори тадқиқотлари институти,
бош илмий ходим, физ.-мат.ф.н., доцент

Аннотация

Уйбу мақолада меҳнат бозори учун долзарб бўлган касблар бўйича мутахассислар тайёрлашининг норматив-хуқуқий асослари, касбий малакалар, билим ва кўнилмаларни ривожлантириши миллий тизими фаолиятини ташкил этиши масалалари ёртилади ва мавжуд муаммолар таҳлил қилиниб, уларни бартараф этиши бўйича тавсиялар баён этилади.

Калим сўзлар: меҳнат бозори, мутахассислик, малака, Миллий малака тизими, Миллий малакалар рамкаси, касб стандартлари, компетенциялар, Касбий малакаларни ривожлантириши Республика кенгаши, Касбий билим ва кўнилмаларни ривожлантириши бўйича тармоқ кенгаши.

Аннотация

В данной статье проанализированы нормативно-правовая база подготовки специальностей, актуальных для рынка труда, вопросы организации деятельности национальной системы профессиональных квалификаций, развития знаний и навыков, существующие проблемы, а также даны рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: рынок труда, специализация, квалификация, Национальная система квалификаций, Национальная рамка квалификаций, профессиональные стандарты, компетенции, Республиканский совет по развитию профессиональных навыков, Сетевой совет по развитию профессиональных знаний и навыков.

Annotation

This article analyzes the legal framework for the training of specialties that are relevant to the labor market, the issues of organizing the activities of the national system of professional qualifications, the development of knowledge and skills, existing problems, and also provides recommendations for their elimination.

Keywords: labor market, specialization, qualifications, National Qualifications System, National Qualifications Framework, professional standards, competencies, Republican Council for the Development of Professional Skills, Network Council for the Development of Professional Knowledge and Skills.

Ўзбекистон иқтисодиётидаги жадал ривожланишлар, шунга монанд равишда: меҳнат бозори ва таълим хизматларида юзага келаётган кескин ўзгаришлар сабабли, сифатли, рақобатбардош ва малакали кадрларни тайёрлаш тизими мослашувчанлигини оширишнинг замонавий методикасини яратиш долзарб вазифалар жумласига киради.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги [1] ва “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”-ги [2] қонунларида келтирилган асосий тушунчаларда мутахассислик – малака бериш билан якунланадиган муайян касбий тайёргарлик тури ва малака – шахснинг касбий фаолиятнинг муайян турини бажаришга тайёргарлигини ифодалайдиган, маълумот тўғрисидаги тегишли хужжат билан тасдиқланадиган билим, қобилият, маҳорат ва кўнилмалар даражаси деб таъриф берилган.

Хўш, меҳнат бозори учун малакали касбий тайёргарликка эга бўлган мутахассисларни қандай ваколатли муассаса ва ташкилотлар тайёрлайди? Меҳнат бозори талаблари қандай прогноз қилинади? Таълим ташкилотларида кадрларни тайёрлаш бўйича давлат буюртмалари қандай шакллантирилади? Умуман олганда, қандай принциплар асосида меҳнат бозори учун малакали кадрлар тайёрлаш амалга оширилади?

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғриси-

да”ги қонунига асосан, меҳнат бозори учун малакали касбий тайёргарликка эга бўлган мутахассисларни тайёрлаш ваколати давлат таълим ташкилотлари (умумий ўрта, ўрта маҳсус, професионал ва олий таълим ташкилотлари) ҳамда нодавлат ташкилотлар томонидан амалга оширилади ва улар професионал таълимнинг касблар ва мутахассисликлар, олий таълимнинг бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари, шунингдек, билим соҳалари ва таълим соҳалари рўйхатини белгилайди.

Меҳнат бозоридаги долзарб бўлган кадрлар масаласи потенциаль иш берувчи корхона ва ташкилотлар томонидан прогноз қилинади ва уларнинг буюртмалари асосида таълим ташкилотлари томонидан давлат таълим стандартлари Классификатори шакллантирилади ва у Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

Таълим ташкилотларининг кейинги вазифаси таълим-тарбия жараёнига ўқитишининг илфор шакллари, янги педагогик технологиялар, ўқитишининг техник ва ахборот воситалари жорий этилишини таъминлайди ва кадрларнинг касбий тайёргарлиги сифатини оширишга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқади, ўқув дастурларини такомиллаштиради ҳамда ўқув адабиётларини тайёрлаш ва нашр қилишни ташкил этади.

Таълим ташкилотларида таълим олишнинг турли шакллари – ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда таълим олиш (кундузги); ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда таълим олиш (сиртки, кечки, масофавий); дуал таълим; оиласа таълим олиш ва мустақил таълим олиш; катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш; инклузив таълим; экстернат тартибидаги таълим; мудофаа, хавфсизлик ва хуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти соҳасида кадрлар тайёрлаш амалга оширилиши мумкин.

Кадрлар тайёрлаш жараёни таълим ташкилотларининг давлат таълим стандартлари ва давлат талабларининг касб стандартларига мувофиқ ҳолда битиувчиларида давлат томонидан тасдиқланган намунаидаги таълим тўғрисидаги хужжатларни бериш билан яқунланади.

Бугунги кунда республикамизда профессионал таълим дастурларининг ЮНЕСКО ташкилоти томонидан қабул қилинган Таълимнинг халқаро стандарт таснифлагичи (МСКО) даражалари билан уйғунлашмаган, ўкув жараёнига Ўзбекистоннинг Миллий квалификация тизими тўлақонли жорий этилмаган. Тайёрланаётган кадрларнинг меҳнат бозорида муносиб ўрин эгаллашларидаги тўсиқларни бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5812-сонли Фармони қабул қилинди [3].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг мазкур фармонига асосан, профессионал таълим тизимини илғор хорижий тажрибалар асосида такомиллаштириш, бошлангич, ўрта ва ўрта маҳсус профессионал таълим босқичларини жорий қилиш орқали меҳнат бозори учун малакали ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш ҳамда мазкур жараёнга иш берувчиларни кенг жалб қилиш кўзда тутилган. Шу максадда 2020-2021 ўкув йилидан бошлаб Ўзбекистон Республикасида Таълимнинг халқаро стандарт таснифлагичи (кейинги ўринларда — Халқаро таснифлагич) даражалари билан уйғунлашган янги бошлангич, ўрта ва ўрта маҳсус профессионал таълим тизими ҳамда табақалаштирилган таълим дастурлари жорий этиладиган таълим мусассасалари тармоғи ташкил этилиши белгиланди.

Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш бўйича Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 15 майдаги “Ўзбекистон Республикасида Касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида”ги 287-сон қарори қабул қилинди [4]. Ушбу қарор билан Ўзбекистон Республикаси Миллий малакалар рамкаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими (Миллий малакалар тизими) тўғрисидаги низом тасдиқланди.

Шунингдек, иш қидираётган ва ишсизларни касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, ишлаб чиқаришда касбга ўқитишни ташкил этиш қоидалари ҳамда касбий малака ва билимларни ошириш миллий тизимининг вазифалари белгилаб берилди. Малака ва билимларни ривожлантириш бўйича Республика кенгаши, Малакаларни баҳолаш марказларининг вазифалари ҳам кўрсатиб ўтилди.

Миллий малака тизими бозор шароитларида ходимларнинг рақобатбардошлигини таъминлашнинг базавий механизми ҳисобланади.

Миллий малакалар тизимининг мақсади:

- меҳнатга лаёқатли аҳолига уларнинг меҳнат фаоллигидан тўла фойдаланиш, ишчи кучи сифатини ошириш, ишга жойлаштиришга муҳтож шахсларни халқаро тажриба асосида касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини кенгайтириш учун шароитлар яратиш;

- меҳнат бозори талабларига мос келувчи, лавозимда ўсиш ва рақобатбардошликтини таъминловчи касб малакалари ва кўникмаларини эгаллаш учун миллий малакалар рамкасининг ягона платформасини шакллантириш;

- фуқароларнинг меҳнат салоҳиятидан тўла фойдаланиш учун имкониятлар яратишга йўналтирилган хуқукий, институционал ва инфратузилмавий механизmlарни, жумладан, бутун умр давомида таълим, малака ошириш ва қайта тайёрлашдан ўтиш кўринишида шакллантириш, ва шу асосда меҳнат бозори ҳамда таълим тизимининг амал қилиши, шунингдек, ўзаро самарали таъсирини таъминлашдан иборат.

Миллий малакалар тизимининг асосий вазифалари:

- бутун умр давомида касбга ўқиши, малака ошириш ва қайта ўқишини ташкил этиш ва ўтказиш, шунингдек, ходимларнинг, айниқса, ишчи касблар бўйича обрўсини ошириш ва касб стандартларини жорий этиш орқали аҳоли бандлигига кўмаклашишга қаратилган институционал тизим ва инфратузилмани шакллантириш, амал қилишини таъминлаш;

- ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини касб-хунарга ўқитиш марказларида ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини, айниқса ёшларни касбга ўқитиш, малакасини ошириш ва қайта ўқитишни ташкил этиш;

- касб стандартлари асосида малакани баҳолаш ва тасдиқлаш бўйича инфратузилмани яратиш ва амал қилишини таъминлаш;

- замонавий стандартлар асосида компетенцияни баҳолаш марказлари фаолиятини ташкил этиш;

- малака даражасини эгаллаш ва тасдиқлашни хоҳловчи барча шахслар учун ихтиёрийлик тамойиллари асосида тенг шароитларни таъминлаш;

- компетенцияларни баҳолашнинг ҳаққоний, холис ва шаффофф жараёнини таъминлаш мақсадида компетенцияларни баҳолаш марказлари фаолиятини тартибга солиш ва назорат қилиш;

- компетенцияларни баҳолаш марказлари томонидан қўллаш учун тегишли малакалар бўйича баҳолашнинг замонавий услубарини жорий этиш;

- меҳнат органлари томонидан ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини касб-хунарга ўқитиш марказлари ва бошқа таълим муассасалари ҳамда компетенцияларни баҳолаш марказлари билан тўғридан-тўғри шартномалар орқали Ўзбекистон Республикаси Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси ҳисобидан, белгиланган талабларга мувофиқ, ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини касбга ўқитиш, қайта ўқитиш ва малакасини ошириш ҳамда фуқароларнинг касбий малакасини баҳолаш ва тасдиқлаш бўйича ишларни бажариш ва хизматларни кўрсатиш бўйича эҳтиёжларни тизимли равиша аниқлаш, тартибга солиш ва зарур ҳолларда давлат буюртмасини шакллантириш ҳамда жойлаштириш;

- компетенцияларни баҳолаш марказлари томонидан муайян мутахассислик (касб) бўйича касбий компетенция даражасини тасдиқловчи ва Хизматчиларнинг асосий лавозимлари ва ишчи касблари Классификаторига мувофиқ малака тоифаларини (разрядларини) беришга асос бўлувчи компетенция тўғрисидаги сертификат берилишини таъминлаш;

- тасдиқланган малакага эга шахслар Миллий реестрини шакллантириш ва амал қилишини таъминлаш;

- ўрта бўғин мутахассислар ва ишчилар малака даражасини мунтазам ошириш механизмини юритиш;

- таълим дастурлари ва ресурслари шаклланишига таъсир этувчи, уларни амалга оширишда, шу жумладан, ўқув натижаларини баҳолаш қисмида фойдаланиладиган муайян фаолият турлари, ўрта бўғин мутахассислари лавозимлари, ишчи касблари ва таълим даражаси бўйича касб стандартларини ишлаб чиқиши ва долзарблаштириш тизимини шакллантириш;

- кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимининг муайян фаолият турлари бўйича меҳнат бозорининг долзарб талабларига мослигини баҳолаш орқали меҳнат бозорининг фаолиятлар бўйича таркиби, ҳолати ва ривожланиш динамикаси ҳақидаги комплекс тасаввурни шакллантириш;

- фаолиятнинг мураккаблик, масъулият ва талаб қилинган ваколатлар кўлами параметрлари ва даражалари бўйича ишлаб чиқариш фаолиятининг тегишли турларига кўра ишлаб чиқариш жараёнлари таҳлили асосида тармоқ ва тармоқлараро малака тавсифларини таркиблаш тизимини шакллантириш;

- ишсиз фуқаролар ва банд бўлмаган аҳоли орасида ўз малакасини тасдиқлашнинг фойдаси ва афзаллигини тушунтиришdir.

Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги Миллий малакалар тизими ишини мувофиқлаштирувчи орган ҳисобланади. Кўйидагилар Миллий малакалар тизими иштирокчилариidlар: Касбий малакаларни ривожлантариш

республика кенгаши; давлат бошқаруви органлари ва хўжалик бирлашмалари хузуридаги касбий билим ва кўнікмаларни ривожлантариш бўйича тармоқ кенгаши; Ишчи касбларни ривожлантариш ва оммалаштириш ассоциацияси (кейинги ўринларда — Ассоциация); ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини касб-хунарга ўқитиш марказлари; компетенцияларни баҳолаш марказлари; таълим ташкилотлари; таълим соҳасидаги давлат бошқаруви органлари; иш берувчилар; талабгорлар.

Миллий малакалар тизими кўйидаги базавий компонентлардан иборат: Миллий малакалар тизими инфратузилмаси; институционал компонентлар; ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш параметрлари.

Миллий малакалар тизими иштирокчилари фаолиятини малакаларни баҳолаш ва касб компетенцияларини ривожлантариш мақсадида Касбий малакаларни ривожлантариш республика кенгаши тузилган. Республика кенгаши ишига зарур ҳолларда хорижий эксперталарни тўлов-шартнома асосида жалб қилиниши мумкинлиги белгиланган.

Республика кенгаши фаолиятининг молиявий таъминоти Ўзбекистон Республикаси Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобига амалга оширилади.

Давлат бошқаруви органлари ва хўжалик бирлашмалари, бошқа ташкилотлар Республика кенгашига касб компетенцияларини ривожлантариш бўйича тегишли тармоқда компетенцияларни баҳолаш соҳасидаги масалаларни кўриб чиқиш ва фаолиятини тартибга солиш органи ваколатларини юклатиш билан Касбий билим ва кўнікмаларни ривожлантариш бўйича тармоқ кенгаши (кейинги ўринларда — Тармоқ кенгаши) тузиш тўғрисидаги таклифларни киритиши мумкин.

Тармоқ кенгаши муайян касб фаолиятлари турлари бўйича компетенцияларни мустақил профессионал баҳолашни ўtkазиш учун зарур шароитларни шакллантириш мақсадида тузилади.

Тармоқ кенгаши ташкилий, услубий, таҳлилий жиҳатдан таъминлаш унинг ишчи органи – “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси Тармоқ кенгашининг ишчи органи ҳисобланади (кейинги ўринларда – Ишчи орган).

“Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси Кадрлар ва таълим муассасалар билан ишлаш бошқармаси бош мутахассиси Тармоқ кенгашининг котиби ҳисобланади.

Тармоқ кенгаши таркибиға давлат бошқарув органдари, хўжалик бирлашмалари, касаба уюшмалари ва уларнинг бирлашмалари, илмий жамоатчилик вакиллари киради.

Тармоқ кенгаши таркибиға, шунингдек, хорижий эксперталар, хорижий компаниялар ва Ўзбекистон Республикасида аккредитациядан ўтган халқаро ташкилотлар вакиллари ҳам киритилиши мумкин. Тармоқ кенгаши ўз ва ишчи органлари фаолиятлари самародорлигини ошириш учун уюшманинг бошқа бўлинмалари, шунингдек Касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими алоҳида иштирокчиларини ўз ишига экспертиза мақсадларида жалб этиши мумкин.

Тармоқ кенгаши қўйидаги асосий вазифаларнинг бажарилишини таъминлайди:

- меҳнат бозори мониторинги асосида тармоқларнинг малака ва билимларга эҳтиёjlари ва тенденцияларини аниқлаш;
- тармоқ малака доираларини ишлаб чиқиш, жорий этиш ва такомиллаштириш;
- касбий стандартларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш бўйича вазирликлар, идоралар ва ташкилотлар фаолиятни мувофиқлаштириш;
- норасмий ва информал ўқитишининг натижаларини тан олиш, валидация ва аккредитация (сертификация) қилиш тизимини шакллантириш, шу жумладан, малакаларни баҳолаш марказлари фаолиятини ташкил килиш;
- ёшларни касбга йўналтириш, профессиограмма ва ахборот материалларини ишлаб чиқиш бўйича ишларни ташкил этиш;

тармоқ малакалар доиралари ва касбий стандартлардан келиб чиқсан ҳолда, Классификаторни такомиллаштириш ҳамда меҳнатга ҳақ тўлашга оид меъёрларни аниқлаш бўйича таклифларни тайёрлаш.

Тармоқ кенгаши аъзолари, шунингдек, жалб қилинган эксперталар меҳнатига ҳақ тўлаш миқдори давлат ва хўжалик бошқаруви органи ёки тармоқ кенгаши томонидан тузилган бошқа орган раҳбари томонидан белгиланади.

Тармоқ кенгаши фаолиятини молиявий таъминлаш давлат ва хўжалик бошқаруви органи ёки тармоқ кенгаши томонидан тузилган бошқа орган томонидан ўз маблағлари ҳисобига амалга оширилади.

Тармоқ кенгашининг топшириқларини бажариш биринтирилган таълим ва илмий ташкилотлар учун мажбурий ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Миллий малакалар рамкаси (кейинги ўринларда — Миллий малакалар рамкаси) тармоқлар малакалар рамкалари, касб ва таълим стандартлари, миллий ва халқаро даражада малакаларни тан олишнинг касбий таълимнинг барча даражалари учун ягона механизmlарни назарда тутивчи, малакаларни тармоқлараро ва халқаро таққослашни

таъминловчи компетенцияни баҳолаш тизими Касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизимининг институционал компоненти ва асоси ҳисобланади. Миллий малакалар рамкаси меҳнат бозори ва таълим соҳасини интеграциялаш воситаси бўлиб хизмат қиласди.

Миллий малакалар рамкаси:

- касбга ўқитишиш натижалари ва ўқитишиш натижасида олинадиган билимлар, маҳоратлар, кўникмалар ва компетенцияларни уйғунлаштириш;
- касбга ўқитишиш ва меҳнат бозорининг малакаларга эҳтиёjlари орасида ўзаро алоқадорликнинг мустаҳкам тизимини шакллантириш;
- касбга ўқитишиш, меҳнат тажрибаси натижаларининг малака талабларига ва касб стандартларига мослигини баҳолаш жараёнини амалга ошириш;
- миллий ва халқаро даражаларда малакаларни тан олишни таъминлайди;
- касб стандартларини ишлаб чиқиша ходимлар малакасига, таълим стандартларини ишлаб чиқиша битирувчиларнинг билим даражаларига талабларни ягона нуқтаи назардан ёритища кўлланилади;
- ходимларни ишга қабул қилишда, ташкилот ичида ва ташкилотлар орасида вертикал ва горизонтал харакатлантиришда малака талабларини белгилаш имкони яратилади;
- ходимлар ва ишга даъвогарларнинг малакасини аниқлаш материаллари ва тартиботлари ишлаб чиқилади;
- республика, худуд ва тармоқ даражаларида, шунингдек, ташкилотларда кадрлар тайёрлаш бўйича тадбирларни режалаштиради;

- малакаларни ривожлантириш мониторингини ва статистик таҳлилни амалга ошириш учун имкон яратади.

Ўзбекистон Республикаси Миллий малакалар рамкаси малака даражаларининг ягона шкаласини, уларни эгаллашни таъминловчи таълим дастурлари ва касбий таълим натижаларига талабларни белгилайди.

Миллий малакалар рамкаси асосида давлат ва хўжалик бошқарув органлари иш берувчилар бирлашмалари билан биргаликда тегишли малака даражаларининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи тармоқлар малакалар рамкаларини ишлаб чиқади ва тасдиқлади.

Тармоқларнинг малакалар рамкаларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва долзарблаштириш Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги томонидан ишлаб чиқиладиган ва тасдиқланадиган методик тавсияномаларга мувофиқ амалга оширилади.

Миллий малакалар рамкаси саккизта малака даражасидан иборат.

У жадвал кўринишида бўлиб, унда ҳар бир малака даражаси бўйича касб фаолиятини амалга ошириш

учун талаб қилинадиган билимлар, маҳорат ва кўникона, шахсий ва касбий компетенциялар, шунингдек, тегишли малака даражасини эгаллаш йўллари белгиланади [5].

Миллий малакалар рамкаси асосида давлат бошқаруви органлари ва хўжалик бирлашмалари иш берувчиликлар бирлашмалари билан ҳамкорликда тармоқлар малака рамкаларини ишлаб чиқади ва тасдиқлади, тегишли малака даражаларининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи касб стандартларини ишлаб чиқади.

Малаканинг ўзгариши ва даражасининг ўсиши, одатда, тегишли лицензияга эга бўлган муассасаларда малака ошириш, кадрларни қайта тайёрлаш ва қўшимча таълим бериш тизимининг қўшимча ўқитиш дастурлари бўйича ўқитиш натижаси ҳисобланади.

Миллий малакалар рамкасига Европа Иттифоқи мамлакатлари, Корея Республикаси, Россия Федерацияси ва шундай тажриба тўпланган бошқа мамлакатлар рамкалари тузилмаларига хос бўлган қўйидаги тамойиллар асос килиб олинади:

- малакалар даражаларининг қўйидан юқорига ривожланишининг узлуксизлиги ва изчиллиги;

- малакалар даражалари тавсифининг барча фойдаланувчилар учун шаффоғлиги;

- малакалар даражалари иерархиясининг меҳнат тақсимоти тузилмасига ва миллий таълим тизимига мослиги;

Кадрларни баҳолаш, аттестациядан ўтказиш, касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш учун асос сифатида Касб стандартлари ишлаб чиқилади ва фойдаланувчиларнинг кенг доирасига мўлжалланган, шу жумладан:

- ходимларга — тармоқда касбга қўйилган талабларни тушуниш, ўз малакаларини оширишни режалаштириш ва хизматда ўсиш;

- иш берувчиларга — ходимларга нисбатан қўлланиладиган талаблар, йўрикномалар ва мажбуриятларни ишлаб чиқиш, ходимларни ёллаш ва аттестациядан ўтказиш, шунингдек, кадрларнинг малакасини ошириш, ривожлантириш, ўсиши ва ротациялаш дастурларини тузишида;

- таълим тизими вакилларига — таълим дастурлари ва модулларини ишлаб чиқиш учун;

- малакани тасдиқлаш ва сертификатлаш фаолияти билан шуғулланувчи ташкилотларга — ходимларни сертификатлаш учун баҳолаш материалларини ишлаб чиқиша ва мослик даражалари бўйича ходимларнинг малака мезонларини ишлаб чиқиша;

- давлат органларига — касб стандартларидан меҳнат бозори ва унинг иштирокчиларини баҳолаш, мониторингини юритиш ва прогнозлаш мезонлари сифатида фойдаланиш учун.

Касб стандартини ишлаб чиқаришда қўйидаги асосий тамойилларга риоя этилиши керак:

- кетма-кетлик — ишлаб чиқишининг ҳар бир босқичи кетма-кетликда, олдинги босқич натижаларини хисобга олиб бажарилади;

- холислик — касб стандартини ишлаб чиқиша тармоқнинг хусусиятлари, шаклланган амалиёти ва долзарб тенденциялари атрофлича таҳлил қилинади;

- манфаатдор томонлар иштироки — стандартни ишлаб чиқиша барча манфаатдор томонлар фикрлари хисобга олинади;

- аксинча алоқа — касб стандартини ишлаб чиқиш жараённида ҳам, амалиётда уни қўллашда ҳам манфаатдор томонлар эътиrozлари ва таклифларини хисобга олиш.

Касб стандартлари лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги томонидан ишлаб чиқиладиган ва тасдиқланадиган методик тавсияларга биноан қўйидагича амалга оширилади:

- давлат бошқаруви органлари ва хўжалик бирлашмалари, таълим, фан ва илмий-жорий этиш муассасалари — Республика кенгаши томонидан тасдиқланадиган режа-жадвалга мувофиқ;

- ваколатли орган танлаб олган ташкилотлар — Ўзбекистон Республикаси Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағларидан молиялаштириш хисобидан ваколатли орган буюртмасига мувофиқ;

- ташаббус тартибида — иш берувчилар бирлашмалари, касаба уюшмалари ва бошқа манфаатдор ташкилотлар томонидан.

Касб стандартлари лойиҳаларини келишиш томонларини белгилаш, лойиҳалар бўйича хулосаларни тайёрлаш ва кўриб чиқиш Республика кенгашига юклилади.

Соҳадаги ислоҳотларнинг узвий давоми сифатида мамлакатимизда инсон капиталини тўлақонли ривожлантириш, олий ва профессионал таълимнинг сифатини ошириш, меҳнат бозорининг ривожланиши тенденцияларини инобатга олган ҳолда, аҳолининг кенг қатламларини талаб юқори бўлган касбларга ўқитиш ҳамда малакали кадрларни тайёрлашнинг сифат жиҳатидан янги тизимини жорий этиш учун шарт-шароитларни яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 31 январдаги “Малакаларни баҳолаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва меҳнат бозорини малакали кадрлар билан таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4939-сон қарори қабул қилинди [5].

Қарорда манфаатдор вазирлик ва ташкилотлар билан биргаликда таълимнинг энг паст даражасига қўйиладиган талабларни бекор қилган ҳолда, ҳар бир лавозим ва касб бўйича малака доирасига мувофиқ малака даражасига талаблар киритиш, лавозим ва касбларни Машғулотларнинг Халқаро Стандарт Классификатори (МХСК — 2008) билан мувофиқлаштириш, ишчи касблар учун таъриф разрядларининг оралигини

белгилаш ҳамда янги таҳрирдаги Классификаторни ишлаб чиқиш вазифаси топширилди. Шунингдек, Меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касблар бўйича тегишли малака даражасига эришиш йўлларининг мослашувчанлиги ва хилма-хиллигини таъминловчи Малака даражаларига эришиш схемаси тасдиқланди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамасига ҳисобдор бўлган Касбий малака ва билимларни ривожлантириш бўйича кенгаш, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлклари ҳузурида Касбий малака ва билимларни ривожлантириш бўйича ҳудудий кенгашлар ҳамда Касбий малака ва билимларни ривожлантириш бўйича тармоқ кенгашларини ташкил этиш белгиланиб, кенгашларнинг намунавий таркиби ва фаолиятини ташкил этиш учун масъул вазирлик, идора, таълим ва илмий муассасалар рўйхати тасдиқланди.

Шунингдек, мазкур қарорга мувофиқ, касбий малака ва билимларни ривожлантириш тизимини янада тақомиллаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 30 сентябрдаги “Касбий малака ва билимларни ривожлантириш тизимини янада тақомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 616-сон қарори қабул қилинди [6].

Ушбу қарорда Меҳнат бозори тадқиқотлари институти (Мехнат институти) зиммасига бир қатор вазифалар юклатилди.

Жумладан:

- Тармоқ кенгашининг Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳузуридаги Меҳнат бозори тадқиқотлари институти ваколатига кирадиган, жумладан, зарур материаллар ва ҳужжатларни экспертиза учун тақдим этиш масалалари бўйича доимий ўзаро ҳамкорлигини таъминлайди;
- эксперталар, манфаатдор таълим ва илмий муассасалар билан ўзаро ҳамкорликни амалга оширади.
- мамлакатда касбий малака, билим ва қўнимкамалар миллий тизими тақомиллаштирилишида ҳамда касбий стандартларнинг ишлаб чиқилишида илгор хорижий тажриба ва илмий ҳамжамият таклифлари қўл-

ланилишини таъминлаш топшириғи бўйича тармоқ кенгашлар фаолиятини услубий, ташкилий ва ахборот жиҳатидан таъминлаш;

- соҳага илгор ижобий амалиётларни жорий қилган ҳолда, Меҳнат бозороининг малакали кадрларга бўлган эҳтиёжини баҳоловчи тизим ҳамда касбий стадартларни ва мустақил малака баҳолашнинг маълумотлар базасини шакллатириш ва юритиш белгиланган.

Хозирда республика бўйича 37 та “Тармоқ кенгашлари” тузилган ва улар томонидан ўзларига бириктирилган тармоқлар бўйича квалификация жадваллари доирасида 1200 дан ортиқ касб стандартлари ишлаб чиқилган.

Миллий малакалар жадвалида профессионал таълим 3-, 4-, 5-даражалар этиб белгиланган бўлса, олий таълим эса 6- (бакалавр) ва 7- (магистр) даражани ҳамда илмий даражалилар 8-погонада берилган.

Мазкур топшириқлар ижросини таъминлаш бўйича таълим ташкилотлари, иш берувчилар ва ҳамкор муассасалар иштирокида қуйидагиларни амалга ошириш зарур:

- миллий малака тизимини янада ривожлантиришнинг норматив базасини қайти кўриб чиқиш ва тақомиллаштириш;

- амалдаги профессионал таълимнинг давлат таълим стандартларини касбий стандартларга мувофиқлаштириш;

- ёшларни ва катта ёщдагиларни меҳнат бозорида талаб этиладиган янги касблар ва лавозимларга қайта ўқитиш ва тайёрлаш бўйича ўқув дастурларини унификациялаш;

- кадрларнинг тайёргарлик даражасини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш ва битирувчиларни якуний аттестациядан ўтказиш модулини яратиш;

- аҳолининг заиф қатламлари – ишсизлар, аёллар, мигрантлар, ногиронлар ва бошқалар таълимини молиялаштиришга қаратилган нодавлат сектор иштирокида давлат дастурларини амалга ошириш механизми ишлаб чиқиши;

- малакаларни баҳолаш механизмини ва унинг методик таъминотини яратишлик мақсадга мувофиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637 сон Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 22 октябрдаги “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-642 Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 октябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада тақомиллаштиришига доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПД-5812-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 22 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва қўнимкамаларни ривожлантириши миллий тизими фаолиятини ташкил этиши чоралари тўғрисида” 287-сон қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 31 декабрдаги “Малакаларни баҳолаш тизимини тубдан тақомиллаштириши ва меҳнат бозорини малакали кафлар билан таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4939-сон қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 декабрдаги “Касбий малака ва билимларни ривожлантириши тизимини ҳамда тақомиллаштириши бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 616-сон қарори.

QASHQADARYO VILOYATIDA XALQ HUNARMANDCHILIGI RIVOJLANISHINING TARIXIY AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Durdona Tuxtamisheva,
Shahrisabz Pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya

Ayrim manbalarda VI-VII asrlarda Qarshida to‘qilgan gilamlarning Xitoy bozorlarida ham sotilgani haqida ma‘lumotlar qayd etilgan. Kulolchilik vohaning Kasbi tumanida keng tarqalgan. Qadimiy va boy tarixi, betakror madaniyati bilan nom qozongan Qashqadaryoda kulolchilik, kashtachilik, gilamdo‘zlikning bir necha turi, yo‘nalishi va uslublari ko‘p topiladi. Xususan, tarixi izzoq o‘tmishga borib taqaladigan Shahrisabz kashtasi turfa naqshlar ishlatilishi bilan qiymatga ega. Ko‘p asrlik an‘analarga ega gilamchilik ham o‘z o‘rnini va ahamiyatini yo‘qotmay kelgan.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik, kashta, hunarmand, usta, kulol, o‘tmish, bezak, mehnat.

Аннотация

В некоторых источниках есть сведения, что ковры, сотканные в Кашии, продавались и на китайских рынках в VI-VII веках. Керамика широко распространена в районе Касби оазиса. В Кашикадарье, славящейся своей древней и богатой историей и самобытной культурой, существует множество видов, направлений и стилей гончарного дела, вышивки, ковроткачества. В частности, шахрисабзская вышивка, история которой уходит в далекое прошлое, ценна использованием различных мотивов. Ковроткачество, имеющее многовековые традиции, не утратило своего места и значения.

Ключевые слова: ремесло, вышивка, мастерица, мастерица, гончар, прошлое, украшение, труд.

Annotation

In some sources, there is information that carpets woven in Karshi were also sold in Chinese markets in the VI-VII centuries. Pottery is widespread in the Kasbi district of the oasis. In Kashkadarya, which is famous for its ancient and rich history and unique culture, there are many types, directions and styles of pottery, embroidery, and carpet weaving. In particular, Shahrisabz embroidery, whose history goes back to the distant past, is valuable with the use of various motifs. Carpet making, which has centuries-old traditions, has not lost its place and importance.

Keywords: handicraft, embroidery, craftsman, craftsman, potter, past, decoration, labor.

Xalq hunarmandchiligi naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, metall o‘ymakorligi, kashtachilik, quroqchilik, zardo‘zlik, gilamchilik, gazlama to‘qish, ko‘nchilik, pazandachilik, yog‘ochlarni kuydirib ishslash, kulolchilik, kosibchilik, mahsido‘zlik, sangtaroshlik, temirchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, qulfsozlik, misgarlik, ignasozlik kabi sohalarga ega bo‘lib, o‘zida mehnat va kasb ta‘limining ko‘pgina xususiyatlari – amaliyili, ijodiyili, milliyili, mahalliy xomashyolarni topish va ta‘mirlashning qulayligi, o‘gil va qiz bolalar mehnatining o‘ziga xosligi, murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblar va dastgohlar talab qilmasligi; mashg‘ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetarlicha o‘rgangan, ma’lum kasblarni egallagan yoshlarning ishsiz qolmasliklari, mehnat bozorining raqobatbardoshligi bilan alohida e’tiborga molikdir.

Qashqadaryoda juda qadimdan iroqi nusxa do‘ppilar tayyorlab kelingan. Bunday do‘ppilarga iroqi gul tikish usullarining asosan, sanama, bosma, chok xillari ishlataladi. Do‘ppilarga maxsus jiyaklar qadalib, bezak beriladi. Do‘ppilarning ko‘rinishi (shakli) esa yarim konussimon bo‘ladi. O‘ziga xos tayyorlanish texnologiyasiga ega bo‘lgan bunday do‘ppilarni Shahrisabz va Kitob tumanlarida qalpoq deb ataydilar. Toshkentda esa bunday do‘ppilar gi-

lamdo‘ppi deyiladi. Qashqadaryoda iroqi do‘ppilardan tashqari, piltado‘zi yoki to‘ldirma deb nomlangan do‘ppilar keng iste’molda bo‘lgan. Bunday do‘ppilarni tayyorlashda piltado‘zi usuli qo‘llanilgan. Pulta sifatida, asosan, qog‘oz ishlatilgan. Do‘ppining piltalari bo‘ylab tekis va ilmoq, qo‘l kashta choki bilan gullar tikilib, ular to‘ldirma do‘ppi deb atalgan. To‘ldirma do‘ppilar bilan birgalikda xalq boshidan tushirmay, sevib kiygan gilam do‘ppilar yoki iroqi do‘ppilar ham keng iste’molda bo‘lgan. Bunday do‘ppilar kanavaga, bo‘z matoga, bo‘ronboy deb nomlangan to‘r matoga takdo‘zi usulida iroqi kashta choki bilan tikib tayyorlangan. Shahrisabzning gilam do‘ppisi konussimon shakli bilan farqlanadi. Bu do‘ppilardagi kolorit oq, qora, qizil, sariq yoki siyoh ranglar uyg‘unligida hosil bo‘ladi. Ba‘zida ko‘pgina naqshlar qizil-qora chizgilar bilan oq fonda beriladi. Shahrisabz va Kitob do‘ppilaridagi naqshlar ikki turga bo‘linadi: Sanama do‘ppisidagi naqsh yonlama qator qilib joylashtiriladi, chizma 149 do‘ppida esa naqsh do‘ppi tepasi aylanasida yig‘ilib, aylana shaklida tik yo‘nalishda taraladi.

Ma‘lumki, Shahrisabz kashtachiligi Osiyoda diqqatga sazovor hunarlardan biridir. O‘rtada gul ko‘rinishidagi asosiy nishon, uning atrofida turli naqshlar va naqshinkor gul shaklidagi bezaklarni tushirib, ishlov berish Shahrisabz kashtalarining asosiy xususiyatidir. Shahrisabz chevarlari

kandaxayol chokidan ko‘proq foydalanishadi, shuningdek, ularda bosma, yo‘rma, iroqi choklari mashhur. Gul novdalari va to‘pbarggullar Shahrisabz kashtachiligi bezagining asosi. Odatda, bu yirik murakkab ishlov asosida yaratilgan gullar yuqoridan ko‘zga tashlanadigan va ko‘ndalang kesishgan shakllardan iborat. Hech bir gul bir-biriga o‘xshamaydi, ular keng barglar orasida tasvirlanadi. Bu kashtaning mahobatlilagini, boy ko‘rinishini ifodalaydi. Bunday usul, xususan, rassomlarning ijodiy izlanishlari tufayli yaratilgan. Gul ko‘rinishlari asosida kashtaning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud. Shahrisabz kashtachiliga keng tarqalgan yo‘nalishlardan biri mayda gullar bilan bezatilgan gullayotgan novdaning ko‘rinishidir. Bu bezak ko‘proq saroy san‘atida keng tarqalgan. Zamonaviy kash-tachilikning 1-yo‘nalishi mahsulotlari tashqi bozor uchun mo‘ljallanganligidir. Shu sababli bu yerda o‘zbek kashtachiligining turli maktablari bezak an‘analariq intilish, qo‘s-hni hududlar naqshlariga erkin murojaat qilish, XIX asr va XX asr boshi texnologiyasi, tabiiy bo‘yoqlar, qo‘lda to‘qilgan matolar va boshqalarni qayta tiklashga intilish yuqori. Bular tashqi va ichki bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga qaratilgan kashtachilik mahsulotlaridir. Birinchi navbatda, bularga Toshkent, Buxoro-Samarqand hududining Buxoro, Shofirkon, G‘ijduvon, Nurota, Urgut, Shahrisabz, Kitob, Farg‘ona, Andijon, Namangan singari markazlarning kashtachilik mahsulotlarini kiritish mumkin. Mashhur olim Pliniyning aytishicha, Vavilon kash-tachiligi qadimdan mashhur bo‘lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikish o‘sha yerda kashf qilingan. Keyinchalik, Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirkach, ipak, zar yoki jun ip qo‘shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozondi. Kashtachilik san‘atining an‘analari Vizantiya hamda XIII-XV asrlarda Kichik Osiyo orqali O‘rta Osiyoga keng tarqaldi. XIV-XV asrlarga mansub miniat-yuralar orqali o‘zbek kashtachiligining qadimdan rivojlanliginini e’tirof etish lozim. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaligida Amir Temur saroyida o‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini yozgan. Kamoliddin Behzod “Zafarnoma”ga ishlagan “Temur taxtda” miniat-yurasida chodirga ishlangan kashtani muhrlagan.

O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda kulolchilik qadimdan ancha rivojlangan, buni arxeologik qazishmalar ham tasdiqlaydi. Bu ishlab chiqarish ham 19-asr oxirida juda rivojlangan.

Kulolchilik barcha shaharlarda va ko‘plab qishloqlarda ishlab chiqarilgan. Biroq ushbu hunarmandchilikning bir qator markazlari rivojlangan, u yerdan mahsulotlar, uni ta-shish noqulay bo‘lishiga qaramay, boshqa joylarga olib ketilgan yoki taniqli ustalar vaqtinchalik ishslash uchun ketgan.

Kundalik hayotda bezakli va sirlangan nafis idishlar bilan bir qatorda oddiy, qo‘pol, sirlanmagan idishlar ham keng qo‘llanilgan. Har xil shakldagi ko‘zalar, suv soladigan ko‘zalar, turli xil idish-tovoq va kosalar, kir yuvish uchun lavabolar va boshqa ehtiyojlar barcha viloyatlarda, shahar

va qishloqlarda ularga talab yuqori bo‘lganligi sababli ishlab chiqarilgan. Sug‘ormaydigan mahsulotlar orasida suv quvurlari (tsuvur) va suv ko‘taruvchi inshootlar uchun maxsus ko‘zalar (digir) chigireyni alohida ta‘kidlash kerak. Xorazmda Digirey ishlab chiqarish rivojlangan. Kulolchilikning o‘ziga xos tarmog‘i tandirlar (tandir) ishlab chiqarish bo‘lgan, ular tubsiz katta qozonga o‘xshardi. Ular jun aralashmasi bilan loydan qo‘lda haykaltaroshlik qilishgan va kuydirmasdan quritilgan. Qo‘lda, loydan turniket qurish orqali, suv (xum) uchun balandligi bir metr yoki undan ko‘proqqa yetadigan katta qozonlar ham qilingan.

Qolgan idishlar kulolchilik mashinasida (charx) shaklantirildi. U vertikal ravishda mustahkamlangan, bir o‘qqa ekilgan ikkita yog‘och doiradan iborat edi. Usta mashina oldida o‘tirdi va pastki doirani oyoqlari bilan aylantirdi, uning yordamida tepada loy bo‘lagi yotgan tepe harakatga keldi. Usta mahorat ko‘rsatib qo‘llari bilan aylanish payti-da kerakli shaklni berdi. Ba‘zan bir vaqtning o‘zida tayoq yoki taroqning bo‘lagi bilan idishlarga oddiy bezak qo‘llanilgan. Kulol mashinasida qolipa solingandan so‘ng eng yaxshi idish-tovoqlar singdirilgan. Naqsh bir necha usulda qo‘llanilgan. Cho‘tkasi (tsalam) bilan bo‘yash, ayniqsa, eng yaxshi mahsulotlarda keng tarqalgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlanтирish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori milliy hunarmandchiligidizni keng targ‘ib qilish orqali yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash va ular ongida vatanparvarlik hissini o‘yg‘otish, eng muhimi, millatimiz sha’ni, qadrini yuksaltirishga erishildi. Qarorda belgilab berilgan imtiyozlar bu boradagi ishlarni yanada keng jalb qilishda xizmat qildi. Xususan, “Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri” shakllantirildi, “Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri” onlayn tarzda real vaqt rejimida yangilanuvchan ochiq va umumfoydalaniladigan veb-sayt ko‘rinishida ishga tushirildi. Shuningdek, “Xalq amaliy san‘ati ustalarining milliy katalogi”ga va “Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri”ga kiritilgan hunarmandlar uchun kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) sotishdan olgan tushumi 100 million so‘mdan oshgan, biroq bir milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdori uchun yakka tartibdagi tadbirdorlar tomonidan to‘lanadigan yagona soliq to‘lovini 2 foiz stavkada undirish belgilab qo‘yildi. Eng asosiysi, ko‘rgazma zallari, galereyalar, pavilyonlar, bozor va yarmarka rastalarida namoyish va sotish uchun joylar, faoliyatini kengaytirish uchun ixtisoslashdirilgan hunarmandchilik majmualari uchun yer uchastkalari ajratilishida “Xalq amaliy san‘ati ustalarining milliy katalogi”ga kiritilgan hunarmandlar uchun ustuvorlik qo‘llanildi.

Hunarmandchilikka ixtisoslashgan hududlarda hunarmandchilik va xalq amaliy san‘ati yo‘nalishlari bo‘yicha

bolalar musiqa va san'at maktablari, "Barkamol avlod" bolalar markazlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunar-ga o'qitish markazlarida o'quv kurslari tashkil etildi.

Hunarmandlarni mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo (shu jumladan, mis, qora metall, ipak va yog'och) bilan ta'minlashning qulay tizimini joriy etish hamda qayta tiklanadigan xomashyo (tutzorlar, qattiq turdag'i daraxt-

lar) bazasini yaratish belgilab berildi.

Milliy katalogga kiritilgan hunarmandlar uchun marketing sohasida doimiy amaliy yordam ko'rsatish va ularning mahsulotlari elektron tijorat (E-commerce) yo'nalis-hida keng qo'llaniladigan Internet jahon axborot tarmog'i veb-saytlari orqali sotishni tashkil etish yuzasidan zarur choralar ko'rildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: "Ўзбекистон", 2016. 61-бет.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1741-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 30-martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-4210-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5242-son Farmoni.
5. Avliyaqulov N.X., Musayev N.N. Pedagogik texnologiya: Oly o'quv yurtlari uchun darslik. –Т.: "Cho'lpox" NMIU, 2012. – 208 b.



ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИДА ЎЗБЕК АДАБИЙ ТИЛИНИНГ АМАЛДАГИ ИЛМИЙ ҚОИДАЛАРИ ВА НОРМАЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ ТАҲЛИЛИ

Шахобиддин Мусаев,
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар
университети мустақил тадқиқотчisi.

Аннотация

Мақолада Ўзбекистонда фаолият юритаётган оммавий ахборот воситаларининг ўз фаолиятида ўзбек тили меъёрларига риоя қилиши ҳолати таҳлил қилинган. Наширётлар, босма наширлар, интернет сайtlари мисолида аниқ меъёр бузилиши ҳолатлари келтирилган.

Калит сўзлар: давлат тили, босма наширлар, интернет сайtlари, адабий тил, қонун талаблари, низом ва қоидалар, қонун бузилиши.

Аннотация

В статье анализируется состояние соблюдения стандартов узбекского языка средствами массовой информации, действующими в Узбекистане. Примеры издательств, печатных изданий и интернет-сайтов являются примерами нарушений норм.

Ключевые слова: государственный язык, печатные издания, веб-сайты, литературный язык, правовые требования, нормативно-правовые акты, правонарушение.

Annotation

The article analyzes the state of compliance of Uzbek language standards by the mass media agencies in Uzbekistan. It was given the examples of publishing houses, printed publications, and web sites which are violations of norms.

Keywords: state language, printed publications, websites, literary language, legal requirements, statutes and regulations, violation of the law.

Мамлакатимизда ўзбек тилининг ижтимоий ҳаётда ва халқaro миқёсдаги обрў-эътиборини тубдан ошириш, ўсиб келаётган ёш авлодни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларга садоқат, улуғ аждодлар бой меросига ворислик руҳида тарбиялаш, ре-

спублика миқёсида давлат тилини тўлақонли жорий этишини таъминлаш мақсадида бир қатор ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Давлат рўйхатига олинган оммавий ахборот воситалари орқали маълумотлар етказилишида, ахборот қонуний, холис ва ишончли

бўлиши баробарида, имловий хатоларсиз бериб борилиши ҳамда давлат тили расмий амал қиласидан доираларда ўзбек адабий тилининг илмий қоидалари ва нормаларига риоя этилиши лозимлиги қонун талабларида белгилаб қўйилган. Ушбу ҳолатга амал қилиниши юзасидан олиб борилган мониторинг натижасида қўйидаги маълумотлар аниқланди:

Нашриётлар фаолияти бўйича: “O‘zbekiston” нашриётида чоп этилган “Оловли гулдаста” китоби кўплаб имловий хатолар билан чоп этилгани аниқланди. Жумладан, китобда “дунёни” сўзи “дуёни”, “маҳалласида” сўзи “маҳаласида”, “хиёбон” сўзи 2 та ўринда “хиёбон”, “Тўрткўл” сўзи “Тўрткул”, “Ростов” сўзи “Рос-тov”, “қўмондонликкача” сўзи “қўмондонликкача”, “Москвадаги” сўзи “Москвадага”, “ўқитувчилик” сўзи “ўқитувчилик”, “II дараражали” бирикмаси 2 та ўринда “II-дараражали”, “қутурғандан” сўзи “қутиргандан”, “қутурар” сўзи “қутирап”, “сирасига” сўзи “сарасига”, “истеъфодаги” сўзи “истеъфодаги”, “кейинги ҳаёти” бирикмаси “кейинга ҳаёти”, “устухонига” сўзи “устихонига”, “рафиқам” сўзи “рафикам”, “худди” сўзи “худи”, “эса” сўзи “зса”, “қутқарив” сўзи “қутқарив”, “бажарадиган” сўзи “бажара-дигай”, “қилишда” сўзи “қилшпда”, “танқис” сўзи “тан-қис”, “қўшилган” сўзи “қўшилган”, “I дараражали” бирикмаси “I-дараражали”, “хужум” сўзи “хужам”, “ҳазм” сўзи “ҳазм”, “майизни” сўзи “мийизни”, “институтни тамомлаши билан” бирикмаси “институтни томонлаши билан”, “ҳолидан” сўзи “холлидан” тарзида нотўғри ёзилган.

“Tafakkur qanoti” нашриёти томонидан чоп этилган китобларнинг саҳифаларида кўплаб имловий хатолар мавжуд. Хусусан, “Киёматдан бир кун олдин” номли китоб саҳифаларида “эътибор” сўзи “эъбор”, “муваффақиятли” сўзи “муваффавиятли”, “Бир хотиннинг макри қирқ эшакка юқ бўлади жумласидаги “эшакка” сўзи “эшикка”, “хатти-ҳаракат” сўзи “хатти-ҳаракат”, “маҳв” сўзи “мавҳ”, “биронтасининг” сўзи “бирпонтасининг” тарзида;

“Макрми ё муҳаббат” номли китоб саҳифаларида “маҳфий” сўзи “маҳфий”, “асфаласофилин” сўзи “асфалосфилин”, “дўппингни” сўзи “дўппингнги”, “хасис” сўзи “хассис”, “боғчага” сўзи “боғчагага”, “фельетон” сўзи “феълетон” тарзида;

“Қасос ва муҳаббат” номли китоб саҳифаларида “ўсган” сўзи “ўс_ган”, “Миртожи” сўзи “Мир_тожи”, “Нозим қайси телефондан қўнгироқ қилаётганини (бўлаётганини) мумкин қадар яшириш учун кўчадаги таксофондан Миртожининг уйига қўнгироқ қилди” жумласи “Нозим қайси телефондан қўнгироқ бораётганини мумкин қадар яшириш учун кўчадаги таксофондан Миртожининг уйига қўнгироқ қилди”, “дастурхон” сўзи “дстурхон” тарзида;

“Генералнинг беваси” номли китоб саҳифаларида

“пойабзал” сўзи “пойфзал”, “Ньютон” сўзи “Ньтон”, “пойтахтга” сўзи “пойтахта”, “униб-ўсган” сўзи “униб-ўсган”, “ховуридан” сўзи “ховридан”, “хисоблаб” сўзи “хисоболаб”, “халқимдан” сўзи “халқимдан”, “дея ўйлади” сўзи “дей ўйлади”, “мавқе” сўзи “мавке”, “ҳаммоллик” сўзи “ҳаммолик”, “Огайо” сўзи “Огайё”, “ҳар кун” сўзи “хар кун” тарзида нотўғри ёзилган.

Юқоридаги ҳолатларда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 24 августда қабул қилинган “Ўзбек тилининг асосий имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги 339-сонли қарори [1] талаблари бузилган.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат тили ҳақида”ги қонуни [2] 7-моддаси 1-хатбоши талабларига мувоғиқ, давлат тили расмий амал қиласидан доираларда ўзбек адабий тилининг илмий қоидалари ва нормаларига риоя этилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси “Истеъмолчиларнинг хукуқларини қилиш тўғрисида”ги қонуни [3] 19-моддаси талабларига кўра, ижрочи айрим турдаги ишларни бажариш қоидаларида ёки шартномада белгиланган сифатда ишни бажариши шарт. Нашриёт ходимлари ушбу қонунлар ва қарор талабларига риоя этмаган.

Босма ОАВ фаолияти бўйича:

“1000 сири” газетасининг муқоваси ва саҳифаларида кўплаб имловий хатоликларга йўл қўйилган. Жумладан, нашрнинг 2020 йил учун чоп этилган 1-сонининг муқовасида кирилл ва лотин ҳарфлари чалкаштирилиб, “Енг яхши рецептлар то‘плами” тарзида келтирилган. Шунингдек, “Ловия ва акация бидан диабет қўрқинчи эмас” кўринишида жумла хатоликлар билан чоп этилган. Газета муқовасидаги “Диабет ҳаммаси назорат остида” сарлавҳасида “ҳаммаси” сўзи “ҳаммаси” деб нотўғри ёзилган.

Шунингдек, шу сондаги “Касалликни тушунишни ўрганамиз” сарлавҳали материалда “усуллари” сўзи “усуслари”, “миқдорининг” сўзи “миқдоринининг”, “туртки” сўзи “туртки”, “таъсири” сўзи “тасири”, “бошланишида” сўзи “бошланшида”, “ошиши” сўзи “ошишиши”, “чиқарадиган” сўзи “чиқарадиган”, “ўтгандан кейин” сўз бирикмаси “ўтгандан кейин”, “куйида” сўзи “кўйида”; “Мутахассис шарҳи” сарлавҳали материалда “организмида” сўзи “организмимида”, “зарарсизлантирувчи” сўзи “зарарсизлантирувчи”, “микроорганизмлари” сўзи “микроорганизмлари”, “жараёнини” сўзи “жараёнини”, “холециститни” сўзи “холесеститни”, “дамламалари” сўзи “дамлмааларини”, “таъсирчанлигини” сўзи “таъсирчанлигини”; “Диабетиклар учун гимнастика” сарлавҳали материалда “кандай” сўзи “қайди”, “соғлигимнинг” сўзи “соғлигиминг”, “Барча муаммолар ечимида жавоб бу қўзикориндир” сарлавҳали материалда “маълум” сўзи “маълу”, “айтишича” сўзи “айт-

шича”, “шошилинч” сўзи “шошилинг”, “100 касаллик шифокори” сарлавҳали материалда “тайёрланадиган” сўзи “таёrlанадиган”, “дамламасини” сўзи “дамламасини”, тарзида; 2020 йил учун чоп этилган 2-сонида “ривожланишини” сўзи “ривожланишини”, “саломатлигингизга” сўзи “саломатлигинигизга”, “аралаштирилади” сўзи “аралаштирилади”, “куйидаги” сўзи “куйидаги”, “тайёрлайман” сўзи “тайёрлайман”, “структуралари” сўзи “структуралари”, “глакома” сўзи “глакома”, “операция” сўзи “оперция”, “процедураларда” сўзи “процедуларида”, “хусусиятларини” сўзи “хусусиятларини” тарзида хато ёзилган.

“Муборак ҳаёти” газетасининг 13 майдаги 5-сонида “директори” сўзи “дериқтори”, “чўзиб” сўзи “чўзиб”, “кўчатини” сўзи “кучатини”, “үхшаш” сўзи “үхшаш”, “маҳсулотларини” сўзи “маҳсулотларини”, “қуриб” сўзи “қўриб”, “тигиена” сўзи “тигиена”, “даҳшатларини” сўзи “даҳшатларини”, “жаҳон” сўзи “жон”, “муҳофаза” сўзи “муҳофоза”, “объектларидан” сўзи “объектларин”, “риоя” сўзи “ривоя”; 31 мартағи 4-сонида “хайрли” сўзи “хайрли”, “табиатан” сўзи “табитан”, “таҳсил” сўзи “таҳсил”, “тия олмаган” сўз брикмаси “тияолмаган”, “етарли” сўзи “этарли”; 14 мартағи 3-сонида “килограммга” сўзи “килограммга”, “тўғаракларда” сўзи “тўғаракларда”, “Саодат” сўзи “Саодат”, “Исройлованинг” сўзи “Исройлаванинг”, “камолотида” сўзи “камолатида”, “сергайрат” сўзи “сергайтар”, “устида” сўзи “устида”, “босқичларида” сўзи “босқичларида”, “унутилмас” сўзи “унутилмас”, “мехнат” сўзи “муҳнат”, “бюрократия” сўзи “бюрократия”, “коррупция” сўзи “коррупсия”, “порахўрлик” сўзи “порахурлик”, “оммавий” сўзи “аммавий”, “тажовузларни” сўзи “тажаввузларни”, “ўтказган” сўзи “ўтказга”, “технологиялари” сўзи “технологиялари”, “фарзандлари” сўзи “фарзадлари”, “ташхислаш” сўзи “ташхишлиш”, “ифори” сўзи “иффори”; 27 февралдаги 2-сонида чоп этилган материалларда “ишонч” сўзи “ишоч”, “фуқаролик ҳолати” жумласи “фуқаролик ҳолатига”, “Хусайн Бойқаро” номи “Хусайнбойқаро”, “сўзлай” сўзи “сузлай”, “фарёд” сўзи “фаёд”, “манфаати” сўзи “манфаат”, “Халқпарварлник-нинг” сўзи “Халқ парварликнинг”, “юклатилган” сўзи “юклатиган”, “учинчи” сўзи “учунчи”, “аниқлаб” сўзи “ниқлаб”, “куйиш” сўзи “куйиш”, “оиласда” сўзи “оиласди”, “принципни” сўзи “принсипни” тарзидаги хатолар билан чоп этилган.

“Agronom” газетаси сахифаларида кўплаб имловий хатолик ва техник камчиликларга йўл қўйилган.

Хусусан, 2020 йил 28 январдаги 1-сонида “ehtiyoj” сўзи “extiyoj”, “inspeksiysi” сўзи “inspeksiysi”, “e’lon” сўзи “e’lon”, “bo’yicha” сўзи “buyicha”, “mahsulotlari” сўзи “maxsulotlari”; “раҳбарияти” сўзи “раҳбарияти”, “сухбати” сўзи бешта ҳолатда “сухбати”; “моҳияти” сўзи тўртта ҳолатда “моҳияти”,

“соҳага” сўзи “соҳага”, “ҳақидаги” сўзи “ҳақидаги”, “маъруза” сўзи “маруза” “маърузачилар” сўзи “маърузачилар”, “таълим” сўзи “таълим”, “муҳокамалар” сўзи “муҳокамалар”, “ҳаётга” сўзи “ҳаётга”, “таъкидлаб” сўзи “таъкидлаб”, “таҳлил” сўзи “таҳлил”, “алоҳида” сўзи “алоҳида”, “эътибор” сўзи “эътибор”, “талабалар” сўзи иккита ҳолатда “таълабалар”, “абитуриентлар” сўзи “абитуриентлар”, “унинг” сўзи “унинг”, “миқёсидаги” сўзи “миқёсидаги”, “жорий” сўзи “жориий”, “концепция” сўзи “концепсия”, “яъни” сўзи “яни”; 28 февралдаги 2-сонида “Hindiston” сўзи учта ҳолатда “Xindiston”, “jihozlar” сўзи “jixozlar”, “hosil” сўзи “xosil”, “himoya” сўзи “химоя”, “aksiya” сўзи иккита ҳолатда “aktsiya”, “этишга” сўзи “этишг”, “мурожаат” сўзи “мурожат”, “муҳим” сўзи “муҳум”, “shahrida” сўзи “shaxrida”, “mutaxassis” сўзи “mutahasis”, “o’qituvchilarga” сўзи “oqituvchilargi”, “texnologiyalarini” сўзи “texnalogiyalarini”; “jahondagi” сўзи “jaxondagi”; 28 мартағи 3-сонида “xalqaro” сўзи иккита ҳолатда “halqaro”, “xotin-qizlar” сўзи “hotin-qizlar”, “infeksiyasi” сўзи “infeksiyasi”, “қобилиятли” сўзи “қобилиятли”, “институтларида” сўзи “институтларида”, “санъат” сўзи “саънат”, “илмий” сўзи “лмий”, “муҳандислик” сўзи “муҳандислик”, “маҳсулотларини” сўзи учта ҳолатда “маҳсулотларини”, “химояси” сўзи учта ҳолатда “химояси”; 28 апрелдаги 4-сонида “дараҳтда” сўзи “дарҳтда”, “фарзандларидек” сўзи “фарзандларидек”, “эдилар” сўзи “едилар”, “шогирдларига” сўзи “шогирдларига”, “тайёрланиши” сўзи “таёrlаниши”, “видеодарсларни” сўзи “видеодарсларни”, “бўлган” сўзи “бўлаган”, “infeksiyaga” сўзи “infeksiyaga”, “hissangizni” сўзи “xissangizni”, “har” сўзи иккита ҳолатда “xar”, “xotira” сўзи “hotira”, “sovg’alar” сўзи “sovg’lar” тарзида хато ёзилган.

“Yangiyo’l” газетасининг 2020 йил 31 январдаги 4-5-қўшма сонида “аҳолини” сўзи “аҳолни”, “муассасалари” сўзи иккита ҳолатда “муассаслари”, “муассаслардаги”, “бакалавриат” сўзи “бакалаврият”, “тақдим этиладиган” сўзи “тақдим эталадиган”, 14 февраљдаги 7-сонида “рўйхат” сўзи “рўҳат”, “Yangiyo’l” сўзи иккита ҳолатда “Yangiyo’l”, 6 мартағи 10-сонида “худудида” сўзи “худудида”, “ётқизилган” сўзи “ётқизилган”, “шундан” сўзи “шўндан”, “куйи” сўзи “куйи”, “қарамоғида” сўзи “каромоғида”, “юртбошимиз” сўзи “юртбошимиз”, “куйилмоқда” сўзи “куйилмоқда”,

8 майдаги 13–14-қўшма сонида “бизнинг” сўзи “бизнинг”, “харажатлари” сўзи “харажатлари”, “холидан” сўзи “холидан”, “аҳиллик” сўзи “аҳиллик”, “эканлигимизни” сўзи “эканлигимизни”, “Қорақалпоғистон” сўзи “Қароқалпоғистон”, “вибрионларнинг” сўзи “вибрионларинг”, “букилган” сўзи “букилан”, “шиддатли” сўзи “шиддитли”, “фаслларида” сўзи “фасилларида”, “мутасадди” сўзи “муттасади” тарзида хато ёзилган.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни 7-моддаси 1-хатбоши талабларига мувофиқ, давлат тили расмий амал қиласидан доираларда ўзбек адабий тилининг илмий қоидалари ва нормаларига риоя этилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси “Истеъмолчиларнинг хукуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонуни 19-моддаситалабларига мувофиқ, ижрочи айrim турдаги ишларни бажариш (хизматлар кўрсатиш) қоидаларида ёки шартномада белгиланган сифатда ишни бажариши (хизмат кўрсатиши) шарт.

Веб-сайтлар бўйича:

«www.sof.uz» веб-сайти

Веб-сайтларни рўйхатга олиш маълумотларига асосан («www.cctld.uz» веб-ресурси маълумотлари [4]) 2015 йил 30 ноябрь куни рўйхатдан ўтказилган. 2016 йил 15 август куни 1124-сон гувоҳнома билан ОАВ сифатида давлат рўйхатига олинган.

Веб-сайт асосан Ўзбекистонда ва жаҳонда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар тўғрисида хабар ва янгиликлар бериб боришига ихтисослаштирилган.

Веб-сайт “Ўзбекистон”, “Жаҳон”, “Иқтисол”, “Жамият”, “Илм-фан”, “Тиббиёт”, “Спорт”, “Таҳлил” ва “Колумнистлар” бўлимларидан иборат.

Веб-сайтда 2020 йил 1 июнь куни жойлаштирилган “Тошкентда фуқароларни мажбурлаб автобус солаётган ИИВ ходимлари бўйича тушунтириш берилди (видео)” номли материалнинг сарлавҳасида “автобусга” сўзи “автобус” сифатида талқин этилган [5].

«www.xabar.uz» веб-сайти

Веб-сайтларни рўйхатга олиш маълумотларига асосан, («www.cctld.uz» веб-ресурси маълумотлари) 2008 йил 25 сентябрь куни ташкил топган. 2017 йилнинг 27 декабрь куни 1210-сон гувоҳнома билан ОАВ сифатида давлат рўйхатига олинган.

Веб-сайт асосан Ўзбекистон ва жаҳон янгиликларини бериб боришига ихтисослаштирилган.

Веб-сайт “Долзарб”, “Янгиликлар”, “Сиёsat”, “Иқтисодиёт”, “Жамият”, “Рукнлар” ва “Медиа” бўлимларидан иборат.

Веб-сайтда 2020 йил 4 июнь куни жойлаштирилган “Раматов ҳар ой иккита чегарадош туманда бир хафтадан яшайди — Президент” номли материалда “чегарадош” сўзи “чегардош” сифатида талқин этилган.

Иқтиbos: “... Билардику, шу чегардош ҳудудни...” [6].

Шунингдек, веб-сайтда 2020 йил 13 июнь куни жойлаштирилган “Халқ депутатлари Қарши туман кенгашига суд қарори “1 тийин”ми?” номли материалда “тасаввурига” сўзи “тасаввури” сифатида талқин этилган.

Иқтиbos: “... депутатлари орасида қонунчиликдан гаригина тасаввури эга ҳеч ким бўлмаса?!...” [7].

«www.aniq.uz» веб-сайти

Веб-сайтларни рўйхатга олиш маълумотларига асосан («www.cctld.uz» веб-ресурси маълумотлари) 2016 йил 31 август куни ташкил топган. 2018 йил 13 июль куни 1241-сон гувоҳнома билан ОАВ сифатида давлат рўйхатига олинган. Веб-сайт асосан Ўзбекистон ва хорижий давлатларга оид воқеа-ҳодисалар тўғрисида янгиликлар бериб боришига ихтисослаштирилган.

Веб-сайтда 2020 йил 29 июнь куни жойлаштирилган “Ўзбекистонда интернет тезлиги кўтариладими?” номли материалда “ҳақида” сўзи “хақда” сифатида талқин этилган.

Иқтиbos: “... Бу хақда АКТ вазирлиги ахборот хизмати...” [8].

Шунингдек, 2020 йил 29 июнь куни жойлаштирилган “Коронавирус! Ўзбекистонда айни дамда қанча беморнинг аҳволи ўта оғир?” номли материалда “эпидиомиологик” сўзи “эпид” сифатида талқин этилган.

Иқтиbos: «... “охирги бир кунда 15 459 та, эпид мавсум давомида...” [9].

«www.zarnews.uz» веб-сайти

Веб-сайтларни рўйхатга олиш маълумотларига асосан («www.cctld.uz» веб-ресурси маълумотлари) 2009 йил 20 июль куни ташкил топган. 2018 йил 12 февраль куни 1217-сон гувоҳнома билан ОАВ сифатида давлат рўйхатига олинган. Веб-сайт асосан Ўзбекистон ва маҳаллий вилоят янгиликларига оид воқеа-ҳодисалар тўғрисида ахборот бериб боришига ихтисослаштирилган.

Веб-сайтда 2020 йил 11 июнь куни жойлаштирилган “Жазодан мақсад - шахсни ахлоқан тузатиш ва қайта жиноят содир этишининг олдини олиш” номли материалда «суистеъмол» сўзи «суистеъмол» сифатида талқин этилган.

Иқтиbos: “... мансаб ёхуд хизмат мавқенини суистеъмол қилиб...” [10].

ОАВ сифатида давлат рўйхатига олинган веб-сайтлар орқали фойдаланувчиларга маълумотлар етказилишида, ахборот конуний, холис ва ишончли бўлиши баробарида, имловий хатоларсиз бериб борилиши ҳамда давлат тили расмий амал қиласидан доираларда ўзбек адабий тилининг илмий қоидалари ва нормаларига риоя этилиши лозим.

Зоро, веб-сайтларда жойлаштирилган материалларда сўзлар ва жумлалар ўзбек тилига оид имло ва стилистика қоидаларига зид ҳолда бузуб талқин қилиниши Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 1995 йил 24 августда қабул қилинган “Ўзбек тилининг асосий имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги 339-сон қарори ва Ўзбекистон Республикаси “Давлат тили ҳақида”ги қонуни 7-моддаси талабларига зид келиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. <https://lex.uz/docs/1625271>
2. <https://lex.uz/acts/121051>
3. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 18.01.2022 й., 03/22/746/0032-сон
4. www.cctld.uz веб-ресурси маълумотлари
5. <https://sof.uz/xe0>
6. <https://xabar.uz/post/ramatov-har-oy-ikkita-cheagaradosh-tumanda-bir>
7. <https://xabar.uz/tahlil/xalq-deputatlari-qarshi-tuman-kengashi>
8. <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekistonda-internet-tezligi-kutarildimi>
9. <https://aniq.uz/yangiliklar/koronavirus-uzbekistonda-ayni-damda-qancha-bemorning-ahvoli-uta-ogir>
10. <http://zarnews.uz/post/jazodan-maqсад-shaxsni-axloqan-tuzatish-va-qayta-jinoyat-sodir-etishining-oldini-olish>



AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA PSIXOLOGIK XAVSIZLIK MASALALARINING DOLZARBLIGI

Farxod Karimov,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universtiteti psixologi

Annotatsiya

XX asrdagi yadro polegonlar XXI asrga kelib o‘z o‘rnini mafkuraviy polegonlarga bo‘shatib berdi. Natijada, yer yuzida geosiyosatda gegimonlikka intilayotgan davlatlararo “axborot siyosati”, “axborotlashgan jamiyat” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada OAVning axborotlashgan jamiyatga ijobjiy va salbiy ta’siri hamda uni bartaraf etish usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Axborotlashgan jamiyat, global axborot makoni, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy ongni manipulyasiya qilish.

Аннотация

Ядерные полегоны двадцатого века уступили место идеологическим полегонам в двадцать первом веке. В результате между странами, которые стремятся доминировать в geopolитике на земле, возникли понятия «информационная политика» и «информационное общество». В данной статье рассматриваются положительные и отрицательные воздействия СМИ на информационное общество и пути его преодоления.

Ключевые слова: Информированное общество, глобальное информационное пространство, психологическая безопасность, манипулирование общественным сознанием.

Annotation

The nuclear polegons of the twentieth century have given way to ideological polegons in the twenty-first century. As a result, the concept of «information policy» and «information society» has emerged between countries that seek to dominate geopolitics on earth. This article discusses the positive and negative impact of the media on the information society and ways to overcome it.

Keywords: Informed society, global information space, psychological security, manipulation of social consciousness.

Axborot globallashuvi va axborot texnologiyalarining jadal taraqqiy etib borishi natijasida “global axborot makoni” va “axborot jamiyat” vujudga keldiki, bu jarayonda shaxs, jamiyat va davlat o‘zaro munosabatlarining asosini axborotni ishlab chiqish, uzatish, qayta ishslash va undan foydalanish omillari tashkil etmoqda.

Global axborot makonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan Internetning imkoniyatlari va auditoriyasi ko‘lami jadal o‘sib bormoqda. Agar 2000-yilda jahonda Internet

tarmog‘idan foydalanuvchilarning soni 500 mln. kishi atrofida bo‘lgan esa, 2015-yilda bu ko‘rsatgich dunyo ahollisining qariyb yarmini, ya’ni 3 mlrd.dan ziyodni tashkil etdi. [1, 13] Shu bilan birga, turli ijtimoiy tarmoqlarning ham, asosan, yoshlар orasida ommalashuvи global axborot makonining ta’sirini oshirmoqda. Ma’lumki, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchchi yo‘nalishida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy

bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'yangan, o'zaro manfaatlari va amaliy ruhdagi tashqi siyosat, davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatimiz yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimiz xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalari belgilangan.

Axborot xavfsizligi mavzusini dolzarbligi bir qator xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida nazariy aoslanib, o'z tasdig'ini topgan. Masalan N.J.Ganisheva o'zining "Основы информационной безопасности" maqolasida "axborotning yaxlitligi va maxfiyligi tahdidlarining dolzarbligi bizni himoya qilish vazifasiga diqqat bilan e'tibor qaratishni talab qildi. Bugungi kunda moliyaviy, raqobatbardosh, harbiy yoki siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar doimo xavf ostida bo'ladi. Har bir mamlakatning oldida turgan katta xavf – axborot infratuzilmasi obyektlarini boshqarishga e'tiborsizlik orqali yuzaga keladigan moddiy ham ma'naviy talafotdir", – deya takidlaydi [2, 204]. E.V. Vostretsov "Основы информационной безопасности: учебное пособие для студентов вузов" o'quv qo'llanmasida "Axborot resurslari – bu bilim va kasbiy faoliyatning turli sohalarida tasdiqlangan ma'lumotlarni taqdim etish uchun birlashtirilgan ma'lumotlar to'plami. Ushbu jamlangan fikrlar yig'indisi texnika, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishi yoki aksincha izdan chiqarishi mumkin bo'lgan xavflarni keltirib chiqaradi", – deya axborot manbalari katta xavflilik darajasi haqida fikr bildiradi [3, 372]. S.I.Makarenko o'zining "Информационная безопасность: учебное пособие для студентов вузов" o'quv qo'llanmasida "Axborot xavfsizligi deganda, biz axborot jamiyat fuqarolariga, shu jumladan, axborot egalari va foydalanuvchilariga katta zarar yetkazadigan tabiiy yoki texnogen, shuningdek, qasddan aralashuv natijasida yuzaga kelgan mafkuraviy xavfsizlikni tushunamiz", deb aytadi [4, 9]. O'zbekistonlik olimlardan F.Mo'minov Sh. Barotovlarning "Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik" o'quv qo'llanmasida "Har qanday zarur axborotga ega bo'lishga intilish hozirgi zamonning talabiga aylandi. Bugungi kunda har bir mamlakatning axborot makoni ikki xil axborot bilan to'ldirilmoqda: birinchisi – kuchli axborot texnologiyalariga ega bo'lgan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularning manfaatlariga xizmat qiladigan axborot bo'lsa, ikkinchisi – har bir davlat o'zi haqida ishlab chiqqan va milliy manfaatlarni himoya qiladigan ma'lumotlardir", deb axborot xavfsizligining siyosatga bevosita daxldor ekanligiga to'xtaladi [5, 43].

Global axborot makoni o'zining olamshumul ijobiy imkoniyatlari va foydali tomonlari bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi sohasida ham bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Shuning uchun ham bunday sharoitda inson, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi manfaatlarining himoyalanganligini, ya'ni axborot xavfsizligini ta'minlash har bir suveren davlat oldidagi ustuvor vazifaga aylandi. Shu bilan birga, aholini global axborot makoni-

dagi Internet va ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali tarqatilayotgan salbiy axborot-psixologik ta'sirlardan himoya qilish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki internet va OAV shaxsga, jamiyatdagi barqarorlikka va davlat xavfsizligiga juda katta ta'sir ko'rsatadi [6, 56] hamda axborot-psixologik tahdidlarning kuchli ta'sir vositasi hisoblanadi.

Aslida, axborot va aloqa vositalarining favqulodda rivojlanib ketishi butun yer yuzini "bir qadam" qilib qo'ydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Global axborot makonida axborot uzatish imkoniyatlari uchun endilikda chegara tushunchasi begona. Inson aql-idroki butun dunyoni axborotlashgan bir makonga aylantirdi. Shunday sharoitda davlatlarning global yaxlitlik sub'ektiga aylanishini ta'minlash uchun muayyan tadbirlar majmuini amalga oshirish zarur edi. Xususan, davlatlar tomonidan axborotlashgan jamiyatni rivojlantrish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki jahondagi ayrim davlatlarning axborot va yuqori texnologiyalar sohasidagi ustunligi dunyo davlatlari o'rtaсидаги "raqamli tengsizlik"-ning vujudga kelishiga olib keldi. Natijada, o'zining axborot yig'ish, qayta ishslash tizimiga ega bo'lмаган hamda xorijiy dasturiy ta'minotlar, tarmoqlardan foydalanuvchi davlatlar ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan muvofaqiyatsizlikka uchrash ehtimoli kuchaydi.

Shu bilan birga, global axborot makonida milliy, min-taqaviy va global xavfsizlikka bo'lgan axborot va axborot-psixologik tahdidlarning ham ko'lami kengaydi. Mutaxasislar fikricha, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi [7, 22]. Xususan, global axborot maydonida ayrim xorijiy OAV va internet saytlari orqali nafaqat axborot-psixologik urushlar va axborot tahdidlari, balki pornografiya, axloqsizlik, fahsh, zo'ravonlik va turli diniy sektalarining buzg'unchi g'oyalari targ'ib qilinmoqda [8]. Ayniqsa, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo'lgan begona qadriyatlarni targ'ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish, kiberterrorizm keng tarqalmoqda [9]. "Ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi boshqa xurujlar haqida ham shunday fikr aytish mumkin. Bular o'ziga xos "san'at axboroti" bo'lib, yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatish darajasi anche yuqori ekanligini unutmaslik darkor.

Eng achinarlisi, bugungi kunda terroristik va ekstremistik tashkilotlar, guruhhlar yoki individlar uchun global axborot maydonida bemalol buzg'unchi faoliyat yuritish imkoniyati mavjud bo'lib, ular ommaviy axborot vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va internetdan o'z manfaatlari yo'lida o'zaro aloqalarini ta'minlash, g'oyalarni targ'ib qilish, yangi a'zolarni o'zları tomonga og'dirish va moliyaviy manbalar to'plash maqsadlarida foydalanishmoqda.

Shuningdek, terrorchi tashkilotlar kabi nodavlat tuzilmalar milliy davlatlar xavfsizligiga assimmetrik tahdidlarni amalga oshirishmoqda. Ularning assimmetrikligi shundaki, ular mamlakatlarning an'anaviy harbiy kuchlari bilan miqdor, harbiy texnika jihatidan notengdir. Bundan tashqari, hozirda nodavlat ishtirokchilarining nishonlari ham an'anaviy urushlardagi nishonlardan farq qiladi. An'anaviy urushlarda asosiy nishon raqib tomonning harbiy ob'yektlari bo'lgan. Lekin hozirda terrorchi guruhlarning nishonlari butunlay o'zgardi. Ularning nishonlari harbiy ob'eklar va harbiy kuchlar emas, balki jamoat ob'yektlari va tinch aholi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi omillarni zamonaviy xalqaro munosabat va xalqaro xavfsizlik masalalarini tahlil qilishda e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Global axborot makonidagi axboriy va axborot-psixologik tahdidlarga qarshi qurash choralarini kompleks tarzda ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Aholini, ayniqsa, yoshlarni bunday tahdidlarning ta'siridan asrashda, avvalo, ular ongida milliy buniyodkor va vatanparvarlik g'oyalari bilan boyitilgan mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, milliy axborot makonining salohiyatini oshirib, uni o'zimizning axborotlar bilan to'ldirib borish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ганижева, Н. Ж. Основы информационной безопасности / Н. Ж. Ганижева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 31 (373). URL: <https://moluch.ru/archive/373/83465/> (дата обращения: 28.02.2022).
2. Вострецова Е. В. Основы информационной безопасности: учебное пособие для студентов вузов. —Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019.
3. Макаренко С. И. Информационная безопасность: учебное пособие для студентов вузов. —Стахополь: СФ МГТУ им. М. А. Шолохова, 2009.
4. Mo'minov F. Barotov Sh. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. —Toshkent: JIDUda nashr etildi. 2013. —234 b.
5. Алимов Р.М. Сулайманов Ш.Х. Очилов Б.Б. Анализ информации в международных отношениях – Учебное пособие. –Ташкент: УМЕД, 2007. –C.180.
6. Muminov F., Barotov SH. va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. — Toshkent: JIDU, 2013.
7. Eshbekov T. Mafkura maydonida axborot-psixologik xavfsizlik. O'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zMU, 2011. —150 b.
8. www.internetworldstats.com
9. www.markaz.tiu.uz



OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MASOFAVIY TA'LIMDA QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR

Saidjalol Gaziev,

Oliy ta'limga rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi bo'lim boshlig'i

Muhammad Yo'ldoshev,

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola Oliy ta'limga muassasalarining masofaviy masofaviy ta'limga qo'llaniladigan texnologiyalari, ularning turlari, qo'llanilishi, usullari, imkoniyatlari va erishiladigan natijalarga bag'ishlangan. O'z navbatida bundan ko'zlangan maqsad, Oliy ta'limga muassasalarining masofaviy ta'limga shaklini joriy etish, bu bo'yicha tajriba ortirish, avfzallikkari va yutuqlari tahlil qilish hamda tadqiqotlar olib borish.

Kalit so'zlar: Oliy ta'limga, Masofaviy ta'limga, Texnologiyalar, Axborot tizimlari, raqamlashtirish, raqamli boshqaruvi, ta'limga sifati, natijaviylik kommunikatsiya, texnologiya, Axborot texnologiyalar, multimedia, individual, informatika, texnik vositalar.

Аннотация

Данная статья посвящена технологиям, используемым высшими учебными заведениями в дистанционном дистанционном обучении, их видам, применению, методам, возможностям и результатам, которых необходимо достичь. В свою очередь, целью этого является внедрение формы дистанционного обучения высших учебных заведений,

получение опыта в этом отношении, анализ ее преимуществ и достижений, проведение исследований.

Ключевые слова: Высшее образование, Дистанционное образование, Технологии, Информационные системы, цифровизация, цифровой менеджмент, качество образования, эффективность, коммуникация, технология, Информационные технологии, мультимедиа, индивидуальное, информатика, технические средства.

Annotation

This article is devoted to the technologies used by higher education institutions in remote distance education, their types, applications, methods, possibilities, and the results to be achieved. In turn, the aim of this is to introduce the form of distance education of higher education institutions, to gain experience in this regard, to analyze its advantages and achievements, and to conduct research.

Keywords: Higher education, Distance education, Technologies, Information systems, digitization, digital management, quality of education, productivity, communication, technology, Information technologies, multimedia, individual, informatics, technical tools.

Kirish

Hozirgi kunda oliv ta'linda ko'plab yangi texnologiyalar qo'llanilmoqda. Xorijiy va innovatsion ta'lum texnologiyalari ko'plab oliv ta'lum muassasalarida joriy etilmoqda. Darhaqiqat, 2020-yilgi koronavirus pandemiyasi ko'pchiligidizni yangi narsalarni sinab ko'rishga va ko'pincha murakkab masofaviy ta'lum jarayoni uchun internetga kirishga majbur qildi. Oldinlari masofaviy ta'lum biz uchun hali qo'llash mumkin emasdek tuyulardi. Pandemiya davrida ko'plab imkoniyatlarga ega ekanligimizni yana bor bor anglab yetdik. Masofaviy ta'luming asosiy vositalaridan biri bu axborot kommunikatsiya texnologiyalari, yuqori tezlikdagi internet, axborot tizimlaridan iboratdir. Biz mana shu vositalarga tayangan holda masofaviy ta'lumi joriy etishimiz va amalga os-hirishimiz mumkin. Dunyo tajribasini oladigan bo'lsak, ko'plab rivojlangan davlatlar, jumladan, Rossiya, AQSH, Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlarda masofaviy ta'lum yo'lga qo'yilgan. Ushbu davlatlar masofaviy ta'lum joriy etilgan oliv ta'lum muassasalarida, ta'lum sifati, natijaviylik va korruption holatlarni yoqligi, erishilgan katta natijalardan biri desak mubolog'a bo'l-maydi. Buunda ko'rindiki masofaviy ta'lumi yutuqlari, avfzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari va kuchsiz tomonlari ham mavjuddir.

Asosiy qism

Masofaviy ta'lum, oliv ta'lum muassasalarida qo'llash koplab sohalarda ustunlik beradi, ammo shunday sohalar ham borki masofaviy ta'lumi joriy etish ko'plab muammo va baxslarga sabab bo'lishi mumkin. O'zi aslida masofaviy ta'lum nima? U qanday normativ-huquqiy asosga ega? Bu kabi savollarga javob olish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlariga yuzlanamiz. Biz masofaviy ta'limga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. Bu bo'yicha 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lum tog'risidagi 637-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 2-bob 16-moddaasida Masofaviy ta'lum to'g'risida keltirib o'tilgan. Masofaviy ta'limga quyidagicha ta'rif beriladi: Masofaviy ta'lum o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lum oluvchilar tomoni-

dan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'lumi tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ushbu qonun asosida ko'plab oliv ta'lum muassasalarida 2022-2023-yil o'quv yili uchun masofaviy ta'lum shakllari joriy etildi ham Davlat test markazi tomonidan abituriyentlarni qabul qilish ishlari amaliyotga joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15 iyundagi farmoyishi bilan 2022/2023 o'quv yili uchun davlat oliv ta'lum muassasalariga o'qis-ha qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tasdiqlandi. Unda Masofaviy ta'lum Bakalavriat bosqichi uchun 3410 nafar kvota ajratildi. Bunda ko'rinish turibdiki Masofaviy ta'lum oliv ta'lum muassasalarini uchun yangi va rivojlanayotgan ta'lum shakliga aylanmoqda.


Masofaviy ta'lum uchun quyidagi onlayn platformalaridan foydalanish mumkin. Eng ommabop va qulay platformalar bular Skype, Zoom, Google yoki boshqa onlayn aloqa platformalari hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'p odamlar simsiz yoki mobil texnologiyalarning foydalanishadi, jumladan:

- Shaxsiy kompyuterlar
- Noutbuklar
- Smartfonlar
- Planshetlar

Oliy ta'lum tizimini boshqarish platformalari o'quv jarayondi raqamli boshqarishda foydalaniladi. Hozir-da ko'pgina oliv ta'lum muassasalari Ta'lumi boshqarish tizimi (LMS), Kurslarni boshqarish tizimi (CMS) yoki Oliy ta'lum jarayonlarini boshqarish axborot tizimi(HEMIS) kabi tizimlardan foydalanishmoqda mavjud. HEMIS - Oliy ta'lum jarayonlarini boshqarish axborot tizimini olishimiz mumkin. Ushbu axborot tizimi "Ma'muriy boshqaruv", "O'quv jarayoni", "Ilmiy faoliyat" va "Moliyaviy boshqaruv" axborot tizimlarini o'z ichiga olgan. HEMIS axborot tizimi oliy ta'lum muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobi-

ga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talaba-larga elektron ta'lif xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lif muassasalarini bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lif muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizi-mini raqamlashtirishga xizmat qiladi. Bu kabi tizimlar oliy ta'lif muassasalariga o'z ma'lumotlarini saqlash va kuzatish imkonini beruvchi vositalardir. Ularni onlayn o'qitish va o'qitish metodologiyasi sifatida tasavvur qili-shingiz mumkin.

Hozirda internet tarmog'i yetib bormagan joylar qol-madi deyarli. Ammo ba'zi chekka hududlarda Internetga kirish imkon bo'lmasligi mumkin. Datacasting (ma'lumotlar uzatish) qishloq va shaharlardagi muhtoj oilalar-ga yordam ko'rsatish orqali bu bo'shlioni bartaraf etishga yordam beradi. Oliy ta'lif tizimlari bir tomonlama televizion eshittirishlar orqali o'quvchilarga mo'ljallangan xavfsiz ma'lumotlarni uzatadi. Ma'lumotlarni uzatish g'o-yasi Internetga ega bo'limgan talabalarga hujjatlar, darslar va videolarni radio to'lqinlar orqali taqdim etishdir. Talabalarga antenna va qabul qiluvchi va ularning Wi-Fi ga ulangan qurilmalari kerak.



1-rasm. Masofaviy ta'lif


Bu kabi uzoq qishloqlar, ovullarda ham hozirgi kunga kelib zamonaviy internet tarmog'iga bog'lanmoqda. O'zbekiston hududining barcha nuqtalarida sifatli internetni bo'lishi nafaqat masofaviy ta'lif, balki boshqa ta'lif shakllari uchun ham muximdir.

Masofaviy ta'lifda onlayn darsliklarni sifatli va mu-kammal bo'lishi muxim omillardan biri hisoblanadi. Onlayn darsliklardan eng asosiy va ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilarni tashkil etadi:

- Elektron darsliklar
- Elektron kitoblar
- Videoe darsliklar
- Audio darsliklar

- Qo'shimcha topshiriqlar, prezintatsiyalar, maqolalar
- Ta'lifni boshqaruv platformalari
- Aloqa vositalari

Ushbu vositalar masofaviy ta'lif uchun eng kerak bo'ladi dan vositaladan biridir. Agar ushbu elektron darsliklar bo'lmasa masofaviy ta'lifni joriy etish va amalga oshirishni iloji bo'lmaydi. Bu o'z navbatida ta'lif sifatini yomonlashishiga, korruption holatlarni kelib chiqishi va boshqa noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.



2-rasm. Masofaviy ta'lif jarayoni sodda sxemasi

Oliy ta'lif muassasalarida masofaviy ta'lif shakllarini joriy etish quyidagi avfzalliklar va yutuqlarni beradi:

- Moddiy tomondan imkoniyati cheklangan va uzoq masofadagi talabalar uchun qulay imkoniyat
- Uzoq masofada ishlayotgan talabalar uchun o'qis-dan ajralmagan holda, ortiqcha sarf xarajatlarsiz o'qish imkoniyati
- Ko'plab auditoriyalar, o'quv binolari va moddiy texnika bazasini talab etmasligi
- O'qituvchilar uchun qulay ish grafigi
- Boshqaruvni osonlashishi

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, masofaviy ta'lif texnologiyalari, ularni qo'llash, ulardan samarali foydalanish, oliy ta'lif muassasalariga joriy etish hozirgi kun, zamon va shiddatli raqarmli dunyo talabi desak ham bo'ladi. Oliy ta'lif muassasalarida masofaviy ta'lif shaklini joriy etilishi ko'plab imkoniyeti cheklangan abiturientlarga qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Bundan tas-hqari xorijiy abiturientlarni ham ko'payishiga va ularni qiziqishi ortishiga sabab bo'ladi. Oliy ta'lif muassasalarda masofaviy ta'lif shakli boshqaruvini to'g'ri tashkil etish, adolatni ta'minlash, turli byurokratik to'siqlarni olib tashlash, shaffoflikni ta'minlash, yuqori salohiyatl Professor-o'qituvchilarni ishini to'g'ri baxolash va ularni munosib rag'batlantirish kabi vazifalarni bajarishda hozirgi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda sohani raqamlashtirish talabi kundan kunga o'sib bormoqda. Shundan kelib chiqib Oliy ta'lif muassasalar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun sohani raqamli formatga o'tkazish muxim omillardan sanaladi. Bundan

ko'zlanga asosiy maqsad baribir o'zgarmaydi, ya'ni ta'lim sifatini oshirish, yuqori natijaviylik, korruption holatlarga chek qo'yish va yuqori salohiyatlari kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Masofaviy ta'lim shakli zarur yo'nalishlar

bo'yicha qabul parametrlarini hisobga olgan holda kvotalarini oshirish, to'g'ri taqsimlash va tizimli ravishda rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O'zbekistan Respublikasini yanada riyoljantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'grisida»gi F-4947-sonli Farmoni.
2. “O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son
3. O'zbekistan Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Toshkent oqshomi. 2020 yil, 25 yanvar. № 13 (14064).
4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qilish tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017
- S.S.G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologivalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Akademik S.S. G'ulomovning unuimiylah tahriri ostida. - T., «Sharq», 2000.
5. The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Sian Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education Academy. 2013.
6. <https://lex.uz/docs/-5013007>
7. www.edu.uz
8. www.dtm.uz
9. www.hemis.uz